Klaraxon Mavlonova, G‘ofir Hamroyev, Shohrux Abduraimov,
Sanobar Qo‘ldosheva, Nilufar Hakimova

Ona tili

8-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
BBK 81.2 O‘zb-922
O-58

Ona tili 8-sinf [Matn]: darslik / Klaraxon Mavlonova [va boshq.]; muharrir O. Madvaliyev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

Mas’ul muharrir:
Baxtiyor Mengliyev, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Valijon Qodirov – Andijon davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori.
Dilorom Yuldasheva – Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.
Nasiba Saydaliyeva – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi tillar kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi.
Dono Saidaxmedova – Toshkent shahri Olmazor tumani ixtisoslashtirilgan maktabining ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi.
Nasiba Rahmonova – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 300-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi.
Gulnora Yo‘lchiyeva – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi.

Shartli belgilar


Savollar


Lug‘at


Yozma javob


Og‘zaki javob


O‘qib tushunish


Test topshiriqlari


Qoidalar


Tinglab tushunish


Xattaxtada ishlash


Guruhda ishlash


Uyga vazifa


Ijodiy ish

ISBN 978-9910-584-03-9

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

I. ONA YURT 6

1-dars 7
2-dars 10
3-dars 13
4-dars 16
5-dars 18
6-dars 20
7-dars 22
8-dars 24

II. QADRIYATLAR 25

1-dars 26
2-dars 31
3-dars 33
4-dars 34
5-dars 38
6-dars 41
7-dars 43
8-dars 44

III. TIL TILSIMI 48

1-dars 49
2-dars 52
3-dars 53
4-dars 55
5-dars 56
6-dars 58
7-dars 60
Mustahkamlash 62

IV. FAN VA TEXNOLOGIYALAR 64

1-dars 65
2-dars 69
3-dars 71
4-dars 74
5-dars 76
6-dars 79
7-dars 82
8-dars 85

V. SOHA VA KASBLAR 86

1-dars 87
2-dars 90
3-dars 92
4-dars 97
5-dars 99
6-dars 101
7-dars 103
8-dars 105
9-dars 107
Mustahkamlash 109

VI. INSON VA TABIAT 110

1-dars 111
2-dars 113
3-dars 117
4-dars 121
5-dars 121
6-dars 126
7-dars 128
8-dars 130
9-dars 132

VII. SAN'AT 134

1-dars 135
2-dars 140
3-dars 142
4-dars 146
5-dars 148
6-dars 150
7-dars 153
8-dars 154
9-dars 155

VIII. SPORT VA SOG'LIK 157

1-dars 158
2-dars 162
3-dars 164
4-dars 168
5-dars 169
6-dars 173
7-dars 174
8-dars 177
Mustahkamlash 178

IX. INSON VA JAMIYAT 179

1-dars 180
2-dars 183
3-dars 184
4-dars 186
5-dars 187
6-dars 190
7-dars 191
8-dars 193
9-dars 194

X. ORZU VA IMKON 196

1-dars 197
2-dars 202
3-dars 204
4-dars 208
5-dars 211
6-dars 213
7-dars 214
8-dars 217
Mustahkamlash 221
Takrorlash 222

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



I BOB

ONA YURT



“Buloq bo‘lmasa, irmoq, irmoq bo‘lmasa, daryo yo‘q”. Sizningcha, ushbu fikrning Vatan tushunchasi bilan qanday bog‘liqligi bor?

SANGARDAK QO‘SHIG‘I



Bu bolaning o‘yindan boshqa o‘yi yo‘q edi. Maktabdan kela solib, ovqat ham yemasdan, onasining ko‘zini shamg‘alat qilib, qo‘lbola o‘q-yoy olgancha tutzorga oshiqardi. Bo‘lmaganda uchta qushning sho‘rini quritar, keyin o‘rtoqlariga qilgan “qahramonligi” haqida uzoq maqtanardi. Bir kuni chiroyli qushning ko‘zini nishonga oldi. Xayolida ming bitta o‘y. Shu payt kutilmaganda kimdir kelib qoldi. Bola o‘girilib qarasa, Olim sinfdoshining otasi ekan. Uning ko‘zlari g‘azabdan yonib shunday dedi:

– Otangga ayt, otalik qo‘lidan kelmabdi …

Bola qishloqni boshiga ko‘tarib yig‘lagancha uyi tomon chopdi. Bor gapni piqillab aytayotgandi, bir mahal otasi o‘rnidan irg‘ib turib, bog‘ tomon o‘tib ketdi. Bola: “Meni jazolaganing uchun adabingni yeysan”, – deb pichirladi. Ammo otasi qaytib kelib, uni bu ishi uchun qattiq koyidi. Bola o‘sha voqea sababini tushunib yetguncha yigirma besh yil yashadi. O‘sha tanbeh sabab qush-ku qush, chumoliga ham ozor bermaydigan bo‘lib ulg‘aydi-da.

Mening Sangardagimda “bu – sening bolang”, “bu – mening bolam” degan tushuncha yo‘q. Yaxshi bo‘lsa, boshiga ko‘taradi, sho‘x bo‘lsa, haddidan oshsa, tanbeh bilan tarbiyalab qo‘yadi.

Sangardak odamlarining dilida g‘ayrat, qo‘lida qudrat bor. Ular ko‘z ochib yumguncha toshloq joydan ham bog‘ barpo eta oladi. Bog‘ning tashvishi esa ularning sochidan-da, yuzidagi ajinidan-da ko‘p. Ammo quvonchi barchasidan bisyor.

Odamlarning bir-biriga qilgan hazillari… Deydilarki, bir to‘yda oshpazga guruch yoqmabdi.

– Bor, mening do‘konimdan ikki qop guruch olib kel. Pulini topganda berasan, – debdi oshpaz.

To‘y egasi ko‘rinishidan soddagina bo‘lsa-da, ancha pishiq ekan. Ukasini chaqirib:

– Guruchni mashinaga ortgin-u ko‘chani bir aylanib kel. Keyin oshpazga uyingizdan opkeldim, degin, – debdi. Uka akaning aytganini qiladi. Guruch xaltani ochgan oshpaz:

– Mana, bu endi guruchning zo‘ri, – deb ishni boshlab yuboribdi.

Oshpaz hammasini bilganini, lekin to‘y egasining xursandchiligi uchun qilgan hazilidan izza bo‘lmasin deb shunday deganini oradan ancha vaqt o‘tib aytganiga nima deysiz? Ha, ular hazilniyam, xizmatniyam qotiradi. Shunday bir-biriga qadrdon odamlar bilan bir tuproq ustida, ular o‘tgan ko‘chalarda yalangoyoq chopib yurgan menday bola qanday qilib ularni yaxshi ko‘rib qolmasligim, hatto saratondayam bir kunda uch mahal yomg‘ir yog‘ib, quyosh chiqadigan qishloqni qanday sevmasligim mumkin?!

t.me/rtm_metodik_xizmat

Birinchi muallimimdan “besh” baho olganimda ko‘zimdan yosh chiqib keta yozgan. Chunki bilardim – uyga borib barchadan maqtov eshitaman. Shunday ham bo‘lgan. Rosa quvonishgan. Keyin ma’lum bo‘lishicha, o‘qituvchim otamning oshnasi bo‘lgani uchun “besh”ni menga “hadya” qilgan ekan. O‘shanda ming marta “ikki” olganim a’lo edi deb o‘kinganman. Ammo endi o‘sha “besh” bahoda bir hikmat ko‘raman: odamlar senga ishonch beradi, sen esa uni oqlashing kerak. O‘sha baho sabab doim “besh” oladigan bo‘ldim. Ha, birinchi muallimim menga shunday saboq berdi: “Bugun senga qarzga baho qo‘ygan bo‘lsam-da, hech qachon maqtovni qarzga olishga o‘rganma. Hammasi o‘z o‘rnida bo‘lsin…”

Men yana nima deyin?.. Har bir odamidan tortib tog‘-toshigacha menga saboq bergan qishlog‘imni nima deb madh etayin?

... Ukam olis Toshkentni xayol qiladi. Borsam, tomosha qilsam deydi, biroq qo‘y yoki sigirning bemahalda ma’rashi xayolini bo‘lib, kompyuterni ham unutib, og‘ilxonaga yuguradi. Gohi sigir arqonidan bo‘shalgan bo‘lsa, goh biror qo‘y bolalagan bo‘ladi. Qo‘zichoqni issiqroq joyga qo‘ygan ukam endi Toshkentni xayol qilmaydi: bu qo‘zi qachon katta bo‘ladi, sal garangmi deyman, chakki bo‘ldi-da, deb xayol suradi, uyquga to‘yar-to‘ymas tong otadi. Yana tashvish va yumushlar boshlanadi. U kindik qoni to‘kilgan go‘shasini yaxshi ko‘radi. Uning muhabbatiga ta’rif yo‘q. Lekin shu qishloqqa bo‘lgan mehri bilan butun bir mamlakatni sevishga qodirligini, kerak bo‘lsa, sevayotganini bilmaydi. Bilib nima ham qildi?! Sevish ham yaxshilikdek bir gap. Yaxshilik hammaga oshkor qilinmaydi-ku!

… Qishlog‘imni yaxshi ko‘raman. Chunki u menga oshiqlikni, shaydolikni o‘rgatdi. Oshiq bo‘ldim. Kichkina qishlog‘im siymosida buyuk bir Vatanni sevdim. Sangardak ham yurtimning bir bo‘lagi, jonimning bir parchasi. Buloq bo‘lmasa, irmoq, irmoq bo‘lmasa, daryo yo‘q. Bizlar buloqlardan daryoga qo‘shilganlarmiz. Yurtimda bulog‘-u irmoqlar ko‘p. Ammo men bilgan ummon bitta – uning nomi O‘zbekiston! Bulog‘imiz qancha tiniq bo‘lsa, ummon ham shuncha tiniq bo‘ladi.

Sanjar Tursunov

1.1. Matnda ushbu so‘zlarning qaysi ma’nosi qo‘llanganini aniqlang va lug‘at daftaringizga yozing. So‘zlarni har ikki ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing.

saraton	o‘n ikki burjning biri
	shamsiya yil hisobida to‘rtinchi oyning arabcha nomi (22-iyun–21-iyulga to‘g‘ri keladi)
go‘sha	joy, maskan
	odamlar nazaridan uzoq yer, ovloq joy
siymo	shaxs, zot
	qiyofa, ko‘rinish
saboq	dars, mashg‘ulot, bilim, fan
	ibrat, o‘rnak, namuna bo‘ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa

t.me/rtm_metodik_xizmat

1. Matnda qishloq odamlarining qaysi xususiyatlari tilga olingan?
2. Nima uchun bola chumoliga ham ozor bermaydigan inson bo‘lib ulg‘aydi?
3. Muallifning oshpaz bilan bog‘liq voqeani matnga kiritishdan maqsadi nima?
4. Inson yashab turgan maskaniga bo‘lgan mehri bilan butun mamlakatni sevishga qodirligini, ammo buni o‘zi ham sezmasligini qanday izohlaysiz?

1.2. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Oshpazga berilgan sifatlarni matn asosida aniqlang. Daftaringizga bir nechta javobni belgilashingiz mumkin. Har birini matn asosida izohlang.

injiq › hazilkash › tejamkor › ishbilarmon › farosatli › pishiq › saxiy

2. Muallifning matnni yaratishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A. Sangardak qishlog‘i tabiatini tasvirlash

B. Bolaligi o‘tgan joylar, qishlog‘ini eslash

D. Vatanga bo‘lgan muhabbatini ifodalash

E. Qishlog‘idagi odamlarni ta’riflash

3. Muallif matnda fikrlarini asoslash uchun 4 ta dalil keltirgan. Ularni topib, yozing.

Yozuvchi yoki so‘zlovchi biror mavzuda fikrini ifodalar ekan, uni dalillashi (tushuntirishi, izohlashi, isbotlashi) muhim. Buning uchun iqtibos, kichik hikoya, rivoyat, she’riy misralar, maqol va shu kabilardan foydalanadi.

Masalan, yuqoridagi matnda muallif *“Sangardagimda “bu – sening bolang”, “bu – mening bolam” degan tushuncha yo‘q”* tarzidagi fikrini asoslash uchun bolaligidagi voqeani keltirgan.

1.3. Berilgan mavzularga oid fikrlaringizni iqtibos, kichik hikoya, rivoyat, she’riy misra yoki maqollardan foydalangan holda dalillang.

Ona yurt – bu ildizimiz, tariximiz, kelajagimiz	Ma’naviyat – millatni ulug‘laydigan eng muqaddas kuch
Yurtga sadoqat bilan xizmat qilgan inson xalq qalbida mangu yashaydi	Tinchlik bor joyda taraqqiyot, baxt va osoyishtalik hukm suradi

1.4. Matnning qiya yozuvda ajratib ko‘rsatilgan qismini qayta o‘qing. So‘ng quyida berilgan jumlani davom ettirib yozing va o‘qituvchingizga taqdim eting. Fikringizni ifodalashda iqtibos, hayotiy voqea va dalillardan foydalaning.

Men qishlog‘im/shahrimni yaxshi ko‘raman. Chunki…

. . . . . .

1.5. “Sangardak qo‘shig‘i” matnida qo‘llangan quyidagi iboralarni so‘zlar bilan almashtirib o‘qing. Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang.

T/R	Ibora qatnashgan gap	Ibora ma’nosiga mos so‘z	Gaplar mazmunidagi o‘zgarish
1	Maktabdan kela solib, ovqat ham yemasdan, onasining **ko‘zini shamg‘alat qilib,** qo‘lbola o‘q-yoy olgancha tutzorga oshiqardi.	***	***
2	Bo‘lmaganda uchta qushning **sho‘rini quritar,** keyin o‘rtoqlariga qilgan “qahramonligi” haqida uzoq maqtanardi.	***	***
3	Bola o‘girilib qarasa, Olim sinfdoshining otasi, **ko‘zlari g‘azabdan yonib** shunday dedi ...	***	***
4	Bola qishloqni **boshiga ko‘tarib** yig‘lagancha uyi tomon chopdi.	***	***

1.6. Matndan kelishiklarning qo‘llanishiga oid bittadan misol topib, uchinchi ustunga namunadagidek yozing.

Kelishik nomi	Qo‘shimchasi	Misollar
Bosh kelishik	-	***
Qaratqich kelishigi	*-ning*	***
Tushum kelishigi	*-ni*	*mamlakat**ni** sevish*
Jo‘nalish kelishigi	*-ga (-ka, -qa)*	***
O‘rin-payt kelishigi	*-da*	***
Chiqish kelishigi	*-dan*	***

1.7. “Sangardak qo‘shig‘i” matnidan jadvalda berilgan qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zlarni toping. Har bir qo‘shimcha bilan yasalgan uchtadan so‘z yozing.

So‘z yasovchi qo‘shimcha	Matndagi yasama so‘z	Uchta yasama so‘z
-lik	*yaxshi**lik***	*halol**lik**, shirin**lik**, attor**lik***
-zor	***	***
-li	***	***
-loq	***	***
-chilik	***	***
-iston	***	***

So‘z tarkibi asos va qo‘shimcha(lar)dan iborat.
Asos quyidagi xususiyatlarga ega:

a) so‘zning o‘zak ma’nosini ifodalaydi;

b) mustaqil qo‘llana oladi;

d) yasalish uchun asos vazifasini bajaradi.

Qo‘shimchalar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) mustaqil qo‘llana olmaydi;

b) asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no beradi;

d) so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladi.

1.8. Qo‘shimcha va ko‘makchilar bajaradigan vazifani quyidagi jadval asosida moslashtiring.

1	*yurt haqida o‘ylamoq, uy tomon ketmoq*	A	So‘zga qo‘shilib, unga qo‘shimcha ma’no yuklagan.
2	*mahallani aylanmoq, uyga qaytmoq*	B	Asosga qo‘shilib, yangi ma’no hosil qilgan.
3	*mening yurtim, sevimli mashg‘ulotingiz*	D	Bir so‘zni ikkinchi so‘zga ko‘makchi orqali bog‘lagan.
4	*gulzor, elparvar*	E	Bir so‘zni ikkinchi so‘zga egalik qo‘shimchasi orqali bog‘lagan.
5	*biz boramiz, uydan chiqaman*	F	Bir so‘zni ikkinchi so‘zga tushum va jo‘nalish kelishigi orqali bog‘lagan.
6	*odamlar, uycha*	G	Harakat orqali uning bajaruvchisini aniqlashga xizmat qilgan.

1.9. Berilgan so‘zlarga qo‘shimchalarni qo‘shib, imlo qoidalari asosida yozing.

So‘zlar	Qo‘shimcha	Hosil bo‘lgan so‘z	So‘zlar	Qo‘shimcha	Hosil bo‘lgan so‘z
yo‘lak	*-ga*	*yo‘lakka*	o‘g‘il	*-i*	*o‘g‘li*
taroq	*-im*	***	tayoq	*-ga*	***
o‘sha	*-ga*	***	bag‘ir	*-im*	***
uzay	*-dir*	***	mavzu	*-i*	***
o‘rtoq	*-ing*	***	obro‘	*-ing*	***
bek	*-ga*	***	avzo	*-i*	***
saboq	*-im*	***	chiq	*-gan*	***

1.10. Qo‘shimchalar qo‘llanishi bilan bog‘liq xatolarni to‘g‘rilab, ko‘chiring.

mahallani guzari, darsning so‘nggi, uyni tomi, so‘ngi qaror, ko‘chalarni tozalanadi, ko‘chat ekgani kelmoq, yomg‘ir yoqqanda, quyosh chiqgach, issiqgina palov, odamlar hasharda qatnashdi, o‘n nafar bolalar, ko‘pchilik qatnashdilar, kitobni o‘qilishi, gap uqdirmoq, xalq sayillari

1.11. Quyidagi so‘zlarni jadval asosida guruhlab yozing.

bilak//uzuk, tosh//oyna, uy//uyiga, baland//parvoz, ko‘z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, xom//semiz, don//dun, besh//kokil, shirin//so‘z, ich//ichidan, shu//yerga, jigar//rang, sotib//oldi, kuppa//kunduzi, shaharlar//aro, umum//davlat, o‘rin//bosar, dam//badam, ish//yoqmas, ayta//oladi, g‘ayrat//qilmoq, ko‘chama//ko‘cha, Yakka//saroy, Olti//ariq, radio//markaz, yangidan//yangi, osma//ko‘prik, to‘q//qizil, bir//muncha, bira//to‘la, gul//beor, dardi//sar, qay//kuni

Qo‘shib yoziladigan so‘zlar	Ajratib yoziladigan so‘zlar	Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar
***	***	***

Xorijlik mehmon Vataningiz haqida so‘rasa, avvalo nimalarni gapirib bergan bo‘lardingiz? Nega?

BU UYDA O‘ZBEKISTON YASHAYAPTI



Minsk shahrida bir hovli bor. Bu yerda deyarli har kuni O‘zbekiston, o‘zbek xalqi ulug‘lanadi. Odam oyog‘i uzilmaydigan bu xonadon bekasi Vasilisa bizni o‘z yaqinlari kabi ochiq va yoniq chehra bilan qarshi oldi.

Vasilisa – belorusning buyuk o‘g‘loni, ardoqli shoiri Yakub Kolasning chevarasi. Ha, angladingiz, bu dargohda ulug‘ shoir Yakub Kolas yashagan, hozir uy muzeyga aylantirilgan.

Muzeyda rizqi ro‘z bilan qarshi olishdi, kechki taomga dasturxon tuzashdi, o‘zimizning ko‘k choydan damlashdi. Kelishimiz oldidan Belarus TV hamda bir qancha OAV vakillari hozir bo‘lishgandi. Safimizda Rossiya, Qozog‘iston va boshqa o‘lkalarning adiblari ham bor edi.

Choydan so‘ng chevara qiz Vasilisa bizni muzey bilan, shoir hayoti bilan tanishtirdi. Ishonavering, bir soatdan ko‘proq vaqt davomida mezbonimiz minnatdorlik ila har ikki gapning birida O‘zbekiston haqida, o‘zbeklar haqida to‘lqinlanib, ayrim hollarda ko‘zlari tubida yosh aylanib gapirdi. Chunki ulug‘ shoir yashagan uyning qay bir xonasiga kirmaylik, o‘sha yerda O‘zbekistonimiz bilan bog‘liq biror hodisa, shoir hayotida o‘chmas iz qoldirgan voqea tilga olinadi.

Shoir Ikkinchi jahon urushi davrida ikki yil Toshkentda yashagan. Yakub Kolasga Toshkent boshpana bo‘lgan, o‘zbeklar unga mehr ko‘rsatgan. “Chimyon”, “Salor”, “Quyoshning botishi” kabi she’rlarini shu yerda yozgan, kitoblari chop etilgan. Eng muhimi, bag‘ri keng, mehribon xalqimning mehrini tuygan, boshiga ish tushgan insonga tayanch-u suyanch bo‘la oladigan, yaxshiligini minnat qilishni or biladigan oqibatli odamlarning mardligini his qilgan.

Boshlovchi qizimiz Vasilisa biz kelganimiz uchun O‘zbekistonga, o‘zbeklarga ataylab urg‘u berib gapirayotganmikan degan gumonga ham bordim. Biroq o‘sha zahoti uning ko‘zlari tubidagi yosh mavjlarini ko‘rib, xayolimga kelgan o‘ydan uyalib ketdim. Chunki bu uydagi eksponatlar, kitoblar, she’rlar, o‘zbek adiblarining suratlari, monitorda aks etib turgan manzaralar, hatto milliy bosh kiyimimiz, o‘sha davrning kosaga o‘xshab ketadigan shopiyolasi… bari-bari O‘zbekistonni eslatib tursa-yu, qanday qilib O‘zbekiston haqida gapirmaslik mumkin?

Vasilisa tanishtiruv so‘ngida bir gapni aytdi: “O‘sha yillarda bobomning vujudi Toshkentda, biroq qalbi Belarusda qolgan edi… Lekin qaytib kelib, o‘z uyida yashay boshlagach, endi uning qalbi, ruhi Toshkentga ko‘chgandi. U urushdan keyingi yillardan umrining so‘nggi kunlarigacha O‘zbekiston va o‘zbeklar yodi bilan yashadi. Demak, bu yer Sizning ham uyingizdir. Kelib tursangiz, o‘zimning o‘zbeklarim keldi deb bobomning ruhi shod bo‘ladi…”

Men g‘ururlanib ketdim. Ko‘zimga yosh qalqdi. Chindan ham bu xonadonda O‘zbekiston yashayotgani, dov-daraxtlar bilan o‘ralgan sokin uy timsolida mehribon Vatanim va xalqimga mangu haykal qo‘yilganini his qildim. O‘zbeklarning “Bir kun tuz totgan yeringga qirq kun salom

ber” degan o‘gitini beloruslar birovdan yaxshilik ko‘rsang, bir umr unutma, deb talqin qilisharkan.



O‘z qadrdonlarimiz bilan xayrlashar chog‘da yonimdagi moskvalik va qozog‘istonlik, yana qayerdandir kelgan adiblarning bizga endi boshqacha, mehri iyib qarayotganini sezib, g‘ururlandim. Bu tuyg‘uni birgina men emas, hamrohlarim – shoirlar Salim Ashur, Sirojiddin Rauf, Nikolay Ilyin, navoiyshunos olimimiz Olimjon Davlatov ham his qilishdi.

Mashinaga chiqayotib beixtiyor ortga yuzlandim. Uy egalari xuddi o‘z aka-ukalarini safarga kuzatayotgan kabi qo‘l silkitishyapti. Uy ham biroz mung‘ayib, yana kelinglar, deb iltijo qilayotganga o‘xshaydi. Ko‘nglimdan “Biz yana kelamiz, qadrdonlar! Ey oq kemaday oppoq uy, axir sen bizga chin o‘zbeklik haqida so‘zlayapsan-ku, albatta kelib turishimiz kerak ekan…” degan o‘y kechdi.

Qo‘chqor Norqobil

1.12. Quyidagi so‘zlarning matnda ifodalagan ma’nosini aniqlang va daftaringizga yozing.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
mavj	***	***
chevara	***	***
eksponat	***	***
shopiyola	***	***

1.13. Matnda ishtirok etgan ushbu so‘zlarning ma’nodoshlarini jadvaldan topib, yozing.

monitor, birov, iltijo, tuyg‘u, sherik, gumon, mangu, qalb

K	S	I	O‘	T	I	N	Ch	K
E	A	L	L	A	K	I	M	O‘
Ch	O	K	Y	O	T	I	E	ng
I	Y	O	S	D	A	M	K	I
N	Sh	U	B	H	A	L	R	L
M	K	L	H	A	T	K	A	I
A	B	H	A	M	K	O	R	D
Z	T	Q	A	B	A	D	I	Y

1. Vasilisaning O‘zbekiston haqida to‘lqinlanib, ayrim paytda ko‘zlari tubida yosh aylanib gapirishining sababi nima?
2. Muallif nima uchun avval Vasilisaning so‘zlari samimiy ekaniga shubhalandi?
3. Hikoya so‘ngida rossiyalik, qozog‘istonlik mehmonlarda o‘zbek xalqiga nisbatan qanday fikr paydo bo‘ldi? Nima uchun?
4. *“Bir kun tuz totgan yeringga qirq kun salom ber”* maqolini izohlang.
5. Muallif matnga nima uchun shunday sarlavha tanlagan? Javobingizni izohlang.

1.14. Matn asosida topshiriqlarni bajaring. Javoblaringizni izohlang.

1. Muallif fikrini dalillashga xizmat qilgan jumla qaysi?

A. Ey oq kemaday oppoq uy, axir sen bizga chin o‘zbeklik haqida so‘zlayapsan-ku, albatta kelib turishimiz kerak ekan…

B. Ishonavering, bir soatdan ko‘proq vaqt davomida mezbonimiz minnatdorlik ila har ikki gapning birida O‘zbekiston haqida, o‘zbeklar haqida to‘lqinlanib, ayrim hollarda ko‘zlari tubida yosh aylanib gapirdi.

D. Chunki ulug‘ shoir yashagan uyning qay bir xonasiga kirmaylik, o‘sha yerda O‘zbekistonimiz bilan bog‘liq biror hodisa, shoir hayotida o‘chmas iz qoldirgan voqea tilga olinadi.

E. Chindan ham bu xonadonda O‘zbekiston yashayotgani, dov-daraxtlar bilan o‘ralgan sokin uy timsolida mehribon Vatanim va xalqimga mangu haykal qo‘yilganini his qildim.

2. Qaysi qatordagi javobning axborot berish darajasi yuqori?

A. Bu yerda deyarli har kuni O‘zbekiston, o‘zbek xalqi ulug‘lanadi. Odam oyog‘i uzilmaydigan bu xonadon bekasi Vasilisa bizni o‘z og‘alari kabi ochiq va yoniq chehra bilan qarshi oldi.

B. Vasilisa – belorusning buyuk o‘g‘loni, ardoqli shoir Yakub Kolasning chevarasi. Ha, angladingiz, bu dargohda ulug‘ shoir Yakub Kolas yashagan. Hozir uy muzeyga aylantirilgan.

D. Biroq o‘sha zahoti uning ko‘zlari tubidagi yosh mavjlarini ko‘rib, xayolimga kelgan o‘ydan uyalib ketdim.

E. Chindan ham bu xonadonda O‘zbekiston yashayotgani, dov-daraxtlar bilan o‘ralgan sokin uy timsolida mehribon Vatanim va xalqimga mangu haykal qo‘yilganini his qildim.

3. Matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Hukmlar	T/N
1	Vasilisaning bobosi belorusning buyuk adibi bo‘lgan.	***
2	Yakub Kolas umrining oxirigacha O‘zbekistonda yashagan.	***
3	Muallif o‘zbek va belorus xalqining hikmatli so‘zini qiyoslagan.	***
4	Shoir uy muzeyini ta’riflashda suv bilan bog‘liq o‘xshatish qo‘llagan.	***

1.15. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda sinfdoshingiz uchun uchta savol tuzing. Undan ushbu savollarga javob berishini so‘rang.

Namuna: *Mehmonlarni kutib olishiga ko‘ra, Vasilisaga qanday baho berish mumkin?*

1.16. Shoir Yakub Kolas O‘zbekistonga mehr qo‘yishining 4 ta sababini yozing.

1.17. Chap ustundagi jumlalarni o‘ng ustundagi mos iqtiboslar bilan boyitib, qayta yozing. Diqqat, bitta iqtibos ortiqcha! Unga mos gap yozing.

1	Shahar aholisi hamisha toza, musaffo havoga intilib yashaydi. Toza ko‘chalarda yurgimiz keladi, tabiatning ko‘kalamzor, so‘lim go‘shalariga talpinamiz.	Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas, Yurt qo‘riganning yurti buzilmas. *(Maqol)*
2	Salom berish, qo‘l berib so‘rashish, salomga alik olish, ro‘baro‘ kelganda insonlarga tinchlik-xotirjamlik tilash go‘zal odatlarimizdan biridir.	Til bilgan el biladi. *(Maqol)*
3	Qaysi fanga nazar solmaylik, uning zamirida matematika mujassam.	Toza havo – tanga davo. *(Maqol)*
4	Yoshlarga xorijiy tillarni mukammal o‘rganish, turli sohalar bo‘yicha bilim olishdan chekinmaslikni maslahat bergan bo‘lardim.	Salom berishni keng yoyinglar – bir-birlaringizga muhabbatingiz ziyoda bo‘ladi. *(Hadis)*
5	***	Matematika – fanlar ichra shoh, Uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh. *(Qori Niyoziy)*

1.18. Ikkala ustundagi so‘zlarni o‘zaro bog‘lab birikmalar hosil qiling. Bunda qanday vositalardan foydalandingiz? Izohlang.

Vatan		poytaxti
O‘zbekiston		jon fido etmoq
g‘urur		madh etmoq
yurt		tilga olmoq

So‘zlar quyidagi vositalar yordamida birikadi:

a) ohang: *kichkina qishloq, issiqroq joy*;

b) kelishik qo‘shimchalari: *odamlar**ning** mardligi, daryo**ga** qo‘shilmoq;*

d) ko‘makchilar: *O‘zbekiston **haqida** gapirmoq, uyi **tomon** chopmoq*.

Ba’zan kelishik qo‘shimchasidan anglashilgan ma’no ko‘makchi bilan ham ifodalanadi: *yurt**ni** kuylamoq – yurt **haqida** kuylamoq*, *singlim**ga** oldim – singlim **uchun** oldim*.

1.19. Har bir gapdan ikkitadan so‘zni yuqoridagi qoida asosida o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan ko‘chiring.

1. Odam oyog‘i uzilmaydigan bu xonadon bekasi Vasilisa bizni o‘z yaqinlari kabi ochiq va yoniq chehra bilan qarshi oldi.
2. Ishonavering, bir soatdan ko‘proq vaqt davomida mezbonimiz minnatdorlik ila har ikki gapning birida O‘zbekiston haqida, o‘zbeklar haqida to‘lqinlanib, ayrim hollarda ko‘zlari tubida yosh aylanib gapirdi.
3. Biroq o‘sha zahoti uning ko‘zlari tubidagi yosh mavjlarini ko‘rib, xayolimga kelgan o‘ydan uyalib ketdim.
4. Lekin qaytib kelib, o‘z uyida yashay boshlagach, endi uning qalbi, ruhi Toshkentga ko‘chgandi.

1.20. So‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qilayotgan qo‘shimchalarni qaysi ko‘makchilar bilan almashtirish mumkinligini aniqlang, birikmalarni qaytadan yozing.

Namuna: *telegramdan jo‘natmoq / telegram orqali jo‘natmoq*

qalamda yozmoq, ukamga sotib olmoq, maktabga ketmoq, bolalikdagi xotiralardan so‘zlab bermoq, telefondan so‘rab bilmoq, Toshkentga uchmoq, bolalarga tayyorlamoq, shaharni kezmoq, hovlidan o‘tkazmoq

1.21. Berilgan jumlalarni namuna asosida tahrirlab yozing.

Namuna: *Ko‘chalar**ning** biri**ning** nomi o‘zgartirildi. / Ko‘chalar**dan** biri**ning** nomi o‘zgartirildi.*

1. O‘quvchilarning birining natijasi juda yuqori chiqdi.
2. Xayolingga kelgan g‘oyalarning yozib olishni odat qil.
3. Birinchi galda maqsadni to‘g‘ri qo‘yilishi kerak.
4. Do‘stim bilan kutubxonaga bordim va bittadan hikoya o‘qidik.
5. Sotib olingan kitoblarni tez orada o‘qib chiqiladi.

1.22. Bo‘sh o‘rinlarni mos qo‘shimcha va ko‘makchilar bilan to‘ldirib ko‘chiring.

Uch-to‘rt yasharlik paytlarim… es-es xotirlayman. Dadam yelkasi… o‘tqazib Chorsu guzari… olib chiqardi. Tuyalar… ko‘rardim. Karvonsaroylar… odamlar kuymalanib yurishardi.

Ko‘klam, yoz, kech kuzgacha Toshkent shimoli… yastangan Teshikqopqoqdagi bog‘imiz… turamiz. Bog‘… oxiri ko‘rinmaydi. Daraxtlar nihoyatda ulkan va quyuq. Uzun tol og‘ochlari… egma qurilgan uzum ishkomlari, bilmayman, qayerlargacha cho‘zilib ketgan. Bog‘imiz ser-shovqin Qichqiriq soygacha cho‘zilib boradi, keyin quyuq chakalakzorlar, do‘lanazorlar… tuta-shib ketadi. Bu do‘lanazorlar bahor… gullagan… qalin qor bosganday oppoq hurpayadi, biz ko‘chib kelar mahalda. Keyin qish boshlanganda mayda mevalari qip-qizil anvoyi tus… kiradi. Do‘lanalar boshi… qish bo‘yi qarg‘a-quzg‘un, qish… qushlari arimaydi. Qichqiriq soyi esa besh-o‘n quloch past… pishqirib, uvvos solib chakalakzorlar oralab buralib-buralib oqadi. Ayniqsa, ke-chalari u… uvullashlari odam… ko‘ngli… vahima soladi va uzoqlar… eshitiladi. Shu ovozi … bu ajib soy… nomi xalq …da Qichqiriq bo‘lib ketgan.

Ibrohim G‘afurov

1.23. O‘zingizga tanish ko‘cha, mahalla, qishloq, shahar va tuman nomlari ro‘y-xatini tuzing. Yashash joyingizni tasvirlab, matn yozing.

1. Xotirjamlik nima? Erkinlik-chi? Ular insonga qanchalik zarur?
2. Kishi qanday vaziyatlarda o‘zini xotirjam va erkin his qila oladi?

1.24. Abdulla Oripovning “Vatan” she’rini tinglang va savollarga javob bering.

VATAN 1

1.25. Audiomatndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Qaysi so‘zning izohi berilmaganini topib, uning ma’nosini ayting.

mor	moddiy jihatdan nochor, kambag‘al, qashshoq, muhtoj
muxammas	birovning g‘am-qayg‘usini yengillatuvchi kishi, g‘amxo‘r, mehribon
nadomat	ajratib bo‘lmaydigan darajada o‘xshash, aynan, xuddi o‘zi
kas	parishonxotir, xayolchan, o‘zini unutgan holda
faqir	murojaat yoki xitobni bildiruvchi so‘z: ey
g‘amguzor	odam, kishi

baayni	besh misradan tuzilgan, o‘ziga xos qofiyalanishga ega bir necha banddan iborat she’riy janrlardan biri
faromush	sudralib yuruvchi hayvon, ilon
ayo	***

1. *“Bandi bulbul”* va *“Vatandan ayro ko‘ngil”* o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. *“Bobolar kechmishin hargiz faromush aylamang...”* misrasi orqali shoir nima demoqchi? Fikringizni asoslang.
3. She’rning uchinchi bandini qayta tinglang. Inson qachon yoki qay holatda o‘zini “vatansiz” deb hisoblaydi?
4. “*Vatan deb jo‘sh urar ersa, ko‘targum boshima xasni”* misrasi orqali shoir nima demoqchi bo‘lgan?

1.26. She’r misralari va badiiy uslubga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring. Diqqat, bitta xususiyatga bir necha parcha mos kelishi mumkin.

1. O‘xshatishdan foydalanilgan.	**A.** Haqiqat tongi otganda ani tush aylamang, do‘stlar ...
2. Ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llangan.	**B.** Demishlar: mor-u qushni bir qafasda asratib bo‘lmas ...
3. Hikmatli so‘z qo‘llangan.	**D.** Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g‘amguzorim bor ...
4. Bo‘yoqdor so‘z qo‘llangan.	**E.** Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas ...
5. Tarixiy so‘zdan foydalanilgan.	**F.** Faqir bo‘lsam-da, bor yurtim – toj-u taxtim, borar joyim ...

1.27. 3-bandning nasriy bayonini o‘qing. Yetakchi g‘oya va yordamchi fikrlarni izohlang.

Nadomat birla boqg‘ayman vatansizlarga har doim, *Egib boshini zor yig‘lar, agarchi davlati qoyim,* *Faqir bo‘lsam-da, bor yurtim – toj-u taxtim, borar joyim.* *Vatandan ayri ko‘ngilni, bilingki, yayratib bo‘lmas,* *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*	**Yetakchi g‘oya:** qafasdagi bulbul chamansiz o‘zini erkin va xotirjam his qilmaganidek vatandan yiroq bo‘lgan inson ham hech qachon yayrab yashay olmaydi, o‘zini baxtli his qilmaydi. **Yordamchi fikrlar:** ushbu misralar orqali shoir: “Men vatansizlarga doim nadomat ko‘zi bilan qarayman. Chunki har qancha boylikka ega bo‘lsalar-da, ularning ko‘ngillari ezilib, qalblari xotirjamlikni his qilmaydi. Ulardek boy bo‘lmasam-da, mening vatanim bor. Ana shu yurt mening boyligim, toj-u taxtimdir”, demoqchi.

1.28. She’rning 5-bandini qayta tinglang va nasriy bayonini yozing. Yetakchi g‘oya va yordamchi fikrlarni izohlang.

2

1.29. Vatan haqidagi fikrlaringizni “Ona yurtim – O‘zbekiston!” mavzusidagi ijodiy ish orqali ifodalashga tayyorlaning. Quyidagi yo‘riqnomadan foydalaning.

- internet hamda bosma nashrlar (kitob, jurnal, ko‘rgazmali vositalar)dagi materiallar bilan tanishing;
- fikrlaringizni turli shaklda: video, audio, fotosuratlar jamlanmasi, rasm, chellenj yoki boshqa usullar yordamida ifodalashga tayyorlaning;
- tayyorlagan materialingizda jonli og‘zaki nutq (o‘z nutqingiz) mavjudligiga e’tibor qarating;
- ijodiy ish taqdimotiga tayyorlaning.

1.30. Quyidagi so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab birikmalar tuzing.

avlod	baham	tug‘ilmoq	barra	atrof
qadam	to‘fon	ulkan	tuyoq	ummon

Kundalik hayotda yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘z qo‘llanaversa, so‘zlar soni ortib ketib, ularni xotirada saqlash qiyinlashar edi. Shuning uchun ham tilda ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlarga yangi ma’nolar yuklanadi.

So‘zning nutqdan tashqarida, ya’ni erkin holda ifodalagan ma’nosi **o‘z (bosh) ma’no** hisoblanadi: *tog‘ cho‘qqisi*. Bosh ma’nodan o‘sib chiqadigan, nutq jarayonida namoyon bo‘ladigan ma’no esa **ko‘chma ma’no** hisoblanadi: *muvaffaqiyat cho‘qqisi*.

Ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nosini bilish va ulardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchan, ifodali bo‘lishiga yordam beradi.

1.31. Gaplarni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi ma’noda kelganini aniqlang. O‘z ma’nosida kelgan so‘zlarni ko‘chma ma’noda, ko‘chma ma’noda kelgan so‘zlarni esa o‘z ma’nosida qo‘llab 8 ta gap yozing.

T/R	Gaplar	O‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’no
1	Ko‘chamiz **bosh**idan tramvay aylanib, Ko‘kcha tomonga chiyillab, g‘iyqillab o‘tib ketardi. *(Ibrohim G‘afurov)*	***	***

2	Bu qishloqning suvi toza, **zamin**i unumli, havosi yoqimli, dehqonlarining qo‘li barakali ekan. *(G‘afur G‘ulom)*	***	***
3	Bizning **eshik**ka ham kirib o‘tinglar. *(Suhbatdan)*	***	***
4	Erkinlikning **ildiz**lari ma’rifatdan suv ichadi. *(Eshqobil Shukur)*	***	***
5	**Tuproq** olsang, oltin bo‘lsin. (*So‘zlashuvdan)*	***	***
6	Hovlidan kimningdir **qattiq** ovozi eshitildi. (*So‘zlashuvdan)*	***	***
7	Quyosh ufqqa **yonboshladi**, daraxtlarning soyasi kunchiqarga qarab **cho‘zildi**. *(Shukur Xolmirzayev)*	***	***
8	Quyosh **g‘ubor**siz ko‘kda taltayib porlar edi. *(Oybek)*	***	***

1.32. Gaplarda ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna: *Bo‘ri polvon **davradan** xursand – Bo‘ri polvon davradagi odamlardan xursand.*

1. Bu yil o‘n beshga kiraman.
2. “Sohibqiron”ni o‘qiyapman.
3. Otdan tushmasdan otasinikiga yo‘l oldi.
4. Majlis qaror qiladi.
5. Dasturxonga qand-qurs, quyuq-suyuq tortildi.

1.33. O‘z ma’nosida kelgan birikmalarni bir ustunga, ko‘chma ma’noda kelganlarini esa ikkinchi ustunga yozing.

Navoiyni o‘qimoq, eshik ochmoq, tomdan tushmoq, mansabdan tushmoq, paypoq to‘qimoq, maslahat qilmoq, hikoyani o‘qimoq, tarix darsi, gapni cho‘zmoq, yumshoq non, qo‘shni dala, iliq suhbat, yumshoq fe’lli, shirin orzu, qo‘shni odam, iliq suv, lag‘monni cho‘zmoq, maslahat solmoq, hayot darsi, ko‘ngil ochmoq, gap to‘qimoq

1.34. Sinfdoshingiz bilan 1.33-topshiriqdagi so‘zlarni har ikki ma’noda qo‘llab gap tuzing. Ushbu topshiriqni musobaqa shaklida bajarishingiz mumkin.


1.35. “Ona yurtim – O‘zbekiston!” mavzusidagi ijodiy topshiriqni bajarishda davom eting.

1.36. Tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib so‘zlarni talaffuz qiling. Ularni xattaxtaga yozing.


respu…lika	ajdo…	far...von
dem…kratiya	k...nstitutsiya	…udud
fuq…ro	isloh...t	q…mita

1.37. *Stat.uz* saytidan olingan infografikalar bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring.

I



II



1.38. Infografikalar asosida quyidagi hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Ikkala infografikani umumlashtirib turuvchi jihat mavjud.
2. Ikkala yilda ham doimiy aholi soni bir xil bo‘lgan.
3. Infografikalarda ikki yillik demografik holatga oid to‘liq statistika aks etgan.
4. 2023-yilda tuzilgan nikohlar soni keyingi yilga nisbatan kam.
5. 2024-yilda tug‘ilishlar soni oldingi yildagiga nisbatan kamaygan.
6. Aholi o‘sishi dinamikasi 2024-yilda pasaygan.
7. 2023- va 2024-yilda shahar va qishloqda yashovchilar ulushida farq bor.
8. Ikkala yilda doimiy aholi ulushida erkaklar va ayollar foizi o‘zgarmasa-da, ular sonida farq bo‘lgan.
9. 2023-yilda vafot etganlar soni keyingi yildagidan ko‘p ko‘rsatilganiga 2024-yildagi statistikada yillik ko‘rsatkich qamrab olinmagani sabab bo‘lgan.
10. 2023-yilda erkaklar ayollarga nisbatan kam vafot etgan.

1.39. Yuqoridagi to‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanib O‘zbekiston Respublikasining 2023-yildagi demografik holati haqida axborot matni yozing.

1.40. Infografika bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring.

Vatanim taraqqiyotida mening hissam

Tanlov e’lon qilinmoqda!

O‘tkazilish vaqti:
2025-yil noyabr – dekabr

Ishtirokchilar:
15 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar

Yo‘nalishlar

1. **Adabiyot va publitsistika**
2. **Milliy maqom va milliy estrada**
3. **Tasviriy va amaliy san’at**

Arizalarni qabul qilish muddati:
shu yilning 10-noyabrigacha

Ariza topshirish: tanlov.uz

Vatan taraqqiyotiga o‘z hissangizni qo‘shing!

1.41. Infografika asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Infografika qanday boshlanishi kerak deb o‘ylaysiz? Taklifingizni yozing.

2. Quyidagi ramziy belgilardan infografikadagi qaysi ma’lumotlarni taqdim etishda foydalanish mumkin.

A.  B.  D. 

3. Infografikaning  *qismini yana qanday ifodalash mumkin? Taklifingizni yozing.*


1.42. “Ona yurtim – O‘zbekiston!” mavzusidagi ijodiy ish taqdimotiga tayyorlaning.

1.43. “Ona yurtim – O‘zbekiston!” mavzusida tayyorlab kelgan uy ishingizni taqdim qiling.

1.44. Sinfdoshlaringiz tayyorlagan ijodiy ishlardan biriga qisqa sharh yozing hamda taqdimot muallifiga topshiring.

1.45. Vatan haqidagi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni topib, alifbo tartibida namunadagidek yozing.

Namuna: ***a****jdod,* ***b****olalik,* ***d****o‘stlik***...**



1.46. Oldingi topshiriqda yozgan so‘zlaringizni qatnashtirib “Vatan taraqqiyotida mening hissam” mavzusida 200–300 so‘zdan iborat matn yarating. Matnda foydalanilgan ko‘chma ma’noli so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

II BOB

QADRIYATLAR




Milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida nimalarni bilasiz? Ularning shaxs va jamiyat rivojidagi ahamiyati qanday?

.....







1

Qadriyat nima? Shu chog‘ga qadar olim-u mutaxassislar qadriyat tushunchasiga turlicha ta’rif berishgan. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

“Qadriyat deganda insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan, ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuyini tushunmog‘imiz lozim”.

“Qadriyat – jamiyatda obro‘, e’tibor, hurmat, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi”.

“Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”.

“Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”.

2

Bu ta’riflardan qadriyat – biz uchun qadrli bo‘lgan urf-odat va an’analarimiz, hayotiy prinsiplarimiz deb xulosa qilish mumkin. Qadriyatlar milliy va umuminsoniyga bo‘linadi, ya’ni ma’lum bir millat, xalq uchun xos bo‘lganlari milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo‘lganlari esa umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

3

Milliy qadriyatlarni ham mohiyatiga ko‘ra tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qadriyatlarga ajratish mumkin. Ko‘pchilik mutaxassislar insonning o‘zini, hayotini, huquqi va erkini, sog‘lom hamda farovon turmushini qadriyatlarning eng oliysi deb hisoblaydi.

4

Qadriyatlar nima uchun kerak? U o‘tmishni bugun bilan bog‘lab, kelajakka dadil qadam qo‘yishning muhim omili. Qadriyat – millatidan qat’i nazar, mamlakat xalqini jipslashtirish va

yagona kuch sifatida birlashtirish vositasi. Demak, jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog‘liq. Qadriyatlarni belgilash va targ‘ib qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni ham shu bilan izohlash mumkin.

5

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qadriyatlarimiz o‘z aksini topgan. Buni bunyodkorlik g‘oyalariga sodiqlik, yuksak mas’uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlari va an’analari, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, vijdon erkinligi, adolatli mehnat kabi tamoyillar misolida ko‘rish mumkin. Konstitutsiyada belgilangan moddalarning hayotdagi ijrosini ta’minlash uchun unda aks ettirilgan g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash lozim. Buning uchun qadriyatlar bir-biriga mos tushishi kerak.

6

Dunyoda har bir millat va xalq o‘zligini anglashi, asrashi va sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma’naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e’tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz sifatida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz.

Ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda barakat, ona tiliga hurmat, diniy bag‘rikenglik, so‘z erkinligi, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo‘stlik, rozi-rizolik.

Albatta, ushbu qadriyatlar ro‘yxatini tugal deyish o‘rinsiz. Uni takomillashtirish uchun keng jamoatchilikning ham takliflari inobatga olinishi zarur. Ro‘yxat muhokama va tahlillar, milliy maslahat orqali qancha tez aniqlansa, shuncha yaxshi. Muhimi – dastlabki qadamni qo‘yish.

Umid Obidxo‘jayev

2.1. Berilgan izohlarga mos keluvchi so‘zlarni aniqlab, yozing.

Sh A T Y A B I R A

*	*	*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** insoniyat, kishilik, insonlar

P V A R A I S O N R N

*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** odamlarga g‘amxo‘r, ularni sevuvchi, insoniy maqsadlarni ko‘zlovchi kishiga xos sifat

B G‘ A NG K E I R

*	*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** masalaga keng ko‘lamda qarovchi, ochiq ko‘ngilli

K L I O Z T A

*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** ozoda, toza holat

H M E M N O D O‘ T S

*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** mehmonni, mehmon kutishni yaxshi ko‘ruvchi kishiga xos sifat

Y K L E A D Sh O

*	*	*	*	*	*	*	*	**Izoh:** ishda, mehnatda yonma-yon turuvchi, bir g‘oya yoki maqsad uchun birgalashib harakat qiluvchi

1. Matnda qadriyat tushunchasining bir nechta ta’rifini keltirishdan ko‘zlangan maqsadni tushuntirishga harakat qiling.
2. Qanday qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritish mumkin?
3. Konstitutsiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi nimani anglatadi? Buning qanday sabablari bor?
4. Matn uchun tanlangan rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday qadriyatlar aks etgan? Quyida berilgan qadriyatlarni ifodalashda qanday tasvirlardan foydalanish ma’qul ekani haqida o‘ylab ko‘ring. Takliflaringiz bilan bo‘lishing.

kattalarga hurmat | oilaparvarlik | tejamkorlik

2.2. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Qadriyat tushunchasiga berilgan ta’riflarni qayta o‘qing. Ularni birlashtirib turuvchi hamda o‘zaro farqlovchi jihatlarni yozing.

Umumiy mazmun	Farqlovchi jihatlar
***	***

2. Quyida qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq xulosalar keltirilgan. Matn mazmuni asosida ularning qay biri to‘g‘ri ekanini aniqlang. Noto‘g‘ri deb topgan javoblaringizni izohlang.

Xulosalar	T/N
Qadriyatlar elatlar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qilishi zarur.	***
Odam qadriyatlari orqali jamiyatda obro‘, e’tibor va hurmatga sazovor bo‘ladi.	***
Olamdagi voqea, hodisa va jarayonlarga xos bo‘lgan qoidalarning qadrini ifodalash uchun qadriyat tushunchasidan foydalanamiz.	***
Qadriyatlar voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini anglashimiz uchun juda zarur.	***
Qadriyatlar har bir millat va xalq o‘zligini anglashi, asrashi va sha’nini ulug‘lashida yordamchi vosita sanaladi.	***

3. Matn qismlariga kichik sarlavhalarni moslashtiring, nom berilmagan qismlarga o‘zingiz nom tanlang.

1.	A	Milliy qadriyatlar ro‘yxati
2.	B	Qadriyat – biz uchun qadrli urf-odat va an’analar yig‘indisi
3.	D	Qadriyat tushunchasi va unga berilgan ta’riflar
4.	E	Qadriyatlarning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati
5.	F	***
6.	G	***

4. Xalqning milliy qadriyatlari ro‘yxatini shakllantirishdan ko‘zlangan maqsad qaysi?

A. Milliy qadriyatlar xalqning butun jahonga mashhur bo‘lishiga, tanilishiga yordam beruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi.

B. Millatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va do‘stona munosabatlarda milliy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega.

D. Xalq va elatlarning o‘zaro hamjihatligini ta’minlashda, mamlakatlar o‘rtasida tinchlik hukm surishida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyos.

E. Qadriyatlar har bir millat va xalq o‘zligini anglashi, asrashi, sha’nini ulug‘lashida muhimdir.

5. Matnda milliy qadriyatlar ro‘yxatini shakllantirishda qaysi jihatlarni hisobga olish muhim ekani ta’kidlanadi?

- xalqning tarixi
- hudud tabiati
- hayotiy qarashlar
- e’tiqod
- ma’naviy meros
- turmush tarzi
- moddiy ehtiyojlar

6. Matnning 4-qismidagi asosiy fikr qaysi javobda berilgan?

A. Har bir millat va xalq o‘zligini anglashi, asrashi va sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos.

B. Qadriyat – millatidan qat’i nazar, mamlakat xalqini jipslashtirish va yagona kuch sifatida birlashtirish vositasi.

D. Qadriyatlar o‘tmishni bugun bilan bog‘lab, kelajakka dadil qadam qo‘yishning muhim omili.

E. Jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog‘liq.

7. Yuqoridagi masalaning muhokama uchun qo‘yilish sababi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A. Muallif atrofdagilarning munosabatini bilish orqali milliy qadriyatlarimiz ro‘yxatini yanada takomillashtirishni istagan.

B. Muallif ahamiyati yo‘qolib borayotgan qadriyatlarning muhimligini eslatmoqchi bo‘lgan.

D. Muallif milliy qadriyatlar mavzusidagi fikriga boshqalarning munosabatini bilmoqchi bo‘lgan.

E. Muallif ushbu maqola ko‘pchilikka yetib borishini va bu orqali jamoatchilik e’tiboriga tushishni istagan.

2.3. Matnning 5-qismidagi asosiy va yordamchi fikrlarni ajratib ko‘chiring.

2.4. Sarlavhalar bilan tanishing. Matn muallifiga ular ichidan eng mosini tanlashga yordam bering. Tanlovingiz sababini tushuntiring. O‘z taklifingizni berishingiz ham mumkin.

Qadriyat nima? Milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Milliy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati

O‘zbek xalqiga xos milliy qadriyatlar ro‘yxatini shakllantirish masalasi

***

2.5. Muallif o‘zi taklif etgan qadriyatlar ro‘yxatiga nisbatan jamiyat a’zolarining fikrini bilmoqchi. Boshqa davlatlarda shakllantirilgan qadriyatlar ro‘yxati bilan tanishing. Ularni taklif etilayotgan qadriyatlar ro‘yxati bilan taqqoslang va shu asosda yuqoridagi maqolaga munosabatingizni yozing. Unda quyidagi savollarga javob berilganiga e’tibor qarating.

AQSH	Daniya	Buyuk Britaniya
mustaqillik	jamiyat farovonligi	demokratiya
tenglik	ozodlik	qonun ustuvorligi
individuallik	ishonch	hurmat
demokratiya	qonun oldida tenglik	bag‘rikenglik
millatparvarlik	gender tengligi	shaxsiy erkinlik
to‘g‘rilik	ona tiliga hurmat	
innovatsiya	erkinlik/tolerantlik	
vaqtdan unumli foydalanish	xyug (xotirjam muhitda suhbat qurishning o‘ziga xos vositasi)	

oyina.uz

1. Taklif etilgan qadriyatlar ro‘yxati sizga ma’qulmi?
2. Ularga yana qanday qo‘shimchalar kiritish mumkin?
3. Siz taklif etayotgan qadriyatning millat sha’ni va qadr-qimmatini yuksaltirishdagi ahamiyati qanday?

2.6. Qadriyatlar haqidagi maqolaga ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan munosabatlar bilan tanishing.

T **Temur_90**
Zo‘r maqola bo‘libdi.
14-noyabr 10:15

A **Anvarova Aziza 1203**
Qadriyatlar ro‘yxatini hech qachon qat’iy belgilab bo‘lmaydi. Chunki ular doim o‘zgaruvchan bo‘ladi.
14-noyabr 10:15

D **D I L SH O D A 85**
Millat va jamiyatning kelajagi ko‘p jihatdan milliy qadriyatlarning e’zozlanishiga bog‘liq. Qadriyatlari qadrlangan yurtning xalqi ham qadr topadi. Aynan mana shu masala maktablarda, ilm dargohlari, televideniyeda ko‘proq targ‘ib qilinishi lozim.
14-noyabr 10:16

A **Akmal** 😊
14-noyabr 10:16

O **Oqila Zoirjon qizi**
Bu qadriyatlar ro‘yxati to‘liq emas, yana bir qancha qadriyatlar qolib ketgan. Masalan, halollikni ham ro‘yxatga kiritish kerak.
14-noyabr 10:17

K **Karomat** 😆
Kanalimda chiroyli statuslar berilgan, ular hayotingizni o‘zgartirib yuborish kuchiga ega. Kanal manzili shaxsiy akkauntimda qoldirilgan.
14-noyabr 10:17

N **Nigora@_87**
Juda dolzarb mavzu ko‘tarilibdi. Aslida bu savol butun jamiyatga tegishli. O‘zini shu millatning vakili deb hisoblagan har bir inson milliy qadriyatlar va ularning e’zozlanishi haqida chuqur o‘ylab ko‘rishi kerak. Ayniqsa, keyingi davrda yoshlar o‘rtasida ota-onaga g‘amxo‘rlik, mehribonchilik, jigarlar o‘rtasidagi oqibat anchagina salbiy tomonga o‘zgargan. Shu jihatdan, silayi rahmni ham ro‘yxatga kiritishni tavsiya qilgan bo‘lar edim.
14-noyabr 10:18

B **Baxtiyor123_45** 🤔
14-noyabr 10:19

O **Oqila2004**
Yosh avlodni aynan shunday qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun nimalar qilish kerakligi haqida ham yozing. Bu bizga juda kerak.
14-noyabr 10:20

2.7. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Izohlarning qaysilari maqola mazmuniga mos ekanini aniqlang.

	Mos/Mos emas		Mos/Mos emas
Temur_90	***	Karomat 😆	***
Anvarova Aziza1203	***	Nigora@_87	***
D I L SH O D A 85	***	Baxtiyor123_45	***
Akmal	***	Oqila2004	***
Oqila Zoirjon qizi	***		

2. Qaysi foydalanuvchining izohida maqola mavzusiga munosabat yaqqol seziladi?

	Seziladi/Sezilmaydi		Seziladi/Sezilmaydi
Temur_90	***	Karomat 😆	***
Akmal	***	Nigora@_87	***
Anvarova Aziza1203	***	Baxtiyor123_45	***
D I L SH O D A 85	***	Oqila2004	***
Oqila Zoirjon qizi	***		

2.8. Akmal va Baxtiyor123_45 larning izohlarini qayta o‘qing. Ushbu hisbelgilar qanday munosabatni ifodalashga xizmat qilayotganini ayting. Javobingizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Fikr bildiruvchilarning izohlarda hisbelgilardan foydalanishiga munosabat bildiring.

2.9. O‘tgan darsda bajargan uy vazifangiz asosida qadriyatlar haqidagi maqolaga qisqa izoh yozing. Uni sinfdoshlaringizga o‘qib bering va birgalikda tahlil qiling.

2.10. Ikki guruhga bo‘lining. Har bir guruh ijtimoiy tarmoqlarda muayyan mavzudagi post, maqola yoki ma’lumotga izoh yozish qoidalarini ishlab chiqishi lozim. So‘ng ularni o‘qib bering va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

2.11. Ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan izohlarni tahlil qiling. Ishlab chiqqan qoidalaringiz asosida ularda yo‘l qo‘yilgan xatolar bo‘yicha ma’lumot tayyorlang.

2.12. Gapdagi so‘zlarni namunadagidek tahlil qiling. So‘zlarga qo‘shilgan qo‘shimchalarning vazifasini izohlang.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham bir qancha qadriyatlarimiz o‘z aksini topgan.

So‘z	Qo‘shimcha
Respublikasining	*-si, -ning*
***	***

2.13. Gaplarni tahlil qiling. Qaysi qo‘shimchalar so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuviga xizmat qilayotganini aniqlang.

1. Qadriyat – jamiyatda obro‘, e’tibor, hurmat va nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi.
2. Qadriyatlar milliy va umuminsoniyga bo‘linadi, ya’ni millat, xalq uchun xos bo‘lganlari milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo‘lganlari esa umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.
3. Har bir millat va xalq o‘zligini anglashi va asrashi, sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos.

2.14. Egalik qo‘shimchasini olgan so‘zlarni toping va ularni ifodalayotgan ma’nosiga ko‘ra jadvalga yozing.

1. Bobomning etagidan ushlab, orqasidan qolmay yuraverdim. 2. Bo‘zchi bilganin to‘qir, baxshi bilganin o‘qir. 3. Sog‘lom bo‘lish uchun sport bilan shug‘ullanishingiz kerak. 4. Bugun jamoamiz Navoiy viloyati yoshlari bilan uchrashmoqchi. 5. Eng qizig‘i endi boshlanadi. 6. Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi. 7. Bu yerlarning yozi juda salqin o‘tadi. 8. Og‘ziga kelganni demoq – nodonlar ishi.

Uch shaxsdan biriga qarashlilikni bildirish	Bajaruvchining shaxs va sonini bildirish	Xoslik, umumdan ajratilganlik ma’nosini bildirish	Asos bilan yaxlitlanib, o‘z vazifasini yo‘qotish
uyning tomi	*kitobxonning o‘qigani*	*Toshkent shahri*	*kunduzi kelmoq*

2.15. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga mos qo‘shimchani qo‘shish orqali gap mazmunini to‘g‘ri shakllantiring.

1. Men har kuni bir soatdan mutolaa bilan **shug‘ullanish…** kerak. 2. Orzularingiz amalga oshishini istasangiz, ko‘proq ilm **olish…** zarur. 3. Bekorchilik – yomon odat, vaqtdan unumli foydalanishni **o‘rganish…** darkor. 4. Mahallamiz uchun bolaning begonasi yo‘q, hammasiga birdek g‘amxo‘rlik **qilish…** shart.

2.16. So‘zlarni o‘rtadagi so‘z bilan bog‘lab birikmalar hosil qiling. Bunda qanday vositalardan foydalanganingizni ayting.



2.17. Ajratib ko‘rsatilgan birliklar qaysi so‘zlar bilan bog‘lanib kelayotganini aniqlang. Ularni so‘zlarni bog‘lashga xizmat qilayotgan vositalarga ko‘ra guruhlang va yozing.

Namuna: *Shu chog‘ga qadar* ***olim-u*** *mutaxassislar qadriyat tushunchasiga* ***turlicha*** *ta’rif berishgan.*
Bog‘lovchilar: *olim-u mutaxassislar*
Ohang: *turlicha ta’rif berishgan*

1. Qadriyat deganda **inson** uchun ahamiyatli bo‘lgan **barcha** ne’matlar va hodisalar majmuyini tushunmog‘imiz lozim. 2. Qadriyat – olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, **talab** va tartiblarning qadrini ifodalash uchun **ishlatiladigan** tushuncha. 3. Buni bunyodkorlik g‘oyalariga sodiqlik, **yuksak** mas’uliyat, **ijtimoiy** adolatparvarlik, insonparvarlik, **milliy** totuvlik kabi tamoyillar misolida ko‘rish mumkin.

2.18. So‘zlarni ohang va boshqa bog‘lovchilar yordamida bog‘lab birikma hosil qiling. Ular yordamida gaplar tuzib, yozing.

Namuna: *chiroyli xulq; Chiroyli xulq kishining ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi.*

chiroyli	xulq	sog‘lom	inson
saxiy	kishi	tejamkorlik	halollik
sport	to‘g‘ri ovqatlanish	bayram	marosim

Sarlavhani o‘qing, matn nima haqida ekanini taxmin qiling.

Qalbi olov shoirning ushbu satrlari xayolimga kelsa, yuragim hapriqib ketadi:

Bu diyorning ayvonlari nurga talosh…

Qishloq, uy, ayvon… Bolalik yillarim ko‘z oldimda gavdalanadi. Ayniqsa, momomning uyi, hovlisi o‘sha kezlar murg‘ak qalbimga ulkan taassurotlarni muhrlagan. Tongdan shomga qadar quyosh o‘z nurlari bilan siylab turadigan uzun ayvon, o‘smir nabiralari uchun chopon qavib o‘tirgan momom… U damlardagi odatiy manzara hayot hikmati, tanti el va yurt haqidagi saboq ekanini tobora chuqurroq anglab boryapman.

Ayvon. Ne-ne suhbatlarga guvoh arslon ustunlar – jasorat tiynati. Suv sepilgan tuproqdan ko‘tariladigan ajib ifor ona yurtga bo‘lgan muhabbatni yuksaltiradi.

Ayvonda ko‘rpa qavib o‘tirgan enamga aytaman:

– Issiqdan terga botibsiz, uyga kirib qaving shu ko‘rpangizni…

– Nega, bolam, xamirturush xamirni ko‘pchitganday, quyosh nuri ham ko‘rpaga solingan paxtani shishiradi, ishimning unumi oshadi…

Kunduz quyosh nuri bilan siylagan ayvonni tunda oy shu’lasi yoritadi:

Bu diyorning kayvonisi oy-u quyosh…

Keksalar – bir xazina. Qari bilganni pari bilmaydi, deganlari ham shundan. Qumg‘onda choy qaynatib kelsam, sut qo‘yguncha savatni ko‘tarib tursam yo oftobani keltirib bersam, xullas, arzimagan yumushlarimdan so‘ng momom, albatta, bir so‘zni takrorlardi:

– Baraka top, savob ish qilding, bolam.

Momomning uyi – qishloqqa kiraverishda birinchi xonadon. Hovlisi ekinzorga tutashib ketgan. Butun qishloqni suv bilan ta’minlaydigan birgina ariq hovlini daladan ajratib turadi. Ariq bo‘yining o‘zi – ajib bir manzara. Taxtako‘prikda cho‘kkalab, suv tebratayotgan o‘t-o‘lanlarga ninachining qo‘nolmay halak bo‘layotganini ko‘rib miyig‘ingda samimiy jilmayasan. Ilk bahorda yalpizlar anvoyi hid taratib, bodroqdek sochilib yotadi.

Ayvondan ekinzor, qishloqqa eltuvchi yo‘l ko‘zga tashlanib turadi.

Qishloqda hamma odamlar bir-birini yaqindan biladi. Olisdan kelayotganni yurish-turishidan taniydi. Momomda bu fazilat ikki hissa ortiqroq. Qo‘lini peshonasiga tirab, oftobning nurini to‘sib, bo‘ynini cho‘zib uzoq nazar soladi-yu ilg‘aydi:

– Hamsoya-ku, yugur, bolam, yuki og‘irga o‘xshaydi, yengillatib kel, savob bo‘ladi…

Bolalarcha quvnoqlik bilan shataloq otib yuguramiz. Momomning oxirgi so‘zi og‘zida qoladi:

– Ul-bul narsa bersa, olib yurmanglar, uyat bo‘ladi…

Ilk hayot saboqlarini shu ayvonda olganmiz. “Suvga tupurma”, “nonni uvol qilma”, “daraxtning shoxini sindirma, joni og‘riydi”, “qushlarga ozor berma”, “oyog‘ingni yuvgandan keyin ko‘rpaga chiq”, “mehmonning yonida dasturxonga hadeb qo‘l cho‘zma” va hokazo. Bir qarashda oddiy nasihat, tanbeh bo‘lib tuyuladi. Bu oddiy gaplar zamiriga razm solsangiz, ulkan ma’no mujassam ekanini ilg‘aysiz.

Momomning uzundan uzun, faqat o‘ziga xos ohangdagi duolarini ham shu ayvonda eshitganmiz. “Rizqli, izli, qutli bo‘l! El koriga yara…”

Ayvon – o‘zbekning ostonasi. Mehmonni ham shu manzilda kutib oladi, shu manzildan kuzatadi. Ayniqsa, onalar uchun bu ostona qadrli. Ayvonda turib jigarporalarini uzoq safarlarga kuzatadi. So‘ng arslon ustunlarga suyanib yig‘laydi. Yana ko‘zda yosh bilan shu ayvonda quchoq

ochib kutib oladi. Xalqimiz “Vatan ostonadan boshlanadi” degan naqlni shu bois bot-bot takrorlasa kerak. Zero shu ayvon –“darsxona”da olingan saboqlar yuksalib, yurtga ravnaq bo‘ladi:

Vatan desam, ko‘zimda yosh, yuzimda yosh…

Sog‘inaman. Bolaligimni, menga Vatanni anglatgan momomning ayvonini, rayhonli hovlilar, tuproq ko‘chalarni sog‘inaman…. beixtiyor sog‘inchim qarog‘imda aks etadi. Yuzimga yosh dumalaydi.

Momom 3-sinfgacha tahsil olgan. Keyin Ikkinchi jahon urushi, boshqa tashvishlar, alam va ajralishlar… goh shirin, goh achchiq ko‘z yoshlar… Ammo men momomning ko‘zida yoshini hech ko‘rmaganman. Bolalarcha qiziqish meni savol berishga undaydi:

– Momo, nega siz hech yig‘lamaysiz?

U kishi ajabtovur savolimni eshitib kuladi:

– Yig‘layverib, ko‘zimda yosh qolmagan-da…

Eti qochib, so‘lg‘in tortib qolgan terisiga boqib, ishonaman…

Biroq momomning yig‘laganini keyinroq ko‘rdim. Bobom olamdan o‘tganda, ayvonda cho‘kkalab, ko‘ylagining uzun yenglarini yuziga bosib, uzoq yig‘lagan. Vatanini menga tashlab ketdimi, deb ko‘zyosh qilgan. Momomning nazdida hovli-joy, bog‘-rog‘ bobom barpo qilgan Vatan, hozir ham shunday tushunamiz.

Fe’li ko‘ylagining etagidan keng momomning. Qaldirg‘ochlar eng ko‘p in qurgan ayvoni, nazarimda. Qushlar yerga xas-cho‘p tushirsa ham momom ulardan ranjimagan. “Voy, shu qushga ham Vatan kerak, mitti joniga…” deb qo‘yardi tumshug‘ida loy tashib in qurayotgan qaldirg‘ochlarga mehr bilan qarab…

Oshxonadan esa tandirdan endi uzilgan nonning isi ufuradi:

Ko‘zga surtay nonlaringni, nonlaringni… (Sirojiddin Sayyid)

Faxriddin Hayit

2.19. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Diqqat, bitta izoh ortiqcha!

ayvon	tanti	hapriqmoq	tiynat	kayvoni
qumg‘on	oftoba	hamsoya	kor	jigarpora

choy qaynatishga mo‘ljallangan, ko‘zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish
yuz-qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan, uzun va ingichka jo‘mrakli, qorni keng, bo‘g‘zi tor idish
o‘zgalarga yordam, sarf va xizmatini ayamaydigan, mard, ko‘ngli va qo‘li ochiq
ikki-uch tomoni berk, oldi ochiq bino
yonma-yon hovlida yashovchi qo‘shni
insonga xos xarakter, fe’l-atvor
shoshib-pishib, shoshmashosharlik, shoshqaloqlik bilan harakat qilmoq
biror maqsadda qilinadigan faoliyat, harakat, ish

yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsani biladigan
eng yaqin, bir tug‘ishgan qarindosh (farzand, aka-uka, opa-singil)
yaqin inson, qarindosh (amma, xola, tog‘a yoki amaki)

1. Muallif fikrlarini ifodalashda kimning she’ridan foydalangan? She’riy satrlar nima maqsadda matnga kiritilgan?
2. *Ayvon. Ne-ne suhbatlarga guvoh arslon ustunlar – jasorat tiynati.* Muallifning ayvon ustunlarini jasorat tiynatiga o‘xshatishi sababini tushuntiring.
3. Muallif ayvon, rayhonli hovlilar, tuproq ko‘chalar haqidagi xotiralari Vatan tuyg‘usi bilan bog‘liqligini ta’kidlamoqda. Sizda Vatan tuyg‘usi bilan bog‘liq qanday xotiralar bor?
4. Ota-onangiz, bobo-buvilaringiz sizni qanday duo qilishadi? Bu haqda sinfdosh-laringizga aytib bering.
5. Matnda qishloq odamlarining o‘ziga xos samimiyati haqida yana qanday fikrlarni uchratdingiz?

2.20. Gaplarning badiiyligini ta’minlayotgan vositalarni aniqlang. Ayrim oddiy gaplarni shunday vositalar bilan boyitib yozing.

Namuna: *Momomning fe’li keng – Fe’li ko‘ylagining etagidan keng momomning.*

1	*Qishloq, uy, ayvon… Ko‘z oldimda bolalik yillarim gavdalanadi.*
2	*Tongdan shomga qadar quyosh o‘z nurlari bilan siylab turadigan uzun ayvon, o‘smir nabi-ralari uchun chopon qavib o‘tirgan momom…*
3	*Ayvonda ko‘rpa qavib o‘tirgan enamga aytaman.*
4	*Qishloqda hamma odamlar bir-birini yaqindan biladi.*
5	*Ayvonda turib jigarporalarini uzoq safarlarga kuzatadi. So‘ng arslon ustunlarga suyanib yig‘laydi.*
6	*Fe’li ko‘ylagining etagidan keng momomning.*

2.21. Matn asosida Vatan haqida yana ikkita xulosa ayting.

2.22. Jumlada shoirning qalbi nimaga o‘xshatilmoqda? Javobingizni izohlang. Matndan yana shunday o‘xshatishlarni aniqlab, yozing.

Qalbi olov shoirning ushbu satrlari xayolimga kelsa, yuragim hapriqib ketadi.

2.23. Matnda keltirilgan quyidagi mavzulardan biri asosida munozara o‘tkazing. Muhokama paytida fikrlaringizni aniq, qisqa va mavzudan chiqmagan holda yetkazishga harakat qiling. Sinfdoshlaringizning fikrini bo‘lmang, o‘zaro hurmatni saqlashni unutmang.

Nonni uvol qilmaslik	Kattalarga hurmat
Jonivorlar va o‘simliklarga ozor bermaslik	Mehmondorchilik odobi

2.24. Muhokamadan so‘ng quyidagi mezon asosida sinfdoshingizning nutqini baholang.

Mezonlar	Ball	Men qo‘ygan ball
Mavzuni to‘g‘ri tushunish	10	***
Mavzu bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarni dalillar bilan asoslash	10	***
Adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilish	10	***
Tana tili (ko‘z bilan aloqa qilish, yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavdani to‘g‘ri ushlash)dan o‘rinli foydalanish	10	***
Mavzuga mos keladigan ohangdan foydalanish	10	***
Munozara qoidalariga rioya qilish	10	***
	Jami:	***

2.25. Matndagi “suvga tupurma”, “nonni uvol qilma”, “daraxtning shoxini sindirma, joni og‘riydi”, “qushlarga ozor berma”, “oyog‘ingni yuvgandan keyin ko‘rpaga chiq”, “mehmonning yonida dasturxonga hadeb qo‘l cho‘zma” kabi jumlalarga e’tibor qarating. Oilangizga xos bo‘lgan ana shunday qoidalar ro‘yxatini tuzing. Ular yoshlarning tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsata olishi haqida yozing.

1. *Kunduz quyosh nuri bilan siylagan ayvonni tunda oy shu’lasi yoritadi.* Jumlada ishtirok etgan qaysi so‘zlar bir umumiy ma’noni anglatadi?
2. “Bu diyorning ayvonlari nurga talosh” matnidan quyida berilgan so‘zlarning sinonim (ma’nodosh)larini toping.

quyosh | yurt | xalq

So‘zlar ma’no munosabatiga ko‘ra, ma’nodosh (sinonim), zid ma’noli (antonim), shakl munosabatiga ko‘ra, shakldosh (omonim) va talaffuzdosh (paronim) so‘zlarga bo‘linadi.


Sinonimlar bir umumiy ma’noni ifodalovchi birliklardir.

So‘zlarda ma’nodoshlik: *bajarmoq, bitirmoq, ado etmoq, o‘rinlatmoq, do‘ndirmoq, bajo qilmoq.* Ma’nodosh so‘zlar bir umumiy ma’noni bildirsa-da, ularning ma’no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma’lum uslubga xoslanishi bir-biridan farq qiladi. *Ado etmoq, bajo qilmoq* ko‘proq badiiy uslubga xos. *Do‘ndirmoq* esa so‘zlashuv uslubida qo‘llanib, unda ta’sirchanlik kuchliroq ifodalanadi.

Qo‘shimchalarda ma’nodoshlik: *shira**li** – shira**dor**, itoat**li** – itoat**kor, be**hayo – hayo**siz**, o‘rin**siz** – **no**o‘rin, adabiyot**chi** – adabiyot**shunos**.*

Sinonimlardan foydalanish nutqning rang-barangligini ta’minlashga, ta’sirchanligini oshirishga, tilning ifoda imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beradi.

2.26. O‘zaro ma’nodoshlik hosil qila oladigan so‘zlarni aniqlang.




2.27. Izohlarga mos keluvchi so‘zni aniqlab, yozing.

kuchli shamol	*bo‘ron*	kitob o‘qimoq	***
kuchli yomg‘ir	***	yordam beruvchi	***
katta baxtsizlik	***	kunchiqar tomon	***
qisqa vaqt	***	shuhrat qozongan	***
qadrli odam	***	nazorat qilish	***

2.28. Ma’nodosh so‘zlar qatori bilan tanishing. Ular ishtirokida gap tuzing.

1. Yemoq, iste’mol qilmoq, tanovul qilmoq.
2. Kasal bo‘lmoq, tobi qochmoq, xastalanmoq.
3. Kelmoq, tashrif buyurmoq, qadam ranjida qilmoq.

2.29. Har bir ustundagi uchta so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila oladigan so‘zni toping va yozing.



2.30. Matnning 1-xatboshisidagi sinonimlarni aniqlang. 2- va 3-xatboshidagi ajratilgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirib, matnni ko‘chiring.

Har bir inson uchun o‘z muallimini va ustozini e’zozlash, hurmat va ehtiromini ado qilish shartdir. Negaki bu zotlar har qanday insonning ruhini tarbiyalaydi, ma’naviy boylik bilan to‘ldiradi, har qanday maishiy kamchilig-u illatlardan poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan xoli va ozod qiladi.

Muallim insoniyatni ilm bilan ziynatlaydi, ularga **chiroyli** fazilatlar bilan ko‘rk bag‘ishlaydi, tushuntirish orqali odamni **foydasiz** narsalardan xalos etadi, kishini haqiqiy komil inson darajasiga yetkazish bilan **bilim** xazinasini ularning **qalb**lariga joylaydi.

Muallim sening insonlik haq-huquqlaring nimadan iborat ekanini tushuntirib beradi, yaramas, yomon ishlardan qaytaradi va eng **yaxshi** ishlar sari **yo‘l ko‘rsatadi.** Ular sening kamolga yetishingni o‘ylab, **hamisha** jon kuydiradi, butun kuch va imkoniyatlarini **ishga soladi.**

Abduqodir Nuriy al-Barzanjiy

2.31. So‘zlardagi qo‘shimchalarni ma’nodoshlari bilan almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing. Tilning ifoda imkoniyatlarini baholang.

suvli	savlatli	*-mand, -kash, -shunos, bo-, -kor, ser-, -li, -dor, ham-, ba-*
unumli	aravachi	
hunarli	tilchi	
guldor	xabardor	
fikrdosh	g‘allachi	

2.32. O‘zingiz yashayotgan hududning diqqatga sazovor joylari haqida taqdimotga tayyorlaning. Buning uchun kerak bo‘ladigan barcha narsalar (ma’lumot, fotosuratlar, o‘quv qurollari)ni yig‘ing.

2.33. Yurtimizning tarixiy shaharlaridan biri – Samarqand haqidagi afisha bilan tanishing va savollarga javob bering.

Shahrim — faxrim

Samarqand

Sharqning qadimiy va abadiy durdonasi



Bu qiziq!

Buyuk ipak yo‘li chorrahasida qad rostlagan Samarqand – Sharqning qadimiy va abadiy durdonasi. Uning har bir toshi buyuk tarix, afsona va ulug‘ ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosdan so‘zlaydi.

- **Registon maydoni** – o‘ziga xos me’moriy ansambli bilan qalbingizni rom etadi. Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari koshinkor bezaklari, osmonga bo‘ylagan minorlari bilan sizni o‘tmishga chorlaydi.
- **Bibixonim masjidi** – Amir Temurning buyuk muhabbati va salobatining ramzi. Uning ulkan gumbazlari va mahobatli darvozalari sizni hayratga soladi.
- **Shohi Zinda majmuasi** – ziyoratchilar va san’at ixlosmandlari uchun noyob maskan. Bu yerda turfa xil koshinlar bilan bezatilgan maqbaralar sizni o‘ziga tortadi.
- **Amir Temur maqbarasi** (Go‘ri Amir) – buyuk Sohibqiron va uning avlodlari mangu orom topgan joy. Bu muqaddas maskan sizni ulug‘ tarixiy shaxslar bilan yuzma-yuz qiladi.



Samarqand shunchaki shahar emas, u betakror san’at va mehmondo‘stlik timsoli. Bu yerga tashrif buyurib, ming yillik madaniyatning guvohiga aylaning!

1. Afishada Samarqand shahrining diqqatga sazovor qaysi joylari aks etgan?
2. Afishaga Samarqand haqidagi qanday ma’lumotlar kiritilgan?

2.34. Agar muallifda yuqoridagi matnni to‘ldirish istagi paydo bo‘lsa, quyidagi qaysi ma’lumotlardan foydalanishi mumkin? Foydalanib bo‘lmaydi deb hisoblagan ma’lumotlaringiz qaysi? Nima uchun ularni afishaga joylash tavsiya etilmaydi?

- Samarqand – UNESCO umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shahar.
- Samarqanddagi diqqatga sazovor joylardan biri Registon maydoni hisoblanadi, u hamisha navqiron shaharsozlik ansambli sifatida butun dunyoga dong‘i ketgan obidalardandir.
- Samarqand o‘rtacha 695 m balandlikda, Toshkentdan 300 km uzoqlikda joylashgan.
- Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasi XV asr boshlarida qurilgan bo‘lib, o‘zbek me’morchilik san’atining nodir namunalaridan hisoblanadi.
- Samarqanddan Toshkent – Dushanbe, Toshkent – Turkmanboshi, Toshkent – Uchquduq – Qo‘ng‘irot temir yo‘llari, Katta O‘zbek trakti (Toshkent – Termiz yo‘li) o‘tadi.
- Shahar aholisi va xo‘jaliklari Shovdor, Bog‘ishamol ariqlaridan suv oladi.
- Samarqandda joylashgan Siyob bozori O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi eng qadimiy savdo markazlaridan bo‘lib, bu yerga har yili juda ko‘plab sayyohlar keladi.
- Iyulning o‘rtacha harorati 25,9 °C, eng baland harorat 40–42 °C, yanvarda o‘rtacha harorat 0,2 °C ga yetadi.
- Maydoni 120 km². Aholisi 585 ming kishi (2024).
- Samarqanddagi diqqatga sazovor joylarning eng mashhurlaridan biri Ulug‘bek rasadxonasidir. Ushbu rasadxona XV asr me’morchiligining noyob namunasi hisoblanadi.

2.35. Afishada aks etgan Samarqand shahri ramziga e’tibor qarating. U qanday mazmunga ega?

2.36. Jadvalda ramz (logotip) tayyorlash talablari keltirilgan. Ularni muhimlik darajasi bo‘yicha raqamlang.

***	bir qarashda esda qolarli bo‘lishi, o‘ta murakkab bo‘lmasligi
***	tanlangan joy yoki faoliyat bilan aloqador bo‘lishi
***	bir yo‘nalish doirasidagi raqobatchilarnikidan keskin farq qilishi
***	zamonaviy dizaynga ega bo‘lishi
***	iste’molchilarning qadriyatlariga mos kelishi
***	brendning qadriyatlari, vazifasi va ustunligini ifodalay olishi

2.37. Afishada kishi diqqatini o‘ziga jalb etuvchi qanday vositalardan foydalanilgan? Ularni izohlang.

2.38. O‘zingiz yashayotgan hudud, undagi diqqatga sazovor joylar haqida ana shunday afisha tayyorlang va taqdim eting.
Bunda quyidagi qoidalarga rioya qiling:

– hududdagi diqqatga sazovor joylar rasmini kiriting;
– tanlangan hudud uchun maxsus ramz (logotip) o‘ylab toping;
– tanlagan joyingiz haqidagi muhim ma’lumotlarni yozing;
– chorlov mazmuniga ega jumlalardan foydalaning.

2.39. Afishangizni yakuniga yetkazing va keyingi darsda taqdim etishga tayyorlaning.

2.40. Uyda tayyorlab kelgan afishangizni taqdim eting. Taqdimot jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- taqdimotni yaratishdan maqsadingizni ayting;
- taqdimotdagi har bir detalni izchillik bilan izohlang;
- mavzuga mos keladigan ovoz va intonatsiyadan foydalaning;
- adabiy talaffuz me’yorlariga amal qiling;
- tana tili (ko‘z bilan aloqa qilish, yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavdani to‘g‘ri tutish) qoidalariga rioya qiling.

2.41. Sinfdoshingizning afishasini quyidagi jadval asosida baholang va uning nutqiga munosabat bildiring.

Baholash mezoni	Ball	Men qo‘ygan ball
Mavzuni to‘g‘ri tushunish	10	***
Mavzu bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarni dalillar bilan asoslash	10	***
Adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilish	10	***
Ma’lumotlarning muhimlik darajasi	10	***
Tana tili (ko‘z bilan aloqa qilish, yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavdani to‘g‘ri ushlash)dan o‘rinli foydalanish	10	***
Mavzuga mos ohangdan foydalanish	10	***
Logotipning mavjudligi va uning talabga mosligi	10	***
Kishi diqqatini jalb etuvchi jumlalardan foydalanganlik	10	***

2.42. So‘zlarni ko‘chirish qoidalariga moslab yozing.

va’da, mash’al, e’zoz, da’vo, mas’ul, ta’na, diagramma, monografiya, motivatsiya, ma’ruza, ma’rifat, traktor, telegramma, ozodlik, uzumlar

2.43. Quyidagilardan qaysi biri bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga mos ekanini aniqlang, ularni daftaringizga yozing.

a-badiy	aba-diy	abad-iy
o-limdan	olim-dan	olimda-n
uzuk-lar	u-zuklar	uz-uklar
mudofa-a	mu-dofaa	mudof-aa
mat-baa	matba-a	ma-tbaa
o‘-quvchi	o‘quv-chi	o‘q-uvchi
silin-drik	silindr-ik	silind-rik
i-morat	imo-rat	imora-t

2.44. Sinfdoshlaringizdan biri tayyorlagan afishaga qisqa taqriz yozing hamda taqdimot muallifiga topshiring.

2.45. Audiomatn mavzusiga e’tibor qarating, unda nimalar haqida so‘z borishini taxmin qiling.

INSONLARNING DARD-U TASHVISHLARINI O‘YLAB YASHASH – ODAMIYLIKNING ENG OLIY MEZONI

3

2.46. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning.

2.47. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Diqqat, bitta izoh ortiqcha!

tamaddun	maxluqlar, jonivorlar
muazzam	xalq bilan chambarchas bog‘langan, xalqning ruhi va madaniyatiga mos keladigan
xalqchil	madaniyat
maxluqot	nur bilan yoritilgan, nurga to‘la, ravshan, yorqin
shafoat	yo‘ldan ozish, adashganlik
gumrohlik	azim, ulkan, ulug‘vor
g‘aflat	hikmatli so‘z
aforizm	qadrli, aziz, qadrdon
munavvar	hushyorlik butunlay yo‘qolgan holat
***	martabasi va hurmati yuqori kishining qiynalganlarni qo‘llab-quvvatlashi, ularga homiylik qilishi

1. Muallif insonparvarlik haqidagi fikrlarini dalillashda kimning qaysi asaridan foydalanmoqda?
2. *“Shoirning fikricha, insonning ota-onasiga, atrofidagi odamlarga munosabatida uning iymon-e’tiqodi, jamiyatga munosabati, o‘zligi, axloqiy go‘zalligi namoyon bo‘ladi”.* Audiomatndagi mazkur fikrni hayotiy misollar asosida izohlang.
3. Muallif davlatmand bo‘lish yoki amaldorlik ilinjida ilm o‘rganishni gumrohlik deb atamoqda. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Javobingizni izohlang.
4. Audiomatnda *“Yaxshilik va ezgulikni, sadoqatni, mehr-u muruvvatni umrining mazmuni deb bilgan insonlarga hammaning havasi keladi”* degan fikr bor. Ana shunday insonlardan kimlarni taniysiz? Ular haqida ma’lumot bering.
5. *“Do‘stlik shafoati va sadoqati – juda ulug‘ tuyg‘u”*. Lug‘at yordamida ushbu iqtibosni izohlang va do‘stlik haqidagi o‘z fikrlaringizni ayting.

2.48. Maqolada qaysi qadriyatlar haqida so‘z boradi? Qaysi qadriyatlarni ro‘yxatdan chiqarish, qaysilarini qo‘shish kerakligini aniqlang.

- halollik
- ota-onaga g‘amxo‘rlik
- saxiylik
- bag‘rikenglik
- sog‘likka e’tibor
- ilm olish
- iymonli bo‘lish

2.49. Navoiyning ushbu baytlari muallifning qanday mazmundagi fikrlarini dalillashga xizmat qilayotganini aniqlang. Muallif fikri va Navoiy baytlaridan foydalanib namunadagidek gaplar tuzing va yozing.

Namuna: *Shoirning ushbu misralarida inson ota-onasiga mehribonlik bilan xizmat qilishi kerakligi alohida ta'kidlangan.*

Kimki ulug'roq – anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq – anga shafqat kerak.

Demonkim ko'ngli pok-u ham ko'zi pok,
Tili pok-u so'zi pok-u o'zi pok.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Bo'lsun adab birla bori xizmating,
Ham qil adab doli kibi qomating.

2.50. Audiomatndan qanday vaziyatlarda foydalanishni tavsiya etasiz? Tanlovingizni tushuntirishga harakat qiling.

Vaziyatlar	Tavsiya etiladi/ Tavsiya etilmaydi
Talaba Navoiyning komil inson to'g'risidagi qarashlari haqida ma'ruza tayyorlashni rejalashtirayotgan bo'lsa	***
Adabiyot o'qituvchisi 5-sinf o'quvchilariga "Hayrat ul-abror" asarida keltirilgan axloqiy hikmatlar mazmuni haqida ma'lumot bermoqchi bo'lsa	***
Jurnalist "Navoiy asarlarida insonparvarlik tarannumi" mavzusida radioeshittirish tayyorlayotgan bo'lsa	***
8-sinf o'quvchisiga "Hayrat ul-abror" – insoniylik qomusi" mavzusida insho yozish topshirilgan bo'lsa	***
Tadqiqotchi Navoiy va uning ijodiga oid ilmiy izlanish olib borayotgan bo'lsa	***
Maktab o'quvchilari "Milliy qadriyatlar e'zozda" deb nomlangan tadbirga tayyorlanayotgan bo'lsa	***

2.51. Ikki guruhga bo'lining. Qarshi guruh vakillaridan quyidagi fikrlar orqali muallif nima demoqchi ekanini izohlashni so'rang. Fikrlar tushunarli bo'lishi uchun qo'shimcha savollar bilan murojaat qiling.

1-guruh: *Ulug' shoirning komil inson haqidagi qarashlari doimo asosli, xalqchil va nihoyatda teran bo'lgan.*

2-guruh: *Alisher Navoiy dahosi ne-ne bo'shliqlarni madaniy-ma'naviy xazinalar, aforizmlar, insonparvarlik g'oyalari bilan to'ldirmoqda.*

2.52. “Do‘stlikning inson taqdiridagi o‘rni” mavzusida matn tuzing. Matningizda Navoiyning quyidagi misralaridan foydalanishingiz mumkin.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish.

Bas, kishiga umr xushi yor emish,
Umr degan yori vafodor emish.

Lug‘at: yorlig‘ ish – mehr bog‘lash (bu yerda: ma’qullanadigan, qo‘llab-quvvatlanadigan ish); **xush –** yaxshi odat.

2.53. Yozishni boshlagan matningizni davom ettiring. Tahrirlab, uni qayta yozing.

TIL SANDIG‘I

ERTAKNING O‘TMISHI

Bolalikdan eng ko‘p duch kelgan so‘zimiz ertak bo‘ladi. Xo‘sh, *ertak* so‘zining tub ildizi qanday ma’noni anglatgan? Qadimgi tilimizda *ert* degan so‘z bo‘lib, bu so‘z “o‘tmish”, “kechmish” degan mazmunni bildirgan. Shundan o‘tmish haqida og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan hikoya ma’nosini anglatgan *ertak* so‘zi kelib chiqqan. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da bu so‘zning paydo bo‘lishi shu tariqa izohlangan.

Erta so‘zi tilimizda “avval” ma’nosida ham qo‘llanadi. Masalan, *erta bahor* deganda baharning boshi, avvali tushuniladi. Ertaklarimiz ham ko‘pincha “avval o‘tgan zamonda” deb boshlanadi.

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida bu haqda aniq bir gap aytilmagan. Faqat ertakka tuzilish jihatidan juda yaqin bo‘lgan *erta* so‘ziga “erta tong”, *ertish* so‘ziga “tortishish”, *ertik* so‘ziga “yurilgan yo‘l” deb izoh berilgan. Koshg‘ariyda *o‘tkunch* so‘zi “o‘tgan” mazmunida keladi.

H. Vamberi *ertak* so‘zining tub ildizini *erta* so‘ziga taqaydi.

Xullas, *erta* so‘zi ertalab ma’nosidan tashqari “oldin”, “ilk paytlar”, “bo‘lib o‘tgan” ma’nolarini ham anglatadi. Masalan: “Ekinni erta ekkan hosilini erta o‘rar”.

Eshqobil Shukur

III BOB

TIL TILSIMI



1. “So‘z qo‘llashda no‘noqlik” deganda nimani tushunasiz?
2. So‘zdan noto‘g‘ri foydalanganingiz yoki jumlalarni to‘g‘ri tuzmaganingiz uchun tanbeh eshitganmisiz? O‘shanda qanday so‘zlardan yanglish foydalangan edingiz?
3. Jumlalarni to‘g‘ri tuza olmaslikning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz?

SO‘ZNING TUZI NIMADA?

(Qisqartirib olindi)

Abdulla Qahhor *“Adabiyot atomdan kuchli”* deganida faqat adabiyotning o‘zini emas, umuman so‘z qudratini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. Buning tasdig‘i sifatida dono xalqimizning *“So‘z bilan ilon inidan, pichoq qinidan chiqadi”* degan naqlini keltirish mumkin. Bir og‘iz gap bilan odamni quyushqondan chiqarish yoki tinchlantirish hech gap emasligini hayotiy misollardan yaxshi bilamiz. Yomon gap yo shum xabardan odamlarning qon bosimi ko‘tarilishi, allergiyasi qo‘zg‘ashi yo qand miqdori oshib ketishi hech gap emas. Deylik, *“Falonchi sening nafsoniyatingga tegadigan falon gap aytdi”* yoki *“Shu bilan siringni hamma bilib bo‘ldi”* qabilidagi gaplarni eshitgan odam birdan g‘azablanadi. Aksincha, *“Unday emas, boshqacha gapirdi”, “Yo‘q, adash-yapsan, aslida bunday”* kabi gaplar odamni birdan tinchlantiradi.

…Xalqimizda azaldan non yerga tushib ketsa, darhol olib, o‘pib, ko‘zga surib, tepaga olib qo‘yish odati bor. Bu – aziz ne’matga hurmat, bolalikdan hamma ko‘rib, diliga tugib qo‘yadigan tamoyil. Xo‘sh, nonga munosabat shunday ekan, nima uchun ba’zi hollarda tilning hurmatini uni yerga uradigan darajada e’tibordan soqit qilamiz? Quyida matbuot, teleradio, har xil anjumanlarda eng ko‘p uchraydigan qo‘pol xatolardan ba’zilarini keltiramiz.

Eng ko‘p uchraydigan jiddiy xato – to‘g‘ri kelsa-kelmasa, “har” so‘zini hamma yoqda ishlatish. *“Har bir Alloh taoloning so‘zi”, “har bir Imom Buxoriyning asari”.* Bu o‘rinda, diniy tomondan qaraydigan bo‘lsak, gunohlarning eng kattasi bo‘lgan shirkka yo‘l qo‘yilyapti. *“Har bir Alloh taolo”* deganda bir necha iloh tushuniladi, *Alloh taoloning har bir so‘zi* emas. Yana *“Har bir prezidentning farmoni”* yoki *“to‘rtta prezidentning qarori”* deganda esa prezidentlar qarori tushuniladi. Aslida bu gap *“prezidentning har bir farmoni”* va *“prezidentning to‘rtta qarori”* deb aytilishi kerak.

“Har ikkisi” yo *“har uchalasi”* degan so‘zlar ham juda urf bo‘ldi. Ikki kishi haqida gapira turib, *har ikkisi* deyish – bema’ni. Aslida *“ikkovi”* yo *“ikkovining har biri”* yo jo‘ngina *“har biri”* bo‘ladi. *“Haftaning har payshanba kuni”* qabilidagi gaplar ham “har kasalligi”ning bir turi. Oyning har payshanbasi deyish mumkin, chunki bir necha marta keladi. Haftada esa bitta bo‘ladi. Shuning uchun oddiy qilib *“har payshanba”* desak, hech kimning g‘ijini kelmaydi. “Har” bilan “hech”ning farqiga ham borish kerak. Bunday qo‘pol adashishga misollar ko‘p. Mana bittasi: *“Har bir shoirning kitobi vatan haqidagi she’rsiz chiqmaydi”.*

Ssenariymi, ko‘rsatuv yo eshittirish matnimi, nutq, ma’ruza yo maqolami, nima yozishimizdan qat’i nazar, so‘z va qo‘shimchalarni o‘ylab ishlatishimiz kerak. *Ilm egallashga bo‘lgan intilish, sportga bo‘lgan qiziqish* va hokazo. Bu “bo‘lgan”larning nima keragi bor, tushunib bo‘lmaydi. Farosatimiz oqsashi oqibatida “*bo‘lgan”*ni *“bo‘lmagan”*ga aylantiryapmiz. *“Bejiz”* so‘ziga *-ga*, *“hozir”* so‘ziga *-da* qo‘shish rasm bo‘ldi. Ruslar “в сейчас”, inglizlar “at now” demaydi. Boshqa xalqlar ham “hozir”ga bunday qo‘shimcha qo‘shmaydi. Biz qachon, qayerdan o‘rgandik, shuni sira anglab bo‘lmaydi.

Qo‘shimchalar orasida *-lik* masalasida ham ish pachava. Bu qo‘shimchani bo‘lar-bo‘lmas joylarga zo‘rlab kirityapmiz. *Borganliklari, kelganligi*, boshqa shakli – *borishlik, kelishlik...* buni yozgan ham qiynaladi, o‘qigan ham, eshitganning esa ensasi qotadi. Yana *-lar* qo‘shimchasi borasida ham ahvol yaxshi emas. Hurmat va ko‘plik ma’nosida ishlatilganda e’tirozga o‘rin qolmaydi. Lekin bu qo‘shimchani hamma yoqqa suqaverish savodsizlik va adabsizlikdir. Deylik, o‘zbek tilida son ishlatilsa, *-lar*ga hojat qolmaydi. *O‘nta talaba, millionta kalava* deb ketaveramiz. Bu – bir jihati. Ikkinchidan, ko‘plikni har narsaga ham ishlatib bo‘lmaydi. *“O‘nta talaba keldi”* deymiz, *“O‘nta talaba keldilar”,* demaymiz. Bir reportajda *“Qazilma ishlari chog‘ida bu yerdan suyaklar chiqishdi”* degan jumla ketgan edi. *“Ularning falon ish qilishganliklari”* tarzidagi qusurli gaplar efirda ham, nashrda ham ko‘p uchraydi. Endi “*shunday-bunday munosabatlari”*ga ozgina to‘xtalsak. *Shu* deyish uchun avval *bu* deb olish kerak. Masalan, *“Bu kitob – foydali, shuni ola-man”* deyiladi. Biz esa biror iqtibos keltiradigan bo‘lsak, *“falonchi shunday dedi”* ramkasini ish-latamiz. *“O‘rmonga o‘t ketibdi, falonchi shunday dedi”,* desak, bu ma’qul. Lekin avval ma’lumotni keltirmay turib, *“shunday”ni* ishlatsak, g‘aliz bo‘ladi.

Biz “iliq” bilan “issiq”ni ham farqlamay qo‘ydik. Ob-havo ma’lumotida havo salqinroq bo‘lsa, “iliq” so‘zi ishlatiladi. Yozgi issiqlarga nisbatan “issiq” qo‘llanadi. Aslida issiqlik – fizikaga oid tushuncha bo‘lib, darajada aytilganda unga izoh berish shart emas. “Issiq” bir daraja ham, mil-lion daraja ham bo‘lishi mumkin. “Iliq” esa o‘ta nisbiy tushuncha. Shimolda yashovchilar uchun iliq bo‘lgan daraja janubdagilar uchun sovuq bo‘ladi va aksincha. Qat’iy gap shuki, iliqlik hech qanday daraja bilan o‘lchanmaydi yo belgilanmaydi.

…Keyingi paytlarda *“haqiqatdan”, “barchalarimiz”* deyishga o‘rgandik. *“Ma’nan”, “jismonan”, “tabiatan”* deyilgani kabi *“haqiqatan”* demay qo‘ydik. *“Hammamiz”* deganda ko‘pchilikni, barcha-ni tushunamiz, *lekin “barchalarimiz”, “barchalaringiz”* deyishni madaniyat, odob belgisi deb qabul qilib oldik. Ya’ni savodsizlik adabga aylanib boryapti. Boshqa misol kerakmi?! *O‘qinilgan, aytinil-gan* degan so‘zlar kunda-kunora quloqqa chalinyapti. *O‘qimoq*ning majhul nisbati – *o‘qilmoq, aytmoq*niki – *aytilmoq. O‘qinilmoq* degan fe’l yo‘q! Albatta, bir maqolada bunday qusurlarning hammasini sanab o‘tishning iloji yo‘q (*“ilojisi yo‘q”* deyilmaydi).

Odamlar teleradio va gazeta-jurnallar, majlis-u anjumanlardagi gaplarni etalon yo haqiqat sifatida qabul qilishga o‘rgangan. Shunday ekan, aytadigan yo yozadigan har bir narsamizga mas’uliyat bilan yondashishimiz zarur. Aks holda, bu shunchaki loqaydlik emas, o‘z ona tilimizga hurmatsizlik bo‘ladi.

Anvar Boboyev

3.1. Quyidagi lug‘aviy birliklarni izohi bilan moslashtiring. Ulardan foydalanib jum-lalar tuzing.

1. Rasm bo‘lmoq	2. Quyushqondan chiqarmoq	3. Ensasi qotmoq
4. Yerga urmoq	5. Farosati oqsamoq	

( ) Chegaradan, me’yordan chiqarmoq.....
( ) Odat hukmiga kirmoq, odatga aylanmoq.....
( ) Tez va to‘g‘ri fahmlay olmaslik.....
( ) Yoqimsiz gap, harakat kabilardan achchiqlanmoq, g‘ashi kelmoq.....
( ) Ortiq darajada kamsitmoq.....

3.2. Matndagi asosiy va yordamchi fikrlarni moslashtiring.

1	**Asosiy fikr**	A	Odamlar nonni tabarruk bilib, e’zozlaydi.
		B	Ommaviy axborot vositalarida tilni buzib ishlatish mumkin emas.
2	**Yordamchi fikr**	D	Inson adashib shirk keltirib qo‘yishi mumkin.
		E	Fizikada issiqlik va sovuqlik aniq farqlanadi.
		F	Til qoidalariga, tabiatiga amal qilmaslik unga nisbatan hurmatsizlikdir.

3.3. Matnda ishtirok etgan quyidagi so‘zlarni tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajrating.

So‘z	Sodda so‘z	Qo‘shma so‘z	Juft so‘z	Takroriy so‘z
keltirmoq	+	***	***	***
bo‘lar-bo‘lmas	***	***	***	***
har xil	***	***	***	***
gazeta-jurnallar	***	***	***	***
tinchlantirmoq	***	***	***	***
ob-havo	***	***	***	***
shumxabar	***	***	***	***
qabul qilib olmoq	***	***	***	***
kunda-kunora	***	***	***	***
hech kim	***	***	***	***

3.4. Quyidagi so‘zlar yordamida qo‘shma, juft, takroriy so‘zlar yasang va ular ishtirokida bittadan gap tuzing.

qo‘shni | qiyshiq | shirin | bidirlamoq | qaymoq

shuncha | ravon | biyron | kelmoq | yozmoq

Namuna: *shirin*
Qo‘shma so‘z: *shirinso‘z*
Juft so‘z: *shirin-achchiq*
Takroriy so‘z: *shirin-shirin*
Gap: *Eng kamida sizni bolalikning shirin xotiralariga qaytaradi.*

3.5. Matn sarlavhasi nega “So‘zning tuzi nimada?” deb nomlangan? Matnga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.

Sarlavha	Sarlavha tanlashga asos bo‘lgan jihatlar
***	***

1. Muallifning matnga “…*matbuot, teleradio, har xil anjumanlarda eng ko‘p uchraydigan qo‘pol xatolardan ba’zilarini keltiramiz”* jumlasini kiritishdan maqsadi nima?
2. Muallif matnda *“Savodsizlik adabga aylanib boryapti”* deyish orqali nimani ta’kidlamoqchi?
3. Muallifning matnda *“So‘z bilan ilon inidan, pichoq qinidan chiqadi”* naqlini keltirishdan maqsadi nima?
4. Muallifning bu matnni yozishdan asosiy maqsadi nima?

3.6. “Til posboni” vazifasini bajaring. Ko‘cha yozuvlari, reklama bannerlari va ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tili qoidalari qo‘pol buzilgan o‘rinlarni aniqlab, ular ro‘yxatini tuzing. Zarur tavsiyalaringizni yozing.

3.7. Gaplarda qanday xatolik borligini aniqlang va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

1. Parazitlar bilan qanday uy sharoitida kurashish mumkin?

2. Hujjatsiz binoni qurish noqonuniy hisoblanadi.

3. Qanday qilib eshitdingiz? Narilab ancha ketgan edingiz-ku!

Gapda so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay olmaslik uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi: *“Rahbarning qarorlari qanday ichki muhitga ta’sir ko‘rsatmoqda?”* – g‘aliz jumla, *“Rahbarning qarorlari ichki muhitga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?”* – ravon jumla.

3.8. Jadvalda berilgan jumlalarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tuzilgan gaplarga ajrating.

T/R	Jumla	T/N
1	O‘quvchilarga dars berishda qanday o‘qitish metodlaridan foydalanmoqdasiz?	***
2	Futbolda uchta darvozabonning xatosi qimmatga tushdi.	***

3	Bu o‘zgarishlar jadal iqtisodiyotga ta’sir qilishi mumkin.	***
4	Ularning xatti-harakatlari qanday voqealar rivojiga hissa qo‘shmoqda?	***
5	Jamoaga har bir raisning gapi malol kelmas edi.	***
6	Mahalla raisi kim nima deganini birma-bir so‘rab chiqdi.	***

3.9. Jumlalardagi xatolarni aniqlang va daftaringizga to‘g‘rilab yozing.

1. Diplomsiz maktabda dars berish taqiqlangan.
2. Bu yerda ruxsatsiz mahsulotlarni sotish qonunbuzarlik hisoblanadi.
3. Sohaga doir to‘rtta kengashning qarori bajarilmay qolgan edi.
4. O‘n beshta mehmonlar keldi.
5. Bu yumushlarning hammasini bir kunda bajarishning ilojisi yo‘q.

3.10. “Muharrirlar – matnni tahrir qiluvchilar” deganda kimlarni tushunasiz? Ularning sifatlari aks ettirilgan bir xatboshidan iborat matn tuzing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

3.11. Ona tilini yaxshi bilishning boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ta’siri haqida ommabop matn tuzib keling.

3.12. Temur va Oydinoyning suhbatini o‘qing va ularning savollariga siz ham javob bering.



– Salom, Oydinoy! Yaxshimisiz?
Menda bir savol paydo bo‘ldi:
“Dunyoda nega tillar soni ko‘p?”
Buning sababi nimada
deb o‘ylaysiz?

– Salom, Temur! Rahmat, o‘zingiz yaxshimisiz? Rostdan, nega shunday ekan-a?
Nima uchun insonlar
bitta tilda gaplashishmaydi?



3.13. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning.

SUN’IY TILLAR 4

3.14. Audiomatn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Nima uchun sun’iy til yaratishga intilish kuchaygan?

A. *Dunyo xalqlarining nufusi oshgani uchun*
B. *Dunyoda globallashuv kuchaygani uchun*
D. *Dunyoda iqlim o‘zgarishlari ortgani uchun*
E. *Dunyoda madaniyatlar xilma-xil bo‘lgani uchun*

2. Qaysi sun’iy til diniy rahnamolarning yordami orqali yoyishga harakat qilingan?

A. *Solresol* B. *Volapyuk* D. *Esperanto*

3. Universal glot, oksidental, oduvanto, noval, interligva kabi sun’iy tilni yaratishga qaratilgan loyihalar nima sababdan muvaffaqiyatsiz yakunlangan?

A. *Musiqiy ritm va ohangga asoslangani uchun*
B. *Faqat bir guruh tillarni qamrab olgani uchun*
D. *Leksik jihatdan kamchiliklari ko‘p bo‘lgani uchun*
E. *Murakkab konstruksiyalarga asoslangani uchun*

4. Solresol, esperanto va volapyuk sun’iy tillari uchun umumiy bo‘lgan jihat nimada edi?

A. *Boshqa kasb vakillari tomonidan yaratilgan edi.*
B. *Yaratilishi bilanoq ommalashib ketgan edi.*
D. *Musiqiy notalar asosida ishlab chiqilgan edi.*
E. *Maqsad ommaviy yordamchi til yaratish edi.*

5. Qaysi sun’iy til nomi “umidvor” ma’nosini beradi?

A. *Solresol* B. *Volapyuk* D. *Esperanto*

3.15. So‘zlar va ularning izohini moslab ko‘chiring. Diqqat, izohlardan biri ortiqcha!

1	*Sun’iy til*	A	*muayyan mamlakatda ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til*
2	*Dunyo tili*	B	*umumiy bo‘lgan, tabiiy tillarning o‘rinbosari sifatida qo‘llanadigan yordamchi til*
3	*Milliy til*	D	*geografik jihatdan keng tarqalgan va turli jamoa vakillari muloqotda foydalanadigan til*

4	*Davlat tili*	E	*muayyan xalqning umumiy o‘zaro aloqa vositasi*
		F	*insonlarning ona tili bo‘lmagan, o‘rganiladigan boshqa bir xalq tili*

3.16. Yuqoridagi audiomatnning maqsadi va kimlar uchun mo‘ljallanganini aniqlang, matndan javobingizni asoslovchi dalillar toping va daftaringizga yozing.

3.17. Quyidagi so‘zlarning to‘g‘risini aniqlab daftaringizga yozing va o‘qituvchingizga tekshirtiring.

taqazo	unutilib	tatqiqot	kulgili	taxalus
taqozo	unitilib	tadqiqot	kulguli	taxallus

3.18. Dunyo tillari haqida 5 ta qiziqarli fakt topib, daftaringizga yozib keling. Bunda sun’iy idrok yordamidan foydalanishingiz mumkin.

3.19. Quyidagi gaplarning qaysi birida uyushiq bo‘lak ishtirok etganini aniqlab, unga izoh bering.

1. Solresol, volapyuk va esperanto tillari umumiy jihatlarga ega.

2. Foydalanilgani sari esperantoning o‘ta sun’iy ekani namoyon bo‘lib borgan.

Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklar ma’nosini jamlab keladi. Bunday so‘zlar uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, ikki nuqta (:), keyin kelsa, tire (–) bilan ajratiladi. Masalan, ***Barchamiz:*** *o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik bir yurtning farzandlarimiz. // O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik –* ***barchamiz*** *bir yurtning farzandlarimiz.*

3.20. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, quyidagi gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Issiq bilan sovuq qor bilan yomg‘ir suv bilan havo o‘simliklar bilan hayvonlar bularning bari tabiatning kuchlari hisoblanadi. 2. Bog‘da turli mevalar olcha gilos olma pishdi. 3. Anorxon Ergash Sodiq uchovi har tomonga jo‘nadi. 4. Hech narsa na musiqa na ashula na turli o‘yinlar uni ovuta olmas edi.

3.21. *Go‘zalliklar, mutaxassis-olimlar, hamma yer, bari, hech qachon, bog‘lar* umumlashtiruvchi so‘zlari ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga yozing. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.


3.22. Ikki guruhga bo‘lining, quyidagi fikrlarni guruhda muhokama qilib, og‘zaki javob bering. Qarashlaringizni dalillashga harakat qiling. Tayyorlanish uchun 3 daqiqa beriladi.

1-guruh	2-guruh
Butun dunyo aholisi bitta tilda gaplashsa, taraqqiyot tezlashadi.	*Butun dunyo aholisi bitta tilda gaplashishining aslo imkoni yo‘q. Bu dunyo tamaddunini sekinlashtiradi.*

3.23. Jadvaldagi gaplarda tinish belgilari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanganini aniqlang va xatolarini to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.

T/R	Gaplar	T/N
1	O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar: do‘stlik, mehr-oqibat, odamgarchilik, axloqiy teranlik ulug‘lanib kelgan.	***
2	Yig‘ilishda hech kim – na Ulug‘bek, na Muhammadali bu haqda gapirdi.	***
3	Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar: sa’va, bulbul, mayna va boshqalar unga jo‘r bo‘ldi.	***
4	Na qor, na yomg‘ir, na to‘fon va na bo‘ron – hech narsa dovyuraklarni qo‘rqitmadi.	***
5	Gulzorning narigi tomonida daroyi, husayni, yakdona, charos, kishmish: turli uzum ishkomlari bor edi.	***

Diagramma bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring.



3.24. Diagramma asosida quyidagi xulosalarning qaysilari to‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Jumla	T/N
1	Portugal tilida fransuz tilidagidan ko‘ra ko‘proq kishi gaplashadi.	***
2	Hind tilidan 1 milliarddan ko‘proq kishi foydalanadi.	***
3	Rus tilida arab tilidagidan ko‘ra kamroq kishi gaplashadi.	***
4	Ispan tilida bengal tilidagidan ko‘ra ko‘proq kishi gaplashadi.	***
5	O‘zbek tilida taxminan 60 milliondan ortiq kishi gaplashadi.	***

Ona tilingizning o‘ziga xosligi haqida so‘ralsa, avvalo nimalar haqida gapirib bergan bo‘lardingiz? Nima uchun?

3.25. Qaysi tabiiy til hamma foydalanadigan dunyo tili bo‘lishi mumkin? Bu haqda matn tuzing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

TIL SANDIG‘I

“TAVSIF” VA “TASVIR”

Ba’zilar “tavsif” so‘zi o‘rnida “tasvir” so‘zini ishlatadi. Vaholanki, “tavsif” va “tasvir” so‘zlari o‘rtasida ma’no farqi va har qaysisining o‘z ishlatilish o‘rni bor.

Bir narsa sifatlarining og‘zaki yoki yozma bayoni “tavsif”, surat, shakl, rasm yoki sxemasi esa “tasvir” bo‘ladi. Tavsifda kishida tushuncha hosil bo‘ladi, tasvirda tasavvur vujudga keladi. Masalan, bir mashinaning tuzilishini va uning ishini bayon qilish bu o‘sha mashinaning “tavsifi” bo‘ladi. Shu mashinaning rasmi yoki tuzilish sxemasi uning “tasviri” bo‘ladi. Yana bir misol: “miyaning tuzilishi”ni so‘z bilan tushuntirish “tavsif”, uning rasmi yoki sxemasi “tasvir” bo‘ladi.

Ba’zan “tasvir” so‘zi bayonga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Ammo bu faqat “badiiy bayon”ni anglatadi yoki “tavsif” “tasvir” darajasida bo‘lganini bildiradi. Masalan, so‘zlovchi parovozni biror boshqa narsaga o‘xshatsa yoki “parovoz pishqirib kelmoqda” desa, aslida bu ham tavsif bo‘lsa-da, ya’ni so‘z bilan bayon etilgan bo‘lsa ham, buning asosida tasavvur etilgani uchun “tasvir” deyish mumkin. Shunday qilib, “tasvir” so‘zi “tavsif” so‘zi o‘rnida faqat badiiy tasvirga nisbatan qo‘llanishi mumkin ekan.

Alibek Rustamov

1. O‘zbek tilidan dunyoning qaysi davlatlarida foydalaniladi? Nima uchun?
2. Xorijliklar o‘zbek tilini o‘rganishining asosiy sababi nimada?
3. O‘zbek tili turkiy xalqlar uchun markaziy muloqot tili bo‘lishi mumkinmi? Buning uchun nima qilish kerak?

3.26. Matn asosida tuzilgan jumlalar fakt yoki fikr ekanini aniqlang.

Fakt – isbotlangan, hamma tomonidan tan olingan hukm.
Fikr – shaxsiy qarash, subyektiv munosabat.

T/R	Jumlalar	Fikr/Fakt
1	Sun’iy tillar insoniyat tamaddunini yanada yuksaltiradi.	***
2	Hozir sun’iy til loyihalari uch yuzdan oshgan.	***
3	Solresol tili eng yoqimli, insonlarni o‘ziga ohanrabodek tortuvchi til loyihasi edi.	***
4	Esperanto tili loyihasini polshalik shifokor taklif etgan.	***
5	Volapyuk tiliga 1880-yili olmon tilshunosi Yoxann Shleyer asos solgan.	***
6	Rivojlangan davlatlar o‘z tilini butun dunyoga tarqatmoqchi bo‘ladi.	***
7	XIX asr tilshunoslik sohasida ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.	***

3.27. “Tavsif” va “tasvir” so‘zlari kabi yanglish qo‘llanadigan so‘zlar juftligidan 3 ta topib, misollar bilan daftaringizga yozib keling.

***

Kirpich va g‘isht

Bugun rus tilida “g‘isht” ma’nosini bildiradigan **kirpich** so‘zining asli turkiy ekanini ko‘pchilik biladi. Men faqat bu so‘z qaysi qadimiy manbalarimizda qo‘llangani haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Shu bilan kirpichning aynan bizning tilimizga oid so‘z ekani quruq gap emas, aniq manba asosida ochiladi.

Mahmud Koshg‘ariyda bu so‘z **kerpich** shaklida keladi. “Devonu lug‘otit-turk”ning 1-jildida shunday izoh bor: *“Kerpich – kirpich, g‘isht. Bishig‘ kerpich – pishiq g‘isht”*.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ulug‘lardan Qosim Harbiy haqida shunday deydi: “Boshi ostida bir kirpich erdi va yana ostida bir pora buriyo (bo‘yra)”. Shuningdek, Navoiyning “Vaqfiya” asarida bir gap bor: “Hamonoki, ul toshni mehnat tog‘idan toshib erdilar va devori ham xom kirpichdin erdi”.

Ba’zilar ***kirpich*** so‘zi asli *kirbish* bo‘lgan va u *kir* + *bish, kir “loy”, bish* esa pishirilgan ma’nosidagi “pish” so‘zlaridan hosil bo‘lgan deyishadi. Garchi bu fikrlar qiziq bo‘lsa-da, ularni aniq va asosli deyish shubhaliroq. Chunki Koshg‘ariyda bu so‘z kirpichmas, kerpich shaklida kelgan. Qolaversa, Koshg‘ariyda *kir* so‘zi *loy* ma’nosida kelmagan, “kir” va “iflos” ma’nosida kelgan. Rus tilida loyni “gryaz” deyishadi, lekin bizda loyga nisbatan kir va iflos so‘zlari qo‘llanmagan. Balchiqqa nisbatan shunday munosabat bo‘lgan. Holbuki, loy boshqa, balchiq boshqa.

Tovar

Rus tilida ham faol qo‘llanadigan tovar so‘zining asli ruscha emas, turkiy ekanini bugun ko‘pchilik biladi. Shuning uchun bu haqda ko‘p to‘xtalmasdan, bir nechta aniq misolni keltirib o‘tmoqchiman.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”ida shunday satr bor:

Chig‘ayqa ulädi üküsh neñ tavar.

Ma’nosi: *Kambag‘allarga ulashdi ko‘p mol-tovar.*

Ko‘rib turganimizdek, bu yerda *tovar* so‘zi *mahsulot, mol* ma’nosida kelyapti.

Jir va moy

Alibek Rustamovning “So‘z xususida so‘z” kitobida ta’kidlanishicha, *jir* so‘zi tilimizda “yog‘”, “moy” ma’nosini anglatadi. Ozg‘in kishiga nisbatan “Bunga hech jir bitmayapti” yoki “Buning hech jiri yo‘q” degan iboralar shu mazmundan kelib chiqqan (o‘zbek tilidagi jirda jar so‘zidagi kabi “j” talaffuz qilinadi). Shunisi qiziqki, rus tilidagi *jir* so‘zi asli bizning tilimizdagi ayni shu *jir* so‘zining o‘zidir. Chunki *jir* so‘zining turkiy ekani Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida qayd etilgan.

Ura! Ura! Ura!

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da “ura” so‘ziga “qichqiriq, ura, ura deb hujumga o‘tish, ko‘tarinki ruh bilan, qizg‘in” deb izoh berilgan. Anton Semyonovning “Rus tilining etimologik lug‘ati” kitobida *ura* so‘zi nemis tilidagi “hurra” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tez harakatlanish” ma’nosini anglatadi va bu so‘z rus tilida XVIII asrdan keng qo‘llana boshlagan deb izohlanadi.

Biroq *ura* so‘zi turkiy so‘z ekani haqida ko‘pgina manbalarda aytilgan. Bu so‘z bizning tilimizda X–XI asrlarda ham faol qo‘llangani haqida ma’lumotlar bor. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da *uri* so‘ziga shunday izoh beradi: “Uri – tovush, baqiriq, hurish, faryod”. Koshg‘ariyning bu izohi “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”dagi *qichqiriq* degan izohga to‘g‘ri keladi. Koshg‘ariy “uri qobsa, og‘ush aqlishur”, ya’ni “uri ko‘tarilsa, urug‘lar to‘planadilar” degan misolni keltirib o‘tadi. Bunda *ura* bilan *uri* so‘zlari har jihatdan yaqinligini sezayotgandirsiz. Ba’zilar “ura” so‘zini tilimizdagi “ur-ho-ur”dan kelib chiqqan deyishadi.

Ozarbayjon olimi Mamadali Qipchoq o‘zining “So‘z olamiga sayohat” kitobida *ura* so‘zi qadimgi shumerlar urush ma’budining nomi “Ur” so‘zidan kelib chiqqanini aytib, “Jangga kirishdan oldin uning nomini aytib baqirib-chaqirganlar va g‘alaba qozonish uchun yordam so‘raganlar”, deya izohlaydi. Semyonovning bu so‘z ildizini nima uchun turkiy tillardan izlab ko‘rmagani sababini bilmadim-u, lekin yuqorida keltirilgan misollar *ura* so‘zining turkiy ekanini dalillaydi.

Eshqobil Shukur

3.28. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.

3.29. Quyidagi so‘zlarning izohini yozing.

tovar | g‘isht | ura

3.30. *Jir, moy va yog‘* so‘zlari izohidagi farqlarga asoslanib nuqtalar o‘rniga eng mosini qo‘ying va ko‘chiring.

1. Mol boqqanning barmog‘idan … tomar. 2. Bobom qo‘y …ida osh damladilar. 3. Ukajon, do‘stingizga hech … bitmadi. 4. Qozonga 5 litr zig‘ir …i quyilib, 20 daqiqa qizdirildi. 5. Zaytun …i ko‘plab kasalliklarga shifo.

3.31. Quyidagi so‘zlarning to‘g‘risini aniqlab daftaringizga yozing va o‘qituvchingizga tekshirtiring.

universetit	namoyonda	qadiriyat	uyg‘in	zahira
universitet	namoyanda	qadriyat	uyg‘un	zaxira

3.32. Guruhlarga bo‘lining, o‘zbek tilidan boshqa tillarga o‘tgan so‘zlar ro‘yxatini shakllantiring. Ustozingiz yordamidan foydalanishingiz mumkin.

1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
utyug	qalpoq	palov	yonbosh (milliy kurash)
***	***	***	***

3.33. Boshqa tillarda tarjimasi, muqobili bo‘lmagan o‘zbekcha so‘zlar ro‘yxatini tuzib keling. Masalan, *sovchi, choyxona*... Bunda SI imkoniyatlaridan foydalaning.

3.34. Quyidagi gaplar inkor yoki tasdiq mazmunini ifodalayotganini aniqlang. Mazmuniy o‘zgarishlarga baho bering va o‘qituvchingiz bilan muhokama qiling.

1. U “O‘tkan kunlar” romanini o‘qidi.
2. U “O‘tkan kunlar” romanini bir o‘tirishda o‘qib qo‘ydi.

3. U “O‘tkan kunlar” romanini o‘qimay qo‘ymadi.
4. U “O‘tkan kunlar” romanini o‘qiy olmadi.
5. U “O‘tkan kunlar” romanini o‘qimadi.
6. U “O‘tkan kunlar” romanini o‘qigani yo‘q.

Ba’zan gapning inkor shakli orqali tasdiq yoki tasdiq shakli orqali inkor ma’nosi ifodalanadi. Bu ifoda ta’sirchanligini oshiradi: *U kelsa, do‘stini ko‘rmay ketmaydi.* (U kelsa, do‘stini **albatta** ko‘rib ketadi.) *O‘zbeklarda kim ota-onasini hurmat qilmaydi?!* (O‘zbeklarda **hamma** ota-onasini hurmat qiladi.) *Bu yerda kim yolg‘on gapirishga jazm qila olardi?!* (Bu yerda **hech kim** yolg‘on gapirishga jazm qila olmaydi.)

3.35. Jadvalda berilgan gaplar inkor yoki tasdiq mazmunini ifodalayotganini aniqlang. Mazmuniy o‘zgarishlarga baho berib, bunga qaysi grammatik shakllar sabab bo‘layotganini muhokama qiling.

T/R	Gaplar	Tasdiq/Inkor
1	Yaqin orada O‘zbekistonga borolganim yo‘q.	***
2	U O‘zbekistonga kelsa, Samarqandga bormay qo‘ymaydi.	***
3	O‘zbeklarda kim ustozini hurmat qilmaydi?!	***
4	Uning O‘zbekistonga qaytib kelish niyati yo‘q emas.	***
5	Kech bo‘ldi, uyga qaytmaymizmi?	***
6	Bu daraxtni kesishga kim jur’at qila olardi?!	***
7	Axir qush uyasida ko‘rganini qiladi.	***

3.36. Shaklan inkor, mazmunan tasdiq hamda shaklan tasdiq, mazmunan inkor gaplarga 3 tadan misol yozing.

3.37. “Musht ketdi” o‘yinini o‘ynang. Bunda o‘quvchilar ketma-ket joylashadi. Birinchi o‘quvchiga biror gap past ovozda aytiladi. O‘quvchi eshitganini keyingi o‘quvchiga past ovozda aytadi. O‘yin shu tariqa davom etib, eng oxirgi o‘quvchi eshitganini hammaga baralla aytadi. Jumla mazmunidagi o‘zgarish muhokama qilinadi va xulosa chiqariladi.

3.38. “BANDARGOH” so‘zi tarkibidan hozirgi o‘zbek adabiy tilida alohida ma’noga ega (mustaqil) so‘zlarni toping va daftaringizga yozing. (Harflar o‘rni almashtirilmasin!)

3.39. Quyidagi topshiriqlarni bajarib, javobini daftaringizga yozing.

1. “Non” so‘zi “un” so‘ziga ishora qilsa, “qand” so‘zi qaysi so‘zga ishora qiladi?
2. *Yaxshi-yomon, oq-qora, ota-ona, baland-past.* Ushbu juftliklardan qaysi birida bir-biriga zid ma’noli so‘zlar qatnashmagan?
3. “BESHQO‘L” so‘zi tarkibidan hozirgi o‘zbek adabiy tilida alohida ma’noga ega (mustaqil) so‘zlarni toping va daftaringizga yozing. (Harflar o‘rni almashtirilmasin!)

CHORAK BO‘YICHA MUSTAHKAMLASH

1. Qo‘shimcha va so‘zlarning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatolarni aniqlang. Ularni to‘g‘rilab ko‘chiring.

daraxtni yaprog‘i, ota-ona ila ko‘rishmoq, kitobning so‘nggi, xonani eshigi, so‘ngi daqiqa, hovlilarni tozalandi, haqiqat-chun kurashmoq, do‘ppi tikgani kelmoq, qor yog‘ganda, olovni yoqqach, yumshoqqina yostiq, o‘quvchilar tanlovda ishtirok etishdilar, to‘rt nafar nomzodlar, butun sinf o‘qidilar, xatni yozilishi, odamni kutdirmoq, el orzulari

2. Gaplarni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi ma’noda kelganini aniqlang. O‘z ma’nosida kelgan so‘zlarni ko‘chma ma’noda, ko‘chma ma’noda kelgan so‘zlarni esa o‘z ma’nosida qo‘llab 6 ta gap tuzing.

T/R	Gaplar	O‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’no
1	Kinoning **bosh** qahramoni o‘z rolini juda ishonchli ijro etgan, hammamiz lol qoldik. *(Suhbatdan)*	***	***
2	Abduqodirning ham **tomog‘iga** bir narsa tiqildi, shekilli, gapira olmadi. *(O‘. Umarbekov)*	***	***
3	Balki ustoz Oybekdek **to‘lib** Yozajaksan yangi bir doston. Balki Habib Abdulla bo‘lib Sahrolarda ochajaksan kon. *(A. Oripov)*	***	***
4	Ana shu ajriqzordan sal o‘tgandan keyin qishloqcha **boshlanadi.** *(Sh. Xolmirzayev)*	***	***
5	Komil bosh irg‘adi: – Havo **ochilyapti-ku**! – Ochilishga ochilgan-u, ammo-lekin ayoz… *(O. Yoqubov)*	***	***

3. Matndagi asosiy va yordamchi fikrlarni ajratib ko‘chiring.

Sabr-qanoat – oila hayotidagi qiyinchiliklarga nisbatan sabr qilish va barcha narsaga qanoat qilish qadriyati. Sabr-qanoat oilaviy hayotda muhim axloqiy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyat oila a’zolarining hayotdagi qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berishlarini, mavjud holatga shukrona qilib yashashlarini va xotirjamlik bilan qaror qabul qilishlarini anglatadi. Sabr va qanoat nafaqat oilaning ichki muhitini sog‘lomlashtiradi, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham mustahkamlaydi. Sabr-qanoat oila va jamiyat hayotida barqarorlik, ishonch va mehr-oqibatni saqlash uchun zarur bo‘lgan asosiy axloqiy qadriyatlardan biridir. Bu qadriyat insonlarni ichki xotirjamlikka, totuvlikka va ma’naviy yuksaklikka erishishga undaydi.

4. Gaplarda kelishik va egalik qo‘shimchalarining qo‘llanishiga e’tibor qarating. Ulardagi uslubiy xatolarni aniqlang va gaplarni to‘g‘rilab yozing.

1. Asfalt yo‘lda mashinalar g‘iz-g‘iz o‘tib turar edi.
2. Ustozni yonida yur, hunarini egallashga intil.
3. Kurash bo‘yicha musobaqalar bahorga bo‘lib o‘tadi.
4. Faqat erinchoq xo‘rozlargina olis-olislarda ovoz berib qo‘yardi.
5. Dehqonlar erta bahorda to kuzgacha tinim bilmay ter to‘kadilar.
6. Faqat bilishning o‘zi yetarli emas, bilimlarni qo‘llay olish ham kerak.

5. Umumlashtiruvchi bo‘laklarni toping, tushirilgan tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Umrzoq hamma narsani konvertni ham, mayda-mayda qilib xat yozilgan oq qog‘ozni ham, undan keyin cheti qora hoshiyali pushtirang qog‘ozni ham ko‘rdi. 2. Hovuz bo‘yida o‘tirgan yigit ikki hovuchini to‘lg‘azib suv olar, zavq bilan yuzini, bo‘ynini, ko‘kraklarini barcha qoraygan joylarini yuvar edi. 3. Tog‘ etaklari hali ham ko‘m-ko‘k bo‘lib, turli go‘zalliklar bilan sariq va qizg‘ish tusdagi boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o‘sma qo‘ygan lolalar bilan yasangan edi. 4. Oldin mutaxassis-olimlar geologlar, gidrogeologlar, geodezistlar keldilar. 6. Kanalning ikki qirg‘og‘ida g‘uj-g‘uj bo‘lib turgan odamlar erkaklar, ayollar va bolalar shod-xurram, o‘yin-kulgi avjida.

6. Shaklan inkor, mazmunan tasdiq hamda shaklan tasdiq, mazmunan inkor gaplarga 4 tadan misol yozing.

Namuna:

a) Kim onasini yaxshi ko‘rmaydi?! (Mazmuni: Hamma onasini yaxshi ko‘radi.)

b) Kim unga gapirishga jur’at qila oladi? (Mazmuni: Hech kim unga gapirishga jur’at qila olmaydi.)

IV BOB


FAN VA TEXNOLOGIYALAR



Olimlar qanday faoliyat bilan shug‘ullanishadi? Qaysi olimlarning kashfiyotlari bilan tanishsiz?

***

I



“Algebra” so‘zi al-Xorazmiyning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” risolasi nomidagi “al-jabr” so‘zidan olinganini bilsangiz kerak. Xorazmiy arifmetikaga oid “Qo‘shish va ayirish haqida kitob”, geografiyaga oid “Yer surati haqida kitob”, astronomiyaga oid “Zij”, “Usturlob bilan ishlash haqida kitob” singari 20 dan ortiq asarlar muallifidir.

Ma’lumotlarga qaraganda, al-Xorazmiy yozgan “Qo‘shish va ayirish haqida kitob”ning lotin tilidagi tarjimasi bundan yetti asr muqaddam ko‘chirilgan bo‘lib, mazkur yagona nusxa Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Al-Xorazmiyning risolasi “Diksit Algorizmi”, ya’ni “al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlangan. Asarda Xorazmiy o‘nlik sanoq tizimining afzalligini isbotlaydi, shuningdek, har qanday yirik sonni ham lo‘nda qilib ifodalash mumkinligini aytadi. Bu Yevropa xalqlari uchun yangilik edi. Chunki ular bungacha Rim raqamlaridan foydalanishar, bu raqamlarning imkoniyati cheklangani bois turli hisob-kitoblarda katta mashaqqatlarga duch kelishardi.

Al-Xorazmiy 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlarining yozilishini batafsil bayon qilib, ularning qulayliklarini, ayniqsa, 0 raqamini ishlatishning ahamiyatini alohida qayd etadi.

II



Abu Rayhon Beruniy yirik ilmiy kashfiyotlari bilan jahon tamadduniga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk olim hisoblanadi. Hozirgi zamon fanlarining barchasida Beruniyning ilmiy kashfiyotlaridan u yoki bu tarzda foydalaniladi.

Olim birinchi bo‘lib Yer shari globusini yasagan. Bu ixtirodan geograflar bugun ham foydalanmoqda.

Buyuk ixtirochi o‘zining “Hindiston” asarida shunday yozadi: “Yerning aylanish harakati astronomiya fani hisoblariga hech qanday zid kelmaydi, balki Yerda yuz beradigan hodisalar uning harakati bilan birga bir tekis davom etaveradi”. Bunday fikrga Galileo Galiley Beruniydan 600 yil keyin kelgan. Beruniy xuddi shu asarida Xristofor Kolumbdan 450 yil ilgari ummon ortida hozirgi Amerika qit’asi bo‘lishi mumkinligini bashorat qilgan edi.

U geografik kenglikni hisoblashda qo‘llagan usulni XVI asrda Tixo Brage kashf etgan deb kelinadi, vaholanki, bu usulni Beruniy undan olti asr oldin ishlatgan.

“Bir daqiqa vaqtni behuda o‘tkazganim – halok bo‘lganim”, – degan edi buyuk alloma.

III



Ahmad al-Farg‘oniy – jahonga dong‘i ketgan astronom, matematik, muhandis, gidrotexnik. Yevropada u Alfraganus nomi bilan mashhur.

Allomaning asosiy asari – “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi XII–XIII asrlarda Yevropa tillariga tarjima qilingandan so‘ng olimning ismi lotin tiliga “Alfraganus” shaklida o‘girildi va u g‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaldi. Farg‘oniyning bu kitobi o‘sha davrlarda Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi.

Ahmad Farg‘oniy xalifa Mutavakkilning farmoni bilan Qohirada Nil daryosidagi Ravzo orolida miqyos – suv sathini o‘lchovchi asbob yasaydi. Bu inshoot 861–865-yillarda qurilgan. O‘n bir asrdan ortiq xalq xizmatida bo‘lgan suv inshooti – Asvon to‘g‘oni qurilgach, o‘z ishini to‘xtatgan va muzeyga aylantirilgan.

IV

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali ibn Sino qomusiy olim edi, u o‘z davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan shug‘ullangan. Ilmiy adabiyotlarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asar qayd etilgan. Ammo bizgacha ularning yarmi yoki undan sal ko‘prog‘i yetib kelgan xolos.

Ko‘p qirrali qobiliyat sohibi Ibn Sino ayniqsa falsafa va tabobat sohalarida o‘chmas iz qoldirdi, jahonga mashhur tabib sifatida tanildi. Olimning shoh asari – “Tib qonunlari” unga katta shuhrat keltirdi. O‘z mazmuniga ko‘ra, mazkur asar tibbiy bilimlarning nodir majmuasi – qomusi hisoblanadi.

“Qonun”ning ikkinchi kitobida asosan o‘simliklardan tayyorlanuvchi 760 ta dorining xususiyati, ularni tayyorlash va iste’mol qilish usullari haqida muhim fikr-mulohazalar keltiriladi.



“Buyuk yurt allomalari” kitobidan

4.1. Boshqotirmada qanday so‘zlar yashiringanini aniqlang. Ularni mos izohlari bilan daftaringizga yozing.

1	kam topiladigan, noyob
2	texnikaning muayyan bir sohasiga ixtisoslashgan mutaxassis, injener
3	yulduzlarning joylashuv o‘rnini aniqlaydigan astronomik asbob
4	suvni to‘sish, suv oqimini boshqarish uchun xizmat qiladigan gidrotexnik qurilma, inshoot
5	ayrim masalalarga bag‘ishlangan ilmiy asar, kitob

6	burun, ilgari, oldin
7	madaniyat, sivilizatsiya
8	yer yuzidagi quruqlikning atrofidagi orollar bilan birga shartli ravishda ajratilgan qismi

A	I	N	O	D	I	R	D	L	O
T	O‘	G‘	O	N	S	T	M	U	H
M	U	H	A	N	D	I	S	A	M
A	T	A	M	A	D	D	U	N	U
U	S	T	U	R	L	O	B	S	O
L	A	N	R	I	S	O	L	A	D
Ch	M	U	Q	Q	A	D	D	A	M
Sh	H	Q	I	T	’	A	S	U	F

1. Al-Xorazmiyning “Qo‘shish va ayirish haqida kitob”i nima maqsadda lotin tiliga tarjima qilingan?
2. Matn asosida Abu Rayhon Beruniyning eng muhim kashfiyotlaridan birini ayting.
3. *“Bir daqiqa vaqtimni bekor o‘tkazganim – halok bo‘lganim”* deganda nimani tushunasiz?
4. Al-Farg‘oniyning “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” nima sababdan bir necha tillarga tarjima qilingan?
5. Ibn Sino nomining Yevropada “Avitsenna”ga o‘zgarib ketishi sabablari haqida fikr bildiring.

4.2. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. “Qo‘shish va ayirish haqida kitob” asarining asosiy yangiligi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A. Asarda olim qo‘shish va ayirishning qulay va oson usullari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarni beradi.

B. Risolada Xorazmiy arifmetik amallarni bajarishning zamonaviy usullari haqida ma’lumot beradi.

D. Asarda o‘nlik sanoq tizimining afzalligi isbotlanadi va yirik sonlarni lo‘nda ifodalash mumkinligi aytiladi.

E. Qomusiy olim ushbu risolasi orqali matematika fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shadi.

2. Abu Rayhon Beruniy haqidagi ma'lumotlarni fikr va faktga ajrating. Matndan mustaqil ravishda 1 ta fakt va 1 ta fikr topib, yozing.

T/R	Ma'lumotlar	Fikr/Fakt
1	Abu Rayhon Beruniy – jahon tamadduniga yirik ilmiy kashfiyotlari bilan salmoqli hissa qo'shgan olim.	***
2	Olim birinchi bo'lib Yer shari globusini yaratgan.	***
3	Globusdan barcha geograflar, har bir ziyoli bugun ham foydalanmoqda.	***
4	Beruniy X asrda geografik kenglikni hisoblashning o'ziga xos usulini yaratgan.	***
5	Beruniy vaqtni qadrlaydigan shaxs bo'lgan.	***

3. Matnda Ahmad Farg'oniyga xos qaysi ma'lumotlar izohlanganini aniqlang. Izohlanmagan sifatlarni o'zingiz sharhlab yozing.

T/R	Ma'lumotlar	Izoh bor	Izoh yo'q
1	Ahmad Farg'oniy – astronom	***	***
2	Ahmad Farg'oniy – matematik	***	***
3	Ahmad Farg'oniy – muhandis	***	***
4	Ahmad Farg'oniy – gidrotexnik	***	***

4. Abu Ali ibn Sino haqidagi matndan 3 ta fikr va 3 ta fakt topib, yozing.

T/R	Fikr	Fakt
1	***	***
2	***	***
3	***	***

4.3. Har bir matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin? Fikringizni izohlang.

Matnlar	Sarlavha	Sarlavha tanlashga asos bo'lgan jihatlar
***	***	***

4.4. Abu Rayhon Beruniyning vaqt haqidagi fikriga quyidagi hikmatli so'zlarning qaysi biri mos kelishini aniqlang. Ushbu hikmatli so'z asosida 200–300 so'zdan iborat matn tuzing.

1	Vaqti kelib fan xayoldan o‘zib ketadi. *(Jyul Vern)*
2	Bekor o‘tgan umr barvaqt o‘lim topish demakdir. *(Gyote)*
3	“Vaqt o‘tyapti!” deymiz sal hazinlik bilan. Bu gapni inson o‘zini ovutish uchun o‘ylab topgan. Aslida biz o‘zimiz o‘tyapmiz. *(Asqad Muxtor)*
4	Ilm egallashdagi eng keraksiz narsa dimog‘dorlik, eng zarur narsa vaqtdir. *(Zenon)*
5	Ko‘rdimki, vaqtini “esiz”, “qaniydi”, “koshkiydi”lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan. *(Najmiddin Kubro)*



4.5. Quyidagi so‘zlar qaysi jihatlariga ko‘ra guruhlangan? Ularni davom ettiring.

avlod – ajdod	katta – ulkan	band (*band* bo‘lmoq, gulning bandi)	azim – azm
ilmiy – g‘ayri ilmiy	sovg‘a – hadya	davlat (*davlat* arbobi, davlati ko‘p odam)	burch – burj
zarar – foyda	solishtirmoq – taqqoslamoq	kechik (*kechik*dan o‘tmoq, ishga kechikmoq)	davo – da’vo
***	***	***	***



4.6. Shakldosh (omonim) so‘zlarga mos izohlarni topib, yozing. Har bir so‘zdagi ikkita ortiqcha javobni aniqlang.

QADOQ	palak otib o‘sadigan o‘simlik	choy damlanadigan idish
	qog‘ozga, boshqa narsaga joylangan ma’lum miqdordagi choy	teridagi qattiq qavariq
BARGAK	quritilgan danaksiz o‘rik	tolning erta ko‘klamdagi novdasi
	quritilgan danakli o‘rik	qayrag‘ochning bargi
CHAQMOQ	tabiat hodisasi	sir saqlash
	o‘tkir tig‘li asbob	qandning bir bo‘lagi
ZANG	baland ovoz	metall sirtining yemirilishi
	tokning qalin tanasi	cholg‘u asbobi

Omonimlar talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ma’no ifodalovchi birliklardir.

Omonimlar bilan ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlash kerak.

Omonimlar bir xil shaklga ega bo‘lgan turli so‘zlardir: *burun* (yuz qismi) – *burun* (avval). Ko‘p ma’noli so‘zlar esa bir so‘zning turli ma’nolaridir: *burun* (yuz qismi) – *burun* (choynakning qismi).

Omonimlar ham, ko‘p ma’noli so‘zlar ham qanday ma’noda kelayotgani matn orqali aniqlanadi.

Lug‘atlarda omonim so‘zlar rim raqamlari bilan tartiblanadi:

Rasm I. Qo‘lda chizilgan, bosma yoki fotografik tasvir, surat.

Rasm II. Biror jamiyatda odat hukmiga kirgan tartib-qoida; urf, udum, taomil.

4.7. Namuna asosida omonim so‘zlarning ma’nosini yozing. Diqqat, qavs ichida so‘zning nechta shakldoshini topishingiz ko‘rsatilgan. Yozgan so‘zlaringiz ma’nosini izohli lug‘atdan tekshiring.

Namuna:	AZOT (2)	1) ko‘tarmoq, dast ko‘tarmoq; 2) kimyoviy element.

band (4)	dam (4)	erish (2)	kech (3)	luqma (2)
soz (3)	tom (4)	xayr (2)	chek (5)	chog‘ (4)

4.8. Maqollarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonimini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Qaysi so‘zlar omonimlikdan tashqari ko‘p ma’nolilikni ham hosil qiladi? Misol keltiring.

Barakat mag‘izda,
Hunarli qo‘l **og‘iz**da.

***

Yuzga kirsang, **yuz** yil o‘qi.

***

Ilm qog‘oz **qat**ida emas, miya qatida.

Aql ko‘pga yetkazar,
Hunar – **ko‘k**ka.

***

Ilmi borni **yosh** dema,
Ilmi yo‘qni **bosh** dema.

***

Oltin olma, bilim **ol**,
Bilim olsang, bilib ol.

4.9. To‘rtta tuyuq toping. Unda qo‘llangan omonim so‘zlarning har biriga izoh yozing.

Sarlavha asosida ayting-chi, matn nima haqida bo‘lishi mumkin?

BIOINFORMATIKA QANDAY FAN?

Bioinformatika rivojlangan davlatlar ilmiy **jamoatchiligi** orasida tez-tez **quloqqa** chalinadigan atamalardan biriga aylanib bo‘ldi. Vaholanki, bir necha o‘n yillar avval biologiya va informatikani bir-biridan alohida fan sifatida tushunar edik. Lekin buni qarangki, biologiya va informatika fanlarining ham o‘zaro kesishgan nuqtasi bor ekan. Ana shu nuqtada bioinformatika fani yuzaga kelgan.

Bioinformatika – biologik ko‘rsatkichlarni ifodalashda foydalaniladigan usullar va dasturlarni ishlab chiquvchi fan. Tadqiqotchi biologiyaning biror sohasida tajribalar olib borgani sayin shu yo‘nalishga oid biologik ma’lumotlar ko‘lami ortib boraveradi. Bu esa ularni qo‘lda analiz qilish imkonini qiyinlashtiradi. Xuddi mana shu yerda biolog axborot texnologiyalariga ehtiyoj seza boshlaydi. Biologik ko‘rsatkichlarni kompyuter **unga** yuklangan dastur asosida hisoblaydi, guruhlarga ajratadi, analiz qiladi, qayta ishlaydi. Bu ishning aniq va qisqa vaqtda bajarilishini ta’minlaydi.

Bioinformatika qayerda qo‘llanadi?

Rivojlangan dunyoda alohida fanlar katta **yutuqqa** erisha olmaydi. Integratsiyalashgan fanlar yoki yo‘nalishlar esa nisbatan ulkan natijalarga erisha oladi. Shu bois agar biolog ham axborot texnologiyalaridan, dasturlash tillaridan xabardor bo‘lsa, mehnat bozorida unga ehtiyoj katta bo‘ladi, natijada yuqori daromadga erishadi. Ayni vaqtda *farmatsevtika, biotexnologiya, tibbiyot, biokimyo, biofizika, ekologiya, filogenetika, genetika* kabi sohalarda bioinformatika fani va uning metodlariga talab ortib bormoqda. Hatto *sistematika, zoologiya, botanika* kabi fanlar ham so‘nggi o‘n yillikda bioinformatikaga tez-tez murojaat qilmoqda. Ayniqsa, turlarni aniqlash borasida bioinformatika usullaridan keng foydalanilmoqda.

Qisqacha tarixi

1970-yilda niderland nazariyotchi biologi Polina Hogeveg va Ben Hesper biotik tizimdagi informatsion jarayonlarni tadqiq etish davomida *bioinformatika* degan terminni qo‘llagan.

Dastlab 1950-yillarda Frederik Senjer insulin oqsilining ketma-ketligini aniqlagan vaqtdayoq molekulyar biologiya fanida kompyuterlarning ahamiyati orta boshlagan. Boisi bir necha xil organizmlardagi insulin oqsilining **ketma-ketligi** tartibini o‘zaro qo‘lda solishtirib chiqish amaliy jihatdan imkonsiz bo‘lgan. Bu sohada ishlagan ilk tadqiqotchilardan biri Margaret Oukli Deyhoff edi. U birinchilardan bo‘lib oqsil ketma-ketligi haqidagi ma’lumotlarni to‘plab, uni kitob holida chop etdi va molekulyar evolyutsiya sohasida o‘zaro bir qatorga jamlangan oqsil yoki nukleotidlar ketma-ketligini qo‘llash metodikasini ishlab chiqdi. AQSHdagi Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) direktori Devid Lipman uni *bioinformatikaning otasi va onasi* deb atagan edi.

Bioinformatikaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?

Normal hujayraning turli kasalliklar vaqtida qanday o‘zgarishini tadqiq etish uchun avvalo u haqdagi barcha biologik ko‘rsatkichlar o‘zaro umumlashtirilishi va bir butun sistemaga aylantirilishi lozim edi. Mana **shundagina** olimlar hujayraning holatiga yaxlit nazar solish imkoniga ega bo‘lardilar. Xuddi mana shu nuqtada bioinformatika olimlarga juda qo‘l kela boshladi. Uning metodlari yordamida hujayradagi barcha ko‘rsatkichlarni umumlashtirish, tahlil qilish va biror yo‘nalishda talqin etish imkoni mavjud edi. Hujayradagi ushbu ko‘rsatkichlarga nukleotidlar va aminokislotalar ketma-ketligi, oqsil domenlari va oqsil tuzilishi kiradi. Ma’lumotni tahlil qilish va talqin qilishning dolzarb jarayoni *hisoblash biologiyasi* deb ataladi.

Qo‘llanadigan eng muhim sohalari

Ayni vaqtda bioinformatika biologiyaning juda ko‘p sohalarida qo‘llanadi. Shulardan biri evolyutsion biologiyadir. Evolyutsion biologiya turlarning kelib chiqishi hamda uzoq vaqt mobaynida qanday shakllanishini tadqiq etadi. Bioinformatika quyidagi yo‘nalishlarda evolyutsion biologlarga yordam beradi:

– ko‘pgina organizmlar (tur sonining ahamiyati yo‘q) DNKsidagi o‘zgarishlarni o‘rgangan holda ularning evolyutsiya jarayonini tadqiq etishda;

– butun boshli genomlarni solishtirishda;

– populyatsiyalarning kompyuter modelini ishlab chiqishda;

– juda ko‘p turlar haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan maqolalarning yaratilishida.

Baxtiyor Sheraliyev

4.10. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Qaysi so‘zning izohi berilmaganini topib, uning ma’nosini ayting.

tadqiqotchi	nuklein kislotalar, kofermentlar va boshqa biologik faol birikmalarning tarkibiy qismi
integratsiya	molekulasida amin va karboksil guruhi bo‘lgan organik birikmalar
genetika	tekshirish, o‘rganish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs
insulin	barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan irsiyat va turli irsiy o‘zgarishlarni o‘rganadigan soha
nukleotid	fanlarning o‘zaro bog‘lanish jarayoni
aminokislota	organizmda uglevod almashinuvini tartibga solishda ishtirok etadigan gormon va undan tayyorlanadigan dori
domen	***
evolyutsiya	***

1. Ushbu maqola nima maqsadda yozilgan?
2. Lug‘atda berilgan so‘zlarga asoslanib ayting-chi, muallif qanday turdagi maqolalarni yozadi?
3. Bioinformatika faniga zarurat paydo bo‘lishining sabablarini tushuntiring.
4. Bioinformatikaning asosiy vazifasi nimadan iborat?
5. Bioinformatika faniga ehtiyoj seziladigan sohalarni sanang. Bu fan qanday qilib ushbu sohalar taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladi?
6. Bioinformatika qaysi fanlarning integratsiyasidan paydo bo‘lgan? Yana qaysi fanlarning integratsiyasi ilm va texnologiyalar taraqqiyotiga xizmat qilmoqda?

4.11. Matn asosida topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.

1. Bioinformatikaga eng to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni aniqlang.

A. Biologiya va informatika fanlarining o‘zaro kesishgan nuqtasi, ya’ni integratsion fan.
B. Biologik ko‘rsatkichlarni ifodalashda foydalaniladigan usul va dasturlarni ishlab chiquvchi fan.
D. Biologik ma’lumotlar ko‘lamini dastur va texnika yordamida saqlash imkonini beradigan fan.
E. Biologik ko‘rsatkichlarni yuklash, guruhlarga ajratish, analiz qilish va qayta ishlashga oid fan.

2. Matnga ko‘ra, bioinformatika fani qachon paydo bo‘lgan?

A. Bir necha o‘n yillar avval
B. Bir necha yillar avval
D. XX asrning o‘rtalarida
E. XX asrning 70-yillarida

3. Bioinformatika fanining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omilni yozing. Fikringizni matnda berilgan ma’lumotlar asosida dalillang.

4. Muallif matnda ushbu sohaning fan rivojiga qo‘shadigan qanday afzalliklarini tilga olgan?

- katta hajmli ma’lumotlar bilan bir vaqtda ishlash imkoniyatining mavjudligi
- soha mutaxassislarining kamligi, natijada ushbu soha vakillarida katta moliyaviy manbaga erishish imkoniyatining mavjudligi
- biologik ko‘rsatkichlarni elektron shaklga keltirish, ularni analiz qilish imkoniyatining mavjudligi
- elektron shakldagi biologik ko‘rsatkichlarni qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi
- soha vakillarida o‘zaro ma’lumot almashish va tez-tez muloqot qilish imkoniyatining mavjudligi
- o‘simlik va hayvonot turlarini qisqa vaqtda aniqlash imkoniyatining mavjudligi

5. Ma’lumotlarni sabab – natija, maqsad – natija munosabati asosida o‘zaro moslang.

A Tadqiqotchilarning biologiya sohasida olib borgan tajribalarining ortishi ushbu yo‘nalishga oid biologik ma’lumotlar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lib, mavjud ma’lumotlarni qo‘lda analiz qilish imkonini qiyinlashtirgan.

B Uzoq vaqt davomida biologik tizimdagi o‘zgarishlar va o‘ziga xoslik jarayonini o‘rganish imkoniyatini berishi

D Butun boshli genomlarni solishtirish imkoniyatining paydo bo‘lishi

E Evolyutsion jarayonlarni yaxlit holda o‘rganish imkoniyatini berishi

F Populyatsiyalarning kompyuter modelini ishlab chiqish imkoniyatining paydo bo‘lishi

G Bioinformatika fanining paydo bo‘lishi

4.12. Omonim so‘zlarni aniqlang. Ularning ikkinchi ma’nosini qo‘llab gaplar tuzing va yozing.

1. Bioinformatika rivojlangan davlatlar ilmiy jamoatchiligi orasida tez-tez quloqqa chalinadigan atamalardan biriga aylanib bo‘ldi.
2. Ayniqsa, turlarni aniqlash borasida bioinformatika usullaridan keng foydalanilmoqda.
3. Bioinformatika ko‘pgina organizmlar (tur sonining ahamiyati yo‘q) DNKsidagi o‘zgarishlarni o‘rgangan holda ularning evolyutsiya jarayonini tadqiq etishga yordam beradi.
4. Shu bois agar biolog ham axborot texnologiyalaridan, dasturlash tillaridan xabardor bo‘lsa, mehnat bozorida unga ehtiyoj katta bo‘ladi.

4.13. Sohalardan birini tanlang. Unda zamonaviy texnologiyalar, informatika fanining yutuqlaridan foydalanish bo‘yicha ma’lumot to‘plang. Ma’lumotlaringiz ishonchli va qiziqarli ekaniga e’tibor qarating.

Ta’lim | Transport | Milliy xavfsizlik va mudofaa | Sog‘lik

4.14. Ajratib ko‘rsatilgan bo‘laklar bog‘lanib kelgan so‘zni aniqlang. Ushbu bo‘lak gap mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

Biologik *ko‘rsatkichlarni kompyuter unga* ***yuklangan*** *dastur asosida hisoblaydi, guruhlarga ajratadi, analiz qiladi, qayta ishlaydi.*

Aniqlovchilar shaxs, narsa-buyum, joyning belgisi hamda qarashliligini bildirib, *qanday?, qanaqa?, qaysi?, nechta?, nechanchi?, kimning?, nimaning?, qayerning?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

1. Sifatlovchi aniqlovchi: *ezgu* niyat, *uchinchi* qavat, *dong‘i ketgan* astronom, *mana bu* bino, *kumush* qish, *oqar* daryo, *g‘ir-g‘ir* shabada;

2. Qaratqich aniqlovchi: *mening* orzum, *olimning* ixtirosi, *o‘nning* yarmi, *yurt* ravnaqi, *shahar* ko‘chalari.

Izohlovchi aniqlovchining bir ko‘rinishi bo‘lib, shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan ifodalaydi. U unvon, kasb, laqab, qarindoshlik, jins, o‘xshatish, taxallus kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi: *dasturchi*-muhandis, *akademik* G‘ulomov, To‘lqin *bobo.*

Aniqlovchi gapda asosan ot bilan ifodalangan bo‘laklarga bog‘lanadi: *rivojlangan* davlatlar, *Beruniyning* kashfiyoti.

4.15. “Bioinformatika qanday fan?” matnidan aniqlovchilarni toping va ularni o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan yozing.

Qarashlilikni ifodalovchi aniqlovchi	Belgi-xususiyatni ifodalovchi aniqlovchi
kompyuterlarning ahamiyati	*rivojlangan* davlatlar

4.16. Quyidagi so‘z va birikmalardan aniqlovchi sifatida foydalanib gaplar tuzing va yozing. Ular qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanayotganini aniqlang.

Bektemirning	to‘rt-besh kishilik	ana shu	ziyrak
uzoq-yaqin	mayin esgan	gurs-gurs	zarur

4.17. Quyidagi hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Noto‘g‘ri fikrlarni to‘g‘rilab ayting.

T/R	Hukmlar	T/N
1	*Ertaga bo‘ladigan olimpiadada qatnashaman.* Ushbu gapda aniqlovchi bitta so‘z bilan ifodalangan.	***
2	*Anjumanda direktor Azizov ham qatnashdi.* Ushbu gapda izohlovchi qatnashgan.	***
3	*Ko‘rgazmadagi suratlar barchamizga yoqdi.* Ushbu gapda aniqlovchi qo‘llanmagan.	***
4	*Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan xabar bor*. Ushbu gapda aniqlovchi ibora bilan ifodalangan.	***
5	*Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas*. Mashrabning ushbu misrasida ikkita aniqlovchi ishtirok etgan.	***

6	*Professor Umarov yoshlarga ilm olishdan to‘xtamaslik kerakligini aytdi*. Ushbu gapda izohlovchi ishtirok etgan.	***
7	*Ilm olish mashaqqatli ishdir.* Ushbu gapda aniqlovchi kesimga bog‘lanib kelgan.	***
8	*Qir tomondan g‘ir-g‘ir shabada esib turibdi*. Ushbu gapda aniqlovchi sifat bilan ifodalangan.	***

4.18. Bo‘sh o‘rinlarni aniqlovchilar bilan to‘ldirib, ibratli hikoyatni ko‘chiring. Eslatma! Bir so‘zdan bir necha o‘rinda foydalanishingiz mumkin. Hikoyatdan olgan xulosangizni bir jumlada ifodalang.

Foydalanish uchun so‘zlar: *oliyjanob, bir, bo‘lak, jism, bunday, marhamatli, inson, mumkin bo‘lmagan, fozil, olim, ming, mo‘tabar, yaxshi, shu, yil, shafqatli.*

Aytishlaricha, bir … odamning majlisida bir …, … kishini ko‘p ta’rif va tavsif qildilar. Mo‘tabar odam u olimni ko‘rish va suhbatidan foydalanishni orzu qilib, uni … majlisga da’vat qilish uchun qarindoshini yubordi. Olim majlisga kelgach, salom berib hamma bilan ko‘rishdi. Keyin … odamga ta’zim qilib:

– Majlisingizga da’vat qilganingiz uchun tashakkur aytaman, … … rohat va farog‘atda umr kechiring, – dedi.

Mo‘tabar odam … so‘ziga taajjub qilib aytdi:

– Majlisimizda hali o‘tirmay turib, … so‘zni og‘zingizdan chiqardingiz, … odamning … … umr ko‘rishiga aql bovar qiladimi?! … so‘zni aytish sizdek … va … kishiga munosibmikan?

– … tirikligi faqat … boqiyligi bilangina emas. Odam … … umr ko‘rmasligini hamma biladi. Lekin o‘lgandan keyin qolgan … nom yana … umrdir. Sizning …, …, … odam ekaningizni xalq unutmay, nomingizni doimo hurmat bilan yod etib turadi. Vafotingizdan keyin ham qilgan yaxshiligingizni xalq unutmaydi, nomingizni ko‘nglida umrbod saqlaydi degan ma’noda “… … umr ko‘ring”, dedim, – deb javob berdi olim.

ziyouz.uz

4.19. Xato yozilgan birikmalarni aniqlang. Ularni to‘g‘rilab, daftaringizga ko‘chiring. Aniqlovchili birikmalar ishtirokida oltita gap tuzing.

qulay sharoit, olimlarni fikrlari, noyop eksponatlar, seni savoling, inson ongi, quyosh panellari, aqilli robotlar, telefonning bermoq, muammoni oldini olmoq, yuqori sifatli texnologiya, kompyuterni ekrani, qutib yog‘dulari, xabarni mazmuni, tarixning muzeyi, noodatiy landshaftli muzey, uni ko‘rinishi, raqamlik platformalar, bolalarning psixologik holati

4.20. “Bioinformatika qanday fan?” matnida ko‘k rangda berilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating. Ularda qanday o‘zgarishlar kuzatilayotganini ayting.

Namuna: *jamoatchiligi* – jamoat+chilik+i


4.21. So‘zlarga qo‘shimchalarni qo‘shib yozing. Asos va qo‘shimchada qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

So‘z	Qo‘shimcha	Tovush o‘zgarishi	So‘z	Qo‘shimcha	Tovush o‘zgarishi
tara	*-q*	taroq (tovush almashishi)	sust	*-ay*	***
ot	*-a*	***	ikki	*-ala*	***
sayra	*-qi*	***	buyur	*-iq*	buyruq (tovush tushishi va almashishi)
bir	*-ta*	***	shahar	*-im*	***
yig‘i	*-la*	***	tilak	*-ing*	***
qizil	*-ar*	***	men	*-ning*	***

4.22. Imlo qoidalari asosida yozilgan so‘zlarni aslicha, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni esa to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.

soviq	mustahkamligi	ishtiroki	tokka	yaproqqa	bog‘ga
yurakga	ravnag‘i	terakim	quriq	yo‘lakga	uzoqqa
yig‘loqi	lovulla	bargka	o‘qivchi	tayoqi	tuproqga
toqqa	tilagim	gurulla	obro‘yim	orzuyim	shovilla

4.23. Kartogrammada internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 2023-yil holatiga ko‘ra hududlar kesimida berilgan. Ma’lumotlar bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring. Buning uchun hududlarning xaritadagi joylashuvini belgilab oling.



4.24. Kartogramma asosida topshiriqlarni bajaring.


1. Berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Ma’lumotlar	T/N
1	Toshkent viloyatidagi internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni boshqa barcha hududlardagidan ko‘p.	***
2	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 3 ming 200 dan ko‘p.	***
3	Navoiy viloyati internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha Farg‘ona viloyatidan keyingi o‘rinda turadi.	***
4	2023-yil holatiga ko‘ra, Toshkent shahrida internet tarmog‘iga ulanganlar soni 4707 dan 6274 gacha oshgan.	***
5	2023-yilda Buxoro hududida internet tarmog‘iga ulanish ehtiyoji juda baland bo‘lgan.	***

2. Agar ushbu kartogramma jadval shaklida ifodalanganda undagi hududlar qaysi rangda berilgan bo‘lardi?

Hududlar	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni	Hududlar	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni
Qoraqalpog‘iston	1505	Samarqand	2706
Andijon	2293	Surxondaryo	1702
Buxoro	1519	Sirdaryo	749
Jizzax	1007	Toshkent viloyati	1954
Qashqadaryo	2134	Farg‘ona	3752
Navoiy	946	Xorazm	1482
Namangan	2037	Toshkent shahri	6274

3. Ushbu ma’lumotlar diagramma shaklida berilganda 1 dan 14 gacha raqamlar o‘rnida qaysi hududlar yozilishi kerakligini aniqlang.



4.25. Bir mazmundagi ma’lumotning 3 xil ifoda shakli bilan tanishdingiz. Ularni o‘zaro taqqoslang hamda afzalligi va kamchiligiga oid bittadan fikr yozing.

kartogramma | jadval | diagramma

4.26. “Foydali ilmlar” mavzusida ijodiy matn yozing.

Sizga “samolyot”, “tayyora”, “uchoq” kabi so‘zlarning qay biridan foydalanish qulay? Javobingizni izohlang.

4.27. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning.

SAMOLYOT QACHON YARATILGAN? 5


4.28. Izohlardan foydalangan holda katakchalarga mos so‘zlarni yozing.

A * P * * * T	muayyan bir ishni bajarish uchun xizmat qiladigan asbob, moslama
* E * * P * * N	havodan og‘ir, dvigatelsiz uchish apparati, egiluvchan uchburchak shaklidagi qanotli qurilma
* * N *	kema yoki samolyotni harakatga keltiradigan mexanizmning aylanuvchi o‘qqa o‘rnatilgan parragi
K * N * * R * * T * *	mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari loyihasini tuzuvchi mutaxassis
* V * G * * * L	energiyaning biror turini mexanik energiyaga aylantiruvchi va boshqa mashinani harakatga keltiruvchi uskuna
A * * O D * * A * * K *	havo va gazlarning harakatini hamda ularning qattiq jismlar harakatiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganuvchi fan


1. Qanotlar bilan uchish rejasini birinchi bo‘lib kim o‘ylab topgan? Ushbu rejaning yaralish tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Rus muhandisi Mojaskiyning samolyotlar yaratilishidagi o‘rni qanday?
3. Mojaskiy va nemis konstruktori Adden yaratgan samolyotlarning taqdiri qanday yakun topdi?
4. Aka-uka Orvill va Uilbur Raytlarning muvaffaqiyati haqida gapirib bering.
5. Ilk samolyotlarga ehtiyoj harbiy sohada paydo bo‘lganini izohlang. Hozir biz samolyotlardan qanday sohalarda foydalanamiz?

4.29. Audiomatn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Samolyot ixtirochilari bilan rasmlar o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.



A. Leonardo da Vinchi



B. Aka-uka Raytlar



D. Aleksandr Mojaskiy

2. Raqamlar va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni moslashtiring.

1660-yil	1870-yil	1882-yil	1903-yil

Aka-uka Raytlar juda yengil dvigatel yasab, “Flayer-1”ga o‘rnatishadi va uni uchirishadi.	Robert Guk uchish apparatini qurishga urinib ko‘radi.
Aleksandr Mojaskiy birinchi samolyotni yaratib, unda parvoz qilishga erishadi.	Jorj Keyli samolyot qurishga imkon beruvchi parrakni yasash ustida ishlagan.

3. Audiomatn uchun qanday sarlavha taklif etasiz?

Aniqlik va *mavhumlik* deganda nimani tushunasiz? *Dengiz, gazeta, minorani* sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkinmi? Odamiylik, do‘stlikni-chi? Javobingizni izohlang.

Aniq otlar sezgi a’zolarimiz orqali anglaydigan tushunchalarni ifodalaydi: *olim, qurilma, maktab, kitob, changyutkich, bino.*

Mavhum otlar tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan tushunchalarni ifodalaydi: *fikr, tuyg‘u, sevgi, tilak, dadillik, yupanch, o‘kinch, mehribonchilik, odamgarchilik.*

Aniq otlar ko‘plik shaklida qo‘llanganda ko‘plik ma’nosini bildiradi. Mavhum otlar ko‘plik shaklida qo‘llanganda kuchaytirish, ta’kidlash ma’nolarini ifodalaydi: *U o‘z qalbida kechayotgan tuyg‘ularning nomini bilmas edi.*

4.30. Audiomatndan olingan so‘zlarni aniq va mavhum otlarga ajratib yozing.

havo, g‘oya, apparat, qush, balandlik, fikr, quvvat, qanot, vaqt, samolyot, bug‘, vint, dvigatel, sxema, rul, parvoz, parrak, tezlik, model, samolyotsozlik, buyurtma

Aniq otlar	Mavhum otlar
havo	*g‘oya*
***	***

4.31. Gaplar va hukmlarni o‘zaro moslang. Javobingizni izohlang.

1	Milliy bayramlarimiz insoniyatni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.	A	Ushbu gapda 2 ta mavhum ot qo‘llangan.
2	Bu mehmonimiz – shaharlik.	B	Ushbu gapda 3 ta yasama, 1 ta tub mavhum ot bor.
3	Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg‘u unutilmaydi.	D	Ushbu gapdagi mavhum ot ko‘plik shaklida qo‘llangan.
4	O‘sha tuyg‘ular o‘rnini shafqat, hamdardlik, odamiylik egallab oldi.	E	Ushbu gapda mavhum ot emas, shaxs oti qo‘llangan.
5	U turfa xayollar og‘ushida qoldi.	F	Ushbu gapda 3 ta mavhum ot qo‘llangan.

4.32. Zamonaviy texnologiyalarning foydasi va zarari haqidagi ikki xil qarashga dalillar toping va yozing.

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizga ijobiy ta’sir qilmoqda	Zamonaviy texnologiyalar hayotimizga salbiy ta’sir qilmoqda

4.33. Quyidagi so‘zlarning paronim jufti va ma’nosini izohlab yozing.

T/R	So‘zlar	Paronim jufti	Izoh
1	surat	sur’at	*surat – rassom chizgan tasvir, rasm; sur’at – jadallik, tezlik*
2	asr	***	***
3	afzal	***	***
4	qayd	***	***
5	xolos	***	***
6	iz	***	***
7	shoh	***	***

Paronimlar talaffuzi bir xil yoki bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir: *tussiz – tuzsiz, afzal – abzal, sher – she'r, adib – adip.*

Paronim so'zlar talaffuz jihatidan o'zaro o'xshash bo'lgani uchun badiiy adabiyotda ulardan qofiya sifatida foydalaniladi.

Paronimlarni bilmaslik so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarni yuzaga keltiradi: ~~***Hiyla***~~ *tajribasiz ekansiz /* ***Xiyla*** *tajribasiz ekansiz.*

4.34. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Jumla mazmuniga mos kelmagan paronim so'z ishtirokida gap tuzib, yozing.

1. Alisher Navoiy halol topilgan non jahon … *(ganch/ganj)*idan afzalroq ekanini ta'kidlagan.
2. Xalqimizda "Qalb … *(amr/amir)* etsa, aql unga bo'ysunar" degan maqol bor.
3. Sevinch tanlovda … *(ijobiy/ijodiy)* natijani qo'lga kiritish uchun astoydil harakat qildi.
4. To'lqin kelajakda texnika sohasida yetuk olim bo'lishga … *(azim/azm)* qilgan.
5. Bozorlarimizda … *(lahim/lahm)* go'shtning narxi ko'tarilibdi.
6. Aqling … *(rosa/raso)* bo'lsa, vaqtingni hech ham behuda o'tkazma, ilm bilan shug'ullan.

4.35. To'g'ri yozilgan birikmalarni aniqlab, xattaxtaga yozing.

asl maqsad asil maqsad	xiyla vaqt hiyla vaqt	borganim abzal borganim afzal	shaxti baland shahdi baland	ipak quruti ipak qurti
vagon tamburi vagon tanburi	yarog'li uskuna yaroqli uskuna	xalos bo'lmoq xolos bo'lmoq	joduda kesmoq jodida kesmoq	yurak urishi yurak urushi

4.36. Paronim so'zlarni izohlari bilan moslab yozing.

Izohlar	So'zlar
dunyo tomonlarini aniqlaydigan, magnitlangan strelkasi doim shimolni ko'rsatib turadigan asbob	*mahol*
vaqt, dam, payt	*burch*
amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan; qiyin, mushkul	*kompost*
suvoq uchun ishlatiladigan unsimon qurilish materiali	*burj*
quyoshning yillik ko'rinma harakati doirasidagi 12 ta yulduz turkumi	*mahal*
ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyat	*ganj*
xazina, boylik	*kompas*
o't, po'choq, axlat kabi chiqindilar bilan tuproq yoki torf aralashmasini chiritib tayyorlangan organik o'g'it	*ganch*

4.37. Bo‘sh o‘rinlarga paronim so‘zlardan mosini qo‘ying va gaplarni ko‘chiring. Jumla mazmuniga mos kelmagan paronim so‘z ishtirokida gap tuzib, yozing.

1	Alisher choponiga ola-bula yamoq solingan, …lari so‘kilgan, boshyalang va oyoqyalang darveshni ham ko‘rdi. *(Oybek)*	*adip / adib*
2	Mana, ustoz Jomiyning kitoblari, odatimiz … duch kelgan bir sahifasini ochamiz. *(Gazetadan)*	*bo‘yincha / bo‘yicha*
3	… shifobaxsh o‘simlik bo‘lib, tarkibida glyukoza, efir moyi bor.	*suvoq / shuvoq*
4	… mevasida 67% ga qadar a’lo sifatli qand moddasi bo‘lib, yengil hazm bo‘ladi.	*xurma / xurmo*
5	Bugungi kun talablariga javob beradigan, ham … kun talablariga xizmat qilishga qodir yozuvchilar bo‘ladiki, ular tarixda qoladilar. *(V. Zohidov)*	*ertangi / ertagi*
6	Vaqtni behuda … lozim.	*o‘tqazmaslik / o‘tkazmaslik*
7	Nasiya sariyog‘dan … o‘pka yaxshi. *(Maqol)*	naq / naqd

4.38. Diqqat, loyiha! Izohli lug‘atdan 10 ta paronim juftlik topib, jadval shaklida kichik o‘quv lug‘ati tayyorlab keling.

Paronim juftlik	Qaysi tilga mansubligi	Turkumi	Izoh	Misol
Mox	Ruscha	Ot	zax yerlarda, tosh, daraxt ustida o‘sadigan ildizsiz mayda o‘simlik	*Yuksiz, mox bosgan kema Suzmas qalb dengizida.* *(J. Jabborov)*
Moh	Arabcha	Ot	Oy, osmon jismi; 28–31 kunlik muddat	*Ko‘kda moh asta kezar.* *(E. Vohidov)*


Eslatma! Taqdimotga hozirlanishda quyidagi ko‘rsatmalarga rioya qiling:

- ijodiy ishingiz haqida qisqacha ma’lumot berish uchun nutq tayyorlang;
- nima uchun aynan ushbu paronim so‘zlarni lug‘atingizga kiritganingizni izohlang;
- ijodiy ishingizni namoyish etishni qayta-qayta mashq qiling;
- taqdimotingiz 2-3 daqiqadan oshib ketmasligiga e’tibor bering.

4.39. Tayyorlab kelgan “Paronimlar o‘quv lug‘ati”ngizni yo‘riqnoma asosida taqdim eting.

4.40. Sinfdoshlaringizga taqdimotlari yuzasidan savollar bering. Yutuq va kamchiliklarini dalillar asosida ayting. Xatolarni to‘g‘rilashga oid qisqa tavsiyalar yozing hamda ularga taqdim eting.

4.41. O‘rtada berilgan izoh qaysi so‘zniki ekanini aniqlang va yozing.



4.42. “Fan va texnologiyalar” bo‘limida o‘rganganlaringiz asosida ilmli insonlarning jamiyat rivojidagi o‘rni haqida 200–300 so‘zdan iborat matn tuzing. Matningizda o‘rgangan qoidalaringizdan foydalaning.

TIL SANDIG‘I

MUQOBIL SO‘ZLAR TAVSIYASI

Poverbank – bu boradagi eng maqbul so‘z – *kuchluq*, zamonaviyrog‘ini istasak, *quvvatlagich* ko‘rinishida qo‘llasa bo‘ladi.

Barsetka – ha, bu so‘z italyancha “borsetta” so‘zidan kelib qolgan. O‘zbekchasi *yonqopchiq, belqopchiq.* Bunday narsalarni ifodalaydigan so‘zlarga tilimiz ancha boy: *to‘rva, xalta, qop, qopchiq, kissa, cho‘ntak, hamyon...*

Shtrix-kod – o‘zimizga o‘girsak, “tamg‘a-chiziq”. Lekin kamina buning o‘rniga “paysa”ni tavsiya qilgan bo‘lardim. To‘g‘ri, paysa bir vaqtlar mayda chaqa-pulni bildirgan, Pokistonda hozir ham shunday. Biroq eski turk uluslaridan to Chingizxongacha u nishon-yorliq o‘laroq qo‘llangan bo‘lib, kishining kimligini va rutbasini ifodalagan.

Keshbek – qaytiq, qaytqi.

Isajon Sulton

V BOB

SOHA VA KASBLAR



1. Qaysi kasbni egallashni maqsad qilgansiz? Nima uchun?
2. Kasbingiz orqali soha rivojiga qanday hissa qo‘shmoqchi ekaningiz haqida gapiring.

KELAJAK KASBLARI

Kelajak uchun eng yaxshi kasb qaysi? Yaqin 10 yil ichida qay bir sohada kattaroq daromad topish mumkin? Bugun qanday mutaxassislarga talab yuqori?

Bu savolga javob izlayotganda avvalo avtomatlashtirish yoki sun’iy idrok bilan almashtirilishi mumkin bo‘lgan kasblardan qochish lozim. Sababi texnologiya rivojlanishi bilan bunday kasblar ahamiyatini yo‘qota boshlashi mumkin.

Ma’lum bir sohaning dolzarbligiga turli omillar ta’sir qiladi: doimiy rivojlanish, yangi mashina va robotlarning yaratilishi orqali inson hayotining yaxshilanishi, qo‘l mehnati orqali bajariladigan bir qancha amallar o‘rnini texnika bajarishi, sun’iy idrok takomillashishi va hokazo.

Uzoq kelajakda qaysi kasbga talab yuqori bo‘lishini avvaldan aytish biroz qiyin. Biroq yaqin 5 yil ichida talabgir bo‘lishi kutilayotgan kasblarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Loyiha menejeri

Hozir kompaniyalar loyihalarni boshqarish uchun malakali loyiha menejeriga ehtiyoj sezmoqda. Bugun bu kasb egalariga talab har qachongidan yuqori. Odatda kompaniyalarda bir vaqtning o‘zida bir nechta dasturlar bo‘ladi. Loyiha menejeri vazifalarni bajarish yoki bajartirishga mas’ul shaxsdir. Ular loyihaning asosiy maqsadlari va ko‘lamini aniqlash, rivojlanishning yaxlit rejasini tuzish, ijro bosqichida jamoani boshqarish, loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishiga bosh-qosh bo‘lish kabi vazifalarni bajaradi.

Dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchisi

Bu kasb hozir ham axborot texnologiyalari sohasida juda mashhur, malakali dasturchilarga yuqori ish haqi to‘lanadi.

Virtual olam dizayneri

VR minigarnituralar va boshqa gadjetlarga talab oshib bormoqda. Bu esa ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi dizaynerlarga kelajakda katta talab paydo bo‘lishini anglatadi.

Marketing bo‘yicha mutaxassis

Marketing – kelajakda ham ahamiyatini yo‘qotmaydigan sohalardan biri, sababi kompaniyalar doimiy tarzda yanada ko‘proq rivojlanish va kattaroq natijalarga erishishga intiladi. Bu maqsadga erishishda marketing tadqiqotlarining o‘rni katta.

Tovar va xizmatlarini innovatsion usullar bilan targ‘ib qiladigan va brend imijini yaratadigan, saqlaydigan va obro‘yini oshiradiganlar ham marketologlar safiga qo‘shilib ketadi.

Kasb tanlashda uning jamiyatda tutgan o‘rni qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z qobiliyatlaringiz va qiziqishlaringizni ko‘proq inobatga olganingiz ma’qul. Sababi har qanday ishni san’at darajasiga chiqarish uchun avvalo kishidan o‘z kasbini yaxshi ko‘rish talab etiladi.

Aslini olganda, jamiyat uchun keraksiz kasbning o‘zi yo‘q. Istalgan soha obro‘yini oshirish unda faoliyat yuritayotgan shaxslarga bog‘liqdir.

gazeta.uz

5.1. Izohlardan foydalangan holda katakchalarga mos keluvchi so‘zlarni topib, yozing.

M * N * * * R	korxona yoki kompaniya egasi bo‘lmagan, maxsus tayyorgarlik ko‘rgan malakali ish boshqaruvchilar
* N * * * T O *	investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs, tashkilot yoki davlat
* O * I * A	pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarflash va ishlatish tizimi
M * N * * * R N * T * * A	biron-bir maqsad uchun xizmat qiluvchi kichik narsa-buyumlar yig‘masi, majmuasi
* I * T * * L	noreal, dasturiy muhitga aloqador, dasturiy muhitda yaratilgan
M * R * E * * Ng	iqtisodiyotning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi

1. Matn boshida keltirilgan savollarga diqqat qiling. Matnni savollar bilan boshlashdan ko‘zlangan maqsadni ayting.
2. Matnda keltirilgan kasblar haqida fikringizni ayting. Ro‘yxatni yana qanday kasblar bilan davom ettirish mumkin?
3. Matnda qo‘llangan ayrim so‘zlar (menejer, marketing, virtual)ning o‘zbekcha muqobili haqida o‘ylab ko‘ring, takliflaringiz bilan bo‘lishing.
4. Qaysi kasblar o‘z o‘rnini hech qachon to‘laligicha SIga bo‘shatib bermaydi? Fikringizni izohlang.

5.2. Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matnda qanday kasblar kelajakda o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin deb hisoblanadi?

- faoliyatini avtomatlashtirish mumkin bo‘lgan kasblar
- og‘ir jismoniy mehnat asosida bajariladigan kasblar
- ta’limiy faoliyat bilan aloqador bo‘lgan kasblar
- ishini sun’iy idrok yordamida bajarish mumkin bo‘lgan kasblar
- televideniye va radio faoliyati bilan bog‘liq kasblar

2. Matn asosida marketing bo‘yicha mutaxassis – marketologlarning vazifalari to‘g‘ri keltirilgan javoblarni aniqlang.

- tovar va xizmatlarni targ‘ib qilish
- brend imijini yaratish
- xizmatchilarning faoliyatini nazorat qilish

- brend imijini saqlash
- kompaniya obro‘yini oshirish
- kompaniya ishini tashkillashtirish va boshqarish

3. Berilgan xulosalarning qaysilari matn mazmuniga mos?

T/R	Xulosalar	Mos/Mos emas
1	Yaqin 10 yil ichida loyiha menejeri va hisobchiga ehtiyoj yo‘qolmaydi.	***
2	Kompaniyalar doimiy tarzda rivojlanish va kattaroq natijalarga erishish uchun marketing mutaxassislari xizmatidan foydalanadi.	***
3	Gadjetlar va minigarnituralar ishlab chiqarishda virtual olam dizaynerlarining g‘oyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.	***
4	Kasb tanlaganda uning jamiyatda tutgan o‘rnini ko‘proq inobatga olgan ma’qul.	***
5	Jamiyatda istalgan kasbning obro‘yini SI orqali oshirib yuborish mumkin.	***

4. Maqoladagi ma’lumotlardan quyidagi vazifalarning qaysi birida foydalanish mumkin?

- kelajak kasblari haqida esse yozishda
- so‘nggi yillarda yoshlar qanday kasblarni egallayotgani haqida hisobot tayyorlashda
- eng ko‘p haq to‘lanadigan kasblar ro‘yxatini tuzishda
- kelajakda kasb tanlashga yordam sifatida tavsiyalar ishlab chiqishda
- SInıng imkoniyatlari va kelajakdagi o‘rni haqida ma’lumot tayyorlashda



5.3. Siz tanlagan kasb va matndagi tavsiyalarni o‘zaro taqqoslang. Ular mos keldimi? Agar mos kelmagan bo‘lsa, o‘z tanlovingizni 2 ta sabab bilan izohlang.



5.4. Hunar haqida berilgan xalq maqollarining davomini toping. Maqollar mazmunini bir nechta jumla bilan izohlab yozing.

Maqollar	Davomi
Har hunarning o‘z siri bor,	Non topilar yo‘lingda.
Hunar bo‘lsa qo‘lingda,	Har ishning o‘z yeri bor.
Hunar – oqar buloq,	Hunarlining – bichimi.
Hunar oshatar,	Ilm – yonar chiroq.
Hunarsizning qirqimi uzun,	Mehnat yashnatar.

5.5. Gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zni asos va qo‘shimchaga ajrating. Unda qanday tovush o‘zgarishi sodir bo‘lganini aniqlang.

Aslini olganda, jamiyat uchun keraksiz kasbning o‘zi yo‘q. Istalgan sohaning obro‘yini oshirish ***unda*** *faoliyat yuritayotgan shaxslarga bog‘liq.*

Nutqda **tovush ortishi** hodisasi kuzatiladi. Talaffuzda ba’zan tovush ortsa-da, u yozuvda har doim ham aks etavermaydi: *oyila (oila), tabiyat (tabiat), doyim (doim), orzuyim (orzum), kelayapti (kelyapti).*

Yozma nutqdagi tovush ortishi imloda aks etadi: *u+ga=unga, shu+dan=shundan, isi+q=issiq, ye+il + moq=yeyilmoq.*

5.6. So‘zlarni ikki guruhga ajratib yozing.

parvoyim, shoir, bunday, avzoyim, sayid, jizza, haqqim, shariyat, varrak, shiyor, g‘urrak, achchiq, deyilmoq, yoyilmoq, yeyishmoq, doyir, mazza, o‘shanday

Talaffuzda tovush ortishi	Ham talaffuzda, ham yozuvda tovush ortishi
***	***

5.7. Gaplardagi tovush ortishi hodisasiga uchragan so‘zlarni aniqlang, ularni namunadagidek qismlarga ajratib yozing.

Namuna: *tibbiy = tib+iy*

1. Yaxshi shifokor bo‘lish uchun tibbiy sohadagi bilimlarning o‘zi yetarli emas.
2. Sohaga doir bilimlarni puxta egallagan mutaxassisgina kasbidan e’zoz topishi, hurmat va obro‘ga ega bo‘lishi mumkin.
3. Chaqaloqlar ulg‘aygani sayin ularda hissiy intellekt asta-sekin rivojlanib boradi.
4. Oldiga qo‘yganni yeyish – hayvonning ishi, og‘ziga kelganni deyish – nodonning ishi.
5. Jamiyatimizda o‘qituvchining mavqeyi va obro‘yini oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.
6. Korxona va tashkilotlarga tez-tez ekskursiyalar uyushtirib turish lozim. Bunday tadbirlar orqali yoshlarning kasb tanlashiga, kelajakda o‘zi qiziqadigan sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishiga yordam berishimiz mumkin.

5.8. Tovush o‘zgarishi haqidagi qoidalarni misollar bilan moslashtiring.

1	Kishilik olmoshiga chiqish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush ortishi yuz bergan.	A	*Akam hayron bo‘lib otamga qaradi, uning avzoyi buzilgan edi.*

2	Kishilik olmoshiga jo‘nalish kelishigi qo‘shilganda bir ***n*** tovushi ortgan.	B	*Undan bu xabarni eshitish og‘ir edi.*
3	Egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush ortishi sodir bo‘lgan.	D	*Unga havasim keladi.*
4	Asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilganda tovush ortgan.	E	*Qulog‘idan kun ko‘rinadi.*
5	Egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush tushishi hodisasi yuz bergan.	F	*Issiq joyingni sovitma.*
6	Egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush almashinishi sodir bo‘lgan.	G	*O‘g‘lim kelajakda Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan harbiy bo‘lishini orzu qilaman.*

5.9. Nuqtalar o‘rniga ajratilgan so‘zning antonimini toping. Maqollarning mazmunini og‘zaki izohlang.

Avval o‘rgan, ... o‘rgat.	Ilm **ko‘p**, umr ... Keragini o‘qi.
Bilimliga dunyo **yorug‘**, Bilimsizga –	Ilmi **bor**ni yosh dema, Ilmi ...ni bosh dema.
Ilm – **yorug‘lik**, Jaholat –	Hunarning avvali **achchiq**, So‘ngi – ... .

5.10. Berilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ularning boshqa ko‘rinishlarini yozing.

podsho | kabutar | imon

Variantdosh so‘zlar bir so‘zning turli imlo ko‘rinishlaridir. Ularning har biri imloviy jihatdan to‘g‘ri sanaladi: *sog‘lik/sog‘liq, nevara/nabira.*

Bir matnda variantdosh so‘zning bitta shaklini qo‘llash tavsiya etiladi. Bir o‘rinda *sog‘lik* yozgan bo‘lsangiz, keyingi o‘rinda *sog‘liq* variantini ishlatmaslik zarur.

5.11. Quyidagi so‘zlarning variantdoshini yozing.

So‘z	Variantdoshi	So‘z	Variantdoshi
arava	***	igna	***
palapon	***	sirg‘a	***
adab	***	ajdaho	***


5.12. Berilgan juftliklarni paronim va variantdosh so‘zlar sifatida ikki guruhga ajratib yozing.

raso – rosa, qisim – qism, jinday – jindak, xalos – xolos, to‘yana – to‘yona, shohsupa – shosupa, bolalik – bolali, servis – serviz, abzal – afzal, shabboda – shabada, beg – bek, baravar – barobar

Variantdosh so‘z	Paronim so‘z
***	***

1. Ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan o‘zbek olimlaridan kimlarni bilasiz?
2. Orangizda olim bo‘lishni maqsad qilganlar bormi? Javobingizni izohlang.

KO‘NGIL SHAMCHIROG‘I



Adabiyotga qiziqish bolaligimdan boshlangan desam, biroz mubolag‘a qilgan bo‘laman. To‘g‘ri, yoshligimda xayolparastlik odatim bor edi. Ammo adabiyotga chinakam ixlos talabalik yillarida sezildi. O‘qituvchilarimiz tavsiyasi bilan she’r yodlash va ifodali o‘qish mashg‘ulotlari menda she’riyatga, xususan, mumtoz adabiyotga havas uyg‘otdi. Mumtoz adabiyotni anglaganim sari hayratim, qiziqishim ortaverdi va u meni butunlay rom etib qo‘ydi.

1956-yili Leningrad davlat universitetida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladim. O‘shanda dissertatsiyamning avtoreferati kitob holida chop etildi. Ilk marta qo‘limga olgan bu kitobim men uchun juda qadrli edi. Esimda: uni aynan tug‘ilgan kunimda qo‘limga olgan edim. Bu mening o‘z-o‘zimga sovg‘am edi.

1961-yili Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so‘zboshi bilan nashr etildi. Shunda Moskva, Leningrad, Eron, Afg‘oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirdi va iloji bo‘lsa, yuborishimizni so‘radilar. Bu kabi e’tiroflardan keyin menda shu asarni rus tiliga tarjima qilish orzusi paydo bo‘ldi.

Adabiyotdagi yutuqlarimda talabalikda saboq bergan ustozlarimning hissasi beqiyos. Biz, talabalar, Sharqshunoslik institutida urushdan keyingi ancha og‘ir yillarda saboq oldik. U paytlari institutlarda darsxonalar, stol-stullar yetishmas edi. Buning ustiga qishda auditoriyalarning

sovuqligidan tuzuk o‘qiy olmasdik. Yangi o‘quv yili boshlanishi bilan talabalar paxta maydonlariga safarbar etilar edi. Ayni ilm o‘rganadigan paytda uch oylab paxtazorlarda sarson-sargardon bo‘lardik. Men bu gaplarni bugungi talaba yoshlarimiz yaratib qo‘yilgan shart-sharoitlarning qadriga yetsin deb aytib qo‘ymoqdaman.

Xullas, men endi Navoiy asarlarini jiddiy o‘rganishga kirishdim. 1956-yilning boshlari edi. Ustozim jadallik bilan dissertatsiyani tugatishim zarurligini, Navoiy tug‘ilgan kuni ilmiy ishim muhokamaga qo‘yilishini aytdi. Men ishni oxiriga yetkazolmay qolishdan xavotirda ekanimni bildirganimda ustoz bir ajib gap aytdilar: “Bizlar har yili, hatto Leningradda dahshatli urush ketayotgan paytlarda ham Navoiyning tavallud kunini katta-katta anjumanlar, navoiyxonliklar bilan o‘tkazib kelganmiz. Bu yil ham xuddi shunday bo‘ladi. Sizning ilmiy ishingiz muhokamasi hazratning tug‘ilgan kuniga go‘zal sovg‘a bo‘ladi”.

Bu gaplar mening g‘ayratimga g‘ayrat qo‘shdi. Qolaversa, ishimni hazratning tavallud kunlari munosabati bilan himoyaga qo‘ysam, vaqtdan yutar ekanman. Chunki ilmiy ishlar muhokamasi navbatga ko‘ra belgilanar ekan. Mening navbatim esa bir yarim yildan so‘ng kelarkan.

Darhaqiqat, donishmandlar aytganidek, ilm, o‘qish va o‘rganish bizni boy o‘tmishimizning ma’naviy vorisiga aylantiradi. Ilm, kitob ko‘ngil shamchirog‘idir. Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Farzandlar ta’lim-tarbiyasi faqat davlat ishi emas, bu oila uhdasi hamdir. Bolalarimiz o‘z ajdodlari qoldirgan ma’naviy merosni bilishlari kerak. Buning uchun esa ular kitob bilan do‘st bo‘lishlari lozim. Ahli ilmlar aytganidek: “Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko‘taradi. Eng yaxshi orzu-istaklarni uyg‘otadi, aqlni charxlaydi”.

Yaratganga ming shukurki, butun umrim ilm ichida o‘tmoqda. Ikki qiz, bir o‘g‘ilni tarbiyalab, voyaga yetkazdim. Ularning biri bioximik, biri tish doktori, biri quruvchi bo‘ldi. Olti nafar nevaramning uchtasi oliy ma’lumotli, magistraturani tugatdi. Yana olti nafar evaram bor. Bolalarim mening sohamga qiziqishmadi. Ammo ilmda hamjihatmiz. Farzandlarim – katta baxtim. Yana bir baxtim – yaxshi muhitda, yaxshi hamkasblar bilan ishladim.

Tahririyatdan:

Inson uchun boshqalar uqtirgan haqiqatlardan ko‘ra o‘zi anglaganlari qadrliroq bo‘ladi. Biroq bu haqiqatlarni qo‘lga kiritish ancha mashaqqatli. Bu yo‘l fidoyilikni talab etadi.

Adabiyotshunos olima, professor Suyima G‘aniyeva ana shunday zahmatkash ijodkorlarimizdan biri edilar. U uzoq yillik ilmiy izlanishlari orqali o‘zbek o‘quvchisiga mumtoz adabiyotimizning buyuk vakillarini tanishtirishdek mas’uliyatli ishda jonbozlik qildi. Bu yo‘lda o‘nlab risolalar nashr etdi.

“Yoshlik” jurnali

5.13. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Diqqat, bitta izoh ortiqcha!

mubolag‘a	biokimyo mutaxassisi
mumtoz	mashg‘ulot, ma’ruza o‘tkaziladigan xona
auditoriya	ilmiy daraja olish maqsadida yoziladigan va maxsus ilmiy kengash majlisida yoqlash uchun taqdim etiladigan ilmiy tadqiqot ishi

dissertatsiya	muayyan millat va jahon fani, san'ati, adabiyotida muhim o'rin tutadigan, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblangan; klassik
uhda	meros olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, meros egasi, merosxo'r
bioximik	biror ishni bajara olish, o'rinlatish, amalga oshirish, eplash
voris	tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa yoki hodisani o'quvchilarga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish
***	farzand; nasl davomchisi



5.14. Matndan olingan so'zlarning ma'nodoshlarini topib, yozing.

So'zlar	Ma'nodoshi	So'zlar	Ma'nodoshi
xavotir	***	buyuk	***
odat	***	jonbozlik	***
hamjihat	***	do'st	***



1. Suyima G'aniyevada adabiyotga qiziqish qanday paydo bo'lgani haqida so'zlab bering.
2. Matnda *"Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi. Eng yaxshi orzu-istaklarni uyg'otadi, aqlni charxlaydi"* degan fikr keltirilgan. Siz ushbu fikrni qanday izohlaysiz?
3. Olimaning o'z kasbiga munosabati qanday? Fikrlaringizni matnda keltirilgan jumlalar yordamida dalillang.
4. Suyima G'aniyeva farzand tarbiyasida nimalarga ahamiyatli bo'lish kerakligini ta'kidlamoqda?



5.15. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matn sarlavhasiga e'tibor qarating. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda "Ko'ngil shamchirog'i" deganda nima nazarda tutilayotganini aniqlang.

A. Adabiyotga qiziqish
B. Navoiy asarlari
D. Ilm, kitob o'qish
E. Ilmli farzandlar

2. Matnning quyidagi qismi olimaning erkin kasb tanlashga munosabatini ifodalashga xizmat qila oladimi? Javobingizni izohlang.

Ikki qiz, bir o‘g‘ilni tarbiyalab, voyaga yetkazdim. Ularning biri bioximik, biri tish doktori, biri quruvchi bo‘ldi. Olti nafar nevaramning uchtasi oliy ma’lumotli, magistraturani tugatdi. Yana olti nafar evaram bor. Bolalarim mening sohamga qiziqishmadi.

3. Qaysi qatordagi jumlalarda olimaning o‘z kasbiga nisbatan shaxsiy munosabatini sezish mumkin?

1. Adabiyotdagi yutuqlarimda talabalikda saboq bergan ustozlarimning hissasi beqiyos.
2. Biz, talabalar, Sharqshunoslik institutida urushdan keyingi ancha og‘ir yillarda saboq oldik.
3. Bu gaplar mening g‘ayratimga g‘ayrat qo‘shdi.
4. Yaratganga ming shukurki, butun umrim ilm ichida o‘tmoqda.
5. Yana bir baxtim – yaxshi muhitda, yaxshi hamkasblar bilan ishladim.
6. Bolalarim mening sohamga qiziqishmadi. Ammo ilmda hamjihatmiz.

4. Olimaning quyidagi fikrlarni ta’kidlashdan ko‘zlagan maqsadini aniqlang.

U paytlari institutlarda darsxonalar, stol-stullar yetishmas edi. Buning ustiga qishda auditoriyalarning sovuqligidan tuzuk o‘qiy olmasdik. Yangi o‘quv yili boshlanishi bilan talabalar paxta maydonlariga safarbar etilar edi. Ayni ilm o‘rganadigan paytda uch oylab paxtazorlarda sarson-sargardon bo‘lardik.

A. Talabalik yillari qanchalik og‘ir va mashaqqatli o‘tganini ta’kidlash
B. Ilm olishning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari borligini tushuntirish
D. Yoshlarni yaratib berilgan sharoitlarni qadrlashga da’vat etish
E. Har qanday qiyinchilikka qaramay, ilm olishdan chalg‘imaslik kerakligini uqtirish

5. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Hukmlar	T/N
1	Olimaning adabiyotga qiziqishi bolaligidan boshlangan.	***
2	Suyima G‘aniyeva farzandlari uning yo‘lini tanlamaganidan norozi.	***
3	Olimaning ilm sohasini tanlashiga ota-onasi sabab bo‘lgan.	***
4	Olimaning adabiyotshunoslikda erishgan yutuqlarida ustozlarining katta hissasi bor.	***
5	Farzandlar ta’lim-tarbiyasi bilan asosan ota-onalar shug‘ullanishi kerak.	***

5.16. Ushbu savollarga javob berish orqali matn turini aniqlang.

T/R	Savollar	Ha/Yo‘q
1	Matnda muayyan joy, shaxs yoki narsa haqida ma’lumot berilganmi?	***
2	Matnda biror mavzu yoki masalaga oid munozarali o‘rinlar mavjudmi?	***
3	Muallif ko‘p o‘rinlarda o‘z fikrini isbotlash uchun ishonchli dalillar, faktlardan foydalanyaptimi?	***
4	Matnda biror joy, shaxs yoki narsaning tashqi ko‘rinishi, shakli, o‘ziga xos jihatlarini tasvirlashga alohida urg‘u berilganmi?	***
5	Matnda voqealar ketma-ketlik asosida, ma’lum izchillik bilan bayon etilganmi?	***
6	Matnda qahramonlar bilan tanishuv, ularning xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari bilan bog‘liq o‘rinlarni uchratish mumkinmi?	***
	Matn turi:	***

Hikoya matni | Muhokama matni | Tasviriy matn

5.17. Suyima G‘aniyevaning fikrlaridan kelib chiqqan holda o‘z kasbining yetuk mutaxassisiga aylanish uchun zarur bo‘lgan sifatlar haqida 3 ta tavsiya yozing.

5.18. Chap ustunda berilgan hikmatlar mazmuniga mos iqtiboslar – maqol va aforizmlarni toping va yozing.

1	Ahli ilmlar aytganidek: “Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko‘taradi. Eng yaxshi orzu-istaklarni uyg‘otadi, aqlni charxlaydi”.	*Dunyoda ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay.* (Imom al-Buxoriy)
2	Darhaqiqat, ilm, o‘qish va o‘rganish bizni boy o‘tmishimizning ma’naviy vorisiga aylantiradi. Ilm, kitob ko‘ngil shamchirog‘idir. Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.	***
3	Bolalarimiz o‘z ajdodlari qoldirgan ma’naviy merosni bilishlari kerak. Buning uchun esa ular kitob bilan do‘st bo‘lishlari zarur.	***
4	Inson uchun boshqalar uqtirgan haqiqatlardan ko‘ra o‘zi anglaganlari qadrliroq bo‘ladi. Biroq bu haqiqatlarni qo‘lga kiritish ancha mashaqqatli. Bu yo‘l fidoyilikni talab etadi.	***
5	Farzandlarim – katta baxtim. Yana bir baxtim – yaxshi muhitda, yaxshi hamkasblar bilan ishladim.	***

5.19. Fe’llar juftligini o‘zaro taqqoslang. Ularning ma’nolari o‘rtasidagi farqni izohlang.

o‘qidi – o‘qitdi	bajardi – bajarildi
yuvdi – yuvindi	tozaladim – tozalashdi

Nisbat qo‘shimchalari ish-harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabatni ifodalaydi.

1. Aniq nisbatda harakat yoki holat bajaruvchisi ma’lum bo‘ladi: *Anvar Navoiyning “Xamsa” asarini o‘qidi.*

2. O‘zlik nisbatda harakat yoki holat bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadi: *Anvar “Xamsa” asaridagi ba’zi so‘zlar ma’nosini tushuna olmay qiynal**di.***

3. Majhul nisbatda harakat yoki holatning bajaruvchisi odatda noma’lum bo‘ladi: *Tadbirda Navoiy hayotiga oid qiziqarli sahna ko‘rinishlari namoyish et**il**di.*

4. Orttirma nisbatda harakat va holat boshqa bajaruvchining ta’sirida yuzaga keladi: *Ustoz o‘quvchilarga Navoiy g‘azallarini tahlil qil**dir**di.*

5. Birgalik nisbatida harakat yoki holat bir necha bajaruvchi tomonidan amalga oshiriladi: *O‘quvchilar Navoiy haqidagi filmni katta qiziqish bilan tomosha qil**ish**di.*

Nisbat qo‘shimchalari bir fe’lga birdan ortiq qo‘shilishi mumkin: *Har yili yurtimizda navoiyxonlik kechalari tashkillash**tiril**adi* (*-tir* – orttirma nisbat, *-il* – majhul nisbat). Oxirgi qo‘shimchaga ko‘ra, *tashkillashtiriladi* majhul nisbatdagi fe’l hisoblanadi.

5.20. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni kesim bilan bog‘lab ko‘chiring. Hosil bo‘lgan birikmalarning nisbat shaklini yozing.

Namuna: *qiziqishim ortaverdi (aniq nisbat), adabiyot rom etib qo‘ydi (aniq nisbat)*

1. Mumtoz adabiyotni anglaganim sari hayratim, **qiziqishim** ortaverdi va meni **adabiyot** butunlay rom etib qo‘ydi.
2. O‘shanda dissertatsiyamning **avtoreferati** kitob holida chop etildi.
3. 1961-yili Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining **ilmiy-tanqidiy matni** (arab yozuvida) kattagina so‘zboshi bilan nashr etildi.
4. **Men** endi Navoiy asarlarini jiddiy o‘rgana boshladim.
5. Darhaqiqat, **ilm**, **o‘qish** va **o‘rganish** bizni boy o‘tmishimizning ma’naviy vorisiga aylantiradi.

5.21. Fe’llarda qo‘llangan nisbat qo‘shimchalarini namuna asosida boshqa nisbat shakliga almashtirib yozing. Fe’l ma’nosidagi o‘zgarishga e’tibor qarating.

Fe’l nisbatlari	Qo‘shimchalar
Aniq nisbat	-
O‘zlik nisbati	*-(i)n, -(i)l*
Majhul nisbat	*-(i)n, -(i)l*
Orttirma nisbat	*-t, -dir (-tir), -giz(-kiz), -qiz, (-g‘iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz, -sat*
Birgalik nisbati	*-(i)sh*

Namuna: *yodladi – yodlashdi/yodlattirdi*

yodladi, tugatdi, o‘qidi, uyg‘otdi, so‘zladi, o‘sdi, qurdi, ko‘zladi, yodlashdi, o‘tkazdi, tashkillashtirdi, aytildi

5.22. Jumlalardagi xatoni aniqlang va namuna asosida tahrirlab yozing.

Namuna: *O‘quvchilar maktab hovlisiga o‘rik ko‘chatlarini o‘tkazdi. – O‘quvchilar maktab hovlisiga o‘rik ko‘chatlarini o‘tqazdi.*

1. Bu ibora juda ko‘p xato qo‘llaniladi.
2. Aytilingan ishni vaqtida bajaringlar.
3. Maktabimizda o‘tqazilishi kutilayotgan tadbir rejasini ishlab chiqishimiz lozim.
4. Ustozim og‘zaki nutqimni tekshirish maqsadida she’r o‘qitgizib ko‘rdi.
5. Sotib olingan kitoblarni tez orada o‘qib chiqiladi.

5.23. Bo‘sh o‘rinlarni fe’llarning mos shakllari bilan to‘ldirib ko‘chiring.

Ustoz! Shu birgina so‘z zamirida olam-olam ma’no va hurmat mujassam. O‘qituvchi – sofdil, kamtarin, ma’nan boy, axloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak … (arzimoq). Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarini, qalb qo‘ri-yu san’atlarini shogirdlariga … (baxsh etmoq). Ular bizga oq-qorani, yaxshi-yu yomonni … (tanimoq). Qo‘llarimizga ilk bor qalam … (tutmoq), “Ota”, “Ona”, “Vatan”, “Baxt”, “Saodat” kabi so‘zlarni yozishga … (o‘rgatmoq).

Donolarning aytishicha, elni ma’rifat … (asramoq). U elni … (taraqqiy etmoq), ezgu niyati va orzu-umidiga … (yetmoq). Demak, ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama barkamol, ma’nan va axloqan pok insonlarni tarbiyalashdek yuksak vazifa turibdi.

5.24. Quyidagi savollarga javob bergan holda “Shifokor qabulida” mavzusida matn yozing. Matndagi nisbat qo‘shimchalarining tagiga chizing.

1. Shifokor qabuliga nima uchun bordingiz?
2. Shifokor sizni qanday kutib oldi?
3. Sizga qanday tavsiyalar berdi?
4. Shifokor kasbini egallashga munosabatingiz qanday?


Kasb tanlashingizga sabab bo‘lgan omillar haqida so‘zlab bering.

5.25. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajaring.

KASB TANLASHDA NIMALARGA E’TIBOR QARATISH KERAK?

6

5.26. Izohlar yordamida krossvordda yashiringan so‘zlarni aniqlang. Diqqat, ushbu so‘zlar audiomatndan olingan!



1. Biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan kishi, ixtisos egasi.
2. Kelajakda foydalanish uchun saqlab, g‘amlab qo‘yilgan narsa.
3. Kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko‘nikma, mahorat.
4. Onlayn xizmatlar ko‘rsatuvchi maxsus internet maydoni.
5. Psixologiya bo‘yicha mutaxassis.
6. Eng muvofiq, eng yaxshi, eng qulay.
7. Biror sohada olib boriladigan ish, mashg‘ulot, harakat.
8. Kelgusi zamon, kelgusidagi holat, hayot; kelajak.

1. Nima uchun muallif kasb tanlash jarayonini inson hayotidagi eng muhim tanlov deb hisoblamoqda?
2. Psixologik test natijalari asosida kasb tanlash tanlovning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlab bera oladimi?
3. Siz “zaxira aerodromi” bo‘ladigan ikkinchi kasbni tanlash haqida o‘ylaganmisiz? Shu haqda gapiring.
4. Audiomatndagi tavsiyalar qatoriga yana nimalarni qo‘shish mumkin?

5.27. Audiomatn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Berilgan tavsiyalarning qaysilari audiomatn muallifiga tegishli emas?

- qanday kasbga moyillik yoki qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali aniqlash
- ota-ona kasbini davom ettirish
- turli kasbiy yo‘nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash
- institut va universitetlardagi “ochiq eshiklar” kunlarida ishtirok etish
- istaklarni aniqlashtirish
- tanlangan kasbning daromad keltirish darajasini aniqlash
- tanlangan kasb yo‘nalishida o‘zini sinab ko‘rish
- asosiy tanlovdan tashqari qo‘shimcha ravishda zaxira tanloviga ham ega bo‘lish
- kasb tanlash bilan bog‘liq qarorni mustaqil qabul qilish
- o‘zidagi imkoniyat va bilim darajasini hisobga olish

2. Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha o‘qishga kira olmay qolgan taqdirda tushkunlikka tushmasdan boshqa optimal variantlarni ham ko‘rib chiqish uchun muallifning qaysi tavsiyasiga amal qilish lozim?

A. Turli kasbiy yo‘nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash

B. Institut va universitetlardagi “ochiq eshiklar” kunlarida ishtirok etish

D. Asosiy tanlovdan tashqari qo‘shimcha ravishda zaxira tanloviga ham ega bo‘lish

E. Tanlangan kasb yo‘nalishida o‘zini sinab ko‘rish

3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqishdan ko‘zlangan maqsad qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A. Kasblar haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirish
B. Kasblarning ijobiy tomonlari bilan tanishish
D. O‘z istak va xohishlarini tushunish
E. Kasblar ortidan keladigan mashaqqatni his qilish

4. Muallif farzandning kasb tanlashida ota-onaning ta’siri qay darajada bo‘lishi kerakligini eslatmoqda?

A. Ota-ona beradigan maslahatlar faqat yordamchi ta’sirga ega bo‘lishi zarurligi, yakuniy qaror bo‘lmasligi kerakligini
B. Ota-onalar farzandlari uchun eng munosib kasbni tanlay olishini, ya’ni ularning tanlovi eng to‘g‘risi ekanini
D. Ota-onalar o‘zlari egallay olmagan kasbni farzandlari egallashini istashini, farzandlar esa ota-onaning tanlovini qo‘llab-quvvatlashi kerakligini
E. Agar ota yoki ona o‘z kasbi orqali muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa, farzandlar ham ushbu kasbni davom ettirganlari ma’qul ekanini



5.28. Guruhlarga bo‘lingan holda tanlangan kasbning afzalligi va uni egallashda zarur bo‘ladigan 3 ta asosiy ko‘nikmani yozing. Ularni jamlab, xulosangizni bayon eting.

Men tanlagan kasbning 3 ta afzalligi	Zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar
***	***



5.29. O‘zingiz tanlagan, orzu qilib yurgan kasb haqida oila a’zolaringiz bilan maslahatlashing. Suhbat mazmunini daftaringizga yozing.

Suhbatni quyidagi savollar asosida o‘tkazishingiz mumkin:

1. Men tanlagan kasbga sizning munosabatingiz qanday?
2. Men tanlagan kasbning bugungi zamonga mosligi haqida nima deya olasiz?
3. Ushbu kasb orqali men jamiyatga va o‘zim uchun qanchalik foyda keltira olaman?



5.30. Quyidagi gaplarni solishtiring. O‘zaro farqi va bog‘liqlikni tushuntiring.

Shuni unutmangki, har ishni o‘z ustasi qilishi kerak.

Har ishni o‘z ustasi qilishi kerakligini unutmang.

Ma’nodoshlik sodda va qo‘shma gaplar orasida ham kuzatiladi. Ba’zan fikrni ixchamroq ifodalash uchun qo‘shma gaplar mazmuni saqlangan holda sodda gaplarga aylantiriladi: *Shuni xohlaymanki, yurtimizdagi barcha yoshlar hayotda o‘z yo‘lini topib olsin* (qo‘shma gap). – *Yurtimizdagi barcha yoshlar hayotda o‘z yo‘lini topib olishini xohlayman* (sodda gap).

5.31. Gaplarni o‘qing, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

T/R	Qo‘shma gaplar	Sodda gap shakli
1	Kim o‘z kasbiga sodiq bo‘lsa, uning ishida baraka bo‘ladi.	***
2	Shuni unutmang: mashaqqat bor joyda rivojlanish bo‘ladi.	***
3	Shunday kasblar borki, uydan chiqmasdan daromad qilish mumkin.	***
4	Kim halol mehnat qilsa, u o‘z ishidan unum va baraka topadi.	***
5	Qayerda intizom bo‘lsa, shu yerda yuksalish bo‘ladi.	***

5.32. Sodda gaplarning mazmunini o‘zgartirmagan holda qo‘shma gaplar hosil qilib, yozing.

Namuna: *Mehnat insonni ulug‘laydi – Shunga aminmanki, mehnat insonni ulug‘laydi.*

1. Mehnat insonni ulug‘laydi.
2. Dunyoda ilmdan o‘zga najot yo‘q.
3. Ustoz otadan ulug‘.
4. Ishlagan kishi xato qiladi.
5. Bir xatoni ikki marta takrorlaydigan kishiga ishonib bo‘lmaydi.

5.33. So‘zlarni yoshning davriy bosqichlariga ko‘ra ketma-ketlik bilan yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, ayting.

yigitlik	chaqaloqlik	go‘daklik	qarilik
o‘smirlik	keksalik	bolalik	yoshlik

5.34. So‘zlarni tasniflab yozing. Ro‘yxatni yana qanday so‘zlar bilan davom ettirish mumkinligini o‘ylang, takliflaringizni ayting.

bola, shoira, keksalar, xodim, olima, yoshlar, raqqos, suratkash, olim, muallim, shoir, yozuvchi, san'atkor, tilshunos, o'qituvchi, tarbiyachi, donishmand, pedagog, raqqosa, talaba, oshpaz, kitobxon, gazetxon, muallima, domla, ustoz, oqsoqol, keksa, go'dak, xodima, qariya, tadqiqotchi

Faqat ayollarga nisbatan qo'llanadi	Ayol va erkaklarga nisbatan qo'llash mumkin	Faqat erkaklarga nisbatan qo'llanadi
***	***	***

5.35. Donishmandlarning kasb-hunar haqidagi fikrlariga munosabat bildiring. Ularning tahlil qilinayotgan matn mazmuniga aloqasini izohlang.

Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir?!
Alisher Navoiy

Hunari va odobi bo'lmagan kishidan baxt va davlat ketadi.
Mahmud Koshg'ariy

Yoshlikda zahmat chekib ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.
Husayn Voiz Koshifiy

Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.
Nizomiy Ganjaviy

5.36. Berilgan mavzu asosida ijodiy matn yozing.

Zamonamiz qahramonlari kimlar?

Yo'riqnoma:

1. Mavzuni o'rganib chiqing.
2. Mavzu haqida ma'lumot to'plang.
3. To'plagan ma'lumotlaringizni saralab oling.
4. Tayanch tushunchalarni yozib chiqing.
5. Mavzuga mos maqol, matal yoki hikmatli so'zlardan foydalaning.

5.37. Uyda yozib kelgan ijodiy matningizni sinfdoshlaringizga o'qib bering.

5.38. Sinfdoshlaringizdan biri yozgan ijodiy matnni quyidagi mezon asosida tahlil qiling va munosabat bildiring.

1	Mazmuni talabga javob berishi	10 ball
2	Uslubiy xatolar yo‘qligi	10 ball
3	Matn qismlari to‘g‘ri ketma-ketlikda ekani	10 ball
4	Imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilmagani	10 ball
5	Ishoraviy xatolar yo‘qligi	10 ball

5.39. Berilgan so‘zlarning antonimlarini toping, imlo qoidalari asosida yozing.

xushfe’l	*badfe’l*	kirishimli	***
tirishqoq	*erinchoq*	tashabbuskor	***
mehnatsevar	***	intizomli	***
fidoyi	***	ishchan	***
to‘g‘riso‘z	***	halol	***
adolatli	***	ochiqko‘ngil	***

5.40. Fe’llarni nisbat shakliga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

kuzatmoq, sarflamoq, ta’mirlamoq, atamoq, to‘plamoq, yangilamoq, kuchaymoq, ilinmoq, kuzatishmoq, ta’mirlattirmoq, kuchaytirmoq, chizishmoq, sarflattirmoq, atalmoq, to‘plashmoq, yangilattirmoq

Aniq nisbat	O‘zlik nisbat	Majhul nisbat	Orttirma nisbat	Birgalik nisbati
***	***	***	***	***

5.41. Quyida berilgan hujjat namunasi bilan tanishing.

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi
41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
direktori A. T. Rahimovga
9-sinf o‘quvchisi O. B. Salimovdan

ARIZA

“Yosh suxandon” tanlovida ishtirok etayotganim uchun meni 27-mart kunidagi darslardan ozod qilishingizni so‘rayman.

(imzo) *O. Salimov*
2025-yil 18-fevral

1. Ushbu hujjat nima maqsadda yaratilgan?
2. Unda qanday ma’lumotlar aks etgan?
3. Arizalardan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

Ariza – muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat.

Arizaning zaruriy qismlari:

– ariza yo‘llangan muassasa yoki mansabdor shaxsning nomi;
– ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi va otaismi, familiyasi;
– hujjatning nomi (ariza);
– asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat);
– arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur bo‘lsa);
– ariza yozuvchining imzosi, ismi va otaismining bosh harflari, familiyasi;
– ariza yozilgan sana (yil, kun va oy).

1. “Ariza” va “arz” so‘zlarining bog‘liqligi bormi? Izoh bering.
2. Sizningcha, ayni paytdagi ijtimoiy maqomingiz (o‘quvchi)dan kelib chiqib kimga va qanaqa mazmunda ariza yoza olasiz?
3. Arizani sizning nomingizdan boshqa bir shaxs yozishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.
4. Ilova hujjat deganda nimani tushunasiz?
5. Arizalar yakka yoki guruh holida yozilishiga o‘zingiz va sinfdoshlaringiz misolida izoh bering.

5.42. Berilgan qismlardan ariza tuzib, daftaringizga ko‘chiring.

Men 2025-yil 18-mayda “Yosh matematiklar” respublika tanlovida ishtirok etishim zarur.	O. K. Xudoyberdiyeva
Zarafshon shahridagi 24-maktab direktori A. G. Zokirovga	2025.21.05
Shu munosabat bilan meni 18-may sanasidagi darslardan ozod etishingizni so‘rayman.	Ariza
Arizamga “Yosh matematiklar” tanlovidagi ishtirokim haqida ma’lumotnomani ilova qilaman.	8-“A” sinf o‘quvchisi O. K. Xudoyberdiyevadan

5.43. Yuqorida o‘rganganlaringizga asoslanib ariza shakliga mos holda to‘g‘ri yozilgan birliklarni aniqlang. Bir nechta to‘g‘ri javobni belgilashingiz mumkin.

	1	2	3
A	19.04.2025	K. M. Kamolovdan	M. Anvarovga
B	2025.04.19	Kamolov. K.M.dan	M. I. Anvarovga
D	2025.19.04.	Komil Mo‘minovich Kamolovdan	Anvarov M.I.ga
E	2025-yil 19-aprel	Kamolov M.dan	Mansur Anvarovga

	4	5
A	ilova qilindi	ozod etishingizni so‘rayman
B	ilovada berilgan	bo‘shatishingizni so‘rayman
D	ilovada bor	bo‘shatishingizni iltimos qilaman
E	ilova qilaman	ozod etishingiz tarafdoriman

5.44. Ariza matnlarida qo‘llanadigan quyidagi birliklarning to‘g‘ri yozilganlarini daftaringizga ko‘chiring.

passport ma’lumotlarim	pasport ma’lumotlarim
doimiy turarjoyim	doimiy adresim
o‘quv markazi direkto‘ri	o‘quv markazi direktori

Amir Temur ko‘chasi, 70-“B”uy	Amir Temur ko‘chasi 70b-uy
“Totuvlik” ko‘chasi, 54-uy	Totuvlik ko‘chasi, 54-uy
Yangihayot 5/2 dahasi 19-uy 25-xonadon	Yangihayot 5-2 dahasi 19 uy 25 xonadon



5.45. Ariza namunalari bilan tanishing. Ularda qanday xatolar borligini aniqlang.

Toshkent shahri Olmazor tumanidagi
111-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
direktoriga Toshkent shahri Chimboy
ko‘chasi 42 uyda yashovchi Karimova J.dan

ARIZA

O‘g‘lim Ziyodbek Aliqulov 7 yoshga to‘lgani munosabati bilan shu maktabning birinchi sinfiga qabul qilishingizni talab qilaman.

Ilova: 1. Tug‘ilganlik guvohnomasi nusxasi.

(Imzo) *I. Karimova*

Toshkent viloyati Chinoz tumani
4-kasalxona bosh shifokori Rahimov S.R.ga
davolovchi vrach Sobirova K.M.dan

ARIZA

Meni 4-kasalxonaning ichki kasalliklar bo‘limiga shifokor sifatida ishga qabul qilishingizni so‘rayman.

Kerakli hujjatlar arizaga ilova qilinadi.

(Imzo) *25-avgust 2025-yil*



5.46. Sinfdoshlaringiz bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga sayohatga borish uchun maktab direktori nomiga ariza yozing.



5.47. Partadoshingiz yozib kelgan arizani tekshiring. Undagi xato yoki kamchiliklarni aniqlab, ayting.

5.48. Tovush o‘zgarishlari bilan bog‘liq hodisalarga uchragan so‘zlarga 5 tadan misol yozing.

Tovush tushishi	Tovush almashishi	Tovush ortishi
***	***	***

5.49. Quyidagi hujjatlarni to‘ldirishda foydalaniladigan fe’llarni davom ettirib yozing. Ular qanday nisbatdagi fe’llar ekanini aniqlang.

Ariza	Tavsiyanoma	Tarjimayi hol
ishga qabul qilishingizni so‘rayman...	*berildi, …*	*tug‘ildim, bitirdim, tugatdim...*

5.50. Quyida berilganlar orasidan variantdosh so‘zlarni ajratib yozing.

savol-javob, aso – hassa, andoza – andaza, arobachi – aravachi, artmoq – archmoq, archimoq – archmoq, adib – adip, sayr-u sayohat, afzal – abzal, izzat-ikrom, ahil – ahl, salom-alik, alifbo – alfavit, bironta – birorta, alam – a’lam, gado – gadoy, shohsupa – shosupa, odob-axloq, qavat – qabat, shoh – shox, abadiy – adabiy

5.51. “Ko‘ngil shamchirog‘i” matnidan aniq va mavhum otlarga misollar topib, yozing.

Aniq otlar	Mavhum otlar
o‘qituvchi	*bolalik*

5.52. “Men sevgan kasb” mavzusida ijodiy matn yozing.

1-xatboshi	Barcha kasblar jamiyat rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab o‘ting.
2-xatboshi	O‘zingiz tanlagan kasb va uni tanlashingiz sabablari haqida yozing.
3-xatboshi	Ushbu kasbni egallash uchun qanday rejalaringiz borligi haqida ma’lumot bering.
4-xatboshi	Tanlagan kasbingiz orqali jamiyat rivojiga qanday hissa qo‘shishni maqsad qilganingiz to‘g‘risida yozing.

CHORAK BO‘YICHA MUSTAHKAMLASH

1. Namuna asosida so‘zlarning sinonimini toping va yozing. Diqqat, qavs ichida so‘zning nechta sinonimi borligi ko‘rsatilgan, imkon qadar ularni topishga harakat qiling. Yozgan so‘zlaringiz ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *shikoyat – nolish, hasrat, arz, ...*

nur (3) | ovoz (6) | rahmsiz (4) | sevinmoq (4)

2. Quyidagi so‘zlardan aniqlovchi sifatida foydalanib gaplar tuzing va yozing. Ular qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanayotganini aniqlang.

beshinchi, qiziqarli, o‘qigan, ko‘pning, oilaviy, zumrad, uzoq-yaqin, zarur, gurs-gurs, bizning

3. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni ko‘chiring.

qizil rang	qizilrang	ko‘k rang	ko‘krang
sariq rang	sariqrang	yashil rang	yashilrang
kul rang	kulrang	novvot rang	novvotrang
oq rang	oqrang	jigarrang	jigar rang
pushti rang	pushtirang	sabzi rang	sabzirang
bug‘doy rang	bug‘doyrang	havo rang	havorang

4. So‘zlardan mavhum otlar hosil qilib yozing. Yasama mavhum otlar qatorini davom ettiring.

Namuna: *quvon + ch = quvonch*

dehqon	odam	bor	qonuniy
sev	yaxshi	kamol	tayan

VI BOB

INSON VA TABIAT



1. Dunyo atrof-muhit kuni qachon nishonlanadi?
2. Tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq qanday qonun va qarorlar mavjud?
3. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
4. “Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi” degan fikrni izohlang.

6.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddalarini o‘qing. O‘z fikringizni bildiring.

66-modda

Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak.

68-modda

Yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

6.2. Quyidagi gap va matnlarni ifodali o‘qing. Sizda ham tabiatdan zavqlanish hissi bo‘lganmi? Bu qachon sodir bo‘ladi?

Inson tabiat bilan bir butun, shuning uchun doim tabiatga oshiqadi va uning bag‘rida taskin topadi.

Tabiat mo‘jizalari inson qalbini, ruhiyatini boyitadi, yangi g‘oyalar sari yetaklaydi. Tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan vaqt har doim zavqli va mazmunli bo‘ladi.

Tabiatni asrash har birimizning burchimizdir. Uni kelajak avlodga bus-butun yetkazishimiz lozim.


Tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish kishining ichki muvozanatini tiklaydi, turli tashvishlardan xalos qiladi. Shu bois inson tabiatga intilib, uning go‘zalligidan zavqlanadi va unga qayta-qayta oshiq bo‘ladi.

Yam-yashil adirlarda sayr qilish, tog‘larning ulug‘vorligini his etish, daryolarning jo‘shqin oqimini kuzatish insonga baxt hissini tuydiradi.

Daraxtlarning barglari, gullarning nozik yaproqlari, qushlarning sayrashi – bari-bari tabiatning go‘zalligini namoyon etadi. Tabiat bilan uyg‘unlikda yashash insonni yuksaltiradi.

6.3. Diagramma bilan tanishing.

Eksport tovarlarining asosiy guruhlari
(eksportning umumiy hajmiga moslashtirilgan)



kun.uz

6.4. Moslashtiring. Sizningcha, chap ustundagi gaplar eksport qilingan qaysi mahsulotga tegishli?

1	Juda mehribonmiz, insonlarni sovuqdan asraymiz. Kam foizlarda bo‘lsa ham, yildan yilga o‘sishga harakat qilmoqdamiz. Hammaga foydamiz tegsin deymiz-da!	A	kelib chiqishi o‘simlikka mansub mahsulotlar

2	Yorqin, qimmatlimiz. Har yili 9–10% atrofida o‘sib bordik. Eng katta o‘sish ham bizga tegishli. Shuning uchun kayfiyatimiz zo‘r…	B	mineral mahsulotlar
3	2018-yilda “yulduz”lardan biri edik. Respublikamizga katta daromad keltirdik. 2019–2020-yillarda esa keskin kamayib ketganimizdan xavotirlangan edik.	D	qimmatbaho bo‘lmagan metallar va buyumlar
4	Biz ham yurtimizga katta-katta daromad keltirishni xohlaymiz. Lekin na iloj… eng kam ko‘rsatkich bizga tegishli.	E	to‘qimachilik va to‘qimachilik buyumlari
5	Yuqori raqamlarni ko‘rsatib barchani xursand qilish, yurtimiz g‘aznalarini to‘ldirib yuborishni istaymiz. Afsuski, 2020-yildagi o‘sish ko‘rsatkichimiz 2019-yildan 0,8% ga farq qilmoqda.	F	qimmatbaho metall va toshlar
6	O‘sdik, tushdik. Taqdirimiz tabiat hodisalari bilan ham bog‘liq-da. Yaxshi parvarish qilinsak, katta daromad keltiramiz.	G	kimyo sanoati mahsulotlari

6.5. Tabiat bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi 14 ta so‘z yozing. Yozgan so‘zlaringizni imlo lug‘atidan tekshiring.

6.6. Quyidagi qoliplardan foydalanib ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar tuzing va yozing. Nega *muallif gapi* va *ko‘chirma gap* deyilishini tushuntiring.

1. Muallif gapi — Ko‘chirma gap — Muallif gapi
2. Ko‘chirma gap — Muallif gapi — Ko‘chirma gap
3. Muallif gapi — Ko‘chirma gap
4. Ko‘chirma gap — Muallif gapi

Botanika bog‘lari haqida nimalarni bilasiz? Sizningcha, botanika va istirohat bog‘-lari qanday farqlanadi?

SHAHARLARNING “YASHIL O‘PKA”SI

1

Botanika bog‘ini oddiy parklar, istirohat bog‘laridan farqlash zarur. Istirohat bog‘lari sayr qilish, ko‘ngil yozish, o‘yin-kulgi uchun mo‘ljallangan tabiiy yoki ekilgan o‘simliklar, suv havzalarini o‘z ichiga olgan bir maydondir. Istirohat bog‘larida botanika bog‘laridan farqli ravishda tadqiqotlar o‘tkazilmaydi, unda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yoki Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar deyarli bo‘lmaydi. Botanika bog‘larining asosiy vazifasi mahalliy va chet el o‘simliklarini, ekotizimni tartiblash, to‘g‘ri sharoitda saqlash, ularni aholiga tanishtirishdan iborat. Bunday yashil maskanlar ko‘ngilochar parkka aylanib ketishining oldi olinishi kerak. Botanika bog‘lari ilmiy tadqiqot va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik, o‘simliklar esa aloqa vositasidir. Botanika bog‘ining biologik merosni asrash va uni odamlarga o‘rgatishdagi roli beqiyos, ularni bolalarga tabiatni tanishtiruvchi “yashil maktab” desa ham bo‘ladi. Ularning ilmiy hamda tabiatni asrashdagi ahamiyatini anglash lozim.

2

Aholi zichligi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarda ekani sabab Singapurda yerdan o‘ta unumli foydalaniladi. Ayni damda ko‘kalamzorlashtirishga ham e’tibor katta – Singapurning 56 foizi yashillik bilan qoplangan. O‘simlik-u daraxtlarning bari davlat muhofazasi va parvarishida, har birining o‘z ID raqami bor. Tabiatga zarar yetkazganlar ayovsiz jazolanadi.

1859-yilda tashkil topgan Singapur botanika bog‘ining maydoni dastlab 32 gektar bo‘lgan, hozir esa bog‘ 82 gektarni egallaydi. Singapur botanika bog‘i YUNESCO ro‘yxatiga olingan dunyodagi uchinchi va Osiyodagi birinchi botanika bog‘i hisoblanadi. Bog‘ning o‘zi yana bir necha kichik qismlarga bo‘lingan bo‘lib, ular orasida Milliy orxideyalar bog‘i, bolalarga mo‘ljallangan bog‘, Botanika bog‘i tarixi muzeyi, ko‘llar (ulardan biri musiqiy tadbirlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Simfonik ko‘l deb ataladi) va boshqalar bor. Hozir bog‘da nabotot olamining 10 mingdan ortiq turi mavjud.



Singapur botanika bog‘ining eng mashhur tashrif qog‘ozlaridan biri sanaluvchi Orxideyalar bog‘ida 6 mingdan ortiq orxideyani tomosha qilish mumkin. Ular orasida mashhur shaxslar, davlat arboblari sharafiga maxsus yetishtirilgan va nomlangan orxideyalar bor. Xususan, O‘zbekiston prezidentlari sharafiga nomlangan gullarni ham ko‘rishingiz mumkin.

Tashrif buyuruvchilar soni juda katta bo‘lgach (Singapur botanika bog‘iga yiliga 4,5 mln kishi keladi), ularning barini kuzatib, nazorat qilib bo‘lmaydi, kimdir chiqindi tashlashi, o‘simliklarga zarar yetkazishi mumkin. Singapur botanika bog‘ida bunday holat qat’iy jazolanadi. Masalan, birgina bargni qasddan uzish jarimasi 3500 AQSH dollarigacha yetishi mumkin.

Germaniyada 90 ga yaqin botanika bog‘i bor. Ularda odatda noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan ekzotik o‘simliklar parvarishlanadi. Bundan tashqari, botanika bog‘lari qushlar, mayda sutemizuvchilar, ayrim hollarda noyob hasharotlar uchun makon vazifasini ham bajaradi.

3

Gyottingen shahridagi salkam 300 yillik tarixga ega klassik botanika bog‘ining maydoni nisbatan kichik – atigi 4,5 gektar bo‘lishiga qaramay, unda 17 ming xil o‘simlik turi parvarishlanadi (masalan, yozda borsangiz, 100 yoshli Braziliya gigant rovochi “Gunnera manicata”ning bahaybat barglarini tomosha qilasiz) – ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha u Berlin-Dalem botanika bog‘idan keyin 2-o‘rinda turadi. Ushbu bog‘ Gyottingen durdonasi deya ta’riflanishi bejiz emas.



Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi noyob o‘simliklarning barqaror o‘sishi uchun sharoit yaratish juda muhim va mushkul ish. Shu sababli ular issiqxonalarda, kerakli haroratda saqlanadi. Qizig‘i, bog‘da hozir ishlab turgan issiqxonalarning aksariyati XIX asrga oid. Ulardagi har bir o‘simlik, har bir daraxt raqamlanadi va ma’lumotlar jamlanib, qayta ishlab boriladi.

Toshkent botanika bog‘i MDH hududidagi eng katta va eng qadimiy bog‘lardan biridir. 67 gektarlik zamonaviy bog‘ maydoni poytaxtning shimoliy qismida joylashgan. Bu yerda yana Toshkent hayvonot bog‘i ham bor. Botanika bog‘i yilning istalgan vaqtida juda go‘zaldir. Bog‘ning betakror iqlimi tufayli bu yerda dunyoning besh hududi – Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq, Yevropa va Shimoliy Amerikaning o‘simliklar dunyosidan bahramand bo‘lish mumkin.

4

Bog‘ kolleksiyasida 6000 dan ortiq o‘simlik turlari mavjud, bular: 170 ta ignabargli daraxt, 800 ga yaqin tropik va subtropik o‘simliklar, 2000 dan ortiq ko‘p yillik o‘simlik turlaridir. Botanika bog‘i hududida sun’iy suv havzalari joylashgan bo‘lib, Oqqo‘rg‘on kanali suvi bog‘ning qulay joylashishi evaziga ko‘chatlarga o‘zi oqib kelmoqda. Bu holat madaniy o‘simliklarning saqlanishi va ko‘payishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Toshkent botanika bog‘ining ilmiy xodimlari bir necha o‘n yillar davomida o‘simliklarni O‘zbekistonga ko‘chirib olib kelish, shuningdek, mahalliy turlarni ko‘chirib o‘tqazish bo‘yicha katta ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Hozir bu yerda mahalliy sharoitda foydalanilishi mumkin bo‘lgan yangi turlar kashf qilinmoqda va o‘simlik dunyosining yangi turlari yaratilmoqda. Iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lgan yangi o‘simliklarga katta e’tibor berilmoqda, yangi noyob va qiyin o‘sadigan turlar, dorivor, gulli va manzarali o‘simliklar o‘rganilmoqda. Manzarali va mevali daraxtlar, turli xil rezavor butalar, dorivor o‘simliklar mamlakatimiz botaniklari uchun tadqiqot masalasi bo‘lsa, oddiy mehmonlar uchun go‘zallik namunasidir.



Toshkent botanika bog‘ida poytaxtimizga uchib keladigan 30 dan ortiq turdagi ekzotik qushlarni ham uchratishingiz mumkin.

Bog‘ hududida turli xil o‘quv ekskursiyalarida ishtirok etishingiz, fotosessiyalar, videotasvirlar olishingiz, velosiped va rolikli konkida sayr qilishingiz (ijara xizmati alohida), tabiat qo‘ynida dam olishingiz hamda o‘simliklarning kamyob va manzarali turlarini xarid qilishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoq sahifalaridan

6.7. Matnda keltirilgan quyidagi so‘z birikmalarini izohlari bilan moslashtiring. Bittasini o‘zingiz izohlang.

1	*ignabargli daraxtlar*	A	yer yuzasining pastqam, chuqur joylarida tabiiy yoki sun’iy ravishda suv to‘planishidan hosil bo‘ladigan sekin oqar yoki oqmas suv manbayi
2	*rezavor butalar*	B	odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar – giyohlar
3	*suv havzalari*	D	sershira, meva beruvchi ko‘p yillik buta, chala o‘tsimon o‘simlik
4	*ilmiy tadqiqot*	E	chatishtirish, duragaylash natijasida hosil qilingan yangi o‘simlik turi
5	*dorivor o‘simliklar*	F	yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, mavjud bilimlarni oshirishga qaratilgan kreativ va tizimli ish
6	*gibrid o‘simliklar*	G	qarag‘aytoifa (ochiq urug‘li), barglari tangacha yoki ignasimon o‘simlik

1. Shaharlarning “yashil o‘pka”si deganda yana nimani tushunish mumkin?
2. Nega botanika bog‘laridagi daraxt va o‘simliklarga ID raqam beriladi?
3. Nega Toshkent botanika bog‘iga Oqqo‘rg‘on kanali suvi kelishi madaniy o‘simliklarning ko‘payishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan holatlardan biri deb izohlangan?
4. Botanika bog‘larida iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lgan yangi o‘simliklarga ham katta e’tibor qaratilishining sababini sharhlang.

6.8. Matn asosida to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. Noto‘g‘ri ma’lumotlarni to‘g‘rilab ayting.

1. Istirohat bog‘larida Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar o‘stiriladi.
2. Botanika bog‘lari biologik merosni asrash uchun tashkil etiladi.
3. Singapur botanika bog‘ida O‘zbekiston prezidentlari sharafiga o‘stirilayotgan gullar bor.
4. Germaniyada 90 ga yaqin botanika bog‘i bor.
5. Toshkent botanika bog‘ida Simfonik ko‘l joylashgan.

6.9. Botanika bog‘larining asosiy vazifasi nimadan iborat? Javobingizni yozing.


6.10. Bosma va internet nashrlaridan O‘zbekistondagi qo‘riqxonalar haqida ma’lumot to‘plang. Ularning to‘g‘riligini tekshiring va jadvalda aks ettiring. Bu ma’lumotlar asosida og‘zaki nutq tayyorlang.


T/R	Qayerda joylashgani	Yer maydoni	Qachon tashkil topgani	O‘ziga xosligi	Ma’lumot olingan manba
***	***	***	***	***	***


6.11. “Shaharlarning “yashil o‘pka”si” matni asosida quyida savollarga javob bering.

1. Mazkur gapning mazmunini izohlang.
   Botanika bog‘lari ilmiy tadqiqot va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik, o‘simliklar esa aloqa vositasidir.
2. Matndagi ba’zi o‘rinlarda qavs ichidagi gaplar qanday maqsadda keltirilgan?
3. Nega botanika bog‘lariga nisbatan “yashil o‘pka”, “yashil maktab”, “ilm bog‘lari” degan ifodalar ishlatilgan deb o‘ylaysiz?

6.12. Diagrammadagi ma’lumotlar bilan tanishing, ularni bir-biri bilan qiyoslang. Shaharlardagi suvdan foydalanish, chiqindilarni yig‘ish, ko‘mish, qayta ishlash va havo sifatining yuqori yoki pastligiga qanday omillar sabab bo‘lishi mumkinligini muhokama qiling.








kun.uz

Muhokama esse – muayyan vaziyat yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalar, fakt va dalillarga tayanib publitsistik uslubda yozma bayon qilinadigan ixcham ijodiy matn.

6.13. Muhokama essening tuzilishi bilan tanishing. Quyidagi vaziyat yuzasidan fikrlaringizni berilgan qolip asosida og‘zaki bayon qiling.

Zamonaviy dunyo texnologik jihatdan rivojlangani sari chiqindilar miqdori ortib bormoqda. Ba’zilar bu tabiat va inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirayotganini ta’kidlasa, ayrim olim va ekologlar bu holatni imkoniyat sifatida ko‘rmoqda.



6.14. Muhokama esse namunasi bilan tanishing.

Yurtimizda shaharlar infratuzilmasi jadal yangilanmoqda, yangi mavzelar qad rostlamoqda. Ba'zilar bu jarayon aholi yashash sharoitlarini yaxshilashini aytsa, ayrimlar havoning ifloslanishiga olib keladi degan fikrda.

MAVZU

Texnika va texnologiya taraqqiyoti shaharsozlik sohasidagi o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Yangi ko'rinishdagi shaharlarda aholining yaxshi yashashi uchun ko'pgina qulayliklar bor, ammo buning ekologiyaga salbiy ta'siri ham kuzatilmoqda.

KIRISH

Infratuzilmani yangilash, yashash sharoitlarini yaxshilash – zamon talabi. Odamzod har doim yaxshi yashashga intilib kelgan. Shaharsozlikdagi zamonaviy yondashuvlar aholiga bir qancha qulayliklarni yaratadi. Jumladan, ko'p qavatli binolarning barpo etilishi, "aqlli uy"larning qurilishi aholi turmush tarzini yengillashtiradi. Yerusti metrolari va veloyo'laklar ko'chalardagi tirbandlikning oldini oladi.

Ayrimlar bu kabi qayta qurish ishlari havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlamoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizdagi 14 ta ma'muriy markazning ekologik reytingi o'rganilganda 6 ta hudud havo sifati bo'yicha 50% dan past ko'rsatkichga egaligi aniqlangan. Bu holat hayvonot va nabototga ham salbiy ta'sir qiladi. Chang va gazlar bronxit, astma, o'pka saratoni kabi nafas yo'llari kasalliklarini ko'paytiradi. Havodagi zaharli gazlar va suv aralashmasidan kislotali yomg'irlar paydo bo'ladi, natijada daraxtlarning qurishi, o'simliklarning rivojlanmay qolish holatlari kuzatiladi. Kislotali yomg'irlar hayvonlar populyatsiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Infratuzilmani yangilashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanish zarur. Masalan, Yaponiyada qurilish maydonlariga kuniga uch mahal suv sepib chiqiladi, Niderlandiyadagi chang yutuvchi moslama soatiga 30 000 kubometr havoni tozalash quvvatiga ega. Bundan tashqari, ekoparklar hamda tomusti bog'larining barpo etilishi ham ekotizimni yaxshilashga katta yordam beradi.

ASOSIY QISM

Xulosa qilib aytganda, aholi yashash sharoitini yaxshilash maqsadida infratuzilmaning yangilanishi maqsadga muvofiq. Ammo bu ekotizimning izdan chiqishiga, ekologik barqarorlikning buzilishiga sabab bo'lmasligi lozim.

XULOSA

6.15. 6.13-topshiriqda berilgan vaziyat asosida muhokama essening ba'zi qismlarini yozishga tayyorlaning. Quyidagi til xususiyatlariga amal qiling. Ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarni takrorlamang.

- Kirish qismini shakllantiring.
- 1-qarashni izohlash uchun bitta fikr keltiring. Fikringizni dalillang.
- 2-qarashni izohlash uchun bitta fikr keltiring. Fikringizni dalillang.

Muhokama essening til xususiyatlari:	Ko'p uchraydigan xatolar:
– publitsistik uslubda yoziladi; – murakkab konstruksiyali sodda va qo'shma gaplardan foydalaniladi; – adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi; – badiiy tasvir vositalaridan o'rinsiz foydalanilmaydi; – sinonim so'zlardan unumli foydalaniladi; – maqol, matal, kirish so'z, kirish birikmalardan foydalaniladi.	– mavzudan chekinish holatlari; – matn yaxlitligiga amal qilmaslik; – mantiqiy izchillikning buzilishi; – o'z fikriga qarshi chiqish; – badiiy tasvir vositalaridan o'rinsiz foydalanish; – uslubiy chekinish; – fikr va so'z takrorining uchrashi.

6.16. Vaziyatlardan birini tanlang. Quyidagi yo'riqnoma asosida muhokama essening qoralama nusxasini yarating.

1-vaziyat. Ko'p hollarda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun tajriba sifatida hayvonlardan foydalaniladi. Ayrimlar bunga shafqatsizlik sifatida qarasa, ba'zilar buni to'g'ri deb hisoblaydi.

2-vaziyat. Ba'zilar ekoturizmni rivojlantirish mamlakatga katta iqtisodiy daromad keltirishi mumkinligini aytsa, ayrimlar bunda tabiiy muhitga zarar yetkazish va madaniy buzilish xavfi mavjudligini ta'kidlaydi.

3-vaziyat. Ba'zi odamlar yonilg'i narxini oshirish global ekologik muammolarni hal qilishda eng yaxshi yo'l deb hisoblasa, ayrimlar bunga jiddiy e'tiroz bildiradi.

Yo'riqnoma:

1. Mavzuni o'rganib chiqing.
2. Mavzu haqida ma'lumot to'plang.
3. To'plagan ma'lumotlaringizni saralab oling.
4. Tayanch tushunchalarni yozib chiqing.
5. Mavzuga mos maqol, matal yo hikmatli so'zlardan toping.
6. Mavzuga mos so'z va birikmalar lug'atini shakllantiring.

6.17. Muhokama essening qoralama nusxasini quyidagi mezon asosida qayta ishlang. Oqqa ko‘chiring.

Esseni qayta ishlash	Mazmunini qayta ko‘rib chiqish (har ikki qarash yoritilgan, dalillangan)
	Uslubiy tahrirlash
	Imlosini tekshirish
	Ishoraviy jihatdan tekshirish
	Matn qismlari to‘g‘ri yoritilganini tekshirish

6.18. O‘z hududingizdagi ekologik muammolarni darajalarga ajratib, daftaringizga yozing. Kattalardan ko‘mak oling.

1



Muammo darajalari
Juda muhim va 1-darajali muammolar
Juda chuqurlashgan muammolar
Muhim, ammo 1-darajali bo‘lmagan muammolar
Muhim hisoblanmaydigan muammolar
Muammo yo‘q

O‘z hududingizdagi ekologik muammolarga yechim taklif qiling.

2 Ekologik muammolar	Yechim va takliflar
***	***

1. Hayvon va qushlarga mehribonlik ko‘rsatganmisiz?
2. Nega qushlarni “qanotli do‘stlarimiz” deb ataymiz?

SEVINCHNING QUSHLARI

(Hikoya)

Uh, sovuq.

Qahraton qoningni qatron etadi. Itni ingillatadigan izg‘irin. Qishning qahri qo‘zidi, deb shuni aytsalar kerak.



Sevinch qizim bolasini ko‘ksiga bosib kirib keldi.

– Dadajon, uyimiz sovib ketdi. Kuyovingiz ham ishdan chiqib, shu yerga keladilar. Nabirangiz shamollab qolmasin, o‘zimiz-ku, bir amallardik...

Guppiday qilib qalin kiyintirilgan, kamiga jun mato bilan o‘rab-chirmalgan go‘dakning ko‘zginasi javdiraydi. Yopinchiqning popukchalari ham qandilning simlariday bo‘lib yaltirab turibdi – muzlab qolgan.

Eti yupqaning etigi ham yirtiq bo‘ladi. Shu sovuqda elektr bilan gazning tortilganini qarang.

Bizning uy issiqroq; gaz ham, chiroq ham “o‘yin” qilmayapti. Xayriyat...

Xullas, bolalar joylashib olishdi. Emgakdagi ermakvoy nabiramizning qiliqlari qirni qimirlatadi; xursand – u yoqqa emgaklaydi, bu yoqqa emgaklaydi, shuginaning ham qoni yurishib, yuziga qizillik indi. Sevinchning ko‘nglida minnatdorlik tuyg‘usi jo‘shib ketdi; oyog‘i olti, qo‘li yetti. Saranjom-sarishta bo‘lishiga qaramay, uy ichini yana qayta supurib-sidirishga kirishdi. Bizni og‘ir olmasin deb o‘ylayapti, shekilli, shuning uchun poyi patak. “Ey qizim-a, qaysi ota-ona o‘z bolasini malol olarkan, bunchalar bezovta bo‘lmasang-chi...”

Tushlikdan so‘ng Sevinch derazani ochib, dildiragan ko‘yi konditsionerning tashqaridagi uskunasi ustiga non ushoqlari solingan likopchani qo‘ydi.

– Nega unday qilyapsan?

– Qushlar yeyishadi. Axir bu sovuqda o‘lib qolishadi-ku. Ovqat topisholmayotgandir...

– Shunday izg‘irinda qush ucharmidi? Hammasi in-iniga kirib ketgandir. – Xayolimdan “Shaharning qoq o‘rtasidagi uyning sakkizinchi qavati derazasi yoniga Sevinch degan qizimiz ularga atab non ushoqlari qo‘yganini qayoqdan bilishsin” degan o‘y kechdi.

– Mayli, dadajon, biz sababini qilib qo‘yaveraylik. Xudo qushlarni biznikiga yuboradi. Ollohimning o‘zi aytadi, o‘sha yerga boringlar, rizqingiz bor deb.

Sevinch xuddi xayolimdagi gapni uqqan kabi javob qaytardi. G‘alati bo‘lib ketdim. Mulzam tortdim.

Kech kirdi. Ko‘chada qatnovlar ham muz tortdi. Qahratonning o‘lik sukunati. Sevinchning likopchasi yodimga tushdi. Oshxona derazasidan qaradim: likopcha bo‘m-bo‘sh. Non ushog‘i va bir siqim guruchning urvog‘i ham yo‘q.

– Dadajon, ana, ko‘rdingizmi, qushlar kelishibdi. Endi bizni duo qilishadi.

Sevinch xursand. Likopchani oldi-da, yana bir kaft guruch va non ushoqlari solib, tashqariga qo‘ydi.

Har tong oshxona derazasidan likopchaga qarayman, idish bo‘sh turadi. Demak, qushlar kelib ketishibdi. Sevinaman.

Kunlar isidi. Bolalarimiz o‘z uyiga ketadigan bo‘lishdi. Sevinch tashqaridagi likopchada har doimgidan uch-to‘rt hissa ortiq yemak qoldirdi...

Do‘konga kirdim. Yelim to‘rvachalarda qushlar uchun maxsus ozuqa sotilarkan. Endi Sevinchning qushlarini o‘zim ham “ovqatlantiradigan” bo‘ldim.

Yakshanba kuni. Uyda yolg‘iz edim. Bir talay ishlarni rejalashtirgandim. Barchasiga ulgurishim kerak. Shoshib tashqariga chiqdim. Mashinani qizdirish uchun o‘t oldirib qo‘ydim. Katta ko‘chaga qo‘shilaman deb ancha turib qoldim. Beixtiyor uyimiz derazasiga qaradim. Shu mahal qayoqdan paydo bo‘ldi, bilmayman, bir qush uchib kelib, derazamizga o‘zini zarb bilan urdi-da, havoga ko‘tarildi. Uning yoniga ikkinchisi ham kelib qo‘shildi. Qushlar jon holatda derazaga tashlanishib, oynaga tumshuqlarini uraverdi. Dam havoga ko‘tarilishadi, dam o‘zlarini derazaga urishadi. Men ularga angrayib qarab turaverdim. Qushlar endi oynani sindirguday shiddat bilan o‘zlarini derazaga urishar, ularning yoyiq qanotlaridan momiq patlar to‘kilardi. Vahimali chug‘urlashganini aytmaysizmi?

Yuragim shuuv etdi. Mashinadan otilib tushdim. Allanechuk g‘ayrishuuriy holatda uyga yugurdim. Go‘yoki kimdir meni tepadan boshqarib turganday edi.

Uy eshigini ochishim hamono dimog‘imga kuyindi hidi urildi. Ko‘zim achishdi. Tok urganday seskanib, kichik xonaga yugurib kirdim.

Yoyiq qolgan ko‘ylagim ustidagi dazmol atrofi qorayib ketgan, o‘yilgan mato ostidagi taxta tutay boshlagan edi. Hali shoshib, dazmolni o‘chirmagan ekanman. Xona ichini o‘tkir hid, yong‘in oldidan sodir bo‘lajak bo‘g‘iq tutun qoplagandi. Yashin tezligida deraza tomon yugurdim, hamma xonalarning oynasini ochib tashladim.

Oshxonaga kirdim. Tashqariga qaradim. Shundoq dor uchun o‘rnatilgan simda ikki qush hurpayib turishibdi. Ikkisining ham nozik tumshuqchalari atrofidan qon sizar, likopchada jarohat olgan qanotlaridan to‘kilgan momiq patlar sochilib yotardi. Ich-ichimdan qaltiroq turdi. Bo‘g‘zimga nimadir tiqildi. Ko‘zlarim achishdi. Yo‘q, ko‘zlarim ichkaridan o‘rlayotgan tutundan emas, botinimdan otilib chiqayotgan ko‘z yoshlardan achishayotgandi. Lablarim beholgina pichirlardi: “Rahmat sizga, Sevinchning qushlari! Rahmat sizga!..”

Qo‘chqor Norqobil

6.19. Quyidagi jumlalarning ma’nosini o‘qituvchingiz yordamida izohlang. Ular matn mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatganini ayting.

Qahraton qoningni qatron etadi.	***
Qishning qahri qo‘zidi.	***
Eti yupqaning etigi ham yirtiq bo‘ladi.	***
Emgakdagi ermakvoy nabiramizning qiliqlari qirni qimirlatadi.	***
Ko‘chada qatnovlar ham muz tortdi.	***
Ich-ichimdan qaltiroq turdi.	***

6.20. Qo‘chqor Norqobilning “Sevinchning qushlari” hikoyasi asosida testlarni bajaring. Noto‘g‘ri javoblarni to‘g‘rilab ayting.

1. Sevinch bolasi shamollab qolgani uchun otasinikiga keldi.
2. Yong‘inning oldi olingani uchun ota Sevinchga rahmat aytdi.
3. Ota do‘kondan qushlar uchun maxsus ozuqa olib keldi.
4. Sevinch dazmolni o‘chirishni unutib qo‘ygan edi.

1. Qushlar deraza oldiga yemish qo‘yilganini qanday bildi deb o‘ylaysiz?
2. Qizining qushlarni oziqlantirishi otaga qanday ta’sir qildi?
3. Qushlar derazaga qo‘yilgan non ushoqlari bilan oziqlanishga odatlanmaganida ham uy egasini falokatdan xabardor qilarmidi?
4. Siz hayvon va qushlar odamlarga yordam bergani haqida hayotiy voqealarni eshitganmisiz? Oila a’zolaringizdan ham so‘rang va yozib oling.

6.21. Matndan chiqargan xulosangizni yozing.

Namuna: *Tabiatni asrash har birimizning burchimizdir.*

6.22. Telegram guruhidagi yozishma bilan tanishing.

N **Nafisa**
Hikoya menga yoqdi, juda ta’sirlandim. Hayvonlarni himoya qiladigan tashkilotlar bo‘lganidek qushlarga g‘amxo‘rlik qiladigan tashkilotlar ham bo‘lishi kerak.
10-fevral 18:15


A **Azizxon**
Yevropada bunday tashkilotlar ko‘p. O‘zbekistonda ham hayvonlarni himoya qiladigan tashkilot bormi?
10-fevral 18:31

B **Bobur shoh**
Ha, “Mehr va oqibat” hayvonlarni himoya qilish jamiyati bor. Adashmasam, Chilonzor tumanida joylashgan.
10-fevral 18:32

M **Mubina**
Men ham qarovsiz qolgan hayvonlar uchun “Hayot” boshpanasi borligini eshitganman.
10-fevral 18:40

U **Umar**
Yo‘g‘-e? Nima keragi bor, davlatga ortiqcha chiqim! Kim boqmoqchi bo‘lsa, uyida boqaversin.
10-fevral 18:42

D **Dono**
Mening mushugim arazlab qolgan. Ovqat yemay qo‘ydi.
10-fevral 18:45



6.23. Ijtimoiy tarmoqdagi muhokama asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Bu masalani sinfdoshlarining telegram guruhiga tashlashdan Nafisaning asosiy maqsadi nima edi?

A. Hayvonlarni himoya qiladigan qanday tashkilotlar borligini bilmoqchi edi.
B. Ko‘ngillilarni yig‘ib, loyiha ishlab chiqish istagi bor edi.
D. Qushlarni himoya qiladigan tashkilot tuzilishini xohlardi.
E. Hikoya juda qiziqarli ekanini aytmoqchi edi.

2. Quyidagi savollar asosida suhbat tashkil qiling.

1. Nega guruh a’zolari muhokama mavzusidan chetlashib ketdi?
2. Ekoko‘priklar deganda nimani tushunasiz?
3. Ekoko‘ngillilar qanday ishlarni bajaradi?

6.24. 6.22-topshiriqda tavsiya etilgan havolaga kiring. Undagi ma’lumotlar bilan tanishing. Quyidagi mavzulardan birini tanlang va kichik loyiha ishi rejasini tuzing. Yo‘riqnomadan foydalaning.

Mavzular	Tabiatning joni bor	Yashil makon	Kichik ekoko‘ngillilar
Yo‘riqnoma	1. G‘oya o‘ylab toping. 2. Harakat rejasini tuzing. 3. Loyihangiz uchun logotip yarating.		

6.25. Tayyorlangan loyiha ishi rejasi bilan sinfdoshlaringizni tanishtiring. Nega aynan shu mavzuni tanlaganingizni izohlang. O‘qituvchingiz va sinfdoshlaringizning munosabatini tinglang.

6.26. Moslashtiring. Nega 2-ustundagi qush va hayvonlarga nisbatan shunday ifodalar ishlatilishini tushuntiring. Ushbu ifodalar ishtirokida 3 ta gap tuzing.

1	*o‘rmon shohi*	A	kit
2	*bahor elchisi*	B	musicha
3	*o‘rmon sanitari*	D	boyqush
4	*sahro kemasi*	E	qaldirg‘och
5	*baxt qushi*	F	sher
6	*xarobalar sultoni*	G	burgut
7	*samo lochini*	H	tuya
8	*dengiz hokimi*	I	bo‘ri
		J	humo

Tasviriy ifoda (parafraza) shaxs yoki narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan til birliklaridir: *o‘rgimchak to‘ri* – internet, *o‘rmon malikasi* – archa. Ular turg‘un birikma hisoblanmaydi.

Tasviriy ifoda bilan u anglatadigan so‘z orasida ma’noviy o‘xshashlik mavjud.

Iboralar ma’nosi bir so‘zga teng keladigan turg‘un birikmalardir: *qovog‘idan qor yog‘moq* – xafa bo‘lmoq, *og‘zi qulog‘ida* – xursand bo‘lmoq.

Ba’zi hollarda iboralar so‘z birikmalari bilan shaklan o‘xshashlik hosil qiladi, buni gap mazmunidan farqlash mumkin: *Anvar endi ko‘zi ochilgan mushuk bolachalarini avaylab parvarishlay boshladi. Bobosi bilan bo‘lib o‘tgan suhbatdan so‘ng Muxtorning* ***ko‘zi ochildi.***

6.27. Sinonim iboralarni moslashtiring. Ularning ma’nosi qaysi so‘zga mos kelishini ayting.

o‘ziga bino qo‘ygan		burgani ko‘zini ko‘rgan
do‘ppisini osmonga otmoq		kapalagi uchmoq
pixini yorgan		jini suymaslik
yuragi tovoniga tushib ketmoq		joni chiqmoq
qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan		dimog‘i baland
yomon ko‘rmoq		ko‘ngli g‘ash
tepa sochi tikka bo‘lmoq		og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq
ta’bi xira		yumshoq supurgi

6.28. Chap ustunda berilgan iboralarga zid ma’noli ibora toping. Ular ishtirokida gap tuzing va daftaringizga yozing.

aytganini bajarmoq — gapida turmoq — so‘zidan qaytmoq — aytganini bajarmaslik

yerga urmoq	hafsalasi pir bo‘lmoq, istarasi issiq; ko‘kka ko‘tarmoq; qo‘li uzun; yomon ko‘rmoq; og‘zining tanobi qochmoq; og‘zida qatiq ivitmoq; yuragi tars yorilmoq; kalavaning uchini yo‘qotmoq; yerga ursa, ko‘kka sapchimoq; lom-mim demaslik.
kalavaning uchini topmoq	
so‘xtasi sovuq	
yaxshi ko‘rmoq	
labi labiga tegmaslik	
qo‘li kalta	

6.29. Omonim iboralarga misollar toping. Daftaringizga yozing.

Namuna

hayratlanmoq
qattiq uxlamoq
→ dong qotmoq

6.30. Tarkibida ibora qatnashgan gaplarni aniqlang. Ibora va so‘z birikmasining farqini tushuntiring.

1.	Laylo juda mehribon qiz, u onasini boshiga ko‘taradi.
2.	Yangi yopilgan issiq kulchalarni savatga soldi-da, boshiga ko‘tardi.
3.	Mardon oyog‘ining tagidagi toshga qoqildi-yu, ko‘tarib kelayotgan tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi.
4.	Bunday vaziyatning guvohi bo‘lgan Alisherning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, rejalari chippakka chiqdi.
5.	Adham masxaralab ustidan kulgani yetmaganidek do‘ppisini osmonga otgani bolakayning jahlini chiqardi.
6.	– Naq beshta universitetni naqd qilib qo‘ygani uchun do‘ppisini osmonga otadi bizning azamat, – dedi Muhammad aka gerdayib.

6.31. Ushbu vaziyatni tahlil qiling va muhokama esse yozing.

Kasallikka chalinganda xalq tabobati asosida davolangan yaxshimi yoki shifokor tavsiyalaridan foydalangan afzalmi?

6.32. Sinfdoshingiz yozgan esseni quyidagi mezon asosida baholang.

Matn publitsistik uslubda yozilgan.	1 ball
Fikrlar izchil ifodalangan.	1 ball
Matn qismlarga to‘g‘ri ajratilgan.	1 ball
Ikki xil qarash ham yoritilgan.	1 ball
Fikrlar dalillangan.	1 ball
Gaplar mazmuniy-mantiqiy jihatdan bog‘langan.	1 ball
Shaxsiy yondashuv yoritilgan.	1 ball
Takrorlar yo‘q, o‘rinsiz ifodalardan foydalanilmagan.	1 ball
Matnda imloviy xatolar soni kam (3 tagacha xato).	1 ball
Matnda ishoraviy xatolar soni kam (3 tagacha xato).	1 ball
Jami:	**10 ball**

6.33. G‘azaldagi fe’llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Asosga qo‘shilib kelayotgan qo‘shimchalarning vazifasini aniqlang.

Navbahor ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar.

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila,
O‘ynashib, gohe tabiatni qilaylik chog‘lar.

Rux ochib ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo‘lmay sog‘lar.

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.

Marham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,
Choraye qilmoqdin o‘zga, ustig‘a tirnog‘lar.

Tobakay mundog‘ malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko‘z tutgin emdi senga bo‘lsun tog‘lar.

Muqimiy

6.34. Gaplar tarkibidagi kesimlarning shaxs-son va zamon shaklini aniqlab, yozing.

1. Yopinchiqning popukchalari ham qandilning simlariday bo‘lib yaltirab turibdi – muzlab qolgan.
2. Bizni og‘ir olmasin deb o‘ylayapti, shekilli, shuning uchun poyi patak.
3. – Mayli, dadajon, biz sababini qilib qo‘yaveraylik. Xudo qushlarni biznikiga yuboradi.
4. Har tong oshxona derazasidan likopchaga qarayman, idish bo‘sh turadi. Demak, qushlar kelib ketishibdi. Sevinaman.
5. Yoyiq qolgan ko‘ylagim ustidagi dazmol atrofi qorayib ketgan, o‘yilgan mato ostidagi taxta tutay boshlagan edi.

6.35. Fe’llarni zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘ygan holda yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

eshitilmoq, so‘zlamoq, gullamoq, o‘ylamoq, olib kelmoq, o‘rganib chiqmoq

6.36. Matnni o‘qing. Kesimlar tarkibidagi zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini aniqlang. Ular qanday vazifa bajarganini izohlang.

Tabiat zargarga o‘xshaydi. Uning bag‘ridan unib chiqqan har bir giyoh, har bir daraxt o‘ziga xos bir olamdir. Yashillik, musaffolik manbayi bo‘lmish bunday tabiiy boylikka daxl qilinishining oldini olish, himoyalash faqat soha xodimlarining ishi emas, balki barchaning burchidir. Chunki biz yashayotgan hudud musaffoligi, ekologik muvozanatiga barchamiz birday daxldormiz. Ona tabiatga mehr-muhabbatli bo‘laylik. Oilalarda, mahalla va qishloqlarda ekologik tarbiyani

kuchaytiraylik. Orastalikka rioya qilishimiz, gul-u giyohlar va daraxtzorlarni avaylashimiz, parvarishlashimiz zarur. Tabiatga ziyon yetkazmaslikni qanchalik odat qilsak, avlodlar kelajagi va hayot davomiyligi uchun shunchalik ko‘p qayg‘urgan bo‘lamiz.

uza.uz

6.37. Bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan global muammolar asosida muhokama esse uchun uchta vaziyat yozing.

. . . . . .

Uyingizda qanday hayvon boqasiz?

6.38. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajaring.

ONA TULKI
(Hikoya)

7



6.39. Berilgan so‘zlarni izohlari bilan moslang.

1	*kungay*	A	ovda qo‘lga tushiriladigan, tutib yoki otib olinadigan narsa
2	*katak*	B	uyatdan o‘zini noqulay, o‘ng‘aysiz sezish; uyalish hissi
3	*xijolatpazlik*	D	parranda yoki ayrim (asosan mayda) jonivorlar turishi uchun maxsus ishlangan qurilma; xona, uycha

4	*o‘lja*

E	quyoshga qaragan
F	ov ishi bilan shug‘ullanuvchi, ov qiluvchi kishi

1. Sardorning tog‘asi voqeaning mohiyatini qanday angladi?
2. Nega Sardorlarning uyida yovvoyi quyon, tovuq va o‘rdakning o‘ljasi topildi?
3. Siz Sardorning o‘rnida bo‘lganingizda, qanday yo‘l tutardingiz?

6.40. Matn mazmunidan kelib chiqib to‘g‘ri va noto‘g‘ri hukmlarni aniqlang.

To‘g‘ri	Sardor dalani aylanib yurganida tulki bolasini topib oldi.	Noto‘g‘ri
To‘g‘ri	Tulkicha hali kichkinaligi uchun uni ona tulkidan ajratmaslik kerakligini aytishdi.	Noto‘g‘ri
To‘g‘ri	Sardor tulki bolasini eski tovuq katagiga qamab qo‘ydi.	Noto‘g‘ri
To‘g‘ri	Tulki bolasi katagidan chiqib, qo‘shnining tovug‘ini yeb qo‘ydi.	Noto‘g‘ri
To‘g‘ri	Ona tulki o‘ljalarni bolasi uchun tashlab ketganini Sardorning tog‘asi aytdi.	Noto‘g‘ri
To‘g‘ri	Sardor tulkini qaytib uchratmadi.	Noto‘g‘ri

6.41. Hikoyadagi bosh va yordamchi fikrlarni aniqlang.

Yordamchi fikr

Yordamchi fikr

Hikoyaning bosh g‘oyasi

Yordamchi fikr

Yordamchi fikr

6.42. Audiomatnni yana bir bor diqqat bilan eshiting. Uni qismlarga ajrating. Har bir qismni ifodalaydigan reja tuzing.

1	2	3	4	5
***	***	***	***	***

6.43. “Ona tulki” hikoyasi asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Muallif ona mehrini yoritish uchun nega hayvonlar obrazidan foydalandi?
2. Personajlar tabiatining ochib berilmagani asarning badiiyatiga ta’sir o‘tkazganmi? Fikringizni izohlang.
3. Hayvonlar haqida qanday asarlarni o‘qigansiz?

6.44. Quyidagi iboralarning ma’nosini bir so‘z bilan ifodalab daftaringizga yozing.

Bir yoqadan bosh chiqarish	***
Yerga ursa, ko‘kka sapchish	***
Do‘ppisi yarimta	***
Yog‘ tushsa, yalagudek	***

6.45. O‘ng ustunda berilgan iboralarning ma’nosini izohlang. Ulardan mosini tanlab, gaplarni to‘ldiring va daftaringizga ko‘chiring.

Farida qattiq hayajonda edi, ne qilishini bilmay qoldi ...	yuz ko‘rmas bo‘lmoq
	tirnoq orasidan kir qidirmoq
	sichqonning ini ming tanga bo‘lmoq
Asila juda ozg‘in qiz edi ...	qulog‘idan kun ko‘rinmoq
	tepa sochi tikka bo‘lmoq
	og‘zini ochsa, o‘pkasini ko‘rmoq
Mustafo shaxmat o‘ynashni yaxshi ko‘radi ...	miyasini qoqib, qo‘liga bermoq
	boshi bilan sho‘ng‘ib ketmoq
	nafasi ichiga tushmoq

6.46. Tasviriy ifodalarga misollar toping va daftaringizga guruhlab yozing.

O‘simliklar	Qushlar	Hayvonlar	Foydali qazilmalar
***	***	***	***

6.47. Quyidagi tasviriy ifodalar anglatadigan so‘zlarni toping. Har biri ishtirokida gap tuzib, daftaringizga yozing.

Aql gimnastikasi	***
	***
Qora oltin	***
	***

Fasllar kelinchagi	***
Uyg‘onish fasli	
Oynayi jahon	***
Zangori ekran	

TIL SANDIG‘I

“Yaproq”ning ildizi

Tilimizdagi eng ko‘rkam so‘zlardan biri – *yaproq*qa diqqat bilan qarasangiz, bu so‘z ham o‘z ildizi haqida o‘zi gapirishiga amin bo‘lasiz. *Yaproq* so‘zining asosida *yop* (yap) so‘zi shundoq ko‘rinib turibdi. *Yaproq yop* (yap) so‘zidan paydo bo‘lgan. Mantiqan o‘ylab qaralganda ham yaproqlar daraxt shoxlarini yopib turadi. Yaproqsiz daraxt – yalang‘och daraxt.

Mahmud Koshg‘ariyda bu so‘z *yapurg‘aq* shaklida keladi va tub ildizga yanada yaqin borib, *“yopib turuvchi”* ma’nosini anglatishi aniq ko‘rinib qoladi.

Alisher Navoiyda yaproq *yafroq* shaklida qo‘llangan, bu davrga kelib, “p” tovushi “f”ga aylangan, balki, bunday o‘zgarishga she’r san’ati sabab bo‘lgandir.

Xazoniy bog‘ aro ul oy tan-u chehramni ko‘rgan chog‘
Degaykim, bir quruq shox uzra qolmish bir sorig‘ yafrog‘.

(“Munshaot”)

Eshqobil Shukur

VII BOB


SAN’AT



1. Rasmlarda san’atning qanday turlari aks etgan? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
2. Milliy va zamonaviy san’atning o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi? Zamonaviy san’at turlari haqida gapiring.





7.1. Matndagi rasm va sarlavhaga qarab uning nima haqida ekanini taxmin qiling. Matnda foydalanilgan suratlar qanday tasviriy san’at yo‘nalishidaligini aniqlang.

A. Xabar berish mazmuniga ega

B. Reklama mazmuniga ega

D. Ko‘rsatma berish mazmuniga ega

E. Murojaat qilish mazmuniga ega

F. Targ‘ibot-tashviqot mazmuniga ega

SURATLARNING O‘ZI GAPIRSA...

(Qisqartirib olindi)

Karikatura – tasviriy san’at janri. Unda asar qahramonlari satirik yoki hazil shaklida chiziladi. Bu atama italyancha “caricare” so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘rttirish ma’nosini anglatadi.

Karikatura – grafika turlaridan biri. Barcha grafik san’atlardan keskin ajralib turadigan bu san’at hayot bilan chambarchas bog‘liq. U voqelikka javob beradi, aniq ijtimoiy ma’no tashiydi. Ba’zi illatlarni ko‘rsatadi, ularning ustidan kuladi. Bunday fosh qilish kishini zavqlantiradi.

Karikatura janriga birinchi bo‘lib qo‘l urgan rassom kimligi haqida taxminlar ko‘p. Ehtimol, ilk karikaturachi Leonardo da Vinchi bo‘lgandir. Dastlab karikaturachilarning asarlari tanqid qilingan va hatto ta’qib etilgan.

Bu janr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda rassom ta’sirli texnikalardan ustalik bilan foydalanadi. Bu grotesk, bo‘rttirilgan, xayoliy, g‘alati, xunuk, kulgili tasvirlar bo‘lishi mumkin. Maqsad – voqelikni yumor asosida tasvirlash. Karikaturachi rassom ijodiy qarashlari va kulgili chizgilari orqali biror muammoni ochib beradi. Karikatura – tanqidning eng qisqa va keskin usuli. Ko‘pincha aniq shaxslar haqida emas, balki o‘z davriga tegishli mavzu yoki vaziyat haqida hikoya qiladi. Masalan, siyosiy yoki ijtimoiy voqea, modaning o‘zgarishi, axloqning buzilishi. Bunda rassom xayoliy, ammo ma’lum tasavvurlarni uyg‘otadigan tasvirlar ishlaydi. Asar qahramonlari kulgili vaziyatda tasvirlanadi, voqea satirik holatni ifodalaydi.

Tasviriy san’at tarixida boshqa janrlarga nisbatan karikaturaga qo‘l urgan rassomlar nisbatan oz. Shunday bo‘lsa-da, jamiyat ma’naviyati, madaniyatini har xil illatlardan tozalashda bu janrning o‘rni katta.



1

O‘zbek rassomlari ham karikatura yo‘nalishida ijod qilib kelayotgani, xalqaro ko‘rgazmalarda o‘z o‘rniga egaligi quvonarli. O‘zbekistonning yetakchi karikatura ustalaridan biri, “Mushtum” jurnali bosh rassomi Husan Sodiqov ijodi xususida ham shunday deya olamiz.

Husan Sodiqov nomi tilga olinganda uning karikatura janriga taalluqli, yumorga boy biri biridan qiziqarli suratlari xayolga keladi. Ko‘pchilik rassomni “Mushtum” jurnalidagi ijodi orqali taniydi. Husan Sodiqov – serqirra ijodkor. Rassom karikaturadan tashqari ko‘plab janrlarda ijod qiladi, u akvarel va moybo‘yoqda turli etyudlar, tabiat manzaralari, kompozitsiyalari, portret janridagi asarlarning ham muallifi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Eron, Xitoy, Turkiya, Italiya, Ruminiya, Isroil, Fransiya va boshqa

davlatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rik-tanlovlarning g‘olib va sovrindori.



Husan Sodiqov o‘nlab ertaklarga illyustratsiyalar va yuzdan ziyod kitoblarga grafik bezaklar ishlagan. Rassomning akvarel, mato va moybo‘yoqda ishlagan milliy ruhdagi kompozitsiyalari ham talaygina. Bu suratlarni ko‘zdan kechirar ekansiz, rassom tafakkur olami sizni hayratlantiradi, zavqlantiradi. Qaysi janrda ijod qilmasin, uning asarlarida badiiy ruh, milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga sodiqlik, sharqonalik, go‘zallik o‘z ifodasini topgan. Musavvirning maqsadi olamni yaltiroq qog‘ozda ko‘rsatish emas, haqqoniy va tabiiy go‘zallikni anglash va anglatish. Masalan, kitob grafikasida musavvir qahramon xarakteridan kelib chiqib obraz yaratadi. Chunki surat shunchaki voqelik tasvirigina emas, uning yaqqol ifodasi, tasavvurning jonlanishidir. Bunda faqat ijobiy yoki salbiy obrazgina emas, qahramonning ma’naviy qiyofasi ham namoyon bo‘ladi.


Husan Sodiqovning portret janrida bir qancha asarlari bor. “Amir Temur”, “Alisher Navoiy”, “Ibn Sino” singari asarlari shular jumlasidandir. Jahongir bobomizning siymosini ko‘plab rassomlar akslantirgan. Lekin Husan Sodiqov chizgan portretda Amir Temurning salobati, xarakteri va ichki olami yarq etib ko‘zga tashlanadi. Xuddi u tirikdek, o‘tkir nigohlariga qarab turishga uncha-muncha odam botina olmaydi.

Qanday asarlarni tugal, mukammal deb e’tirof etish mumkinligini so‘raganimizda Husan aka: “Suratlarning o‘zi gapirsa…” deb javob berdi. Darhaqiqat, Husan Sodiqov asarlarining o‘zi gapiradi, ularga izohning hojati yo‘q.

Komil Jontoyev

7.2. Izohlar yordamida krossvordda yashiringan so‘zlarni aniqlang. Diqqat, ushbu so‘zlar matndan olingan!

1. Adabiy asar, san’at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o‘zaro munosabati, ularning qo‘shilib ketishi, yaxlitligi.
2. Real hayotda mavjud bo‘lgan, bir necha kishining yoxud rassom tasavvuridagi qiyofaning tasviri yoki fotograf tomonidan olingan surati.
3. Voqea va hodisalarni ataylab kuchaytirish yoki kichraytirishdan, kulgili tarzda buzib ko‘rsatishdan iborat badiiy usul.
4. Satiraga oid, satira xarakteridagi; hajviy, kinoyali, kulgili.
5. Kitob, jurnal, gazetaning asosiy mazmunini tushunishga xizmat qiladigan rasm, surat.
6. Kamchiliklar, ayrim voqea-hodisalarni kulgili qilib, hazilomuz tasvirlay bilish, ularni hajv qilish.
7. Suvda eritib ishlatiladigan bo‘yoq, suvbo‘yoq.



1. Karikaturaning aniq ijtimoiy ma’no tashishini ta’kidlaganda muallif aynan nimani nazarda tutgan?
2. Karikatura janrining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Nima uchun karikaturada o‘z davriga tegishli mavzu yoki vaziyatlar tanqid ostiga olinadi?
4. Matnda karikatura jamiyatni turli illatlardan tozalashda katta ahamiyatga egaligi aytilmoqda. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Javobingizni izohlang.
5. *Karikatura yo‘nalishida chizilgan rasmlarda qahramonlarning ijobiy yoki salbiy obrazigina emas, ma’naviy qiyofasi ham namoyon bo‘ladi.* Ushbu fikr asosida rasmlardan biridagi qahramonning ma’naviy qiyofasini tasvirlab bering.

7.3. Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Ushbu ma’lumotlarni matn mazmuniga ko‘ra tartiblab yozing.

***	Karikaturachi rassomning asosiy maqsadi – voqelikni yumor asosida tasvirlash.
***	Husan Sodiqov ko‘plab davlatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rik-tanlovlarda g‘oiblikni qo‘lga kiritgan.
***	Karikatura grafika turlaridan biridir.

***	Husan Sodiqov “Amir Temur”, “Alisher Navoiy”, “Ibn Sino” singari portret janridagi asarlar muallifidir.
1	Karikatura italyancha so‘z bo‘lib, *bo‘rttirish* ma’nosini anglatadi.
***	Husan Sodiqov – sermahsul ijodkor.
***	Husan Sodiqov – O‘zbekistonning yetakchi karikaturachilaridan biri.
***	Karikatura janriga birinchi bo‘lib qo‘l urgan rassomning kimligi aniq emas.

2. Karikatura janriga xos xususiyatlarni belgilang.

○ grotesk ○ bo‘rttirilgan ○ xayoliy
○ g‘alati ○ xunuk ○ kulgili

3. Matn uchun tanlangan rasmlar qanday mavzularga bag‘ishlanganini yozing. Javobingizni izohlang.

1. ***	2. ***	3. ***	4. ***

7.4. Matn sarlavhasiga e’tibor bering. Sarlavha quyidagi mezonlarning qay biriga mos ekanini aniqlang. Javobingizni izohlang. Matnga yana qanday sarlavha tanlash mumkin? Yozing.

Sarlavhaga xos sifatlar	
Ixcham va jarangdor	***
Matn mazmunidan kelib chiqqan holda tanlangan	***
O‘ziga xoslik bor	***
Kishi diqqatini tortadi	***
Maqsad (xabar berish, muhokama, tashviqot, reklama, ko‘rsatma berish, murojaat qilish) ga mos	***

7.5. Quyidagi sarlavhalarni ham yuqoridagi mezon asosida baholang. Eng ma’qul kelgan sarlavha haqida fikr bildiring.

Toshkentda opera festivali (adabiyot va san’at mavzusi yoritib boriladigan gazeta)	**Chimboyda yangi korxona** (shahar hayoti yoritib boriladigan gazeta)	**Iroda va ishonch** (respublika yangiliklari yoritib boriladigan gazeta)	**Yo‘l bo‘lsin, yo‘lovchi?** (ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqolalar berib boriladigan gazeta)	**Suv kimniki? Hammaniki!** (huquqiy masalalar yoritib boriladigan gazeta)	**Agar mo‘l bo‘lsa qorako‘l...** (qishloq hayoti haqidagi gazeta)

7.6. Maqolalardan biri uchun sarlavha tanlang. Tanlagan sarlavhangiz asosida maqolaning kirish qismini yozing.

T/R	Mavzu	Sarlavha
1	Xalq og‘zaki ijodida milliy qadriyatlarning targ‘ib etilishi	***
2	Milliy hunarmandchilik an’analari haqida	***
3	O‘zbek raqs san’atining rivoji	***
4	Kashtachilik amaliy san’at turi sifatida	***

7.7. Birikmalarda ajratilgan so‘zlarni narsaning yoki harakat-holatning belgisini bildirishiga ko‘ra farqlang.

saharlab *turmoq,* ***barhayot*** *an’analar,* ***xiyol*** *egilmoq,* ***sekin*** *yurmoq,*
tarixiy *qadamjolar,* ***a’lo*** *kayfiyat,* ***tez*** *o‘qimoq*

Sifatlar ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: rang-tus *(qizil, kulrang, moviy);* xususiyat *(yangi, xursand, tiyrak);* hajm-o‘lchov *(cho‘ziq, tor, semiz)*; makon va zamon *(qadimiy, kechki, qishlik);* maza-ta’m *(shirin, nordon, lazzatli);* hid *(xushbo‘y, muattar, qo‘lansa).*

Ravishlar ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: maqsad-sabab *(ataylab, jo‘rttaga, qasddan);* holat *(jim, yayov, tasodifan);* payt *(hamon, dastlab, kundan kunga);* o‘rin *(yaqindan, olisda, bu yoqqa);* miqdor-daraja *(picha, oz-moz, birtalay).*

Sifatlar asosan otga bog‘lanadi, ba’zan harakat yoki holatning belgisini ham ifodalashi mumkin: ***chiroyli*** *yozmoq,* ***sergak*** *o‘tirmoq.*

Ravishlar asosan fe’lga bog‘lanadi, ba’zan narsa, shaxs yoki joyning belgisini ham ifodalaydi: ***kam*** *vaqt,* ***ko‘p*** *odam.*

7.8. “Suratlarning o‘zi gapirsa” matnidan sifat va ravish turkumiga oid so‘zlarni ajrating. Daftaringizga namuna asosida yozing.

Turkum	Matndan olingan so‘z	Ma’no turi	Misollar
Sifat	*kulgili*	xususiyat	*a’lochi, …*
Ravish	*uncha-muncha*	miqdor-daraja	*ko‘p, …*

7.9. Guruhlarga bo‘lingan holda sifat va ravish turkumiga oid xususiyatlarni ajrating. Ular asosida ikkala so‘z turkumi uchun qoida ishlab chiqing.

- predmetning belgisini bildiradi;
- harakat yoki holatning belgisini bildiradi;
- rang-tus, shakl, hajm, xususiyat, maza-ta’mga oid belgini ifodalaydi;
- harakat-holatning bajarilish payti, o‘rni, holati, daraja-miqdori yoki maqsad-sababini ifodalaydi;
- *qanday?, qachon?, qayerga?/qayerda?/qayerdan?, qancha?, qay darajada? nima sababdan?, nima maqsadda?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi;
- *qanday? qaysi?* so‘roqlariga javob bo‘ladi.

7.10. Sifat va ravish turkumidagi so‘zlarni ma’noviy guruhlarga ajrating. Ular ishtirokida san’at mavzusiga doir 4 ta gap tuzing va yozing.

qasddan, endi, azza-bazza, hozircha, ilojsizlikdan, erta-indin, chor-nochor, qishin-yozin, majburan, yakkama-yakka, nari-beri, sal-pal, ko‘p, jinday, hali-beri, biroz, bafurja, pastda, o‘rtacha, yangicha, olisda, ochiq-oydin, yuqorida, berida, oz

RAVISH				
Payt	O‘rin	Holat	Daraja-miqdor	Maqsad-sabab
***	***	***	***	***

qirmizi, kamtar, sariq, aqlli, yangi, sho‘x, bulturgi, pushti, g‘amgin, bemaza, oq, xushxo‘r, yashil, notanish, achchiq, sho‘r, qishki, qadimgi, xushbo‘y

SIFAT					
Rang-tus	Hajm-o‘lchov	Xususiyat	Maza-ta’m	Makon-zamon	Hid
***	***	***	***	***	***

7.11. Gaplardagi sifat va ravishlarni o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan birga ko‘chiring. Ularning qaysi turkumdagi so‘z bilan bog‘lanayotganini aniqlang va yozing.

Namuna: *Keng hovlidagi kichik shiyponcha uyga o‘zgacha fayz bag‘ishlamoqda. (keng hovli* (sifat+ot); *kichik shiyponcha* (sifat+ot); *o‘zgacha fayz* (sifat+ot))

1. Ertaga san’at muzeyining ochilishi bo‘lib o‘tadi, hammangizni kutib qolamiz.
2. Bu voqea kechagina bo‘lgandek, ammo oradan uch yil o‘tibdi.
3. Choyni nari-beri ichdim-da, tezda ustaxonaga shoshildim. Kechagi suratni tugatish ishtiyoqi meni tinch qo‘ymasdi.
4. Rasmda tasvirlangan yashil vodiy tomon ot choptirib borayotgan yigitning ko‘nglidan nimalar o‘tmoqda ekan?!
5. Bu xushxabarni hammaga yetkazish lozim, kerak bo‘lsa, uyma-uy yurib aytib chiqish zarur.
6. Bultur bobom bilan ekkan ko‘chatlarimiz bu yil gullab, barg chiqarishni boshlabdi.

7.12. “Sinkveyn” topshirig‘i. Ikki guruhga bo‘lining. Berilgan so‘zlarning har biri ishtirokida yo‘riqnoma va namuna asosida gaplar tuzib, yozing.

1-guruh:	2-guruh:
So‘zlar: qadriyat, san’at, hunarmand, raqs, rassom. 1-qatorga tanlangan so‘z (ot) yoziladi. 2-qatorga kalit so‘zga mos ikkita sifat yoziladi. 3-qatorda mavzuga oid xatti-harakat ikkita so‘z orqali ifodalanadi. 4-qatorga beshta so‘zdan iborat gap yoziladi. 5-qatorga kalit so‘zning ma’nodoshi yoziladi.	**So‘zlar:** kuylamoq, so‘zlamoq, tasvirlamoq, bezak bermoq, qadrlamoq. 1-qatorga tanlangan so‘z (fe’l) yoziladi. 2-qatorga kalit so‘zga mos ikkita ravish yoziladi. 3-qatorda mavzuga oid ot (shaxs/ narsa/ joy nomi) bitta so‘z orqali ifodalanadi. 4-qatorga beshta so‘zdan iborat gap yoziladi. 5-qatorga kalit so‘zning ma’nodoshi yoziladi.

Namuna:

qadriyat
milliy, umuminsoniy
asrab-avaylash, e’zozlash
Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashimiz lozim.
urf-odat

1. Teatr bu – badiiy san’at turi. Nima uchun biz teatrni badiiy san’at turiga kiritamiz?
2. Teatr tomoshasiga borganmisiz? Taassurotlaringizni so‘zlab bering.

HAYOT VA SAHNA KO‘ZGUSI

Inson ma’naviy olamini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san’atining o‘rni beqiyos. Zero san’at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, yorqin his-tuyg‘ularni in’om etadi. Teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat maskanidir.

Teatr bor ekan, hayot maroqli va go‘zaldir

– Teatr deganda san’atning katta bir turini tushunish lozim. Shu bilan birga, teatr bu – tomosha, spektaklning o‘zi, – deydi O‘zbekiston xalq artisti, “El-yurt hurmati” ordeni sohibasi Rixsi Ibrohimova. – Hayotim teatr bilan chambarchas bog‘langan. Umr yo‘llarimning har bir sahifasi teatr sahnalarida o‘tgan. Ochig‘ini aytsam, hech bir san’at turi teatr o‘rnini bosa olmaydi. Chunki odamiylikning go‘zal fazilatlarini targ‘ib qilishda sahna asarlarining ta’siri benihoya kuchli. Teatr san’ati hayotni, voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Shekspirning “Butun olam – teatr, unda har bir odam – aktyordir” degan jumlasini biz ko‘p holatlarda iqtibos sifatida ishlatamiz. Teatr bor ekan, hayot maroqli va go‘zaldir!

Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir



Darhaqiqat, teatr hayot ko‘zgusi, muqaddas dargoh sanaladi. Uning tarbiyaga yo‘g‘rilgan saboqlari esa kishilarni odamiylikka chorlaydi. O‘zbek teatri asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’biri bilan aytganda, “Teatr ibratxonadir”. Behbudiy o‘zining “Padarkush” dramasini sahnalashtirib, xalqning ma’naviyatini yuksaltirishga chog‘langan. Aslida esa bu ko‘hna olamning san’atsevar odamlari ibratxona atalmish tarbiya maskanini juda qadimdanoq kashf qilgan.

– Prezidentimiz biz, ijodkorlarga, katta ishonch bildirib, “Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir”, – deya ta’kidladilar. Biz o‘z ishimizga borlig‘imizni bag‘ishlab ijod qilsak, odamlar ko‘ngliga yo‘l topamiz. Teatr san’ati hech qachon eskirmaydi. Inson telefon, internet va kompyuter kabi axborot texnologiyalariga qanchalar o‘rganmasin, baribir ma’naviyat dargohi sifatida o‘rnak bo‘ladigan teatrning o‘rni boshqa. Shu bois yoshlar ma’naviyatini yuksaltiradigan sahna asarlarini qo‘yishimiz, ularga xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni keng jalb qilishimiz lozim, – deydi O‘zbekiston xalq artisti Mirza Azizov.

Sahna bilan yuzma-yuz



Kino yoki konsert tomoshalarini televideniye yoxud internet orqali tomosha qilish, zarur bo‘lsa, ulardan nusxa ko‘chirib olish mumkin. Lekin teatr nozik san’at turlaridan, unda tomoshabin rol ijro etayotgan aktyorlarning nigohi va nafasini, har bir so‘zi-yu xatti-harakatini jonli ko‘rib, his qilib turadi. Ko‘z oldida sahna turadi, shu yerda aktyorlar bilan birga yashaydi, yig‘laydi, kuladi…

– Teatrda qo‘yiladigan har bir spektakl tomoshabinlarga manzur bo‘lishi, sahnadagi dekoratsiyalar jonli, ishonarli tarzda bo‘lib, asarni yanada boyitishga xizmat qilishi kerak, – deydi O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri tomoshabinlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari Alijon Andakulov. – Spektakldagi jarayonlarning qiziqarli, jonli chiqishida, shubhasiz, dekoratsiyalar alohida ahamiyatga ega. Shu sababli sahna asarlari tomoshabinlarga namoyish etilayotganida xuddi imtihon topshirayotgandek bo‘lamiz. Agar spektakl tomoshabinlarga manzur bo‘lsa, bu bizning yutug‘imiz. Boshqa qardosh mamlakatlar qatori yurtimiz teatr rejissyorlari ham internet orqali onlayn tomoshalar, audiospektakllar yaratib, yangi asarlar repetitsiyalarini namoyish etmoqda. Aktyorlar monolog, she’r, masallar o‘qib, internet tarmoqlaridagi sahifalariga joylayapti. Biroq teatr san’atining aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi muloqoti, o‘zaro munosabati singari “jonli” aloqasini boshqa biror vosita orqali hosil qilib bo‘lmaydi.

Gulchehra Durdiyeva

7.13. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini aniqlang va yozing. Lug‘atdan tekshiring.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda	So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
teranlashtirish	***	***	*yo‘g‘rilmoq*	***	***
iqtibos	***	***	*dekoratsiya*	***	***
muhandis	***	***	*monolog*	***	***

1. Nima uchun muallif matnni “Hayot va sahna ko‘zgusi” deb ataganini izohlashga harakat qiling.
2. Muallif: *“San’at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go‘zal his-tuyg‘ularni in’om etadi”*, deganda nimani nazarda tutmoqda? Ushbu fikrni tushuntiring.
3. Teatr tomoshalarining televizor yoki internet orqali namoyish etiladigan tomoshalardan qanday farqli jihatlari bor?
4. Matnda teatr san’atining hech qachon eskirmasligi, uning o‘rnini telefon, internet va kompyuterlar bosa olmasligi ta’kidlanmoqda. Siz ham bu fikrga qo‘shilasizmi? Javobingizni izohlang.
5. Spektakllar tomoshabinlarga manzur bo‘lishi uchun nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligini ayting. Javobingizni asoslashga harakat qiling.

7.14. Matn asosida topshiriqlarni bajaring, javoblarni daftaringizga yozing.

1. Matnda “Teatr o‘rnini hech bir san’at turi bosa olmaydi” degan fikrni dalillash uchun qanday mazmundagi jumla(lar)dan foydalanilgan?

- Odamiylikning go‘zal fazilatlarini targ‘ib qilishda sahna asarlarining ta’siri benihoya kuchli.
- Teatr san’ati hayotni, voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlar, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi.
- Chunki aktrisa va aktyorlarning umri asosan teatrda o‘tadi.
- Inson telefon, internet va kompyuter kabi axborot texnologiyalariga qanchalar o‘rganmasin, baribir ma’naviyat dargohi sifatida o‘rnak bo‘ladigan teatrning o‘rni boshqa.
- Teatr san’atining aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi muloqoti, o‘zaro munosabati singari “jonli” aloqasini boshqa biror vosita orqali hosil qilib bo‘lmaydi.

2. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda maqola muallifi quyidagi shaxslarga qanday savollar bilan murojaat qilganini taxmin qiling. Savollarni daftaringizga yozing.

O‘zbekiston xalq artisti, “El-yurt hurmati” ordeni sohibasi Rixsi Ibrohimova	O‘zbekiston xalq artisti Mirza Azizov	O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri direktor o‘rinbosari Alijon Andakulov

3. Matndagi kichik sarlavhalarga asos bo‘luvchi jumlalarni topib, yozing.

Teatr bor ekan, hayot maroqli va go‘zaldir	***
Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir	***
Sahna bilan yuzma-yuz	***

4. Matn mazmuni asosida faqat teatrga xos jihatlar keltirilgan javoblarni aniqlang.

- tarbiya, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat maskani hisoblanadi
- san’atning ushbu turi hayotni, voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi
- teatr sahnasi hayot ko‘zgusi, muqaddas dargoh sanaladi
- san’atning ushbu turi xalqning ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi
- yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ushbu san’atning o‘rni beqiyos
- unda tomoshabin rol ijro etayotgan aktyorlarning nigohi va nafasini, har bir so‘zi-yu xatti-harakatini jonli tarzda ko‘rib, his qilib turadi
- unda tomoshabinlar o‘zini sahnadagidek his qiladi, aktyorlar bilan birga yashab, birga yig‘laydi
- ushbu san’atning aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi muloqoti, o‘zaro munosabati singari “jonli” aloqasini boshqa biror vosita orqali hosil qilib bo‘lmaydi

7.15. Matndagi sifat va ravish turkumiga oid so‘zlarni ular bog‘lanib kelayotgan birliklar bilan birga ko‘chiring.

Namuna: *ma’naviy olam, ...*

7.16. “Teatr bu – ibratxona! Unga yoshlarni jalb etish uchun nimalar qilish kerak?” mavzusida muhokama olib boring. Muhokamani boshlashdan avval daftaringizga mavzu bilan bog‘liq 3 ta savol yozing hamda jarayonda ushbu savollarga javob bering.

7.17. Rasmdagi teatr dekoratsiyasini tasvirlang. Bunda quyidagilarga e’tibor qarating:

- sahna bezaklari;
- sahnadagi detallar;
- aktyorlarning liboslari;
- aktyorlarning holati.



7.18. “Hayot va sahna ko‘zgusi” matnidan olingan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ko‘chirma gap va muallif gap kabi qismlarga ajrating.

O‘zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova teatr haqida shunday deydi: “Hech bir san’at turi teatr o‘rnini bosa olmaydi. Chunki odamiylikning go‘zal fazilatlarini targ‘ib qilishda sahna asarlarining ta’siri benihoya kuchli”.

“Teatr san’ati hech qachon eskirmaydi. Inson telefon, internet va kompyuter kabi axborot texnologiyalariga qanchalar o‘rganmasin, baribir ma’naviyat dargohi sifatida o‘rnak bo‘ladigan teatrning o‘rni boshqa”, – deya ta’kidlaydi O‘zbekiston xalq artisti Mirza Azizov.

O‘zganing gapi ko‘chirma gapli qo‘shma gap yoki o‘zlashtirma gap orqali ifodalanadi. Bunda ko‘chirma gapli qo‘shma gap o‘zlashtirma gap bilan ma’nodosh bo‘ladi.

Ko‘chirma gapli qo‘shma gap quyidagi shakliy o‘zgarishlar yo‘li bilan o‘zlashtirma gapga aylantiriladi:

a) *“Teatr tarbiya va ma’naviyat maskani”, – dedi ustozimiz.* (ko‘chirma gapli qo‘shma gap) // *Ustozimiz teatr tarbiya va ma’naviyat maskani ekanini aytdi.* (o‘zlashtirma gap)

b) *“Teatrning boshqa san’at turlaridan qanday farqi bor?” – deb so‘radi jurnalist.* (ko‘chirma gapli qo‘shma gap) // *Jurnalist teatrning boshqa san’at turlaridan qanday farqi borligini so‘radi.* (o‘zlashtirma gap)

7.19. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing.

1. Shekspir: “Butun olam – teatr, unda har bir odam aktyordir”, – degan edi.
2. “Teatr ibratxonadir”, – degan edi Mahmudxo‘ja Behbudiy.

7.20. Gaplarni ikki guruhga ajrating. Ularda tinish belgilarining qo‘llanishiga diqqat qiling.

1. Donolar deydilarki: “Vaqt – eng qimmatbaho boylik”.
2. Adiba qiziga vaqtliroq kelishini aytdi.
3. “Orastalikka, – dedi momom, – doim e’tibor berish kerak. Uyning barakasi shundan”.
4. “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, – deb so‘zini tugatdi bobom.
5. Tog‘ay Murod o‘z asarlarida or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanishini ko‘p bora ta’kidlaydi.
6. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov Muhammad Yusuf haqida fikr bildirar ekan, shoirni kamdan kam tug‘iladigan iste’dod egasi va shuhratdan qochadigan kamsuqum inson deb yodga oladi.

Ko‘chirma gapli qo‘shma gap	O‘zlashtirma gap
***	***

7.21. Iqtiboslarni o‘zlashtirma gap shaklida yozing.

1. San’at – mo‘jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasi bilangina kirish mumkin. *(Ibn Sino)*
2. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. *(Shavkat Mirziyoyev)*
3. San’at odamlarni boshqa hunarlardan ko‘ra ko‘proq ishontiradi. San’at majburlash orqali emas, balki ixtiyoriy ravishda hammani o‘z quliga aylantiradi. *(Horgiy)*
4. Asl notiqlik barcha kerakli narsalarni me’yorida ayta olish san’atidir. *(Fransua de Laroshfuko)*
5. Tafakkur yordamida o‘zimizga masofadan nazar tashlay olish uchun bizdan yuksak san’at va mehnat talab etiladi. *(Jon Lokk)*

7.22. Avval nuqtalar o‘rniga ko‘chirma gaplar qo‘ying, keyin esa ularni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing.

1. Xalqimiz deydi: “...”. 2. Do‘stim mendan so‘radi: “...?” 3. Murabbiyimiz: “...”, – dedi. 4. Alisher Navoiy bu borada shunday deydi: “...”. 5. Donishmandlardan biri: “…”, – deb ta’kidlaydi.

7.23. Audiomatnni tinglang va savollarga javob bering.

GILAMDO‘ZLIK TARIXIDAN 8

7.24. So‘zlar va izohlarni o‘zaro moslab yozing.

shuur	jundan tayyorlangan, tikilgan
to‘qima	yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos; namat
tikma	jundan to‘qilgan palos
bosma	ong, tushuncha
bo‘yra	jundan bosib tayyorlangan, uzun qo‘njli, issiq qishlik oyoq kiyim
kigiz	to‘qib yasalgan, to‘qilgan
piyma	tozalangan qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama
savag‘ich	ip bilan tikilgan
sholcha	paxta, jun kabi narsalarni savash uchun ishlatiladigan bir juft uzun, ingichka tayoq yoki chiviqlar dastasi

1. Gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik aholining asosiy mashg‘ulotiga aylanishiga sabab nima?
2. Qadimda qaysi sulola vakillarining gilamlari mashhur bo‘lgan?
3. Matnda amaliy san’atning qaysi turlari tilga olinmoqda? Nima uchun ular amaliy san’at deb atalmoqda?
4. XX asrning 50-yillari o‘rtalarida o‘zbek gilamining mashhur bo‘lishiga qaysi voqea sabab bo‘lgan?

7.25. Audiomatnni qayta tinglang va topshiriqlarni bajaring.

1. Bo‘sh o‘rinlarni mos so‘zlar bilan to‘ldirib yozing.

1. Temuriylar davrida … va … an’anaga uyg‘unlashtirilgan gilamdo‘zlik buyumlari keng tarqalgan.
2. Jun va paxta xomashyosidan to‘qilgan shohona gilamlar … asrlarda oddiy xalq orasida ham keng tarqalgan.

3. … gilamlari yovmut, tekin, beshir gilamlar deb yuritiladi.
4. … gilamlarning shirvoni, axti, darbandi kabi mashhur turlari bo‘lib, pushti, qizil, ko‘k, sariq va boshqa ranglarda barg, gul, qush tasvirlari ishlanadi.
5. Ota-bobolarimiz …ni yerga bo‘yra ustidan solishgan, o‘tovlarni o‘rashgan, qalpoq, piymalarda ishlatishgan.

2. Matn asosida quyidagi xulosalarning qaysilari to‘g‘ri, qaysilari noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Xulosalar	T/N
1	Gilamdo‘zlik san’ati Markaziy Osiyoda XI–XII asrlarda yuzaga kelgan bo‘lsa-da, uning jadal sur’atlarda rivojlanishi XIV asrning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi.	***
2	XVIII–XIX asrlarga kelib oddiy xalqda ham shohona gilamlardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan.	***
3	O‘zbek gilamdo‘zlik san’ati rivojining yangi bosqichi XX asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi.	***
4	Bir necha asrlardan buyon gilamchilik an’anasiga ega bo‘lgan Xorazm rassomlari XX asrning 50-yillarida yangi-yangi gilam nusxalarini yarata boshladilar.	***
5	Kigiz qo‘y yoki echkining kuzgi junidan tayyorlanadi.	***
6	Gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida birdek rivojlanib kelmoqda.	***

3. Kigiz tayyorlash jarayoniga oid jumlalarni aniqlang. Ularni ketma-ketlikda yozing.

1	Jun titib tozalanadi va yuvib quritiladi.
2	Maxsus savag‘ichlar yordamida savalab titiladi.
3	Jun rangi hamda sifatiga ko‘ra yuzlik va oraliqqa ajratiladi.
4	Kigizga naqsh ishlashda romb, yulduz, bulut va oddiy geometrik shakllardan foydalaniladi.
5	Bosiladigan kigiz hajmiga moslab qamish qolip tayyorlanadi.
6	Maxsus chiy sholcha yoki qalinroq matoga o‘ralib, arqon bilan mahkam bog‘lab, ustidan tez-tez qaynoq suv sepib dumalatiladi.
7	Kigiz qotgandan so‘ng ikki yoniga taxta qo‘yib, ishqalab tekislanadi.
8	Hozir qo‘lda kigiz tayyorlash texnologiyasi unutilish arafasida.

7.26. Qo‘shimchalarni so‘zlarga qo‘shing va imlo qoidalari asosida yozing.

tilak	*-ga*	*tilakka*	ko‘ngil	*-i*	***
qarmoq	*-im*	***	sust	*-ay*	***
yurak	*-ga*	***	isi	*-q*	***
ozay	*-dir*	***	qayna	*-q*	***
bezak	*-ing*	***	obro‘	*-im*	***

7.27. Milliy hunarmandchilik turlaridan biri haqida ma’lumot to‘plab, matn tuzing. Matningiz quyidagi rejaga muvofiq bo‘lishiga harakat qiling.

1. Tanlangan hunarmandchilik turining xalq amaliy san’atidagi o‘rni va ahamiyati.
2. Qachon va qaysi hududlarda rivoj topgani.
3. Foydalaniladigan asbob va materiallar.
4. Mazkur yo‘nalishdagi mashhur hunarmandlar.

1. *Kigiz, bo‘yra, piyma* so‘zlari qanday ma’nolarni ifodalashini yodga oling. Ular ifodalagan tushunchalarning qaysilari bugunga ham tegishli?
2. Hozir nutqimizda qanday yangi so‘zlarni ishlatamiz?

7.28. Izohlar yordamida so‘zlarni guruhlarga ajrating. Ular ishtirokida 5 ta gap tuzing va yozing.

sulton	musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni
tilmoch	bir tildagi gap yoki nutqni boshqa tilga tarjima qilib beruvchi shaxs
bloger	internetda o‘z sahifasini yuritadigan, kontentlar yaratadigan shaxs
zog‘ora	makkajo‘xori yoki oq jo‘xori unidan yopilgan non
dudoq	lab
abjad	eski usuldagi maktablarda o‘qitilgan boshlang‘ich ta’lim alifbosi
motivatsiya	biror ish-harakatni bajarishga undovchi sabablar, kuch
handasa	geometriya

botmon	taxminan 1 gektarga teng sath o‘lchov birligi
dayjest	muayyan mavzuga aloqador axborotlarning qisqa tavsifi
oraz	tashqi ko‘rinish, yuz
Instagram	ijtimoiy tarmoq nomi

Tarixiy so‘zlar	Arxaik so‘zlar	Yangi so‘zlar
***	***	***

7.29. Matndan eskirgan so‘zlarni aniqlab, ular qanday ma’no ifodalayotganini taxminan yozing. Lug‘atdan taxminlaringiz to‘g‘riligini tekshiring. Eskirgan so‘zlarni keltirishdan ko‘zlangan maqsadni tushuntiring.

...To‘g‘ri, o‘tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustoz bu xususda so‘z ochmadi. Qo‘lida usturlob, samoni kuzatib uzoq o‘tirdi, so‘ng marmar zinaning tik pillapoyalaridan horg‘in odimlab, uchinchi oshyondagi kutubxonaga o‘tdi. Chehrasi so‘lg‘in, xayoli parishon, naqshinkor javonlarga terilgan kitoblarni, salkam qirq yil saltanat tebratib yig‘gan nodir qo‘lyozmalarini bir-bir ko‘zdan kechirdi, yodiga ustod Qozizoda Rumiy tushdi, chamasi, uning “Riyoziyot”ini varaqlab uzoq turdi, keyin bo‘ynini xam qilgancha lom-mim demay bir-bir bosib chiqib ketdi. U hatto Ali Qushchi bilan xayrlashmadi ham. A’lohazratlarini hovliga kuzatib chiqqan Ali Qushchiga ustoz go‘yo rasadxona bilan vidolashgani kelganday tuyulib, yuragi zirqirab ketdi. Ikki kungacha ustozning mahzun nigohi ko‘z oldidan ketmay iztirob chekdi, bir necha bor Ko‘ksaroyga borishga chog‘landi, lekin jur’at etolmadi. Mana, endi ustoz o‘zlari uni chorlabdi.

Ali Qushchi qora duxoba taqyasining ustidan mudarra dastorini o‘radi, egniga yengsiz kimxob nimchasini, uning ustidan oq chakmonini kiydi-da, tik zinalardan yurib yuqoriga chiqa boshladi.

Odil Yoqubov

7.30. Matndagi yangi so‘zlarni aniqlab, ularni alifbo tartibida yozing.

BASTAKORNING MIYASI O‘LIMDAN KEYIN KUY “YARATISH”DA DAVOM ETMOQDA

Avstraliyaning G‘arbiy san’at galereyasida o‘rnatilgan yangicha installyatsiyada tinglovchilar inson miyasining kichik fragmenti yaratayotgan simfoniyani eshitishi mumkin.

Bu “mini miya” allaqachon hayotdan ko‘z yumgan amerikalik avangard-bastakor Elvin Lyusiye qonidan olingan hujayralardan laboratoriya sharoitida to‘rt yil davomida yetishtirilgan, deb xabar bermoqda “The Guardian”.

“Revivification” deb nomlangan loyiha san’atkorlar va neyrobiologlarni birlashtirib, ijod, hayot va ongning chegaralarini o‘rganishga urinadi. Markaziy element – inson miyasi faoliyatiga taqlid

qiluvchi mikrotuzilma – serebral organoid. U Lyusiye hayotlik payti topshirgan qondan olingan o‘zak hujayralar asosida yaratilgan.

Installyatsiya bir vaqtning o‘zida ham eshitiladigan, ham ko‘rinadigan shaklga ega: u 20 ta katta jez plastinasidan iborat bo‘lib, devorlarga parabolik shaklda qiya egib joylashtirilgan. Har bir plastina ortida neyron signallariga javob beruvchi dinamik va mexanik bolg‘acha joylashgan. Bu tizim mini miyadan chiqadigan elektr impulslar orqali harakatga keladi va binoni g‘ayrioddiy musiqiy muhitga to‘ldiradi…

kun.uz

7.31. Ikki guruhga bo‘lining. Rasmlar va berilgan so‘zlar yordamida matn tuzib, yozing.

So‘zlar: *chachvon, paranji, kashta, mursak, kaltacha, banoras, beqasam, …*





So‘zlar: *Telegram, Tik-tok, Instagram, Twitter, Pinterest, Snapchat, …*



7.32. Informatsion texnologiyalar va xalq hunarmandchiligiga oid so‘zlarni to‘plang, ularni izohi bilan birga lug‘at shaklida daftaringizga yozing.

7.33. Ssenariy matni bilan tanishing va savollarga javob bering.

Intervyu ssenariysi

Mavzu: “Kulolchilik – sabr va go‘zallik uyg‘unligidan paydo bo‘lgan san’at”.

Suhbatdosh: el orasida nom chiqargan kulollardan biri – Madumar Polvonov.

Manzil: ustaxona.

Davomiyligi: 10–15 daqiqa.

Auditoriya: maktab o‘quvchilari, yoshlar (hunarmand ustaxonasi, ustaxonada kulolchilik bilan bog‘liq uskunalar, kulolchilik buyumlari ko‘rgazma shaklida terib qo‘yilgan. Usta-hunarmand ish kiyimida, kulolchilik buyumini yasash jarayonida bo‘lishi lozim).

I. Kirish (1-2 daqiqa)

Jurnalist:

– Assalomu alaykum, aziz tomoshabinlar! Bugun sizni qadimiy va o‘ziga xos san’at turlaridan biri – kulolchilik olamiga sayohatga chorlaymiz. Hozir mashhur ustalardan biri – Madumar akaning ustaxonasidamiz. Bu yerda oddiy tuproq san’at asariga aylantiriladi. Keling, kulolchilik sirlari haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri u kishining o‘zlaridan eshitamiz!

II. Asosiy qism: savol-javob (10 daqiqa)

Savollar:

1. **Tanishtirish:** Madumar aka, ustaxonangizda mehmon ekanimizdan bag‘oyat xursandmiz! O‘z haqingizda qisqacha so‘zlab bersangiz, necha yildan beri kulolchilik bilan shug‘ullanasiz?
2. **Boshlanish haqida:** Bu hunarga qanday kirib kelgansiz? Kim o‘rgatgan? Bu hunarga o‘zingizda ishtiyoq paydo bo‘lganmi yoki kimgadir havas qilganmisiz?
3. **Hunarning o‘zi haqida:**
   a. Kulolchilik buyumlarini yasash qanday bosqichlardan iborat? Deylik, bitta piyola tayyor bo‘lishi uchun qancha vaqt va mehnat sarf qilinadi?
   b. Qaysi asboblar eng muhim? Loy qanday tayyorlanadi?
   d. Bu ishda muvaffaqiyatga erishish uchun inson qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim? Sabr qanchalik ahamiyatli?
4. **Eng esda qolarli asaringiz:**
   – Siz yasagan eng sevimli buyum qaysi? Nega u siz uchun alohida ahamiyatga ega?
5. **Kelajak rejalari:**
   – Oldinda qanday rejalar bor? Yana qanday yangi ishlar qilishni istaysiz?
6. **Yoshlar va hunar:**
   Yoshlar orasida kulolchilikka qiziqish bormi? Bu borada o‘quvchilarga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?

III. Yakun (1-2 daqiqa)

Jurnalist (kamera qarshisida):

– Samimiy suhbat uchun Madumar akaga rahmat aytamiz. Bugun kulolchilik haqida ko‘p ma’lumotlar oldik, hunar egalari o‘z ishiga qanday mehr bilan yondashishini ham his etdik. Aziz yoshlar, har qanday san’at sirlarini o‘z ishini sevgan, ishtiyoqli va irodali kishilargagina ochadi. Shunday ustozlarimizdan ilhom oling, ijodkor bo‘ling va hunarni qadrlang!

Kadrda ustaxona, loy bilan ishlayotgan kulol, turli asarlar ko‘rsatiladi.

1. Ssenariyning kirish qismidagi ma’lumotlarning intervyu olish jarayonidagi ahamiyati qanday?
2. Ssenariyning asosiy qismida berilgan savollar qanday tartibda tayyorlangan?
3. Ssenariyning yakuniy qismi qanday mazmunga ega?
4. Intervyuning sifatli va foydali chiqishida ssenariy tayyorlashning qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?
5. Intervyu oluvchi jurnalist ssenariydan tashqari yana nimalarga e’tibor qaratishi lozim?

7.34. 7.33-topshiriqdagi namuna asosida san’atning muayyan turini targ‘ib qilishga qaratilgan ssenariy yozing. Bunda quyidagilarga rioya eting.

1. Ssenariy mavzusi va suhbatdoshni tanlang.
2. Intervyu yozib olinadigan manzilni aniqlang.
3. Suhbat necha daqiqa davom etishini belgilab oling.
4. Suhbat qanday auditoriya uchun tayyorlanayotganini yozing.
5. Suhbat uchun savollar tayyorlang.
6. Intervyu olish uchun qo‘shimcha vositalar (ovoz, manzara, liboslar, holatlar)ni aniqlang va ularni ssenariyda qayd eting.

7.35. Ssenariyingizni yozishda davom eting. Uyda quyidagilarni mashq qilish orqali partadoshingizdan intervyu olishga tayyorlaning.

1. Birinchi gapingiz suhbatdosh va tinglovchilarni o‘ziga tortadigan bo‘lishiga e’tibor qarating.
2. Tayyor matningizni bir necha marta ovoz chiqarib o‘qing. Qayerda qanday nafas olish va qaysi so‘zga urg‘u berishni bilib oling.
3. Suhbatdoshingizning fikrini e’tibor bilan tinglang, uning fikri cho‘zilib ketishiga yo‘l qo‘ymang, aniq va lo‘nda javoblar berayotganiga diqqat qilishi kerakligini unutmang.
4. Suhbatdoshingizning javoblarini aniqlashtirish uchun qanday savollardan foydalanishingiz haqida o‘ylang. Zarurat bo‘lsa, ularni ham ssenariyda qayd eting.

7.36. Yozgan ssenariyingiz asosida sinfdoshingiz bilan intervyu tashkil eting.

7.37. Sinfdoshlaringizdan birining ssenariysini quyidagi mezon asosida baholang.

T/R	Talablar	Ball
1	Ssenariyning barcha qismi (mavzu, suhbatdosh haqida, manzil, davomiyligi, auditoriya, savollar, qo‘shimcha vositalar) shakllantirilgani	3 ball

2	Savollarning muayyan izchillikda berilgani (tanishuv, faoliyat, kasbiy va hayotiy tajribalar, tavsiyalarga oid ketma-ketlikka rioya qilish)	3 ball
3	Intervyu olinayotgan qahramonning shaxsiy hayotiga oid, mavzuga aloqasi bo‘lmagan savollarning mavjud emasligi	3 ball
4	Savollar soni va mo‘ljallangan vaqtning o‘zaro mosligi	3 ball
5	Ssenariy matnida imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarning yo‘qligi	3 ball
	Jami:	15 ball

7.38. Ssenariydagi ayrim savollar va suhbatdoshingiz bergan javoblarni avval ko‘chirma gapli qo‘shma gap, keyin o‘zlashtirma gap shaklida yozing.

7.39. Agar sizdan intervyu olishsa, qanday savollar berilishini istardingiz? Ushbu savollarni daftaringizga yozing.

1. San’atning inson hayotidagi o‘rni haqida fikr bildiring.
2. San’atning qaysi turi sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun?

7.40. San’atning inson hayotidagi o‘rni haqidagi fikrlaringizni ijodiy matn shaklida ifodalashga tayyorlaning.

7.41. Sarlavhalardan qaysi biri berilgan mavzuga ko‘proq mos kelishini aniqlang.

San’at turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati
San’atning inson hayotidagi o‘rni
San’at – inson qalbi tarjimoni
San’atsiz hayotni tasavvur etib bo‘lmaydi

7.42. Quyidagi iqtiboslardan qanday mazmundagi fikrlarni dalillashda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. Fikrlaringizni izohlang.

San’at – insonning ichki dunyosini tashqi olamga aks ettirishning eng samarali yo‘li. *(Botir Zokirov)*
Go‘zallik dunyoni qutqaradi. *(Fyodor Dostoyevskiy)*
San’at – ilm-fan tushuntira olmaydigan narsalarni ifodalash vositasidir. *(Albert Eynshteyn)*
San’at – boshdan kechirilgan tuyg‘ularni boshqalar bilan bo‘lishish usulidir. *(Lev Tolstoy)*

7.43. Berilgan jumlalarni davom ettiring. Ulardan ijodiy matnni yaratish jarayonida fikrlaringizni rivojlantirish uchun foydalanishingiz mumkin.

1. San’at bor joyda …
2. Qo‘li hunarli – …
3. San’at qalbni uyg‘otadi, aqlni …

7.44. Yuqorida bajarilgan topshiriqlar asosida matn yozishga kirishing.

7.45. Matn yozishni davom ettiring. Undagi imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarni aniqlang va to‘g‘rilang. Zarurat bo‘lsa, matnni qayta yozing.

TIL SANDIG‘I

G‘AROYIB G‘ARIB

“G‘arib” so‘zini biz *kimsasiz, hech kimi yo‘q bechora*, *mazlum* ma’nolarida tushunamiz va shu mazmunda ishlatamiz. Biroq Alisher Navoiy asarlarida “g‘arib” so‘zi “g‘aroyib”, “ajoyib” degan ma’nolarni ham anglatib keladi. Masalan, “Sab’ayi sayyor” dostonida shunday misralar bor:

Senki borsen zamon elida g‘arib,
Sanga bo‘lg‘on jahon ichinda ajib.

Mazmuni: sen bizning zamonamizda yashagan kishilarning eng g‘aroyibi ekansan, jahon ichidagi bor ajoyibotlar senga ma’lum ekan.

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da arabcha “g‘arib” so‘zi “g‘araba” fe’lining “notanish bo‘ldi” ma’nosi asosida yasalgan sifat bo‘lib, “o‘zga ellik”, “notanish”, “musofir” ma’nolarini anglatadi deb izohlangan.

Yana bir ma’lumot: “Navoiy asarlari lug‘ati”da “g‘arib” so‘zi “musofir”, “kimsasiz” degan ma’noda ham izohlangan.

Eshqobil Shukur

VIII BOB

SPORT VA SOG‘LIK



Qanday milliy xalq o‘yinlarini bilasiz?

KO‘PKARI – MILLIY XALQ O‘YINI

Turkiy xalqlarning ot o‘yinlari qadimdan mashhurdir. Ko‘pkari-uloq singari o‘yinlar butun turkiy xalqlarning milliy merosi sanaladi. Ko‘pkari-uloq, poyga, qizquvmoq, ag‘darish, ot ustida qilichbozlik, oltin qoboq, chavgon, sulton shahzoda (boshdan parni urib tushirish) kabilar o‘zbek xalqining ot bilan bog‘liq o‘yinlari sirasiga kiradi. Qiz quvmoq, oltin qoboq, chavgon o‘yinlari tarixiy etnosport turlariga aylangan, ko‘pkari-uloq esa hozir ham o‘ynaladigan ot o‘yinlarining eng yirigi va keng yoyilganlaridan biridir. Bugun Tojikiston va Afg‘oniston hududida o‘ynaladigan bo‘zkashi o‘yinining o‘zagini ham o‘zbek ko‘pkarisi tashkil qiladi.



O‘zbekiston hududi ko‘pkariga chopadigan zotdor otlar – qorabayirlar o‘lkasi ekani ko‘pchilikka ma’lum. O‘zbek xalqining maqollar xazinasidan “Ot – yigitning yo‘ldoshi”, “Ot – yigitning qanoti” kabi yuzlab maqollar o‘rin olgani ham ot qadimdan o‘zbeklar turmushida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. O‘zbeklarda bu mashhur ot o‘yini *ko‘pkari, uloq,* eski shaklda esa *ko‘kbo‘ri* nomlari bilan atalgan. U O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida o‘ynalgani haqida yozma va etnografik manbalarda ma’lumotlar mavjud. Ushbu o‘yinning asosan sunnat to‘ylarida o‘tkazilishi esa uning, xalq tili bilan aytganda, “er yigitning ori” ekanidan darak beradi. O‘zbeklarda ko‘pkarining ma’nodoshi sifatida ishlatiladigan *“uloq”* so‘zi ushbu o‘yinda otdan keyin ikkinchi markaziy o‘rinni egallagan *o‘g‘laq* (echki) so‘zi bilan aloqadordir, bu o‘yin ko‘p hollarda echkini qo‘lma-qo‘l olib qochib, marraga yetkazish bilan xususiyatlanadi.

“O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ensiklopediyasi”da *ko‘pkari* so‘zining etimologiyasi turkiycha “ko‘p”, fors tilidagi “kor” so‘zlaridan tashkil topib, *ko‘pning ishi* degan ma’noni beradi deb talqin qilingan. Taniqli o‘zbek folklorshunosi Mamatqul Jo‘rayevning fikricha, ko‘pkari qadimiy o‘yinlardan bo‘lib, uning o‘ynala boshlanishi O‘g‘uzxon nomi bilan bog‘liqdir. O‘sha davrlarda bu o‘yinni “ko‘kbo‘ri” deb atashgan. Keyinchalik bu so‘z “ko‘pkari” deb talaffuz etilgan.

O‘zbeklarda ko‘pkari-uloq o‘yini deyarli barcha viloyatlar – Samarqand, Jizzax, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va boshqa viloyatlarning tog‘li hamda cho‘l hududlarida o‘tkazilayotgan to‘ylarda, ommaviy xalq sayillarida o‘ynab kelinadi. Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida bu o‘yin “tomosha” deb nomlangan. Qo‘shni davlatlar – Afg‘oniston va Tojikistonda ham ushbu o‘yinni o‘zbek urug‘lariga mansub aholi o‘ynaydi. Tojikiston va Afg‘onistonning shimoliy qismida yashovchi o‘zbeklar ham uloq o‘ynaydilar va u biroz farqlidir. Tojikistonning Asht viloyatida yashovchi qurama o‘zbeklari uloq o‘yinini qadimiy o‘yinlardan deb hisoblaydi.

O‘zbeklarning boshqa turkiy xalqlardan farqli ravishda bu o‘yinga kiritgan yangilik va usullarini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Ko‘p joylarda uloq o‘yinidan avval *qizquvdi* nomli ot o‘yinini o‘ynaganlar. Sirdaryo, Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘iston, Asht (Tojikiston), Novqat (Qirg‘iziston)da uloq jarayonida *shog‘uloq* o‘yini ham o‘ynaladi.

Shog‘uloq qadimiy ot o‘yinlaridan biri bo‘lib, yosh yigitlarning kuchini sinash va chiniqtirish maqsadida o‘ynalgan. Bugun u ko‘pincha to‘y va bayramlar, ommaviy sayillarda daryo va jilg‘alarning oqizib ketmaydigan, sekin oqadigan joylari va kechuv qismida o‘tkazib kelinadi. Turk tadqiqotchilari o‘zbek ko‘pkarisi suvga yaqin hududlarda o‘ynalganini ajratib ko‘rsatadi. Surxondaryo viloyatining Boysunidagi ko‘plab hududlarda ham *eshak ko‘pkari*, *shog‘uloq* deb nom olgan tomoshalar ko‘pincha to‘y va bayramlar munosabati bilan daryo qirg‘og‘ida o‘tkazilgan.

Ko‘pkarichilarning yuzi yorug‘ bo‘lsin deb oynaga qaratilgan. Ba’zan uloqni chavandozlar eltishi kerak bo‘lgan maydonning ikki tomoniga olov yoqilgan. O‘yin duoyi fotihalar bilan boshlangan. Surxon vohasida chavandoz o‘rtaga tashlangan uloqni otlar orasidan ajratib, bakovul turgan joyga eltib tashlasa, unga belgilangan sovrin, ya’ni “zot” berilgan.

F. Jumaniyozova, M. Nuriddinova

8.1. Izohlardan foydalangan holda katakchalarga mos so‘zlarni yozing.

* A * * L	katta va tantanali sayr, tomoshalar	
F * * K * * * SH * * * *	xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi shaxs	
* U * * M *	o‘zbek xalqi tarkibiga kiruvchi etnik guruhlardan biri	
* I * G‘ *	tog‘ va tog‘ yonbag‘irlaridan oqib tushadigan kichik soy	
* E * * V	katta ariq, daryo va soy kabilarning kechib o‘tiladigan sayozroq joyi	
B * K * * * L	kurash, poyga, uloq (ko‘pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi	

1. Muallif nima uchun ko‘pkarini turkiy xalqlarning milliy merosi deb atamoqda?
2. Etnosport deganda nimani tushunasiz? Yana qanday sport turlarini etnosport deb atash mumkin?
3. “Ko‘pkari” so‘zining etimologiyasi (kelib chiqish tarixi) haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Boshqa turkiy xalqlardan farqli ravishda o‘zbeklarning bu o‘yinga kiritgan yangilik va usullari qanday?
5. Shog‘uloq va ko‘pkari o‘yinlarida ishtirok etuvchi chavandozlarning g‘alaba uchun kurashishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi nima?

8.2. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matn asosida javob olish mumkin bo‘lgan savollarni belgilang.

1. O‘zbek xalqida ot bilan bog‘liq qanday o‘yin turlari mavjud?
2. O‘zbekistonning milliy sport turlari qaysilar?
3. Shog‘uloq o‘yinining qanday qoidalari bor?
4. Ko‘pkari O‘zbekistonning asosan qaysi hududlarida tarqalgan?
5. Ko‘pkarining oldingi nomi qanday bo‘lgan?
6. Qiz quvdi o‘yinining qanday qoidalari bor?

2. Berilgan xulosalarning qaysilari matn mazmuniga mos ekanini aniqlang.

T/R	Xulosalar	Mos	Mos emas
1	Ko‘pkari faqatgina o‘zbek xalqiga xos milliy o‘yin hisoblanadi.	***	***
2	O‘yin boshlanishidan oldin o‘yinchilarning yuzi yorug‘ bo‘lsin degan maqsadda oynaga qaratilgan.	***	***
3	Shog‘uloq o‘yini asosan suvga yaqin hududlarda o‘ynalgan.	***	***
4	O‘yin maydonining ikki tomoniga olov yoqish qat’iy qoida etib belgilangan.	***	***
5	Ot bilan bog‘liq o‘yinlarning barchasi faqat sunnat to‘ylaridagina o‘ynalgan.	***	***

3. Muallif “ko‘pkari” so‘zining etimologiyasi haqida ma’lumot berishda 2 xil manba (“O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ensiklopediyasi” hamda Mamatqul Jo‘rayevning fikrlari)dan foydalangan. Ushbu ma’lumotlarni solishtiring.

A. Ushbu ma’lumotlar bir-birini inkor etadi.

B. Ushbu ma’lumotlar bir-birini to‘ldiradi.

D. Ikkinchi ma’lumot birinchi ma’lumotning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

E. Ikkala ma’lumot ham bir xil mazmunga ega.



8.3. Maqoladan ot bilan bog‘liq maqollarni ko‘chiring. Ularda tirening qo‘llanishiga e’tibor qarating.



Agar matnda maqol, matal, hikmatli so‘zlar iqtibos sifatida keltirilsa, ular ko‘chirma gap kabi qo‘shtirnoqqa olinadi: *“Til bilgan el biladi”, – deydi xalqimiz. Xalqimizda ajoyib maqol bor: “Til bilgan el biladi”.*

Iqtibos usuli qo‘llanmay, jumla matnning qismi sifatida berilsa, qo‘shtirnoq ishlatilmaydi: *Tillarni o‘rgan, bu senga turli mamlakatlarning eshiklarini ochadi. Til bilgan – el biladi.*

She’riy parcha alohida xatboshidan yozilmay, matn ichida jumla kabi berilsa, qo‘shtirnoqqa olinadi: *Maxtumqulining “Iqboling uyg‘onsa, davlat yor bo‘lsa, Tog‘ga tishing ursang, toshni sindirar” misralari bilan boshlanuvchi she’rini bilasizmi?*



8.4. Quyidagi maqollardan foydalanib ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar tuzing va yozing.

Namuna: “*Ot – yigitning yo‘ldoshi”, – deydi dono xalqimiz.*

Tani sog‘ga kunda to‘y.

Salomatlik – tuman boylik.

Toza uyda dard qolmas.

Sog‘ olma shoxidan tushmas.



8.5. Milliy xalq o‘yinlari vaqtida aytiladigan qo‘shiq yoki sanamalarni yodga oling. Ulardan birini daftaringizga yozing.

8.6. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ular qaysi tushunchaga ishora qilayotganini “Ko‘pkari – milliy xalq o‘yini” matni asosida aniqlang.

1. ***U*** *O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida o‘ynalgani haqida yozma va etnografik manbalarda ma’lumotlar mavjud.*
2. *Surxon vohasida chavandoz o‘rtaga tashlangan uloqni otlar orasidan ajratib, bakovul turgan joyga eltib tashlasa,* ***unga*** *belgilangan sovrin, ya’ni “zot” berilgan.*

Olmoshlar so‘z, so‘z birikmasi, gap va matnlarga ishora qiladi, ularning o‘rnida almashinib keladi.

Kishilik olmoshlari	*men, sen, u, biz, siz, ular*
O‘zlik olmoshi	*o‘z*
Ko‘rsatish olmoshlari	*u, bu, shu, o‘sha, ana, mana bu (manavi), ana u (anavi), mana shu, ushbu*
So‘roq olmoshlari	*kim?, nima?, qachon?, qaysi?, qancha?, necha?, nimaga?, qani?*
Belgilash olmoshlari	*hamma, barcha, bari (jamlik ma’nosi); har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, ba’zi (ajratish ma’nosi)*
Bo‘lishsizlik olmoshlari	*hech kim, hech narsa, hech qancha, hech qachon, hech qanday, hech bir*
Gumon olmoshlari	*kimdir, nimadir, qaysidir, allakim, allaqanday, allanarsa, allaqancha, allaqaysi, bir nima, bir narsa, birov*

8.7. “Ko‘pkari – milliy xalq o‘yini” matnidan olmosh ishtirok etgan 3 ta gap topib, yozing.

8.8. Quyidagi olmoshlarni tasniflab, daftaringizga yozing.

men, u, allakim, kim, mana bu, hech kim, kimdir, qanday, shunday, allanima, nima, siz, ushbu, o‘z, har bir, biz, har kim, hech bir, har qaysi, hech qaysi, qaysi, o‘sha, hech qachon, nimadir, ana shu, hech nima, qachon, sen, ular

Kishilik olmoshi	O‘zlik olmoshi	Ko‘rsatish olmoshi	So‘roq olmoshi	Belgilash olmoshi	Bo‘lishsizlik olmoshi	Gumon olmoshi
***	***	***	***	***	***	***

8.9. Bo‘sh o‘rinlarga olmoshlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. 1948-yili Angliyaning Stok Mandevil reabilitatsiya gospitali shifokori Lyudvig Guttman Ikkinchi jahon urushida orqa miyasidan jarohat olib qaytgan ingliz jangchilarini sport musobaqalarida ishtirok etish uchun to‘plagan. _____ nogiron bo‘lib qolganlarning hayotini yaxshilash uchun sportdan foydalanish tarafdori edi.
2. Dorbozlik – san’atning eng qadimiy turlaridan biri. _____ taxminan ikki ming besh yuz yil ilgari Sharqda paydo bo‘lgan.
3. Har kim o‘z vazifasini bajarishi kerak. _____ o‘z vazifasini bajarmay qolmasligi kerak.
4. Buyuk nemis faylasufi Gyote aytganidek: “Bilimning o‘zi yetarli emas. ____ amalda qo‘llay bilish ham kerak”.
5. Kuz – xazonrezgilik fasli. _____ davrda barglar odatdagidan tez sarg‘ayadi, ba’zida bir necha kun ichida anchagina barg oltin tusga kirib, hatto to‘kiladi.
6. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. _____ qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.
7. Baxtsizliging sirini boshqalardan emas, o‘zingdan izla. Hammadan avval _____ga hisob ber.
8. Ilm va odob – tagi yo‘q xazina. _____ unga ega bo‘lsa, qadr-u qimmati baland bo‘ladi.
9. Kim o‘z yurtini sevmasa, u _____ni seva olmaydi.

8.10. Belgilash va bo‘lishsizlik olmoshlari ishtirokida oltita gap tuzing va yozing.

Namuna:

1. Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.
(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi)


2. Ilm bir chiroqdurkim, seni rohat va farog‘atga hech bir zahmatsiz yetkazadi.
(Abu Lays Samarqandiy)

8.11. Olmoshlarning ma’nodoshlarini toping. Ularning har biri ishtirokida bittadan gap tuzib, yozing.

Olmosh	Ma’nodoshi
bu	shu, mana shu, ushbu, mazkur...
men	***
hech qaysi	***
qanday?	***

Organizmning himoya qatlami nima/nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?

***



Har bir odamning organizmi – alohida bir mamlakat. Uning o‘ziga xos tuzilishi, ichki qoidalari, ish tartibi bor. Ba’zan bu mamlakat chegaralarini buzib o‘tadigan, sarhadlariga tahdid soladigan “dushmanlar” bo‘ladi. Eng yomoni, bunday “yovlar” ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmay, maxfiy tarzda hujumga o‘tadi. G‘aflatda “uxlab yotgan” yoki kamchilikni tashkil qiluvchi “soqchilarimiz”, ya’ni immunitetimiz esa “bosqinchilar”ga qarshi kurashda mag‘lub bo‘ladi.

Chunki “dushman” tish-tirnog‘igacha qurollangan, kuchli va tezkor. Xo‘sh, bu “dushmanlar” kim ekan, deb o‘ylayapsizmi? Unda maqolamizni diqqat bilan o‘qib chiqing.

Kecha-yu kunduz biz uchun tinim bilmay ishlaydigan “azamatlar”, ya’ni immun tizimimiz yaxshi nonushta qilmay, ovqatni vaqtida yemay, mevalar o‘rniga shirinliklarga ruju qo‘ygan vaqtimizda ancha kuchsizlanadi. Bunday paytda o‘zlariga o‘lja va qulay makon qidirib yurgan “bosqinchilar” – virus va bakteriyalar hududimizni, ya’ni organizmimizni ishg‘ol qiladi. To‘satdan issig‘imiz ko‘tariladi, ko‘nglimiz aynib, qayt qilamiz, etimiz uvishadi. Kasallik birdan boshlandi deb o‘ylaymiz, lekin ungacha ichimizda kechgan jarayonlardan butunlay bexabarmiz.

Mikrob nima?

Mikrob so‘zi aslida *kichik hayot* degan ma’noni anglatadi. Ular ham boshqa tirik mavjudotlarga o‘xshaydi, hatto ovqatlanadi. Biroq maxsus ovqat hazm qilish organlariga ega emas. Agar ozuqa moddasi va kerakli harorat mavjud bo‘lsa, taxminan yarim soatda 2 barobar, 1 soatda 4 barobarga ko‘payadi. Ular odam organizmiga yuvilmagan mevalar, kir qo‘llar, qaynatilmagan suv, sifati buzilgan oziq-ovqat mahsulotlari orqali kiradi va kasallik qo‘zg‘atadi.

Toksin nima?

Organizmga tushgan mikroblar ishlab chiqargan zaharli modda **toksin** deyiladi. Ular shunchalik chidamli moddaki, hatto muzlatilganda ham, quritilganda ham o‘z xususiyatini saqlab qoladi. Yuqori haroratda uzoq vaqt qaynatilgandagina halok bo‘ladi. Zaharli moddalar organizmda paydo bo‘lgach, toksinlar bilan immunitetimizning ayovsiz jangi boshlanadi. Bu olishuvning eng yuqori nuqtaga yetishi **intoksikatsiya** jarayoni deyiladi. Tog‘li hududlarga dam olishga chiqqanda qo‘ziqorin terish biz uchun qiziqarli mashg‘ulot, to‘g‘rimi? Ammo bu

qo‘ziqorinlar tarkibida ekzotoksinlar mavjud bo‘lsa-chi? Ularni iste’mol qilgach, tezlik bilan tanamizda kuchli zaharlanish jarayoni boshlanadi.

Bakteriya nima?

Bakteriyalar viruslardan farqli, ular orasida hayot uchun muhim va foydalilari ham bor. Salomatlik uchun xizmat qiluvchi bakteriyalar **nopatogen** bakteriyalar deyilsa, kasallik chaqiruvchi turlari **mikroblar** deb ataladi. Sutdan qatiq, sariyog‘, pishloq va boshqa mahsulotlar qanday tayyorlanadi deb o‘ylaysiz?! Ularni hosil qilishda bijg‘itadigan bakteriyalardan keng foydalaniladi. Salomatligimiz uchun xizmat qiluvchi tibbiyotdagi spirt, antibiotiklar, vitamin va aminokislotalar aynan foydali bakteriyalar mahsulidir. Zararli turlari bilan esa kurashamiz, chunki ular sabab don-dun, oziq-ovqat mahsulotlari buzilib, aynib qoladi. Organizmda kasallik qo‘zg‘atadigan bakteriyalar **patogen** bakteriyalardir. Hovlimizga ekilgan nihollar, ekinlar, tuvakdagi gullarimizning barglari ba’zan qovjirab, shoxlari egilib qolganini kuzatganmisiz?! Kasallikka chalinibdi, deymiz. Aslida ularga o‘simliklarning hayotiga xavf soluvchi **fitopatogen** bakteriyalar yuqqan bo‘ladi.

Virus nima?

Viruslar tanamizdan tashqarida ham yillab tiriklik xususiyatini yo‘qotmaydi. Qulay sharoitga, tirik hujayraga, ya’ni og‘zimiz, burnimiz orqali nafas yo‘llariga joylashib olsa bormi, bitta mitti zarrachadan bir necha soatda milliardlab viruslar paydo bo‘ladi. Misol uchun, ertalab maktabga ketayotganimizda yaxshi edik. Ammo dars boshlangach, tanamiz uvishib, qaltirab, suyaklarimiz zirqirab, boshimiz og‘riy boshladi. Demak, son-sanoqsiz viruslarning hujumiga uchrabmiz. Viruslar boshqa “sheriklari”ga nisbatan juda kichikligi va tirik mavjudot emasligi bilan ajralib turadi. U odam organizmidagi biriktiruvchi to‘qima – hujayra yadrosiga kirib olib, o‘ziga o‘xshash juda ko‘p oqsillarni ishlab chiqaradi. Bakteriyalar hujayraviy tuzilishga ega bo‘lgani uchun ularni hujayra devorimiz “tanib”, tutib qolishi mumkin, ammo “ayyor” viruslar mittiligi bois bu devorlardan osongina hatlab o‘tib, hujayra yadrosiga, ya’ni tarkibiy qismigacha kirib boradi. Mikrob va bakteriyalar bunday xususiyatga ega emas. Virusning yot narsa ekanini ajratolmay, unga darvozalarini ochib bergan organizmimiz endi uning ko‘payishi uchun zamin yaratuvchi oqsillarni ham tayyorlab beradi va virusni “boqa boshlaydi”. Gripp, gepatit, qizamiq, suvchechak kabi kasalliklar viruslarning “maxfiy yurishi” orqali yuzaga keladi.

Immun tizimi esa organizmimizning himoya qatlami bo‘lib, salomatligimiz uchun javobgardir. Agar immunitetimiz bahodirlardek baquvvat bo‘lsa, biz bugun sizga sanab o‘tgan kasallik qo‘zg‘atuvchilarning birortasi yaqin yo‘lolmaydi. Agar bir yilda 5 martadan ko‘p kasal bo‘lsangiz, demak, sizda immunitet pasayib ketgan.

Biror xastalik bilan og‘rib qolganimizda tanamizda unga qarshi immunitet hosil bo‘ladi. Yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida bolalar sun’iy emlanadi. Emlashni salomatlik uchun muhim qadam sifatida qabul qilishingiz kerak.

Toza havo, ozodalik, tartib-intizom, to‘g‘ri ovqatlanish va vitaminlar doim hamrohingiz bo‘lsin!

Umida Sadatova

8.12. Boshqotirmada qanday so‘zlar yashiringanini aniqlang.

1	jigarning yallig‘lanishi
2	hujayralarni yo‘q qilish yoki normal hujayra metabolizmini buzish orqali zarar yetkazuvchi moddalar
3	ba’zi hayvon va o‘simliklar chiqaradigan zaharli moddalarning umumiy nomi
4	molekulasida amin va karboksil guruhi bo‘lgan organik birikmalar
5	hayvon va o‘simliklar organizmining eng muhim qismini tashkil etgan, tarkibida azot bo‘lgan murakkab organik modda
6	organizmning zaharli moddalar va boshqalardan himoyalanish reaksiyasi

X	I	M	M	U	N	I	T	E	T
O	T	O	K	S	I	N	O	G	H
A	N	T	I	B	I	O	T	I	K
A	M	I	N	O	K	I	S	L	O
T	A	O	O	Q	S	I	L	Q	S
I	L	D	G	E	P	A	T	I	T

1. Mikrob, virus, toksin va bakteriyalar haqidagi qaysi ma’lumotlar siz uchun yangilik bo‘ldi?
2. Matnda intoksikatsiya jarayoni haqida ma’lumot berish uchun qanday misollardan foydalanilgan?
3. Muallifning ushbu matnni yaratishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi nima?
4. “Immunitet” so‘zidan qanday holatlarda foydalanasiz? Immunitetni mustahkamlashga oid qanday tavsiyalarni bilasiz?

8.13. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Virus va bakteriyalar orqali yuqadigan kasalliklarning ilk alomatlari berilgan javoblarni belgilang.

- tana haroratining ko‘tarilishi
- bosh aylanishi
- ko‘ngil aynishi
- hushdan ketish
- qayt qilish
- aksirish
- etning uvishishi

2. Muallif organizmga tushgan virus va bakteriyalarning ta'sirini tushuntirishda turli o'xshatishlardan foydalangan. Qaysi qatordagi izoh foydalanishdan ko'zlangan maqsadga mos emas?

A. Muallif jarayonni obrazli shaklda tasvirlashga harakat qilgan.
B. Ushbu usul orqali ilmiy ma'lumotlar taqdim etilgan.
D. Muallif matnning qiziqarli va tushunarli bo'lishini istagan.
E. Ushbu usul matnning ommabopligini ta'minlashga yordam beradi.

3. Tushuncha va o'xshatishlarni o'zaro moslashtiring. Quyidagi so'zlar uchun ana shunday o'xshatmalar topib, yozing.

1	organizm	A	askarlar
2	virus va bakteriyalar	B	mamlakat
3	immunitet	D	bosqinchilar
4	***	E	dushman
5	***	F	azamatlar

toza havo | ozodalik | vitaminlar

4. Maqola necha yoshdagi o'quvchiga mo'ljallangan? Javobingizni matndan keltirilgan 3 ta dalil yordamida asoslab yozing.

5. Mikrob, toksin, bakteriya va viruslarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini yozing.

8.14. Matnni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda unga sarlavha tanlang. Sinfdoshlaringiz tanlagan sarlavhalar bilan tanishing. Eng ma'qul uchta sarlavhani xattaxtaga yozing.

8.15. So'zlarni qanday shaklda talaffuz qilish kerakligini aniqlang. Matnda berilgan ma'lumotlar asosida ular uchun izoh yozing.

toksin	to'ksin
	taksin
	toksin

aminokislota	aminakislota
	amino'kislo'ta
	aminakislata

antibiotik	antibio'tik
	antbiotik
	antibiotik

fitopatogen	fito'potogen
	fito'patagen
	fito'potagen

Neologizm fan va texnika taraqqiyoti natijasida kirib kelayotgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmalaridir: *fitnes, onlayn, blog, selfi.*

Neologizmlar ma’lum vaqtdan so‘ng faol so‘zlar qatoriga o‘tadi.

Neologizmlarni o‘zbek tilidagi muqobiliga almashtirish tilning boyishi va uning sofligini saqlashda katta ahamiyatga ega: ***keshbek*** – *qaytiq, qaytqi*.

8.16. Mikrob, virus va bakteriyalar haqidagi matnda berilgan yangi so‘zlarni aniqlang. Ularni ikki guruhga ajratib yozing.

Talaffuzi va imlosi mos	Talaffuzi va imlosi mos emas
***	***

8.17. Ushbu sohalarga oid yangi so‘zlar ro‘yxatini yarating. Ularni izohlari bilan birga lug‘at yozish qoidalari asosida daftaringizga ko‘chiring.

sport | **ekologiya** | **tibbiyot**

8.18. Mikrob, virus, bakteriya va toksinlar haqidagi matndan olmoshlarni aniqlang. Ularni ma’no turlari bo‘yicha tasniflab yozing. Matnda olmoshning qaysi turidan eng ko‘p foydalanilganini ayting. Buning sababi nimada?

8.19. Berilgan namunalar lug‘atning qaysi turiga mansub ekanini aniqlang.

1. **Xotira** – esda saqlash, eslab qolish, esga tushirish qobiliyati.
2. **xotirasidan ko‘tarilmoq** – yodidan, esidan chiqmoq.
3. **xotira xotirjam xoqon**
4. **Xotira – memory**
5. **xotira, es, yod, xayol**

Imlo lug‘ati | Izohli lug‘at | Sinonimlar lug‘ati | Frazeologik lug‘at | Ko‘p tilli lug‘at

Lug‘atlar ikki turli bo‘ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar; 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Ensiklopedik lug‘atda tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi.

Filologik lug‘atlar ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Bunday lug‘atlarda so‘zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

8.20. Guruhlarga bo‘lining. Berilgan so‘zlarga oid ma’lumotlarni jamoangiz bilan tanlangan lug‘at talablari asosida daftaringizga yozing va uni boshqa jamoa vakillariga o‘qib bering.

qorong‘i	kun	bosh	yer	oq

1-guruh
IZOHLI LUG‘AT

2-guruh
SINONIMLAR LUG‘ATI

3-guruh
ANTONIMLAR LUG‘ATI

4-guruh
KO‘P TILLI LUG‘AT

5-guruh
FRAZEOLOGIK LUG‘AT

8.21. Omonim (shakldosh) so‘zlarning ma’nosini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

alomat, asr, burun, davlat, yoz, yot, yosh, kecha, kun, modda, oylik, rom, savdo, to‘y

8.22. Omonim so‘zlar musobaqasini tashkil eting. 2 guruhga bo‘lining. 1-guruh a’zosi xattaxtaga omonim so‘zga misol yozadi. 2-guruh a’zosi esa uning ma’nolarini aytishi kerak. Keyingi gal vazifalar almashtiriladi. Musobaqa shu tarzda davom etadi.

8.23. Sport bilan bog‘liq so‘zlarning izohli lug‘atini tuzing. Lug‘atda so‘zlarni alifbo tartibida berishni unutmang.

Qanday sport turlarini bilasiz? Qaysi biri bilan shug‘ullanasiz? Uning inson salomatligiga qanday foydasi bor?

8.24. Audiomatnni tinglashga tayyorlaning.

UMRNI UZAYTIRADIGAN 4 TA SPORT TURI 9

8.25. Izohlardan foydalangan holda mos so‘zlarni topib, katakchalarga yozing.

T * D * * * * *	tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish ishi
* U * * * K *	muhokama qilinayotgan, hukm chiqarilayotgan predmet
A * R * * * K *	ritmik gimnastika
B * D * * N * * N	raketka bilan urib, to‘rdan oshirishga asoslangan, yakkama-yakka yoki juft bo‘lib, zalda yoki ochiq maydonchada o‘ynaladigan sport o‘yini
* O * M * *	ichki sekretsiya bezlaridan ajralib chiqib, qonga qo‘shiladigan modda
E * * O * F * *	miyada ishlab chiqariladigan peptidlar bo‘lib, og‘riq sezgisini kamaytiradi va yaxshi kayfiyat hosil qiladi

1. Nega tadqiqot o‘tkazishga daromadlari va ijtimoiy holati turlicha bo‘lgan odamlar tanlab olingan?
2. Audiomatnda tilga olingan 4 ta sport turini sanang. Ular qanday mezon asosida tartiblangan?
3. Aerobikaga qanday mashg‘ulotlarni kiritish mumkin? Siz ularning qaysi biri bilan ko‘proq shug‘ullanasiz?
4. Muallifning fikricha, pedalni doimiy aylantirish endorfinlarni, ya’ni baxt gormonlarini ishlab chiqarishga olib keladi. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?
5. Siz ushbu sport turlarining qaysilari bilan shug‘ullangansiz? Jarayon haqida gapirib bering.
6. Ushbu ro‘yxatga yana qaysi sport turini qo‘shgan bo‘lardingiz? Fikringizni asoslang.

8.26. Audiomatn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Ajratilgan olmoshlar sportning qaysi turiga ishora qilayotganini aniqlang va yozing.

T/R	Ma'lumot	Sport turi
1	Harvard olimlari sportning **ushbu** turi bilan shug'ullanish vazn yo'qotish va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashga yordam berishini aniqlagan.	***
2	**Ushbu** sport turiga raqs, gimnastika va yengil yugurishni kiritish mumkin.	***
3	**Ushbu** sport turi yurak, o'pka va mushaklarni muntazam ishlashga majbur qiladi.	***
4	**Ushbu** sport turi muvozanatni yaxshilashga yordam beradi.	***
5	**Ushbu** sport turiga oid mashqlar ham yoshlarga, ham qariyalarga birdek to'g'ri keladi.	***
6	Sportning **bu** turi saraton xavfini kamaytirishga yordam beradi.	***
7	**Ushbu** sport turida jarohat olish xavfi juda past bo'ladi.	***

2. Quyida berilgan ma'lumotlarning qaysilari audiomatnda uchraydi?

T/R	Ma'lumotlar	+ / -
1	Insonlarning umrini uzaytiradigan sport turlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot 1994-yildan 2008-yilgacha davom etgan.	***
2	Aerobikaning boshqa sport turlaridan ustunligi shundaki, u past intensivlik asosida doimiy jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradi.	***
3	Velosipedda uchishining imkoni bo'lmagan yoki raqs to'garagiga qatnasha olmaydigan odamlar uchun aerobika bilan shug'ullanish – eng to'g'ri tanlov.	***
4	Suzish yoshi katta insonlar uchun biroz xavfli, u turli asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.	***
5	Har kuni 15 daqiqadan 1 soatgacha velosipedda uchish tavsiya etiladi.	***

3. Nima deb o'ylaysiz, ushbu audiomatnni qaysi manba(lar)da uchratish mumkin?

Fikringizni asoslang.

- gazeta va jurnallarda
- darslik va o'quv qo'llanmalarda
- ensiklopedik lug'atlarda
- ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va guruhlarda
- ilmiy maqola va dissertatsiyalarda

8.27. Audiomatnda uchragan quyidagi birliklarning imlosiga diqqat qiling. To‘g‘ri yozilgan variantlarni daftaringizga ko‘chiring.

4 ta sport turi	1994 yil	30 yosh	80 mingdan ortiq	41 foiz
4ta sport turi	1994yil	30yosh	80-mingdan ortiq	41foiz
4-ta sport turi	1994-yil	30-yosh	80 000 mingdan ortiq	41-foiz

Hisob (o‘lchov) so‘zlar sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so‘z o‘rtasida qo‘llanadi.

Ba’zi hisob (o‘lchov) so‘zlar faqat o‘lchov-hisobni bildiradi: *3* ***tonna*** *kartoshka*, *200* ***gramm*** *sut, 5* ***metr*** *atlas.* Ayrimlari alohida olinganda predmet nomini, matn ichidagina o‘lchov birligi ma’nosini anglatadi: 2 ***chelak*** *suv*, *bir* ***quchoq*** *gul, 1* ***savat*** *non.*

8.28. Rasmlardan foydalangan holda hisob so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.






8.29. Oila a’zolaringiz yordamida biror taomning tayyorlanish jarayonini hisob so‘zlardan foydalangan holda yozib keling.

Kerakli masalliqlar (nomi va hajmi)	Tayyorlanish jarayoni
***	***

8.30. Infografika bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring.



1. Infografika nima haqida? Unda qanday ma’lumotlar aks etgan?
2. Sovrinlarni tartiblashda qanday mezonga amal qilingan?
3. Nima uchun infografikada davlatlarning o‘rni haqidagi ma’lumot ikki xil jadvalda keltirilgan?

8.31. Berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Ma’lumotlar	T/N
1	O‘zbekiston medallar soni bo‘yicha umumiy hisobda Avstraliyadan keyingi o‘rinda turibdi.	***
2	Xitoy umumiy hisobda ham, Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ham birinchi o‘rinni egallagan.	***
3	Erkin kurash bo‘yicha yagona medal G‘ulomjon Abdullayevga tegishli.	***
4	Janubiy Koreyaning medallari soni O‘zbekistonnikidan 5 taga ko‘p.	***
5	O‘zbekistonlik sportchilar yetakchilik qilgan sport turi bu – boks.	***

8.32. Infografikada berilgan ma’lumotlar asosida jumlalarni davom ettirib yozing.

1. Diyora Keldiyorova O‘zbekiston delegatsiyasidan oltin medalga erishgan yagona …
2. AQSH sportchilari erishgan kumush va bronza medallar soni …
3. Xitoyliklar olgan oltin medallar soni kumush va bronza medallar sonidan …
4. O‘zbekistonlik sportchilar suvga sakrash va kamondan otish bo‘yicha …
5. Yurtimiz sportchilari Ulug‘bek Rashitov va Svetlana Osipovalar …

8.33. Infografikada berilgan ma’lumotlar asosida “Parij–2024” olimpiadasi haqida gapiring.

8.34. Ushbu infografikadan maqolada qo‘shimcha material sifatida foydalanilgan. Maqolada yana qanday ma’lumotlar aks etishi mumkinligini aniqlang.

- Olimpiadaning borish jarayoniga oid ma’lumotlar (o‘tkazilish joyi, vaqti, ishtirokchilar soni, ishtirok etgan mamlakatlar soni va b.)
- Olimpiada o‘yinlarining ilk o‘tkazilish tarixiga oid ma’lumotlar
- boshqa mamlakat olimpiadachilarining natijalari va ularning tahlili
- o‘zbekistonlik sportchilarning o‘tgan va bu galgi natijalari haqida solishtirma axborot
- Olimpiada ishtirokchilarining taassurotlari

8.35. Ushbu infografika keltirilgan maqolaga qanday sarlavha tanlash mumkinligini yozing.

8.36. “Parij–2024” olimpiadasi hamda infografikada berilgan ma’lumotlar asosida maqola yozing.

8.37. Reklama matnlari bilan tanishing va topshiriqlarni bajaring.



Harakatda hayot bor!
Sog‘lom hayot sari birinchi qadamingizni qo‘ying!
Sport bilan shug‘ullaning, immunitetingizni mustahkamlang, kayfiyatingizni ko‘taring!
Biz bilan birga bo‘ling – to‘g‘ri tanlov, sog‘lom hayot!
Suzish havzalarimiz sizni kutmoqda!
Ro‘yxatdan o‘ting: +998 90 000-00-00
www.soglomhayot.uz
Sport – kuch, go‘zallik va sog‘lik kaliti!

To‘g‘ri tanlov – sog‘lom hayot!
Kuch, energiya va sog‘lik hamrohingiz bo‘lsin!
+998 90 000-00-00 | www.soglomhayot.uz

Yangi hayotga bugun qadam qo‘ying!

Sog‘lom tana – baxtli hayot kaliti!
Sport tashqi ko‘rinishingizni ham, ichki dunyongizni ham o‘zgartiradi.
Bizning suzish maktabimizda sizga quyidagi imkoniyatlar taqdim etiladi:

- ✔ zamonaviy suzish havzalari;
- ✔ professional murabbiylar;
- ✔ shaxsiy dasturlar va sog‘lom muhit.

Manzil: Toshkent shahri Amir Temur ko‘chasi 45-uy.
Narxlar: kattalar uchun 30 ming so‘m, bolalar uchun 20 ming so‘m.

Hoziroq joy band qiling! +998 90 000-00-00 www.soglomhayot.uz

8.38. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Reklama matnlarida sportning qaysi turi targ‘ib qilinmoqda?
2. Reklama matnlarini yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?
3. Reklama matnlari qaysi yoshdagi insonlarga mo‘ljallangan?

8.39. Reklama matnlarining qaysilari quyidagi talablarga mos keladi?

T/R	Talablar	Qaysi reklama matniga mos?
1	Rasmlardan foydalanilgan	***
2	Qisqa, diqqatni tortuvchi	***
3	Matn asosan axborot berish mazmuniga ega	***
4	5–10 ta so‘zdan iborat	***
5	Tafsilotlar (xizmat, narx, joylashuv) ko‘proq	***
6	Qanday imkoniyatlar borligi batafsil yozilgan	***

8.40. Yuqoridagi talablar asosida 8.37-topshiriqdagi reklamalar qanday format uchun yaratilganini yozing.

A) Ijtimoiy tarmoqlar uchun (1-, 3-talab)	B) Banner uchun (2-, 4-talab)	D) Broshyura yoki flayer uchun (5-6-talab)

8.41. Uchala reklama matniga xos 2 ta xususiyatni ayting.

Reklama matnining asosiy vazifasi tinglovchi yoki o‘quvchini biror mahsulot, xizmat yoki g‘oya haqida xabardor qilish, qiziqtirish va uni ma’lum bir harakatga undashdir. Masalan, kitob reklamasi shu kitobni sotib olishga yoki o‘qishga undaydi.

Reklama matnini yaratishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. Kimga murojaat qilinmoqda, ularning ehtiyojlari, muammolari, qiziqishlari qanday? Matn tili va uslubi aynan shu auditoriyaga mos bo‘lishi kerak.

2. Odamlar mahsulotning o‘ziga emas, uning foydasiga qiziqishadi. Shunchaki *sifatli, zamonaviy, chiroyli* deyish o‘rniga bu sifatlar iste’molchiga aniq nima berishini ko‘rsatish zarur. Masalan, *“Tezkor internet!”* o‘rniga *“Sevimli kinongizni internet qotib qolmasdan tomosha qiling!”* jumlasini ishlating.

Umumiy so‘zlar o‘rniga aniq faktlar, raqamlar yoki tafsilotlardan foydalanish kerak. Masalan, *“arzon narx”* o‘rniga *“Atigi 50 ming so‘mga xarid qiling!”* deyilsa, bu narx qay darajada arzonligini aniq ko‘rsatadi.

3. Tinglovchi yoki o‘quvchidan nima kutilayotgani aniq aytiladi. Bunda buyruq fe’llardan foydalanish mumkin: *xarid qiling, hoziroq qo‘ng‘iroq qiling, batafsil bilib oling, ro‘yxatdan o‘ting, tashrif buyuring, shoshiling, sinab ko‘ring.* Chaqiriq aniq, tushunarli va bajarishga oson bo‘lishi kerak.

4. Matn sarlavhasi va ilk jumlalar qiziqarli, muammoga ishora qiluvchi yoki unga yechim taklif qiluvchi bo‘lishi kerak. Bu e’tiborni tortishga xizmat qiladi.

8.42. O‘rganganlaringiz asosida reklama matni yozing.

- reklama matni nima maqsadda yaratilayotganini aniqlang;
- reklama matni formatini belgilab oling;
- diqqatni tortuvchi jumlalardan foydalaning;
- reklama qaysi yoshdagi odamlar uchun mo‘ljallanganini hisobga oling.

8.43. Tayyorlagan reklama matningiz quyidagi talablarga mosligini tekshiring. Matningizni keyingi darsda sinfdoshlaringizga taqdim etishga tayyorlaning.

Talablar:

- tegishli format talablariga mosligi;
- kishi diqqatini jalb qiluvchi jumlalarning berilgani;
- qo‘shimcha vositalar (rasm, tegishli belgilar, rang va dizayn)dan foydalanilgani;
- imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilmagani.

Yodda tuting! Yaxshi reklama matni shunchaki chiroyli so‘zlar yig‘indisi emas. U maqsadli auditoriyani tushunish, ularga aniq foydani ko‘rsatish, ishonchli dalillar keltirish va harakatga chorlash san’atidir. Rasm, rang, musiqa, videorolik kabi vositalar reklama ta’sirini yanada kuchaytiradi. Bir oltin qoida bor: mahsulot, xizmat yoki g‘oya keng tarqalishi, ommabop bo‘lishi uchun u haqiqatda yaxshi bo‘lishi kerak.

8.44. Tayyorlab kelgan reklama matningizni sinfdoshlaringizga taqdim eting. Partadoshingizning reklama matnini quyidagi mezonlar asosida baholang.

T/R	Baholash mezoni	Ball
1	Tegishli format talablariga mosligi	3
2	Kishi diqqatini jalb qiluvchi jumlalar berilgani	3
3	Qo‘shimcha vositalar (rasm, tegishli belgilar, rang va dizayn)dan foydalanilgani	3
4	Mo‘ljallangan auditoriyaga mosligi	3
5	Imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilmagani	3
	Jami:	**15**

8.45. Maqollar mazmunini tahlil qiling. Maqollar yordamida ko‘chirma gaplarga misollar yozing.

Namuna: *“Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”, – deydi xalqimiz.*

Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.

Kasalni tabib emas, habib tuzatar.

Rang ko‘r, hol so‘r.

Dard keldi, darmon ketdi.

Tiniqqanga gard yuqmas,
Chiniqqanga – dard.

Omon bo‘lgan ot minar,
Ola parcha to‘n kiyar.

8.46. Xattaxtaga eng ko‘p xato qiladigan so‘zlaringiz lug‘atini yozing. Ularni lug‘at yozish qoidalariga rioya qilgan holda daftaringizga ko‘chiring.

8.47. Guruhlarga bo‘lining. Guruhning har bir a’zosi olmosh ishtirok etgan bittadan gap aytadi. Ammo bu gaplar mazmun jihatidan o‘zaro bog‘langan bo‘lishi shart. Qaysi guruh yaratgan matn mazmunli va o‘zaro bog‘langan bo‘lsa, shu guruh g‘olib chiqadi.

8.48. “Sport va sog‘lik” bobidan chiqargan xulosalaringiz asosida kun tartibingizni tuzing. Unda sport va sog‘lik uchun nimalar qilayotganingiz aks etishi lozim.

CHORAK BO‘YICHA MUSTAHKAMLASH

1. Omonim iboralarning ma’nolarini aniqlang. Har bir ma’noni ifodalaydigan gaplar tuzing.

damini kesmoq, ko‘ngli bo‘shamoq, o‘tib ketmoq, ko‘zi ochiq, ko‘z ilg‘amas

2. Sinonim iboralarni ajratib guruhlang. Daftaringizga yozing.

dimog‘iga qurt tushmoq, og‘zi ochilib qolmoq, yuragi orqasiga tortmoq, pixini yorgan, dili xufton bo‘lmoq, kapalagi uchmoq, burganing ko‘zini ko‘rgan, o‘zidan ketmoq, tuyog‘ini shiqillatmoq, ilonning yog‘ini yalagan, yuragi tovoniga tushib ketmoq, bosar-tusarini bilmay qolmoq, ikki qo‘lini burniga tiqmoq, juftakni rostlamoq, hang-mang bo‘lmoq, quruq qo‘l bilan

3. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib yozing.

1. “Milliy tilni yo‘qotmoq – millatning ruhini yo‘qotmoqdir”, – deydi Abdulla Avloniy.
2. Xalqimizda shunday maqol bor: “Achchiq til – zahri ilon, chuchuk tilga jon qurbon”.
3. Alisher Navoiy so‘zlariga ko‘ra: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir”.
4. Jaloliddin Rumiy: “Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so‘z qalbdan kelib, tildan chiqadi”, – deydi.
5. Beruniy: “Til – so‘zlovchi istagini tinglaguvchiga yetkazuvchi tarjimondir”, – deya fikr bildirgan.

4. Ravish va sifat turkumiga oid so‘zlarga 3 tadan misol yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

5. “Olmoshlar zanjiri” o‘yinini o‘ynang. Olmoshlarga navbatma-navbat misol ayting. Kim to‘xtab qolsa, o‘yindan chiqadi. Oxirida qolgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

6. Gaplarni hisob so‘zlar bilan to‘ldirib yozing.

1. Bir … o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim, dunyo ko‘zimga qorong‘i ko‘rina boshladi. 2. Bu doridan burunga kuniga uch-to‘rt … tomizib turishingiz kerak. 3. Yig‘laganini onasi bilishini xohlamas edi, tezda ko‘zlarini artib, bir … suv ichib oldi. 4. Bugun mazang bo‘lmayapti, damingni olaver. Sening o‘rningga o‘zim besh-olti … suv tashib beraman. 5. Mehmonlar juda ochiqqan ekan, ikki … mantini ko‘rdim deyishmadi.

IX BOB

INSON VA JAMIYAT



Yaxshilik deganda nimani tushunasiz?

YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

1

Bolalarga oromgoh juda yoqdi. Havosi toza, atrofi tog‘, hamma yoq yam-yashil maydon. Ammo aynan shu oromgohning yana bir o‘zgacha tomoni bor edi. Bu yerdagi dam oluvchilar ota-onasidan olgan puliga do‘kondan hech narsa xarid qila olmas, biroq pulni o‘zlari ishlab topishlari va uni ishlatishlari mumkin edi. Qanday qilib deysizmi? Turli musobaqalarda g‘olib bo‘lib-da! Ona tili, rus, ingliz tili, matematika bo‘yicha o‘tadigan musobaqalarda hamma o‘z bilimini ko‘rsatib yuqori o‘rin olar, ayniqsa, sport musobaqalari fan tanlovlaridan ham taassurotga boy bo‘lardi. Albatta, har bir ishtirokchi g‘olib bo‘lishga intilardi. Jamoa bilan qatnashganda esa g‘oliblarga topshiriladigan pul jamoaning har bir a’zosiga taqsimlanardi. Jamoaviy sport musobaqalaridan yugurish, sakrash, velosipedda manzilga birinchi yetib kelish joy olgan bo‘lib, so‘nggisi velosiped poygasi edi.

Akbar jamoasi uchun bolalarni tanlab bo‘lgan. Eng tez yuguradigan – Ahror, balandlikka sakrash bo‘yicha Shamshodga, uzunlikka sakrashda Botirga yetadigani yo‘q. Velosiped esa Akbarning jon-u dili. Mahalladagi poygada hammadan o‘zadigani ham o‘zi edi. Bu to‘rtlik bir necha kun ichida ancha do‘stlashib olgandi.

Musobaqaga jamoalar qizg‘in tayyorlanar, boshqa jamoalardagi Baxtiyor va Odil degan bolalar velosipedda tinmay mashq qilishar edi.

Akbarning o‘rtoqlari musobaqada yutishsa, mukofot puliga shirinlik va kitob olishni o‘ylab ham qo‘yishdi. Lekin hammasidan ham g‘alaba nashidasi yoqimliroq tuyulardi.

Mana, orziqib kutilgan kun ham keldi. Musobaqalarga start berildi. Birinchisi – yugurish poygasi. Ahror manzilga birinchi bo‘lib keldi. Balandlikka sakrash bo‘yicha Shamshod, uzunlikka sakrash bo‘yicha Botir ham yaxshi ko‘rsatkichga erishdi. Asosiysi – velosiped poygasi esa oldinda.

2

Akbar, Odil va Baxtiyor yo‘lakda start berilishini kutib turishibdi. Mana, start berildi-yu velosiped g‘ildiraklari gir aylanib, bolalar bir-birlaridan o‘zib ketishdi. Uchta aylanishning so‘nggisi ham yaqinlashmoqda. Uzoqdan o‘rtoqlarining “Akbar! Akbar!” deb baqirishlari eshitilib turardi. Akbar ancha oldinda. Shu payt shundoq yo‘ldan tipratikan chiqib qolsa bo‘ladimi, vaqtini topganini qarang. Biroq Akbar uni chaqqonlik bilan chetlab o‘tdi. Ura! U shu so‘zni aytishga ham ulgurmay orqadan velosipedning g‘iyqillagan va ag‘darilgan ovozi eshitildi. Ortga o‘girilsa, ikkinchi bo‘lib kelayotgan Odilning velosipedi ag‘darilib yotibdi. Akbar nima qilarini bilmay to‘xtadi. Baxtiyor ularga yaqinlashayotgan edi. Akbar onasining gapini esladi: “Yaxshilikni kechiktirmay, vaqtida qilish kerak”. U darrov Odilga yordam berishga shoshildi. Bu orada Baxtiyor zuv etib o‘tib ketdi. “Rahmat, o‘rtoq!” – dedi Odil velosipedga o‘tirayotib. U yana yo‘lida davom etdi. Xayriyat, oyog‘i uncha qattiq lat yemagan ekan. Finishga Baxtiyordan so‘ng ozroq vaqt o‘tgach, Odil va Akbar baravar kelishdi.

– Nima qilganing bu? – dedi Ahror Akbarga, – birinchilik qo‘ldan ketdi-ku!

– To‘g‘ri qildi! – Ahrordan jahli chiqdi Shamshodning, – men ham shunday qilardim.

Botir esa indamay qo‘ya qoldi.

Oromgoh tablosida fan olimpiadasi bo‘yicha g‘oliblarning ismi-familiyalari chiqdi, ammo negadir sport musobaqasi g‘oliblarining ismi ko‘rinmadi. Yetakchilar ham hech nima bilishmasdi.

Mana, kechki saf payti tantanali taqdirlash boshlandi.

Oromgoh boshlig‘i bir-bir fan g‘oliblarini taqdirlab, maqtov yorlig‘i va mukofot pullarini topshirdi.

3

– Endi esa, – dedi u, – biz uchun qaror qabul qilish juda murakkab bo‘lgan musobaqaga yetib keldik. Bu musobaqada Akbar raqibiga yordam bergani uchun g‘olib bo‘la olmadi. Raqibining yiqilganiga e’tibor bermagan Baxtiyor esa birinchi bo‘lib keldi. Bugun biz hay’at a’zolari bilan maslahatlashib qoidani biroz o‘zgartirdik va 1-o‘rinni Akbarning jamoasiga berishga qaror qildik.

– Nega ekan?! – dedi Baxtiyorning jamoasidagilardan kimdir.

– Chunki Akbar o‘zining g‘alabasidan qiyin ahvolga tushgan o‘rtog‘ining sog‘lig‘ini ustun qo‘ydi!

Atrofdagilar qarsak chalib yuborishdi.

Kavsar Turdiyeva

9.1. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini aniqlang. Lug‘atdan tekshirib, daftaringizga yozing.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
o‘zgacha	***	***
qizg‘in	***	***
yaxshilik	***	***
raqib	***	***
hay’at	***	***
nashida	***	***

1. Nima uchun muallif matnni “Yaxshilikni o‘z vaqtida qil” deb nomlaganini izohlashga harakat qiling.
2. Matndagi *“G‘alaba nashidasi yoqimliroq tuyulardi”* jumlasining ma’nosini izohlang.
3. Akbar yo‘lidan chiqqan tipratikanni chetlab o‘tdi. Odilning velosipedi ham o‘sha tipratikan sababli ag‘darilgan bo‘lishi mumkinmi? Nega muallif buni ochiqlamadi?
4. Nega 1-o‘rin Baxtiyorning jamoasiga berilmadi?
5. Hay’at a’zolari yana qanday qaror qabul qilishi mumkin edi?
6. Akbar to‘g‘ri qildi deb o‘ylaysizmi? Agar Akbarning o‘rnida siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
7. Sizningcha, ushbu matnda qanday insoniy fazilatlar tasvirlangan?

9.2. Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. “Oromgohning yana bir o‘zgacha tomoni” nimada edi?

A. Dam oluvchilar o‘zlari pul ishlab topishlari mumkin edi.
B. Faqat sport musobaqalari tashkil etilar edi.
D. Havosi toza, atrofi tog‘dan iborat edi.
E. Bolalar uydagilaridan pul olib, do‘kondan narsa xarid qilishlari mumkin edi.

2. Jumlalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	Jumlalar	T/N
1	Oromgohda bolalar faqat musobaqalardan topgan pullarini ishlata olishar edi.	***
2	Jamoa ishtirokchilari o‘rtasida pul mablag‘lari turlicha taqsimlanar edi.	***
3	Velosiped poygasi jamoaviy sport musobaqalari ichida eng oxirgisi edi.	***
4	Akbar musobaqada yutsa, mukofot puliga qanday shirinlik va kitob olishni ham o‘ylab qo‘ydi.	***
5	Shamshod uzunlikka sakrash bo‘yicha yaxshi natija ko‘rsatdi.	***
6	Velosiped poygasi 3 ta aylanishdan iborat edi.	***
7	Baxtiyorning jamoasi g‘olib deb topildi.	***
8	Sport musobaqasi g‘oliblari tezda e’lon qilindi.	***
9	Oromgoh boshlig‘i dastlab ona tili, rus, ingliz tili, matematika bo‘yicha musobaqa g‘oliblarini taqdirladi.	***

9.3. Matndagi bosh va yordamchi fikrlarni aniqlang.

9.4. Matn qismlariga mos reja tuzib, daftaringizga yozing.

9.5. Matnga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Yozing.

9.6. Asar qahramonlaridan biriga tavsif yozing.

Akbar	Shamshod	Ahror
Odil	Botir	Baxtiyor

9.7. Quyidagi savollarga javob yozing.

T/R	Savollar	Javoblar
1	Qayerda yashaysiz?	***
2	Mahallangiz yoki ko‘changizning nomini yozing.	***
3	Eng yaqin kishingizning ismi nima?	***
4	Qaysi oliy o‘quv yurtida tahsil olishni maqsad qilgansiz?	***
5	Qaysi gazeta va jurnallarni mutolaa qilasiz?	***
6	O‘qiyotgan kitobingiz qaysi nashriyotda chop etilgan?	***
7	Respublikamizdagi qaysi daryo yoki kanallarni bilasiz?	***
8	Yaqinda qaysi bayramni nishonlaymiz?	***
9	Oliy darajadagi qaysi unvon va mukofotlarni bilasiz?	***
10	Hududingizda qanday tashkilotlar faoliyat yuritadi?	***

9.8. Quyi sinflarda bosh harflar imlosiga doir o‘rganganlaringizni eslang. Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib o‘qituvchingiz yordamida bosh harflar imlosi to‘g‘risida qoida shakllantiring va daftaringizga yozing.

9.9. Quyidagi birliklarni guruhlarga ajratib, imlo qoidalari asosida yozing.

Fan nashriyoti, jadid gazetasi, muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, oltin yulduz medali, bektemir tumani, navro‘z bayrami, mard o‘g‘lon davlat mukofoti, sharq darmoni firmasi, damas avtomobili

9.10. Tushunchalarni moslashtiring. Bosh harflar imlosi asosida yoziladigan misollarni daftaringizga yozing.

Qo‘shib yozish imlosi	Ajratib yozish imlosi	Bosh harflar imlosi	Asos va qo‘shimcha(lar) imlosi	Chiziqcha bilan yozish imlosi

To‘rtko‘l	Mustaqillik bayrami	kecha-yu kunduz	“Saodat” jurnali
millatlararo	obro‘yim	har vaqt	sakkizoyoq
bu yerda	Xotira va qadrlash kuni	qishlog‘im	o‘shancha
sovuq	Beshyog‘och mahallasi	Markaziy Osiyo	sherdil
biz-a	erta-yu kech	huquqi	masxaraboz
to‘ppa-to‘g‘ri	nuqtayi nazar	bir zum	“El-yurt umidi” jamg‘armasi

9.11. “Men shu jamiyat vakiliman” hamda “Atrofimizdagi odamlar” mavzularidan birini tanlab, ijodiy matn yozing.

9.12. Taqiqni bildiruvchi piktogrammalarni qayerlarda uchratgansiz? Ulardan qanday maqsadda foydalaniladi? Quyidagi piktogrammalar qanday ma’nolarni anglatadi?



① ② ③ ④ ⑤ ⑥ ⑦ ⑧ ⑨ ⑩

9.13. Jadval asosida yuqoridagi piktogrammalarga oid ma’lumotlarni tasniflang. Bunday belgilar qayerda ishlatilishi mumkinligi haqida gapiring.

Piktogramma ma’nosi	Ishlatilishi mumkin hududlar	Raqam
Cho‘milish mumkin emas!	xavfli suv havzalari	1
	suv omborlari	
	oqar suv	
Ovqatlanmang yoki ichimlik ichmang!	kutubxonalar	***
	kompyuter xonalari	
	muzeylar	
	dorixonalar	
Chiqindi tashlamang!	parklar	***
	ko‘chalar	
	jamoat transporti	
	jamoat joylari	
Elektron qurilmalardan foydalanmang!	shifoxonalar	***
	laboratoriyalar	
	parvoz payti	
Gugurt chaqmang!	yonilg‘i omborlari	***
	kimyo laboratoriyalari	
	metro stansiyalari	

Qo‘shimcha yoritkich bilan suratga olmang!	muzeylar	***
	ko‘rgazmalar	
	konsertlar	
	ziyoratgohlar	

9.14. Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Qanday o‘zgarish yuz berganini aniqlang.

Bobom: “Bu yerda cho‘milish mumkin emasligini bildiruvchi belgi o‘rnatilgan, Azamat”, – dedi.

Muallif gapining egasi	O‘zlashtirma gapning egasi bo‘lib keladi.
Muallif gapining kesimi	***
Ko‘chirma gapning egasi	***
Ko‘chirma gapning kesimi	***
Undalma	***

9.15. Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni to‘ldiring. Ularni o‘zlashtirma gapga aylantirib, daftaringizga yozing.

1. Jamoat transportining eshigiga: “...”, – deb yozib qo‘yilgan.
2. “...”, – dedi.
3. Muzeyga borganimizda ustozimiz: “...”, – deya ta’kidladi.
4. “Bunday belgilardan xavfsizlikni ta’minlash, tartib o‘rnatish hamda qonun talablarini buzmaslik uchun foydalaniladi”, – ... .
5. ...: “Maxfiy idoralar, xodimlar uchun belgilangan joylar, ayrim ta’mirlanayotgan binolarda ushbu taqiq belgisidan foydalaniladi”.

9.16. Izohlardan foydalangan holda katakchalarga mos so‘zlarni yozing.

*	*	T	*	*

O	*	*	*

bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot
qon-qarindoshlik yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruh

*	A	*	*	*	*	T

M	*	*	*	*	L	*

*	*	L	*	*	*

kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmuyi
o‘zini o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo‘lak
kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birlik

9.17. Ko‘cha yoki mahallangizning qayeriga piktogramma o‘rnatish mumkin? Bunda qanday belgilardan foydalansa bo‘ladi? Hududingiz xaritasini tayyorlang.

9.18. Gap tarkibidagi yordamchi so‘zlarni aniqlang. Ular qanday vazifa bajarganini ayting.

Yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelmasligiga erishish, ya’ni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosidagi ta’lim-tarbiya orqali farzandlarimiz ongida sog‘lom hayot tarzini ham shakllantirish lozim.

Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yuklama

9.19. Quyidagi so‘zlar ham yordamchi, ham mustaqil so‘z turkumi vazifasida kelgan. Ularni aniqlab, farqini tushuntiring.

ustida	Gap futbol yo kitob ustida borardi.	*qarab*	U menga qarab chuqur xo‘rsindi.
	Kitoblar stol ustida turibdi.		Oylikka qarab yashashadi.
tomon	Kvadratning tomonlari teng.	*ilgari*	Ilgari qumg‘onda choy damlashgan.
	Biz bilan xayrlashib, maktab tomon ketdi.		To‘ydan ilgari Marg‘ilonga borishdi.
orasida	U har doim xalq orasida edi.	*tagida*	Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.
	Xat kitob orasida edi.		Koptokcha divanning tagida edi.

9.20. Berilgan ko‘makchilarni qaysi kelishik qo‘shimchasini olgan so‘zdan keyin kelishiga qarab guruhlang. Ular ishtirokida gap tuzing.

bilan, oldida, uchun, o‘zga, kabi, keyin, singari, yarasha, yanglig‘, tashqari, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, ilgari, osha, bo‘ylab, burun, bo‘yicha, ustida, uzra, ichra, ostida, qaramay, qaramasdan, doir, binoan, muvofiq, qarata, so‘ng, boshqa

1. Bosh kelishikdagi so‘zdan keyin:...
2. Qaratqich kelishigidagi so‘zdan keyin:...
3. Jo‘nalish kelishigidagi so‘zdan keyin:...
4. Chiqish kelishigidagi so‘zdan keyin:...

9.21. “Kechagi kunim” mavzusida ijodiy matn tuzing. Matningizda quyidagi ko‘makchilardan foydalaning.

tomon, qadar, orasida, ustida, kabi, boshida, uchun, qaramay, buyon, bilan, keyin

Mutolaa uchun elektron kitoblarni qaysi dastur va ilovalardan izlaysiz?

MILLIONLARGA YO‘LDOSH PLATFORMA

(Qisqartirib olindi)

“Mutolaa” loyihasining muhim yo‘nalishlaridan biri bolalar adabiyotidir. Loyiha huzurida ijodkorlar maktabi tashkil etilib, “Ildiz” to‘plami yaratildi. Davlat rahbari bilan uchrashuvda “Ildiz” to‘plami haqida ham so‘z yuritdim. Ushbu to‘plam aslida Prezidentimizning 2022-yil so‘ngida Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida “Ulug‘ ajdodlarimizning bolaligi aks etgan qiziqarli, rang-barang, sodda tildagi kitoblar yo‘q”, degan fikridan ilhomlanib yaratildi. Zero ayni yig‘ilishdan so‘ng biz, ijodkorlar, Yoshlar ishlari agentligi huzurida birlashib, bu ishga bel bog‘ladik. Buyuk ajdodlarimiz bolaligi haqida kitoblar yaratishga kirishdik. Buning uchun jamoada ko‘plab mutaxassislar bor. Renessans asoschilari bo‘lgan bobolarimizni qadriyatlarimiz ildizlariga qiyoslab, to‘plamni “Ildiz” deb nomladik. Chunonchi, bugungi tafakkurimiz, ilmiy salohiyatimizda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Sino, Beruniy kabi buyuklarimizning o‘rni katta. Elektron platformalarga bog‘lanib qolgan bolalarga shuni singdira olsak, qadriyatlarimiz haqidagi kitoblarni taqdim qilsak, ko‘zlangan marraga yetamiz. Bugun bolalarni milliy mahsulotlar bilan ta’minlashga alohida e’tibor berilyapti. To‘plamdan ulug‘ ajdodlarimizning bolalik siymolari aks etgan 10 ta rasmli kitob joy olgan. 2025-yilda yana 10 ta to‘plam yaratishni maqsad qilganmiz. Bu borada ko‘plab yosh illyustratorlar, rassomlarni qamrab olishni rejalashtirganmiz. Yoshlarni sun’iy idrokni o‘zlashtirish, rivojlantirishga jalb qildik.

Zero yig‘ilishda ham bunga alohida urg‘u berildi. “Ildiz” ham elektron formatda, ham animatsion multfilm ko‘rinishida taqdim etiladi. Sun’iy idrok yordamida kitoblarga chizilgan suratlar asosida multfilmlar yaratdik. Quvonarlisi, buni bolalar juda yaxshi qabul qildi. Nasib qilsa, jamoamiz yana 100 ta multfilm ishlaydi.

Loyiha doirasida yangi – kitobkino janri yaratildi. Kinoning bunday turida muayyan kitob asosida hujjatli film tayyorlanadi. Uni ko‘rgan tomoshabinda shu kitobni o‘qishga qiziqish paydo bo‘ladi. Hozirgacha “Qo‘rqma”, “Unsin”, “Kichkina shahzoda”, “Chol va dengiz”, “Puankare” kitobkinolari yaratilib, YouTube platformasiga joylashtirildi.

Shu kunga qadar 740 ta asar ilk bor sifatli formatda ovozlashtirildi. Bunday ko‘rsatkich va natijadorlik audiokitoblar sohasida shu paytgacha kuzatilmagan. Audiokitoblarni 30 dan ortiq professional dublyaj aktyori, xalq artisti eng zamonaviy studiyalarda o‘qib berdi.

Loyihaning yana bir muhim maqsadi yurtimizda noshirlik faoliyatini rivojlantirish, mualliflar nufuzini oshirish, huquqlarini ta’minlashdir. “Mutolaa” ilovasidagi do‘kon shu maqsadda ishga tushirildi. U noshirlar va mualliflarga o‘z kitoblarini sotish, moddiy daromad ko‘rish imkonini yaratadi. Hozirgacha o‘nga yaqin nashriyotlar bilan o‘zaro manfaatli shartnoma tuzilib, ular nashr etgan kitoblar ilovaga joylandi.

Loyihada sun’iy idrok imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida alohida jamoa shakllantirilib, ovozni klonlashtiradigan va o‘zbek tilidagi matnni o‘qiy oladigan dastur ustida ishlanmoqda. Yaqin kelajakda “Mutolaa” ilovasidagi elektron kitoblarni ana shu dastur bilan avtomatik tarzda ovozlashtirish imkoni tug‘iladi.

Loyiha adabiy jarayonni jadallashtirish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida madaniy tadbirlar ham uyushtiradi. Xususan, har oyda bir marta tashkil etiladigan “She’riyat kechasi” yoshlar orasida ommalashib, yosh ijodkorlarni rag‘batlantirib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, bugun “Yoshlar kitob o‘qimay qo‘ydi” degan qarashning to‘g‘ri emasligini “Mutolaa” ilovasida aks etayotgan raqamlar isbotlaydi. Demak, bu shunchaki ilova emas, balki kitobxonlikni ommalashtiruvchi, kitob sanoatini rivojlantiruvchi platforma. Agar hozir million nafar kitobxon bo‘lsa, “Mutolaa” orqali uni 5–10 millionga chiqara olsak, kitob bozorining kengaygani yaqqol ko‘rinadi. Zero elektron kitoblar bilan mutolaani yanada osonlashtiramiz. Vaholanki, O‘zbekistonda elektron kitoblar bozori deyarli yo‘q, desak bo‘laveradi. Elektron kitob sotadigan platformalar juda kamligidan soha rivojlanmay kelayotgan edi. Ilovada qo‘shimcha to‘lov evaziga turli nashriyotlarning xaridorgir elektron kitoblarini o‘qib borish mumkin. Bu nashriyotlarning nafaqat bosma, balki elektron kitoblar orqali ham daromad ko‘rishini ta’minlaydi. Biz ularni qo‘llab-quvvatlashga, o‘quvchilari sonini oshirishga hissa qo‘shishga tayyormiz.

Sa’dulla Quronov

9.22. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini o‘qituvchingiz yordamida izohlang. Ular matn mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatganini ayting.

renessans	***	*noshirlik*	***
platforma	***	*audiokitob*	***
sun’iy idrok	***	*illyustrator*	***

1. Nima uchun muallif matn sarlavhasini “Millionlarga yo‘ldosh platforma” deb nomlaganini izohlang.
2. Loyihada sun’iy idrok imkoniyatlarini o‘zlashtirish, rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilgan?
3. Ovozni klonlashtiradigan dasturlar haqida eshitganmisiz? Ular loyiha mualliflariga qanday imkoniyatlar yaratishi mumkin?
4. “Mutolaa” ilovasi imkoniyatlari haqida gapiring.
5. Loyiha mualliflari kitobkino janrini yaratish orqali qanday maqsadni ko‘zlagan?
6. “Yoshlar kitob o‘qimay qo‘ydi” degan qarashning to‘g‘ri emasligini muallif qanday dalillagan?

9.23. “Millionlarga yo‘ldosh platforma” matni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Nima sababdan “Mutolaa” ilovasi va nashriyotlar o‘rtasida shartnoma tuzildi?

A. Nashriyotlar ko‘magida kitobkino janri yaratildi.
B. Sun’iy idrok yordamida kitoblarga chizilgan suratlar asosida multfilmlar yaratish rejalashtirildi.
D. Nashriyotlar chop etgan kitoblarning elektron nusxasini platformaga joylashtirish maqsad qilindi.
E. Hamkorlikda “She’riyat kechasi”ni tashkil etib, yosh ijodkorlarni rag‘batlantirish maqsad qilindi.

2. Muallif “Mutolaa” loyihasi nima maqsadda amalga oshirilganini dalillash uchun qanday jumla(lar)dan foydalangan?

- Buyuk ajdodlarimiz bolaligi haqida kitoblar yaratishga kirishdik.
- Elektron platformalarga bog‘lanib qolgan bolalarga qadriyatlarimiz haqidagi kitoblarni taqdim qilsak, ko‘zlangan marraga yetamiz.
- Shuningdek, loyiha doirasida yangi – kitobkino janri yaratildi.
- Yaqin kelajakda “Mutolaa” ilovasidagi elektron kitoblarni ovozni klonlashtiradigan dastur bilan avtomatik tarzda ovozlashtirish imkoni tug‘iladi.
- Loyihaning yana bir muhim maqsadi yurtimizda noshirlik faoliyatini rivojlantirish, mualliflar nufuzini oshirish, huquqlarini ta’minlashdir.

9.24. Tasavvur qiling, “Mutolaa” loyihasining ishtirokchisiga aylansangiz, yana qanday takliflar bildirar edingiz?

9.25. Ikki guruhga bo‘lining. Kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi yana qanday loyihalar yaratish mumkinligi to‘g‘risida bahs yuriting.

9.26. Berilgan matnni imloviy jihatdan tekshiring. *tilmoch.ai, savodxon.uz, matn.uz* kabi saytlardan foydalanishingiz mumkin. Ularning afzalligi va kamchiliklarini ayting.

Xar bohor ostanasida qishlog‘imizga sumalag tayyorlash odat edi. Bu ishning boshida, albatta, Marxamat opa turardi. Xamani choqirib, xar honadondan bir hovich tabasum, bir qutti un yig‘ib, katta qazon atrofida yuraklarni birlashtirardi. Olamga sumalakning hushbo‘y xidi emas, birlik, mehir, muxabbat taralardi go‘yo.

9.27. Chap ustunda berilgan so‘zlarning ma’nosini ifodalaydigan birliklarni o‘ng ustundan toping.

1	*ziqna, xasis*
2	*olifta*
3	*o‘ta ochko‘z*
4	*o‘lmoq*
5	*betayin*
6	*turqi sovuq*

A	qulog‘i og‘ir
B	vafot etmoq
D	diydori nomuborak
E	tamtam
F	mirquruq
G	vasiqasi yo‘q
H	nafsi hakalak otgan

Evfemizm – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘zlarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘z va iboralar: ***o‘lmoq*** **–** *vafot etmoq, dunyodan ko‘z yummoq.*

9.28. Quyidagi gaplar tarkibidan evfemizmlarni toping. Ularning o‘rnida yana qanday jumlalardan foydalanish mumkinligini ayting.

1. O‘rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog‘idan xotirjam bo‘lingiz. *(A. Qodiriy)*
2. Yopiqliqda kun kechirish azobini mendan so‘rang. *(Shukrullo)*
3. Bu kishi kimingiz? – deb so‘ragan savoliga javob topishga ulgurmagan edim, o‘zi yordam qildi: – Ahliyatingizmi? *(Cho‘lpon)*
4. Bunga o‘xshagan bir kam yuzlar boplayapti-da jamiyatni. *(S. Ahmad)*

9.29. Evfemizmlarga 5 tadan misol toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Evfemizmlar nutq jarayoniga qanday ta’sir qilishi mumkinligini ayting.

Bog‘lovchilar so‘z va gaplarni bog‘laydigan yordamchi so‘zlardir.

Teng bog‘lovchilar		Ergashtiruvchi bog‘lovchilar	
Biriktiruv	*va, hamda, bilan, -u, -yu, -da, ham*	**Aniqlov**	*ya’ni, -ki*
Zidlov	*ammo, lekin, biroq, balki, -u, -yu, -da*	**Sabab**	*chunki, negaki*
Ayiruv	*yo…yo, yoki, dam…dam, goh…goh, ba’zan…ba’zan, bir…bir*	**O‘xshatish-qiyoslash**	*go‘yo, go‘yoki*
Inkor	*na… na...*	**Shart**	*agar, mabodo, garchi, basharti*
		Maqsad	*toki*

9.30. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchi vositalarni qo‘yib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko‘rgani bordik … tarixiy obidalarni tomosha qildik.
2. Oramizdagi farq shu…, men nima uchun shu ishni qilayotganimni bilaman, … sizlar bilmaysizlar. *(Abdulla Qahhor)*
3. Bir kuni kechasi bir hiyla o‘ylab chiqdim-…, erta turgach, eski maktab sari jo‘nadim. *(Abdulla Qodiriy)*
4. Oy … eshik tirqishlaridan mo‘ralar, … bulutlar orasida g‘oyib bo‘lardi. *(Chingiz Aytmatov)*
5. Aytishlaricha, bu tun tugab, Oy o‘z o‘rnini Kunga bo‘shatib berayotgan erta tong chog‘ida Boychechak … Navro‘zoy nihoyat bir-birini topadi. *(Anvar Obidjon)*
6. Ayniqsa, uning odob … axloq haqidagi “Turkiy Guliston” asari hozirgacha ahamiyatini yo‘qotgan emas. *(“Gulxan”dan)*

9.31. Berilgan bog‘lovchilardan foydalanib, 8 ta gap tuzing.

agar, balki, goh…goh, negaki, toki, basharti, na…na, -da

9.32. Gaplarning ma’nosi bir-biridan qanday farqlanganini izohlang.

Dalalarda ish boshlandi.

1. Dalalarda ish boshlandimi?
2. Dalalarda ish boshlandi-ku.
3. Axir dalalarda ish boshlandi.
4. Dalalarda ish boshlandi-da.
5. Dalalarda ish boshlangandir.

Yuklamalar so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklaydi.

So‘roq-taajjub	*-mi, -chi, -a(-ya)*
Kuchaytiruv-ta’kid	*hatto, axir, nahotki, g‘irt, ham, -ku, -u(-yu), -da, -oq(-yoq)*
Ayiruv-chegaralov	*faqat, xolos, atigi, -gina (-kina, -qina)*
Gumon	*-dir*
O‘xshatish-qiyoslash	*go‘yo, xuddi, naq, misoli*
Inkor	*hech, sira, na…na*

9.33. Yuklama ishtirok etgan gaplarni ajratib, daftaringizga yozing.

1. U anchadan keyin o‘ziga keldi-yu tepasida xotini turganini, qizchalari yig‘layotganini payqadi. *(O‘tkir Hoshimov)*
2. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon! *(Shukur Xolmirzayev)*
3. Yoshgina bir qiz keng atlas ko‘ylagini hilpiratib sahnaning o‘rtasiga keldi-da, nimanidir e’lon qildi. *(O‘lmas Umarbekov)*
4. Na martaba, na boyligi bor edi uning. *(Erkin Vohidov)*
5. Nosir oxun eski bo‘lsa-da, ozoda libosda edi. *(Sobir Abdulla)*
6. Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi. *(O.Yoqubov)*

9.34. Gaplar mazmuniga mos yuklamalarni qo‘ying. Ular gapga qanday qo‘shimcha ma’no yuklayotganini izohlang.

1. Bugungi darsda Gulchehra qatnashmadi.
2. Sharifa ammasining o‘zi.
3. Umid bu gapdan xabardor edi.
4. Mahalladagi keksalarni yo‘qlab kelgan.
5. Tanlovda g‘olib bo‘lganimga ishona olmasdim.

9.35. Badiiy matndan yuklama ishtirok etgan 5 ta gap toping va yozing.

9.36. Nuqtalar o‘rniga yordamchi so‘z turkumlarini qo‘ying. Ular qanday vazifa bajarib kelganini izohlang.

hatto, va, -chi, deb, yo, ham, -ku, ammo, yana, bilan

... it urishsa, zirqirar qalbim,
Odam odam payin qirqmoq bo‘lsa-...?
So‘zsiz qichqiraman: nega tug‘ildim,
Quloqlarim batang bo‘lib qolsa-...!
O‘rtada bo‘lsin ... qadr ... izzat,
Ayriliq ... o‘lim yaralganmi ...?
Shunda ... tantilik qilib tabiat
Buyuk bir aqlni bergan-..., ...
Shu aql tantana qilar, azizim,
Tantana qiladi shafqat ... vijdon.

Saida Zunnunova

Vijdon deganda nimani tushunasiz?

Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajaring.

VIJDON KERAKDIR INSONGA
(Qisqartirib olindi)

10

9.37. Quyidagi so‘zlarning matnda ifodalagan ma’nosini aniqlang va daftaringizga yozing.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
xislat	***	***
g‘ildirak	***	***
kodeks	***	***
chaqirim	***	***

1. Muallif nega maqolani “Vijdon kerakdir insonga” deb nomlagan?
2. *“... vijdonsizlarcha qilingan har bir ish... vijdonsiz odamning qalbini, ruhiyatini zaxmdan xavfliroq va sovuqroq dardga duchor qiladi, uning qiyofasida shunday chandiqlar qoldiradi...”* jumlasini izohlang.
3. Muallifning fikricha, nega aksariyat insonlar vijdonli bo‘lishga intilsa-da, vijdonsiz odamlar ham keragidan ko‘p?
4. Muallif o‘z fikrlarini isbotlash uchun qanday dalillardan foydalandi?
5. Muallif nega ancha yil oldin sodir bo‘lgan voqeani maqolaga kiritgan?
6. Sizningcha, vijdonli odam qanday bo‘ladi?

9.38. Matnga sinfdoshingizning munosabatini aniqlashga doir uchta savol yozing. Undan ushbu savollarga javob yozishini so‘rang.

9.39. Harflarni to‘g‘ri tartiblab, izohlarga mos keluvchi so‘zni yozing.

A T Q D U R

*	*	*	*	*	*	*kuch, quvvat*

I Q A F Y O

*	*	*	*	*	*	*siymo, surat, timsol*

T X A I S L

*	*	*	*	*	*	*fazilat, atvor*

K A O L I D M I Y

*	*	*	*	*	*	*	*	*	*insonlik, insof, muruvvat*

9.40. *Vijdon* so‘zini izohlab yozing.

9.41. Tasavvur qiling, telejurnalistsiz. Vijdon to‘g‘risidagi fikrlarni bilish uchun turli kishilardan intervyu olishingiz kerak. Ularga beradigan savollaringizni yozing.

9.42. Tuzgan savollaringizdan foydalanib yaqinlaringizdan intervyu oling va daftaringizga yozing.

9.43. Tayyorlab kelgan intervyungizni o‘qib bering.

9.44. Sinfdoshlaringizning intervyusidan eng yaxshi 3 ta savolni daftaringizga yozib oling.

9.45. Quyidagi qoidalarni ifodalovchi atamalarni aniqlang. Misollar toping.

Qoidalar	Ilmiy atama	Misol
So‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklovchi so‘z va qo‘shimchalar	*yuklama*	*-mi, -chi, -a(-ya)*
Ikki va undan ortiq gap bo‘lagi yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchilar	***	***
Ikki mustaqil so‘zni tobelantirib bog‘laydigan yordamchilar	***	***
Qo‘pol so‘zlarning o‘rnida ishlatiladigan so‘zlar	***	***
O‘zaro tobe munosabatida bo‘lgan gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan yordamchilar	***	***

9.46. Berilgan bog‘lovchilarning mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Xalq bunday yolvorishlarga quloq solmadi, … g‘isht qolipdan ko‘chgan edi.	*ammo, chunki, va*
Ba’zi sport o‘yinlari insonni nafaqat jismonan, … ma’nan ham chiniqtiradi.	*lekin, va, balki*
Kishining iste’dodi barcha sohada bir xil bo‘lavermaydi, … yoshlar o‘zi sevgan, qobiliyatiga mos ishni tanlay bilishi kerak.	*chunki, ya’ni*
Lekin kun isishini kutish haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas, … havoga ishonish qiyin, eng yomoni, qor ustiga qor yog‘ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoli bor.	*garchi, ya’ni, chunki*

9.47. Bo‘lim yuzasidan barcha mavzular va grammatik qoidalarni takrorlang.

TIL SANDIG‘I

TO‘QMOQLANGAN SO‘QMOQ

Tilimizda odamlar qatnovi natijasida o‘z-o‘zidan yuzaga kelgan yolg‘izoyoq yo‘l so‘qmoq deb atalishini yaxshi bilamiz. Xo‘sh, bu so‘z asli qanday paydo bo‘lgan? “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanishicha, so‘qmoq so‘zining ildizi “urmoq” ma’nosidagi *so‘qmoq* fe’lidir. *So‘qdi* fe’li hozirgacha tilimizda bor. Masalan, “So‘qolmagan so‘yil ko‘tarar” degan maqol va “Gap so‘qib yuradi” degan ibora bor.

So‘qmoq so‘zidagi *-moq* qo‘shimchasi takror ma’nosini ifodalaydi. Demak, *“so‘qmoq”* so‘zi “qayta-qayta urmoq” ma’nosidan kelib chiqqan. Ya’ni piyoda qatnov natijasida qayta-qayta tepkilanib bosilavergan joydan so‘qmoq yuzaga kelgan.

Alisher Navoiyda so‘qmoq *tor, kirdi-chiqdi yo‘l, yolg‘izoyoq yo‘l* ma’nosida, so‘qulmoq so‘zi esa *urilmoq, bosilmoq, zarb qilinmoq, muhr bosmoq* ma’nolarida kelgan.

Eshqobil Shukur

X BOB

ORZU VA IMKON



1. Orzu va maqsad nima? Ular o‘rtasida qanday farq bor?
2. O‘zingizning eng kuchli tomoningiz haqida bilasizmi? Bu haqda so‘zlab bering.

O‘ZLIKNI ANGLASH ZAVQI

(Asardan parcha)

...Shunday qilib, robot bilan yuzma-yuz qolganimdan keyin undan so‘radim:

– Mayli, deylik, men o‘zimning kimligimni bilmasligimni tan olaman. Xo‘sh, sen o‘zining kimligini biladigan bironta odamni bilasanmi?



– Men hech narsa bilmasligimni senga aytgan edim, – dedi robot.

– Obbo, o‘rgildim so‘zga puxtaligingdan, senga bunaqa odamlar ma’lummi, deb so‘ramoqchi edim!

– Ha, albatta, – javob berdi u, – ular senga ham ma’lum.

– Menga?!

– Ha.

– Xo‘sh, ular kim ekan?

– Ular unchalik ko‘p emas, lekin oz ham emas.

– Masalan?

– Masalan, Beruniy, Dostoyevskiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mikelanjelo, Motsart, Pifagor, Firdavsiy, Forobiy, Yuliy Sezar, Edison, Eynshteyn, Umar Xayyom...

– Ola-a! – dedim men, ajoyib rejam chippakka chiqqaniga hafsalam pir bo‘lib, – Ibn Sino, Eynshteyn emish!!! Esing joyidami?! Ular kim-u – men kimman?!

Robot go‘yo umrida birinchi bor menga savol berayotgandek qilib:

– Xo‘sh, sen kimsan? – dedi.

– Menimcha, sen... men bilan hazillashyapsan, to‘g‘rimi? – dedim unga jiddiy tikilib.

– Yo‘q, – dedi u, – men hazilni tushunmayman. Hazilni faqat odamlar, aniqrog‘i, fikrlash doirasi keng bo‘lgan odamlar tushunishadi. Bu doira qanchalik tor bo‘lsa, unga sig‘adigan hazil ham shunchalik mayda, qo‘pol yoki bachkana bo‘lishi mumkin.

– Demak... – dedim tutilib, – demak, sen har bir odamning, hatto mening ham, agar o‘zimning kimligimni bilsam, sen aytgan odamlar qatorida bo‘lishimga..., nima desam ekan..., ular qatorida bo‘lishga imkonim bor demoqchimisan?

– Yo‘q, – dedi robot, – shunchaki, sen bilan ular orasida aqliy yoki jismoniy jihatdan qandaydir jiddiy farq borligi to‘g‘risida menda hech qanday ma’lumot yo‘q. Ya’ni bu nuqtayi nazardan hamma teng. Har bir odam dahoga aylanishi mumkin. Shunchaki birovga buning uchun o‘ttiz yil kerak, boshqa birovga – uch yuz yil.

– Axir sen aytgan odamlar oddiy odam emas-ku, – qiziqib ketdim men, – ular butun dunyoga mashhur, buyuk va daho odamlar. Daho bilan oddiy odam orasida osmon bilan yercha farq bor!

– Qanday farq? – so‘radi robot.

– Qanday bo‘lardi, ular ma’lum bir iste’dod bilan tug‘ilgan!

– Sen iste’dodsiz tug‘ilganmisan? – dedi odamning yuzi-ko‘zining ahamiyatini bilmagan va fahm-farosatdan keyin tug‘ilgan temir quti.

Bu savolga nimayam deyish mumkin edi.

– Bolaligimda futbol o‘ynashni juda yaxshi ko‘rardim, lekin futbol klubining mashg‘ulotlariga borishimga dadam ruxsat bermaganlar. Futbolni bekorchilar o‘yini deb hisoblardilar.

Bir vaqtlari rubob chalishga ishqiboz bo‘lganman, o‘qituvchim: “Sendan bir nima chiqadi”, – derdilar. Rosa uch yil to‘garakka qatnashganman. Keyin qandaydir bir ko‘rik-tanlov bo‘lib o‘tdi, men hatto uchinchi o‘rinni ham egallay olmadim. Katta akam o‘shanda “Shalpangquloq sozanda bo‘lmoqchilar!” – deb ustimdan kulgandi, shundan keyin qaytib qo‘limga rubob olmaganman.

Rasm chizishga ham qiziqqanman, lekin qog‘oz va bo‘yoqlar narxini bilgach, onam ularni “keyinroq olib berish”ni va’da qildilar. “Keyinroq”ning kelishi esa juda qiyin bo‘ldi va hokazo. Ishqilib, bularni iste’dod deb atash mumkin bo‘lsa, ular bo‘lgan, albatta.

– Ya’ni senda ham ma’lum iste’dod bo‘lgan, demak, daho odamlardan sening farqing iste’dod bor-yo‘qligida emas. Shunday ekan, farq nimada bo‘lishi mumkin?

– Ehtimol, tirishqoqlikdadir?.. – dedim ikkilanib.

– To‘g‘ri. Seningcha, biror-bir ishni tirishqoqlik bilan qilishga odamga nima turtki berishi mumkin?

– Xohish-istak bo‘lsa kerak…

– Qanday ishni o‘zingni majburlamasdan, qiynalmasdan, xohish-istak bilan qilasan?

– O‘zimga yoqqan ishni-da!

– Boshqacha qilib aytganda, o‘zing yaxshi ko‘rgan ishni, shundaymi?

– Ha-da!

– Demak, daho odamlardagi tirishqoqlik ularning o‘z ishiga kuchli ixlosidan, ishini yaxshi ko‘rishidan paydo bo‘ladimi?..

… – Bir oshnam aytganidek, pul va tegishli sharoitsiz na tijorat va na ziyorat, na yulduzlar va na kosmos bilan shug‘ullanish mumkin.

– Kosmosga uchish g‘oyasi birinchi bo‘lib miyasiga kelgan odamda na sharoit, na mablag‘ bo‘lgan, – dedi “kosmos” so‘zini ilg‘ab olgan robot. – Lekin u birinchi kosmik kema paydo bo‘lishidan 70 yil oldin Sibirdagi chekka qishloqlarning birida o‘qituvchilik qilib, bo‘sh vaqtlarida yog‘ochdan kosmik kemalarning maketlarini yasagan. Uning ismi Konstantin Eduardovich Siolkovskiy.

– To‘xta, – dedim men, fikrlarim yana chalkashib ketayotganini sezib, biroq robot xuddi hech narsa eshitmagandek gapini davom ettirdi:

– Abu Ali ibn Sinoda inson tanasini yorib ko‘rish uchun sharoit u yoqda tursin, o‘sha zamonlarda uni bunday fikr uchungina hech ikkilanmasdan qatl qilishlari mumkin edi. Buyuk kimyogar D.I.Mendeleyevni dunyoga mashhur bo‘lishidan ilgari mustahkam va chiroyli jomadonlar yasaydigan ajoyib usta sifatida tanishgan. Pir darajasiga yetgan Pahlavon Mahmud bir umr Xivada po‘stindo‘zlik qilgan. Umar Xayyom aslida mashhur matematik va astronom bo‘lgan. Hazrati Dovud payg‘ambar temirchilik bilan kun kechirgan, Firdavsiy… Umuman

olganda, hayotda biron iz qoldirgan odamlarning mutaxassisligi yoki kasb-kori aksariyat hollarda ular dunyo uchun qilgan ishiga aloqasi bo‘lmagan va ularni hech kim sarmoya bilan ta’minlamagan yoki zarur sharoit yaratib bermagan.

– Ha! – dedim men kalavaning uchini topgan olimdek dadillik bilan. – Demak, gapning indallosini aytadigan bo‘lsak, mabodo hozirning o‘zida sening oldingga haqiqiy Siolkovskiy, Beruniy yoki Yunus Rajabiy kelib, men falonchiman desa, sen… unga qaytadan “Sen kimsan?” deb savol bermaysan, shundaymi?

– Ha, – dedi robot.

– Ya’ni uning kimligi senga shu zahoti ma’lum bo‘ladi, shundaymi?

– Ha.

– Seni tushundim, shekilli. Toki odam tarixda qoladigan biron ish qilmagunicha u o‘zining kimligini bila olmaydi, demoqchisan!..

Shavkat Razzoqov

10.1. Iboralarni matn mazmuni yordamida izohlab yozing.

tan olmoq	***
rejasi chippakka chiqmoq	***
hafsalasi pir bo‘lmoq	***
osmon bilan yercha farq bor	***
ishqiboz bo‘lmoq	***
turtki bermoq	***
kalavaning uchini topmoq	***

1. Nima uchun robot *Beruniy, Dostoyevskiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mikelanjelo, Motsart, Pifagor, Firdavsiy, Forobiy, Yuliy Sezar, Edison, Eynshteyn, Umar Xayyom*larni o‘zining kimligini biladigan insonlar deb ta’riflamoqda?
2. *“Hazilni faqat odamlar, aniqrog‘i, fikrlash doirasi keng bo‘lgan odamlar tushunishadi. Bu doira qanchalik tor bo‘lsa, unga sig‘adigan hazil ham shunchalik mayda, qo‘pol yoki bachkana bo‘lishi mumkin”*. Robotning ushbu fikrini izohlang.
3. O‘z iste’dodingiz haqida so‘zlab bering, uni rivojlantirish uchun nimalar qilgansiz?
4. Daho insonlar yashagan sharoitlarni tilga olishdan ko‘zlangan maqsad qanday?
5. Matndan o‘zlikni anglash haqida qanday xulosalar chiqarish mumkin?

10.2. Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Robotning quyidagi gapiga diqqat qiling. Ushbu jumlaning izohi bo‘la oladigan javoblarni belgilang.

– Men hech narsa bilmasligimni senga aytgan edim, – dedi robot.

Chunki robotlar:

A. Buyruq asosida ishlaydi.
B. Ba’zi ma’lumotlarni odamlardan yashiradi.
D. O‘zlari o‘ylamaydi, balki kodni bajaradi.
E. Mavjud ma’lumotlarnigina qayta ishlaydi.
F. Barcha savollarga javob berishga majbur emas.
G. Hayotiy tajribasi yo‘q, shuning uchun “bilmaydi”.

2. Nima uchun robot hikoya qahramonidan kimligini so‘raganida u robot hazillashyapti deb o‘yladi?

A. Chunki robot hikoya qahramonining kimligi (ismi, familiyasi, kasbi, yoshi)ni juda yaxshi bilar edi.
B. Chunki robot bila turib hikoya qahramonining ustidan kulmoqchi, uning hech qanday maqsadi va intilishlari yo‘qligini eslatib qo‘ymoqchi edi.
D. Chunki robot hikoya qahramonining qanday iste’dodi borligi, uni rivojlantirish uchun nimalar qilayotganini juda yaxshi bilar edi.
E. Chunki robot hikoya qahramoni yuqorida sanab o‘tilgan daho insonlar darajasidagi yutuqlari bilan maqtana olmasligini yaxshi biladi.

3. Ushbu fikr bilan bir xil mazmunga ega bo‘lgan jumlani aniqlang.

Sen bilan ular orasida aqliy yoki jismoniy jihatdan qandaydir jiddiy farq borligi to‘g‘risida menda hech qanday ma’lumot yo‘q.

A. Aqliy va jismoniy jihatdan odamlarning aksariyati deyarli bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lib tug‘iladi.
B. Hikoya qahramoni ham hikoyada sanab o‘tilgan buyuk daholar singari o‘zgacha iqtidor egasi hisoblanadi.
D. Men (robot) ushbu daholarning o‘ziga xos qobiliyati haqida to‘liq ma’lumotga ega emasman.
E. Azbaroyi seni (hikoya qahramonini) xafa qilib qo‘ymaslik uchun sen va daho insonlar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q deyishni ma’qul ko‘rmoqdaman.

4. Matndagi ushbu savolga qanday javob berish mumkin? Javobingizni izohlang.

– Demak, daho odamlardagi tirishqoqlik ularning o‘z ishiga kuchli ixlosidan, ishini yaxshi ko‘rishidan paydo bo‘ladimi?..

5. Hikoya qahramoni ushbu fikr bilan robotga nimani uqtirmoqchi bo‘ldi?

… Bir oshnam aytganidek, pul va tegishli sharoitsiz na tijorat va na ziyorat, na yulduzlar va na kosmos bilan shug‘ullanish mumkin.

A. Maqsadga erishish uchun hamma imkoniyat va shart-sharoitlar yetarli bo‘lishi kerak.
B. Moddiy mablag‘siz hech bir orzu yoki maqsadga erishib bo‘lmaydi.
D. Do‘stining mablag‘i yo‘qligi uchun o‘z maqsadiga yeta olmagan.
E. Sharoiti yo‘q inson hech narsani orzu qilmay qo‘ya qolsa ham bo‘ladi.

10.3. Agar sizdan hozir “Sen kimsan?” deb o‘zingizni tanishtirish so‘ralsa, nima deb javob bergan bo‘lardingiz? Kelajakda-chi?

10.4. Sinf xattaxtasiga “imkoniyat” so‘zini yozing, uni o‘z vaziyatingizga ko‘ra izohlang.



10.5. Oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizdan birini tanlab, quyidagi jadvalni namunadagidek to‘ldiring.

Mening maqsadim	Bu nega muhim?	Imkoniyatlarim	To‘siqlar	Yechim
Dasturchi bo‘lish	*Zamonaviy kasb, yaxshi daromad*	*Kompyuterim bor, internet platformalaridan o‘rganishim mumkin*	*Murakkab kodlar*	*Avval oson darslardan boshlayman*
***	***	***	***	***

10.6. Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1. ***Obbo,*** *o‘rgildim so‘zga puxtaligingdan, senga bunaqa odamlar ma’lummi, deb so‘ramoqchi edim!*
2. ***Demak,*** *daho odamlardagi tirishqoqlik ularning o‘z ishiga bo‘lgan kuchli ixlosidan, ishini yaxshi ko‘rishidan paydo bo‘ladimi?..*

Undov so‘zlar his-hayajon *(iye, voy, uf, bay-bay, o, urree)* va buyruq-xitob *(hey, hoy, xo‘sh, beh-beh, pish-pish)*ni ifodalaydi. Bunday so‘zlar boshqa bo‘laklardan vergul bilan ajratiladi: ***Ehhe,*** *orzularingiz juda ko‘p-ku!*

Taqlid so‘zlar narsalarning tovushi va holatiga taqlidni bildiradi. Ular takror va juft holda kelganda chiziqcha bilan yoziladi: *qiy-chuv, qars-qurs, taq-taq; yalt-yult, duv-duv, milt-milt.*

Modal so‘zlar so‘zlovchining o‘z fikriga ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, fikr tartibi, qarashliligi va xulosasini bildiradi.

Modal so‘zlar boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi. *Biz g‘olib chiqamiz,* ***albatta.***

10.7. Berilgan so‘zlarni tasniflab yozing.

voy, g‘a-g‘a, afsuski, jimir-jimir, eh, demak, chu, hay, binobarin, ehtimol, lip-lip, ey, dag‘-dag‘, yalt-yult, to‘g‘ri, chars-churs, xayriyat, gurs-gurs, taq-tuq, shekilli, g‘uv-g‘uv

Undov so‘z	Taqlid so‘z	Modal so‘z
***	***	***

10.8. Gaplarning bo‘sh o‘rinlariga mos keluvchi undov, taqlid va modal so‘zlardan birini qo‘ying hamda ko‘chiring.

1. Tursunoy onasining yelkasiga boshini qo‘yib, ... yig‘laydi.
2. Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda .... ovozdan uyg‘onib ketdim.
3. ..., insonning qalbi go‘zal bo‘lmog‘i kerak.
4. ..., Akmal yolg‘on gapirayotgandir, barchasi rost bo‘lsa-chi?
5. ..., shu paytda bir kosa issiqqina sho‘rva bo‘lsa edi!
6. ..., menga qara. Oxirgi marta ogohlantirib aytyapman, bu yerda boshqa qorangni ko‘rmay.

10.9. Quyidagi jadvalda berilgan undov va taqlid so‘zlar ishtirokida 6 ta gap tuzib, yozing.

Undov so‘z		Taqlid so‘zlar	
His-hayajon undovlari	Buyruq-xitob undovlari	Tovushga taqlid so‘zlar	Holatga taqlid so‘zlar
uf	*tu-tu-tu*	*dupur-dupur*	*yarq*
iye	*ey*	*qars-qurs*	*yilt*
o‘hho‘	*kisht*	*pichir-pichir*	*apil-tapil*
oh	*xo‘sh*	*duk-duk*	*lov-lov*

10.10. Modal so‘zlarni aniqlang va mos tinish belgilarini qo‘ygan holda gaplarni ko‘chiring.

1. Afsuski berilgan imkoniyatlardan hamma ham to‘liq va to‘g‘ri foydalana olmaydi.
2. Xullas biz kimlarning avlodi ekanimizni unutmagan holda o‘z iste’dod va qobiliyatlarimizni rivojlantirish ustida ishlashimiz kerak.
3. Albatta kishi kasb tanlayotganda o‘z qiziqishlarini inobatga olishi kerak.
4. Xayriyat ota-onam qolaversa o‘zim orzu qilgandek o‘z kasbidan e’zoz topgan insonlar qatorida bo‘lish baxti nasib etdi.
5. Binobarin kitob mutolaasiga qiziqish menda yozuvchilik va shoiralik ishtiyoqining paydo bo‘lishiga olib kelgan.

10.11. Ikki guruhga bo‘lining. Berilgan mavzulardan biri asosida kichik sahna ko‘rinishi namoyish etishga tayyorlaning. Nutqingizda modal, taqlid va undov so‘zlardan foydalanishga e’tibor qarating.

KUTILMAGAN SINOV

SPORT MUSOBAQASIDAGI MUAMMO

10.12. Modal so‘zlardan foydalanib gaplar tuzing va yozing.

Modal so‘zlarning ma’nolari	Modal so‘zlar
ishonch	*albatta, shaksiz*
gumon	*ehtimol, chamasi, shekilli*
tasdiq	*darhaqiqat, haqiqatan*
fikrni xulosalash	*xullas, demak, umuman*
fikrning tartibi	*avvalo, avvalambor*
fikrni dalillash	*masalan, jumladan*
achinish	*attang, afsus*
quvonch	*xayriyat*

1. Muvaffaqiyat nima?
2. Muvaffaqiyatga erishgan insonlardan kimlarni bilasiz? Ularning yutuqlari haqida gapiring.
3. Inson muayyan sohada muvaffaqiyatga erishishi uchun nimalar qilishi lozim?

MUVAFFAQIYATLI SHAXSLARNING 6 SIRI

Muvaffaqiyatli kishilarning o‘rnak olsa arzigulik foydali odatlari bo‘ladi. Quyida uzoq muddatli istiqbolda foyda keltiradigan bir necha maslahat bilan bo‘lishamiz.

1. Kundalik tuting.
Ko‘plab muvaffaqiyatli kishilar kundalik yuritgan.

Masalan, Benjamin Franklin har tongda o‘ziga o‘zi savol bergan: “Bugun qanday yaxshi ish qilishim kerak?” Har kuni kechqurun esa o‘z kunini “Bugun qanday yaxshi ish qildim?” degan savol bilan tugallagan. Stiv Jobs ko‘zgu oldida turib: “Agar bugun hayotimdagi oxirgi kunim bo‘lganida, bajarishni rejalashtirgan ishlarimni qilarmidim?” deya qiziqqan.

Albert Eynshteyn o‘zidan keyin 80 ming sahifadan ortiq turli qo‘lyozmalarni qoldirgan. AQSHning ikkinchi prezidenti Jon Adams butun hayoti davomida kundalik tutgan, umri oxiriga borib ularning soni 50 taga yetgan.

O‘z fikrlaringiz, rejalaringiz va hayotingizdagi voqealarni yozarkansiz, yanada e’tiborli va ziyrak bo‘lib borasiz, fikrlash xususiyatini rivojlantirasiz va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rganasiz.

2. Tanaffus qiling.

“Mizg‘ib olish uchun bir yoki bir yarim soatlik uyqu ma’lumotni o‘zlashtirish xususiyatiga xuddi sakkiz soatlik uyqu kabi ta’sir ko‘rsatadi”, – deya ta’kidlaydi uyquni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis Sara Mednik. Olimlarning so‘zlariga ko‘ra, ertalab o‘quvchi odamlar kun davomida bir soatlik tanaffus qilib, uxlab olsa, kechki payt nazorat testlarini 30 foizga yaxshi bajaradi.

Bu odat Albert Eynshteyn, Tomas Edison, Uinston Cherchill, Jon Kennedi, Ronald Reygan, Jon Rokfeller va boshqa ko‘plab yetuk shaxslarga xos bo‘lgan. Masalan, Leonardo da Vinchi uyquni ko‘plab 10 daqiqalarga “maydalab”, yarim fazali uyqu rejimini tajriba qilgan. Napoleon har bir jang oldidan uxlab olishni ma’qul ko‘rgan. Mashhur aktyor Arnold Shvarsenegger har kuni tushlikdan keyin uxlab oladi.

Zamonaviy ilm-fan bu odatning foydasini tasdiqlaydi. Kun davomidagi tanaffuslar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ijodiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantiradi.

3. Kuniga kamida 15 daqiqa piyoda yuring.

Muvaffaqiyatli odamlar o‘z kun tartibida albatta sport bilan shug‘ullanishga vaqt ajratishadi. Piyoda sayr ham ajoyib mashq bo‘lishi mumkin.

Charlz Darvin kuniga ikki mahal sayr qilgan: tushga yaqin va soat 16:00 da. Bethoven tushlikdan so‘ng uzoq sayrga chiqqan va ilhom kelib qolsa, qog‘ozga muhrlash maqsadida o‘zi bilan birga qalam hamda qog‘oz olib yurgan. Charlz Dikkens kuniga 10 kilometrdan ortiq piyoda yurgan, bu unga ishga ko‘milib, toliqib qolmaslikka yordam bergan. Stiv Jobs muhim uchrashuvga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida piyoda sayr qilishni odat qilgan. *“Faqat sayr vaqtida kelgan g‘oyalargina qadrli bo‘ladi”,* degandi mashhur faylasuf Fridrix Nitsshe.

Uzoq sayrlarning foydasini yaxshi bilgan shaxslar orasida Aristotel, Mahatma Gandi, Uinston Cherchill, Jek Dorsi, Tori Byorch, Hovard Shuls, Oliver Saks nomlarini keltirish mumkin.

4. Ko‘proq kitob o‘qing.

Hayotiy shart-sharoitlarga qaramay, har birimiz dunyoning eng badavlat kishilaridan biri Bill Geytsning sevimli resursi bo‘lgan kitoblarni o‘qish imkoniga egamiz. Bu o‘z bilim darajamizni oshirishning tejamkor va juda samarali usulidir.

Mark Kyuban kuniga 3 soatdan ortiq kitob o‘qiydi. Milliarder Devid Rubenshteyn haftasiga 6 tadan kitob o‘qiydi. Ilon Mask yoshligida haftasiga 2 tadan kitob o‘qigan. “The Walt Disney

Company” direktorlar kengashi raisi Bob Ayger esa har kuni tonggi 4:30 da kitob o‘qish uchun uyg‘onadi. Bu ro‘yxatni cheksiz davom ettirish mumkin.

O‘qish xotirani yaxshilaydi, empatiya darajasini oshiradi va stress darajasini kamaytiradi, shu tariqa oldimizga qo‘yilgan maqsadlarimizga erishishga yordam beradi.

5. Qiziqishlaringiz bo‘yicha suhbatdosh toping.

Yozuvchi Joshua Shenkaning fikricha, ijodiy salohiyat boshqa odamlar bilan muloqot qilish natijasida rivojlanadi. U o‘zining “Powers Of Two” kitobida birgalikdagi sa’y-harakatlar natijasida katta cho‘qqilarni zabt etgan kishilar haqida so‘zlab bergan. Masalan, Jon Lennon va Pol Makkartni, Mariya va Pyer Kyuri, Stiv Jobs va Stiv Voznyak.

Qator yetuk shaxslarning tajribasidan ma’lum: boshqalar bilan muloqot vaziyatga boshqa tomondan qarash va hatto mutlaqo yangi narsa yaratishda yordam beradi.

6. Tajriba qilishdan qo‘rqmang.


Qanday muhim fazilatlar egasi bo‘lmaylik, har birimiz xatoga yo‘l qo‘yamiz. Ularni kelgusida sizga foydasi tegishi mumkin bo‘lgan tajriba deb hisoblang.

Muvaffaqiyat to‘g‘ridan to‘g‘ri siz o‘tkazgan tajribalar soniga bog‘liq. Bir yutuq barcha muvaffaqiyatsiz urinishlaringizni “yuvib ketadi”.

Gidroksidli akkumulyatorni ixtiro qilgunga qadar Tomas Edisonning 50 mingdan ortiq tajribasi muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Mukammal lampani yaratish uchun esa 9 ming muvaffaqiyatsiz urinish ortda qolgan. Shunday bo‘lsa-da, umrining oxiriga borib Edison 1100 patentga egalik qilgan.

kun.uz

10.13. Harflarni ma’lum ketma-ketlikda tartiblab so‘z hosil qiling. Ushbu so‘zning izohini jadvaldan aniqlab, uni daftaringizga yozing.



1	ixtirochiga davlat idorasi tomonidan beriladigan, uning o‘z ixtirosiga muallifligi va mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat
2	inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun zarur bo‘lgan narsalarning mavjud zaxirasi
3	biror kimsa yoki narsani kutib olish; kelajak zamon
4	shaxslarning fikr va tuyg‘ularini tushunish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash
5	odam va hayvonlarda kuchli tashqi ta’sirlar natijasida sodir bo‘ladigan o‘ta hayajonlanish, bezovtalik, asabiylik holati
6	ikki ijrochi yaratgan asar

1. Maqolada kundalik tutishning qanday foydali tomoni haqida so‘z bormoqda? Sizning ham kundaligingiz bormi, undan qanday maqsadda foydalanasiz?
2. Muallif kun davomidagi tanaffuslar samaradorlik, ijodkorlik va fikrlash salohiyatining oshishiga yordam berishini ta’kidlamoqda. Sizning bu boradagi fikringiz qanday?
3. Kun davomida sport bilan shug‘ullanishga qancha vaqt ajratasiz? Sport bilan shug‘ullanish va muvaffaqiyat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb hisoblaysiz?
4. Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning kitob mutolaasiga qanday yondashganiga e’tibor qarating. Sizning bu boradagi ko‘rsatkichlaringiz qanday?
5. Kimni yaxshi suhbatdosh deb bilasiz? Nima uchun?

10.14. Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va ularning foydasini o‘zaro moslashtiring.

1	kundalik tutish	**A**	xotirani yaxshilash, empatiya darajasini oshirish, stressni kamaytirish
2	tanaffus qilish	**B**	vaziyatga boshqa tomondan qarash va yangi narsa yaratish
3	piyoda yurish	**D**	e’tiborli va ziyrak bo‘lish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish
4	kitob mutolaasi	**E**	xatolardan xulosa chiqarish
5	suhbatdoshga ega bo‘lish	**F**	samaradorlik va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish
6	tajriba qilishdan qo‘rqmaslik	**G**	toliqib qolmaslik, jismoniy faol bo‘lish

2. Maqola haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

A. Maqolada berilgan tavsiyalar ilmiy tadqiqotlar va muvaffaqiyatli insonlarning kundalik odatlari asosida dalillangan.

B. Maqolada muallifning shaxsiy kuzatuvlari va tajribalari asosida chiqargan xulosalari aks etgan.

D. Maqolada mashhur insonlarning muvaffaqiyatga erishish sirlari haqidagi ma’lumotlar aks etgan.

E. Maqolada har bir tavsiyaning muvaffaqiyatga erishishdagi hissasi alohida izohlab berilgan.

3. *Mizg‘ib olish* deganda qanday uyqu nazarda tutiladi?

A. Tushlik payti uxlash

B. Uyqu rejimiga amal qilish

D. Ozgina uxlash, ko‘z ilintirish

E. Tiniqib, yetarlicha uxlash

4. Muallif ushbu fikrni ifodalar ekan, *hayotiy shart-sharoitlarga qaramay* deganda nimani nazarda tutmoqda?

Hayotiy shart-sharoitlarga qaramay, har birimiz dunyoning eng badavlat kishilaridan biri Bill Geytsning sevimli resursi bo‘lgan kitoblarni o‘qish imkoniga egamiz.

A. Aksariyat insonlarda kitob o‘qish imkoniyati cheklanmagan.

B. Kitob o‘qishni hech qanday bahona bilan ortga surib bo‘lmaydi.

D. Bill Geyts ham ko‘p kitob o‘qigani uchun muvaffaqiyatli shaxsga aylangan.

E. Kitob o‘qish uchun alohida mablag‘ yoki vaqt talab etilmaydi.



10.15. Muvaffaqiyatga erishishning yana qanday sirlarini bilasiz? Takliflaringizni quyidagi shaklda ifodalang.

Tavsiya:	***
Natija:	***
Dalil:	***



10.16. Muvaffaqiyatli insonlardan biri bilan suhbatlashish imkoni bo‘lganida, unga qanday savollar bilan murojaat qilardingiz? Intervyu uchun savollar tuzing.

10.17. Matndan quyidagi qoidalarga mos keluvchi so‘zlarga namunalar topib, yozing. Shunday so‘zlarni mustaqil tarzda davom ettiring.

Qoidalar	Namuna	Matndagi so‘z
Qo‘shma fe’lning qismlari ajratib yoziladi.	sotib olmoq	***
Ko‘makchi fe’l va to‘liqsiz fe’l mustaqil fe’ldan ajratib yoziladi.	ayta olmoq	***
Yildan yilga, kundan kunga kabi birikmalar ham ajratib yoziladi.	ko‘pdan ko‘p	***
Har, hech, u, shu, o‘sha, hamma kabi so‘zlar o‘zi birikib kelgan so‘zdan ajratib yoziladi.	hech qaysi	***
-u, -yu, -da, -ku, -chi kabi bog‘lovchi va yuklamalar o‘zi qo‘shilgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.	erta-yu kech	***
Juft so‘zlarning qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.	oldi-sotdi	***

10.18. Ommaviy axborot vositalaridan millatimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotgan muvaffaqiyatli insonlarning hayotiga oid ma’lumotlar toping. Ularning muvaffaqiyati sirini yozib oling.

1. Lug‘at boyligi va uni oshirish yo‘llari haqida nimalarni bilasiz?
2. “Muvaffaqiyatli shaxslarning 6 siri” matnida qanday o‘zlashma so‘zlar bor?

10.19. Berilgan izohlarga mos keluvchi o‘zlashma so‘zlarni aniqlang. Ularni pastda tavsiya etilayotgan qaysi so‘z bilan almashtirish mumkinligini yozing. Ba’zi so‘zlarning muqobili berilmagani sababini tushuntirishga harakat qiling.

H * * T * *	Inglizcha *hash* va *tag* so‘zlaridan olingan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqda biror mavzuga oid manbalarni oson topish uchun panjara belgisi (#)ga qo‘shib yoziladigan kalit so‘z yoki ibora.
* K * I * Sh * *	Inglizcha so‘z, ekranni suratga olish ma’nosini bildiradi, mobil telefon yoki shaxsiy kompyuter ekranidagi ma’lumotlarni rasm sifatida saqlash va tarqatishda foydalaniladi.

* Y * * O *	O‘zbek tilida *tarbiyachi* ma’nosini bildiradi. Universitet va institutlarimizda shunday lavozim bor, bu vazifadagi kishi talabalar guruhiga biriktiriladi.
* * T	Robot so‘zining qisqartmasi bo‘lib, chex tilidagi *robota – mehnat* so‘zidan kelib chiqqan. U internet yoki kompyuter o‘yinlarida belgilangan amallarni bajaruvchi maxsus dasturdir.
* * L * * N J	*Chaqiruv, da’vat* degani. Ijtimoiy tarmoq sahifalarida ba’zan e’tirozni, ba’zan e’tirofni qo‘llab-quvvatlash uchun uyushtiriladi.
L * G * *	Harf, raqam yoki boshqa belgilardan iborat, shaxs yoki vakolatni tasdiqlovchi kalit so‘z.
* * G * T * V	Lotinchadan olingan, *manfiy, salbiy* degan ma’nolarni bildiradi. Aslida fotografiyaga oid bo‘lgan bu atama hozir ijtimoiy hayotda salbiy fikr, his va munosabatni bildiruvchi ibora sifatida keng ishlatiladi.
* A * * L	Fransuz tilidan olingan bo‘lib, axborot tizimlari, ilovalar va boshqa dasturlarga kirishda foydalanuvchi ishlatadigan maxfiy so‘z yoki belgi.
* E * K	Inglizcha so‘z bo‘lib, *soxta* degan ma’noga ega. Bugungi kunda noto‘g‘ri va tasdiqlanmagan ma’lumotlarga nisbatan qo‘llanadi.
I * * J	Inglizchadan olingan, *qiyofa, tasvir* ma’nolariga ega. Biror shaxs yoki tashkilot haqida odamlar tasavvurida shakllangan obraz.

Tavsiya etiladi: *qulavuz/yo‘lchi, murabbiy, chaqiruv, salbiy munosabat, ko‘rinish, ochqich, yolg‘on*

10.20. Quyidagi o‘zlashmalarni almashtirish mumkin bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tavsiya eting.

O‘zlashma so‘z	Izoh	Tavsiya etilayotgan so‘z
airbag	ingliz tilidan tarjima qilinganda *havo yostiqchasi* ma’nosini bildiradi, avariya vaqtida avtoulovda odamlar xavfsizligini ta’minlaydigan moslama	***
radar	inglizcha “radio detecting and ranging”ning qisqartmasi, dengiz va quruqlikdagi jismlarni aniqlaydigan, ularning masofasi, tezligi va geometrik parametrlarini o‘lchaydigan radiotexnik sistema	***

hayp	inglizcha *hype* so‘zidan, media olamida sun’iy shov-shuv qo‘zg‘ab, qandaydir voqea yoki shaxsga e’tibor qaratish	***
turniket	*burish, aylantirish* ma’nosiga ega, biror binoga kirib-chiquvchi kishilarni tekshiruvchi qurilma, ya’ni nazorat uskunasi	***
lokatsiya	*turarjoy*, *pozitsiya* degan ma’nolarga ega, Turkiyada bu so‘z *qo‘nim* tarzida qabul qilingan	***



10.21. Guruhlarga bo‘lining. Quyidagi savollar asosida “O‘zlashma so‘zlarning milliy tilni rivojlantirishdagi o‘rni” mavzusida muhokama olib boring.

1. O‘zlashma so‘zlarning ko‘payishi milliy tilning boyishiga xizmat qiladimi yoki zarar keltiradimi? Nima uchun?
2. Texnologiya, ilm-fan va zamonaviy dunyoda o‘zlashma so‘zlardan foydalanish zarurati qay darajada deb hisoblaysiz?
3. Agar biz faqat sof o‘zbekcha so‘zlarni ishlatsak, tilimiz boyiydimi yoki aksincha?
4. Tilshunos olim bo‘lganingizda, o‘zlashma so‘zlardan foydalanish masalasiga qanday qarar edingiz, muammoning yechimi sifatida nimalarni taklif qilardingiz?
5. O‘zlashma so‘zlar milliy tilni jahon tiliga yaqinlashtirishga xizmat qiladimi yoki o‘ziga xosligini yo‘qotishga? Fikringizni izohlang.



10.22. Imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, ko‘chiring.

podkast	po‘dkast	demokratiya	demakratiya
kangress	kongress	avtomabil	avtomobil
dekloratsiya	deklaratsiya	familiya	familya
kontrakt	kantrakt	kompaniya	kompanya
kosmonavt	kasmonavt	parhez	parxez
monitor	manitor	pedagog	pedogog
transpo‘rt	transport	samalyot	samolyot
psixolog	psixolg	lobarant	laborant



10.23. Nutqimizda faol qo‘llanayotgan yana qaysi o‘zlashma so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini taklif qilish mumkin? Fikrlaringizni 10.20-topshiriqdagi kabi jadval shaklida ifodalang.

10.24. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajaring.

PARVOZ QILGAN ORZULAR

“Ibrat farzandlari” loyihasi rahbari Rustam Qoriyev bilan suhbat

11

10.25. Audiomatnda tilga olingan o‘zlashma so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini topib, yozing. Qaysi so‘zlarni aynan almashtirib qo‘llash mumkinligi, qaysi so‘zlarda esa buning imkoniyati cheklanganini ayting.

O‘zlashma so‘z	O‘zbekcha muqobili
kontrakt	***
universitet	***
biznes	***
kurs	***
doska	***
kreativ	***
grant	***

1. *“Men yoshligimdan ingliz tilini o‘rganib, chet elda o‘qish va dunyo ko‘rishni juda orzu qilardim, lekin xohishning o‘zi bilan ish bitmas ekan”.* Suhbatdoshning ushbu fikrini izohlang.
2. Qaysi voqea suhbatdoshning “Ibrat farzandlari” loyihasida o‘zgacha ishtiyoq bilan faoliyat yuritishiga sabab bo‘lgan?
3. Tavakkalchilik qanday xislat? Uning maqsadga erishishdagi o‘rni haqida gapiring.
4. Nima deb o‘ylaysiz, suhbatdoshning qaysi xislatlari unga maqsad tomon intilishga yordam bergan?

10.26. Audiomatn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Suhbatdoshda ingliz tiliga qiziqish uyg‘otgan jarayon to‘g‘ri izohlangan javobni aniqlang.

A. Ota-onasining tavsiyalari hamda ingliz tili mutaxassislariga ehtiyoj kattaligi

B. Ingliz tilini yaxshi o‘rganib, xalqaro universitetga o‘qishga kirish va xalqaro darajadagi mutaxassis bo‘lish istagi

D. Maktabda o‘qib yurgan davrida ingliz tili ustozining dars o‘tish uslubi va bolalarni fanga qiziqtira olishi

E. Televizorda xalqaro universitet talabalarining ingliz tilida so‘zlashishini ko‘rib, ularning dunyoqarashi va o‘zaro muloqotiga havas qilgani

2. Suhbatdosh qanday holatda tavakkal qilishdan qo‘rqmaslikni tavsiya etmoqda?

A. Agar oldingizga qo‘ygan maqsadingiz oliy va yuqori bo‘lsa

B. Agar sizni qo‘llab-quvvatlab turuvchi insonlar bo‘lsa

D. Agar o‘zingizga ishonchingiz baland bo‘lsa

E. Agar maqsadingizga yetishish istagi juda kuchli bo‘lsa

3. Matnga ko‘ra, “Ibrat farzandlari” loyihasining asosiy maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A. Xorijiy tillarni bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o‘rgatish

B. IELTS yoki TOEFL imtihonlarida yuqori natijalarni qo‘lga kiritishni kafolatlash

D. Til o‘rganishga qiziqmaydigan o‘quvchilarni loyihaga ko‘proq jalb etish

E. Til o‘rganishning eng qulay va oddiy tizimini taklif etish

4. Suhbatdosh til bilishi tufayli bir odamning hayotini saqlab qolgani haqidagi voqeani nima uchun yodga olgan deb o‘ylaysiz?

A. Chunki u til bilishi sababli qanday mas’uliyatli vazifalarni bajara olishi haqida so‘zlab bermoqchi edi.

B. Chunki bu voqea til bilishidan faxrlanishiga sabab bo‘lgan edi.

D. Chunki u xorijiy tillarni bilishning naqadar zarur va muhim ekanini boshqalarga uqtirmoqchi edi.

E. Chunki u kasb tanlashda eng avvalo atrofdagilarga qanday yordam bera olishni o‘ylash kerakligini tushuntirmoqchi edi.

10.27. Matnning turini aniqlang va fikringizni asoslovchi uchta dalil yozing.

Tasviriy matn	Muhokama matni	Hikoya matni

10.28. Audiomatnni qayta tinglang. Uning mazmuni asosida suhbatdoshga qanday savollar berilganini taxmin qiling va yozing. Mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan yana qanday qo‘shimcha savollar berish mumkinligini ayting.

10.29. Ushbu loyihalarning qay biri bilan tanishsiz? Ular qanday maqsadlarda yaratilgani haqida gapirib bering.



MUTOLAA



XAN AKADEMIYASI



YOSHLAR AKADEMIYASI

10.30. Agar tanlangan kasbingiz doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun grant ajratilsa, siz unda qanday loyiha bilan ishtirok etardingiz? Loyihangizni qisqa taqdimot qilishga tayyorlaning.

1. Loyiha maqsadlari va yo‘nalishi asosida unga nom tanlang.
2. Kompyuter dasturlari yordamida loyiha uchun maxsus ramz (logotip) yarating.
3. Loyihangiz maqsadini aniq ifodalang.
4. Ushbu loyihani amalga oshirish tartibi haqida so‘zlab bering.
5. Loyihani amalga oshirish uchun sizga qanday yordam kerakligini tushuntiring.
6. Loyihani amalga oshirgandan so‘ng qanday natijalarni qo‘lga kiritish mumkinligi haqida ma’lumot bering.

10.31. 10.32-topshiriqda keltirilgan baholash mezonini hisobga olgan holda o‘z loyihangizni taqdim qiling.

10.32. Sinfdoshingizning loyiha taqdimotini tinglang va uni baholang.

Mezon	Ball
Loyiha maqsadlariga mos nom tanlangani	3
Maxsus ramz (logotip)ning mavjudligi	3
Loyiha maqsadining tushunarli va foydaliligi	3
Adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilingani	3
Tana tili (ko‘z bilan aloqa qilish, yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavdani to‘g‘ri ushlash) dan o‘rinli foydalanilgani	3
Mavzuga mos keladigan ovoz va intonatsiyadan foydalanilgani	3
Kishi diqqatini jalb etuvchi jumlalardan foydalanilgani	3

10.33. “Parvoz qilgan orzular” matnidan olingan quyidagi fikrlarning muallifini aniqlang, ularni ko‘chirma gapli qo‘shma gap shaklida yozing.

1. Men yoshligimdan ingliz tilini o‘rganib, chet elda o‘qish va dunyo ko‘rishni juda orzu qilardim, lekin xohishning o‘zi bilan ish bitmas ekan.
2. Hozircha bepul o‘qib tursam maylimi, kelgusida katta odam bo‘laman va barchasini sizga qaytaraman.
3. Faqat bitta shart bilan roziman. Kelajakda o‘zing kabi bolalarga til o‘rgatasan.
4. Til o‘rganish jarayonida tushunish, gapirish, muloqot qilishda muammolarga duch kelyapmiz.
5. Is’hoqxon Ibrat o‘ndan ortiq xorijiy tillarni bilgan va ularni odamlarga bepul o‘rgatgan. Biz ham ularning davomchilari bo‘lish istagida bu loyihani amalga oshirdik.

10.34. Sinfdoshlaringizdan birining loyiha taqdimotini baholab, xulosa yozing. Bunda 10.32-topshiriqda berilgan baholash mezoniga asoslaning.

10.35. Quyida berilgan hujjat namunasi bilan tanishing.

Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi
8-maktab direktori O.T. Tursunovga

Hurmatli Otabek Tohirovich!

2025-yil 23-may kuni Toshkent shahrida iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida “Zukko kitobxon” intellektual musobaqasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Sizning maktabingizdan 8-“A” sinf o‘quvchisi Dilnoza Turg‘unova ushbu musobaqaning shahar bosqichida ishtirok etishga tavsiya etilgan. Shu munosabat bilan, D. Turg‘unovani mazkur sanadagi darslardan ozod etishingiz va musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berishingizni so‘raymiz.

Hamkorlik uchun minnatdorchilik bildiramiz.

Hurmat bilan
musobaqa koordinatori *(imzo)* Shavkat Imomqulov
2025-yil 18-may

Tel.: +998 90 000 00 00

1. Mazkur hujjat nima maqsadda yaratilgan?
2. Unda qanday ma’lumotlar aks etgan?
3. Xatlardan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?
4. Rasmiy xatlar shaxsiy xatlardan qanday jihatlari bilan farqlanishi kerak?

Iltimos/so‘rov xati so‘rash, ma’lumot olish, iltimos mazmunida yoziladi. Bunday xatlar muassasaning xos ish qog‘oziga yozilganda jo‘natilish sanasi, jo‘natma raqami ko‘rsatiladi.

Iltimos/so‘rov xatlarining asosiy zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsning nomi.
2. Matn.
3. Ilova (zarur bo‘lgan hollarda).

10.36. Xatdagi zaruriy qismlar tartibiga ko‘ra, quyidagi gaplarni o‘rniga qo‘yib daftaringizga ko‘chiring.

Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 5-umumta’lim maktabi kutubxonasi fondini boyitish, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda adabiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida kutubxonamizni yangi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash bo‘yicha yordam so‘rab murojaat qilmoqdamiz.

Hurmat bilan maktab direktori O. K. Azizov

Sizdan yuqoridagi masalada amaliy yordam ko‘rsatishingizni so‘raymiz. Hamkorligingiz uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Toshkent shahri Axborot-kutubxona markazi direktori U. S. Hasanovga

Xususan, 5–11-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan zamonaviy bolalar adabiyoti, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adiblarining asarlari, shuningdek, jahon adabiyotidan namunalarni kutubxona fondiga kiritish ehtiyoji mavjud.

2025-yil 18-mart

10.37. Yuqorida berilgan namunalar hamda rasmiy xat to‘g‘risidagi ma’lumotga asoslangan holda quyidagi birliklarning qaysi biri to‘g‘ri yozilganini aniqlang. Bir nechta to‘g‘ri javobni belgilashingiz mumkin.

	1	2	3
A	murojaat qilmoqchiman	minnatdorchilik bildiramiz	hurmat bilan
B	murojat qilmoqchimiz	minatdorlik bildiramiz	xurmat bilan
D	murojaat qilmoqchimiz	minatdorchilik bildiraman	hurmat ila
E	murojaat qilganmiz	minnatdorlik bildiraman	hurmat blan
	4	5	6
A	2025.22.05	A. D. Azizovga	so‘raladi
B	2025-yil 22-may	Azizov A.D.ga	so‘rayman
D	22.05.2025	A. Azizovga	iltimos qilaman
E	2025.05.22.	Azizov Anvar Davlat o‘g‘liga	talab qilaman

10.38. So‘rov xati namunasi bilan tanishing. Uni yetishmayotgan qismlarini to‘ldirgan holda daftaringizga yozing.

Toshkent viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish
bosh boshqarmasi boshlig‘i _____

Toshkent viloyati “Yoshlar markazi” tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar bilan ishlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va tegishli dasturlar doirasida yordam ko‘rsatish bo‘limi nomidan _____ _____ .

Hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning toifalari, ularning soni va holati bo‘yicha rasmiy ma’lumotlarni _____.

Taqdim etilgan ma’lumotlar asosida dasturlarimizni maqsadli va samarali tashkil qilish rejalashtirilmoqda.

Hamkorlik uchun oldindan _____ .

_____ _____ _____
“Yoshlar markazi” direktori *(imzo)* *(sana)*

10.39. Iltimos xati namunasi bilan tanishing. Ajratib ko‘rsatilgan, uslubiy jihatdan xato qo‘llangan birliklarni to‘g‘rilab, yozing.

Navoiy shahri sport boshqarmasi rahbari
Y. N. Olimovga

Sizga maktab jamoasi nomidan murojaat qilyapmiz. 18-umumta’lim maktabi sport zalini zamonaviy sport anjomlari bilan ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatishingizni *istaymiz.*

Maktabimizda mingdan ortiq o‘quvchi *bor,* ular orasida sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. Ammo mavjud sport anjomlari *yomon bo‘lib ketgani* sababli darslarni sifatli tashkil etish qiyinlashmoqda.

Shu munosabat bilan, *zudlik bilan* maktab sport zaliga yangi futbol, voleybol to‘plari, gimnastika matlari va boshqa zarur sport anjomlarini ajratishingizni *talab qilamiz*.

Hamkorligingiz va e’tiboringiz uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Hurmat bilan
18-umumta’lim maktabi direktori (imzo) T. A. Salimova
2025-yil 3-mart

10.40. Vaziyatlardan birini tanlagan holda rasmiy xat yozing.

Maktab kutubxonasiga so‘rov xati
(Yangi badiiy kitoblarni olib kelish masalasida kutubxona mudirasiga so‘rov xati yozish)

Maktab ma’muriyatiga iltimos xati
(Musobaqa yoki tanlovda ishtirok etishga ruxsat olish)


10.41. Maqollar mazmunini tahlil qiling, ular qanday umumiy mavzu doirasida birlasha oladi?

Tishing borida tishlab qol, Kuching borida ishlab qol.	Qush qanoti bilan.
Holi yetmagan bo‘yrasida qolar.	Baliqning ham sakkiz qanoti bor.
Temirni qizig‘ida bos.	Izlagan imkon topar.

10.42. Vaziyatlar bilan tanishing hamda tengdoshlaringizga ushbu holatdan chiqish bo‘yicha tavsiya bering.



Eh, men jurnalist bo‘lishga juda qiziqaman. Ammo maktabimda bu soha bo‘yicha to‘garaklar tashkil etilmagan, biror malakali ustoz ham topa olmayapman. Bunday vaziyatda jurnalistlikni orzu qilmasam ham bo‘laveradi.



Menga IT bilan shug‘ullanish juda yoqadi. Dadam yaqinda yangi kompyuter olib berdilar. Ammo hozircha to‘garaklarga bora olmayman, sababi kurash bo‘yicha musobaqada ishtirok etib, oyog‘im lat yegan. Shifokorlar hatto maktabga borishimga ham ruxsat berishmadi.

– Do‘stim, ertaga robototexnika musobaqasiga qatnashishni rejalashtirayotgandim. O‘zim taqdim etmoqchi bo‘lgan robotni oxirgi marta sinab ko‘rmoqchi bo‘lib yoqdim. Lekin robotning sensorlari signal qabul qilmayapti, shuning uchun robot maydondagi to‘siqlarni aniqlay olmayapti. Sensorlarni almashtirish imkoni yo‘q. Endi nima bo‘ladi, vaqt oz qolgan. Mehnatlarim zoye ketadigan bo‘ldi-da! Aksiga olib, musobaqa ham bir yilda bir marta o‘tkaziladi.

10.43. Siz ham shunday vaziyatlarga tushganmisiz? Uni qanday hal etgansiz? Bunday vaziyatda insonga yordam beradigan xislatlar ro‘yxatini yozing.

10.44. “Imkoniyat berilishini kutma, uni o‘zing yarat!” mavzusida 200–300 ta so‘zdan iborat maqola yozishga tayyorlaning. Quyidagi rejadan foydalanishingiz mumkin.

I. Kirish. *Imkoniyat nima va u qanday paydo bo‘ladi?*

II. Asosiy qism:

1. Imkoniyatlarni yaratishda odamning iroda va tirishqoqligi qanday ahamiyatga ega?

2. Muvaffaqiyatga erishgan shaxslar (olim, sportchi, tadbirkorlar) hayotidan misollar keltiring.

3. Imkoniyat berilishini kutib o‘tirishning salbiy tomonlarini ko‘rsating, masalan: vaqtni boy berish, orzularni ro‘yobga chiqara olmaslik.

III. Xulosa. *Har kim o‘z hayotining boshqaruvchisi bo‘lib, imkoniyatlarni yarata olishi, har qanday vaziyatda oqilona yo‘l tuta olishi kerak.*

10.45. Fikrlaringizni dalillashda quyidagi hikmatli so‘zlardan foydalanishingiz mumkin.

Bugunning chorasini ko‘rib, erta uchun ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.
Beruniy

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o‘zingdin istagil.
Alisher Navoiy

Agar imkoniyat taqillatmayotgan bo‘lsa, eshik quring.
Milton Berle

Hayotda shunday maqsadni tanlash kerakki, u o‘zingda mavjud hamma imkoniyatni ishga solishni talab etsin.
Albert Eynshteyn

TIL SANDIG‘I

“QOZONDI” FE’LIDAGI “QOZON” HAQIDA

G‘alaba qozondi, e’tibor qozondi, muvaffaqiyat qozondi kabi birikmalarni tez-tez ishlatamiz. *Qozondi* fe’li yolg‘iz o‘zi kelsa, hech bir ma’no anglatmaydi. Qolaversa, e’tiborga erishish ma’nosini ifodalaydigan *e’tibor qozondi* birikmasida qozon nima qilib yuribdi deb o‘ylanib qolasiz.

“Devonu lug‘otit-turk”da *qazg‘anch* so‘ziga izoh berib o‘tilgan. Izohga ko‘ra, *qazg‘anch* so‘zi “ishlab topish”, “kasb”, “daromad” ma’nolarini anglatar ekan.

Darhaqiqat, g‘alaba qozonish ham, hurmat qozonish ham ishlab topish orqali amalga oshadi. E. Sevortyan bunga qo‘shimcha tarzda *qazan* va *qazg‘an* so‘zlarini “egallash” va “zabt etish” ma’nosida izohlab, bu so‘zning ildizi “g‘amlab qo‘yish” va “mol-mulk” ma’nolariga yaqinligini ham ta’kidlab o‘tadi.

Garchi hozir *qozondi* fe’li yolg‘iz o‘zi kelganda biror ma’no anglatmasa-da, qadimgi tilimizda u biror so‘z ko‘magisiz o‘zi kelgan. Masalan, “To‘nyuquq” bitiktoshida “Eltarish xoqon qozonmasa, agar men o‘zim qozonmasam, davlat ham, xalq ham yo‘q bo‘ladigan edi” degan mazmundagi yozuv bor. Qolaversa, o‘tmishimizda bu so‘zdan olingan ismlar va joy nomlari ham bo‘lgan. Masalan: Amir Qazag‘an, Qazanjik shahri.

Eshqobil Shukur

10.46. Yozishni boshlagan matningizni davom ettiring. Zarurat bo‘lsa, uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolarni to‘g‘rilab, qayta yozing. Keyingi darsda ijodiy matningizni sinfdoshlaringiz va ustozingizga o‘qib berishga tayyorlaning.

CHORAK BO‘YICHA MUSTAHKAMLASH

1. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilang va yozing.

doyir, mutoala, ta’m, shakil, har doyim, kundan-kun, mutoyiba, afv, hayir, Oq qo‘rg‘on, asvalt

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli ko‘makchilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ko‘makchilarning ma’no turlarini aniqlang.

– Shunaqa, – dedi Xolida opa hikoyasini davom ettirib, – uni bizning maktabimizga tajriba ... olib kelishgandi.

Yana ular futbol ... nazariy bilimlarga ega bo‘lishimizni talab qiladilar.

Nigora yaxshi xulqi, chiroyli muomalasi ... ham obro‘ga erishishi mumkin edi-ku!

Otasidan bir kun olib pul, Kitob do‘koni ... soldi yo‘l. Ketayotsa yo‘lida o‘g‘lon, Uchrab qoldi muzqaymoq do‘kon.

3. Taqlid so‘zlarning mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Nozimning nafrati kelib, … qaltiray boshladi.
2. Yarim kechasi hovlida … ovoz eshitildi.
3. Og‘ir mehnat azobini ko‘rgan bu qo‘llar … yorilib ketgan edi.
4. Hovlidagi supada uxlash yaxshi, osmonda … yongan yulduzlarga termilib, xayol surib yotaverasan.
5. Saodatning yangi ko‘ylagi juda chiroyli, unga qadalgan toshlar … yonib hammaning ko‘zini olardi.

4. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni vazifasiga ko‘ra tasniflab yozing.

1. Bo‘ron bo‘lishi **ehtimol**, qizim.
2. **Ehtimol**, bu mas’uliyatli vazifani siz uddalay olarsiz.
3. **Chamasi**, bugungi sayohatimiz keyingi haftaga qoldiriladi, havoning avzoyi buzuq.
4. Salimaning **chamasi** to‘g‘ri chiqdi.
5. **Aftidan**, Azimjonning bu ishga hech qanday aloqasi yo‘q.
6. Uning “ko‘cha bolasi” ekanini **aftidan** bilib olish qiyin emas edi.

Modal so‘z ishtirok etgan gaplar	Modal so‘z ishtirok etmagan gaplar
***	***

TAKRORLASH

Quyidagi QR kod orqali takrorlash uchun berilgan topshiriqlarni bajarib, bilimingizni tekshirib ko‘ring. 12

O‘zbek tilining izohli lug‘ati 13

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna, Hamroyev G‘ofir Hasanovich,
Abduraimov Shohrux Samad o‘g‘li, Qo‘Idosheva Sanobar Hayotovna,
Hakimova Nilufar Sobirjonovna

Ona tili
8-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

Muharrir – O. Madvaliyev
Musahhih – X. Ibrohimov
Texnik muharrir – A. Karimov
Badiiy muharrir – D. Jalilov
Rassom – U. Sulaymonov
Dizayner – S. Doniyorov
Sahifalovchi – U. Valijonova

Nashriyot litsensiyasi 9341. 08.10.2020-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2025-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84×108 $^{1}/_{16}$ «Arial» garniturasi. kegli 12 Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 23,52. Nashriyot-hisob tabog‘i 13,9
Adadi 617 945. Buyurtma № 5

“Nogironlarga ijtimoiy yordam” MCHJ
Toshkent sh, Chilonzor tumani, 5-mavze, 44-uy, 23 x.

DARSLIK HOLATINI KO‘RSATUVCHI JADVAL

T/R	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Darslikni o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varag‘i bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.